

# PEDAGOGIK MAHORAT

**5(3)**  
**2024**



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**5-son (2024-yil, may)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2024**

## PEDAGOGIK MAHORAT

### Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2024, № 5

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy  
Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### TAHRIR HAY’ATI:

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Mas’ul kotib:** Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

*To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor*

*Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor*

*Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Nurulloev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

## ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 5, 2024

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

**Учредитель:** Бухарский государственный университет

**Адрес редакции:** 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

### РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

**Ответственный редактор:** Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

*Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук*

*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*

*Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор*

*Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*

*Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*

*Андрюченко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия )*

*Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия )*

*Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)*

*Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор*

*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*

*Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор*

*Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор*

*Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор*

*Дурдиев Дурдимурод Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*

*Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор*

*Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор*

*Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор*

*Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор*

*Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор*

*Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор*

*Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор*

*Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент*

*Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)*

*Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент*

*Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент*

*Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент*

## PEDAGOGICAL SKILLS

### The scientific-theoretical and methodical journal

№ 5, 2024

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

**Founder: Bukhara State University**

**Publish house:** 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### EDITORIAL BOARD:

**Chief Editor:** Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

**Editor:** Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

*Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov*

*Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)*

*Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova*

*Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov*

*Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev*

*Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova*

*Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov*

*Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova*

*PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev*

*PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev*

*PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade*

*PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva*

*PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova*

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
<b>SAN’AT</b>			
1.	<i>QARAXONOVA Sarvinoz Alisherovna, ABDURAUPOV Muhammad Rajabboy o‘g‘li</i>	Migren kasalligini davolashda musiqiy terapiyaning ahamiyati	7
2.	<i>FAYZULLAYEV Ermat Majidovich, BEKMIRZAYEVA Shahlo Abdurasul qizi</i>	Milliy musiqa san’atining yoshlar ma’naviy madaniyatini shakllantirishda tutgan o‘rni	11
3.	<i>FAYZULLAYEV Ermat Majidovich, DALIYEVA Matluba Haydarovna</i>	O‘zbek xalq qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy shakllantirishning amaliy imkoniyatlari	16
4.	<i>FAYZULLAYEV Ermat Majidovich, MAJIDOV Dilshod Sherat o‘g‘li</i>	Musiqa ta’limi va tarbiyasida o‘zbek milliy kuy qo‘shiqlarimiz imkoniyatlaridan foydalanish	21
5.	<i>RAHMATOVA Maftuna To‘yevna</i>	Tumanlarda yosh tomoshabinlar teatri tashkil etilishining ahamiyati	26
6.	<i>FAYZULLAYEV Ermat Majidovich, SADIROV Bobirjon Minavar o‘g‘li</i>	Zaif ko‘ruvchi va ko‘zi ojiz o‘quvchi yoshlarning musiqiy savodini shakllantirish texnologiyalari	31
7.	<i>O‘RINOV Shamshod Komilovich, NEGMATOVA Sevinch Jahongir qizi</i>	Nomoddiy madaniy meros muhofazasida o‘zbekiston siyosati: islohot va istiqbol	35
<b>TA’LIM MENEJMENTI</b>			
8.	<i>ГАНИЕВА Гулрух Валижон кизи</i>	Современный инструментарий контроля и оценки достижений стандартов образования	40
9.	<i>ИСЛАМОВА Зулфия Рустевановна</i>	Этапы развития инновационной образовательной деятельности	45
10.	<i>ЭРГАШЕВА Одина Хасан кизи</i>	Особенности методической подготовки будущих учителей начальных классов к использованию программы оценки PIRLS	49
<b>ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR</b>			
11.	<i>ALIQULOV Shukurullo Fayzullo o‘g‘li</i>	Multimedia texnologiyalari vositasida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetentligini shakllantirish metodikasi	53
12.	<i>BEKNAZAROVA Dilafruz Amirovna</i>	Kompyuter vositasida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari	57
13.	<i>HAMDAMOVA Nozima Muqimovna</i>	Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishda web-platformalardan foydalanish	63
14.	<i>RAXMATOV A‘zam Ashur o‘g‘li</i>	Loyihalash texnologiyasini konstruksiyalash orqali o‘quvchilar bilimini rivojlantirish	68
15.	<i>SAYFULLAYEVA Dilafro‘z Axmadvona</i>	Oliy ta’lim muassasalarida majburiy fanlarni o‘qitishda mustaqil harakatga va faoliyatga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish	74

16.	<b>САЛИМОВА Сарвиноз Фарходовна</b>	Ўқув мақсадлари таксономияси асосида тузилган ностандарт тестлар квалометрик баҳолаш методи сифатида	80
17.	<b>УРИНОВА Нодира Шавкатовна</b>	Бошланғич таълимда инглиз тилини ўқитиш жараёнида STEAM технологиясидан фойдаланишнинг тенденциялари ва халқаро тажрибалари	88
18.	<b>QUTLIYEV Nabi Bafoyevich</b>	O‘quv jarayonini samarali tashkil etishda SMART texnologiyalaridan foydalanish usullari	92
19.	<b>PROTASOV Yorkinjon Yokubjon o‘g‘li</b>	Methodology of drawing different shapes in the scratch programming system	97
<b>RAQAMLASHTIRILGAN TA'LIM</b>			
20.	<b>MUXIDOVA Olima Nurilloevna</b>	Raqamli texnologiyalarning transversal kompetensiyalarni rivojlantirishdagi funksional integratsiyasi	102
21.	<b>RASHIDOV Anvarjon Sharipovich, MEHMONOVA Sevara Asror qizi</b>	O‘quvchilarni o‘qitishda test yaratuvchi dasturlardan foydalanish	109
<b>MA'NAVIYAT VA TARBIYA</b>			
22.	<b>ABDUMANNATOVA Aziza Abdumajid qizi</b>	Talabalarda tolerantlikni rivojlantirishda baxshichilik san'ati imkoniyatlaridan foydalanish	114
23.	<b>ATADJANOV Mamirjon Yusupovich</b>	Milliy psixologik qiyofa qurilmasida mentalitet	118
24.	<b>QODIROVA Aziza Bekmurodovna</b>	Hadislarda tarbiya masalasining psixologik tahlili	122
25.	<b>SADULLAYEVA Zarnigor To‘lqinjonovna</b>	Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarining o‘z-o‘zini tarbiyalash mazmuni	126
26.	<b>SAFOYEV Husen Aminovich</b>	Talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish metodikasi	130
27.	<b>XAJIYEVA Iroda Adambayevna</b>	Manbalardagi biografik ma'lumotlarning talabalarda merosga qiziqish va muhabbat uyg‘otishdagi adabiy qimmatini (“Haft shuaro” majmuasidagi shoirlar misolida)	135
28.	<b>ТЕМИРОВА Дилором Каюмовна</b>	Морально-духовное воспитание молодежи на современном этапе	142
29.	<b>ABDURAXMANOV Sherzod Nazarbayevich</b>	Chaqiriqqacha yoshlar bilan ishlashda fanlarni o‘rganish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish	146
30.	<b>RAXIMOVA Gularo Ibragimovna</b>	Shihobiddin Suhravardiyning shogirdlik odobiga doir axloqiy qarashlarini o‘rganish usullari	150
<b>PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI</b>			
31.	<b>ISMATOV Shuhrat Ubaydovich</b>	Sharq allomalari merosini o‘rganish – yoshlarda ma'naviy salohiyatni tarbiyalash omili sifatida	154
32.	<b>НУСПАТОВ Анвар Нематжонович</b>	XVI-XVII asrlarda Бухоро хонлигида таълим – тарбия ва маданият ривожининг педагогик омиллари	160

## SAN'AT

### MIGREN KASALLIGINI DAVOLASHDA MUSIQIY TERAPIYANING AHAMIYATI

*Qaraxonova Sarvinoz Alisherovna,*  
*Toshkent tibbiyot akademiyasi, tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori*  
*Abduraupov Muhammad Rajabboy o'g'li,*  
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat Instituti 2- bosqich magistranti*  
*abduraupovmuhammad9@gmail.com*

*Inson salomatligi eng katta ne'mat hisoblanadi. Bugun dunyo aholisi tabiiylikdan ancha yiroqlashgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Inson tabiiy davolanish usulidan yiroqlashgan sari kimyoviy analgetik preparatlarga bo'lgan qaramlik shakllanib boradi. Uzoq vaqt dori vositalarini iste'mol qilish dorilarning ta'sir kuchini pasaytiradi va natijada inson organizmi tobora dorilarning ta'sir ko'rsatish miqdorini yanada oshirib borilishini talab etadi.*

*Ushbu maqolada tobora xalq orasida kengayib borayotgan migren kasalligini musiqiy sadolar asosida davolash haqida fikr mulohaza yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** migren, vegetativ nerv sistemasi, gemikraniy, mikraniya, musiqiy terapiya, art terapiya.

### ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКОТЕРАПИИ В ЛЕЧЕНИИ МИГРЕНИ

*Здоровье человека – величайшее благо. Не будет преувеличением сказать, что сегодня численность населения планеты далека от естественной. По мере отхода человека от естественных методов лечения формируется пристрастие к химическим обезболивающим препаратам. Длительный приём лекарств снижает эффективность лекарств, в результате чего организм человека требует увеличения количества лекарств.*

*В данной статье рассматривается лечение мигрени, получающей всё большее распространение среди людей, на основе музыкальных звуков.*

**Ключевые слова:** мигрень, вегетативная нервная система, гемикраний, микрокраний, теория музыки.

### THE IMPORTANCE OF MUSIC THERAPY IN THE TREATMENT OF MIGRAINE DISEASE

*Human health is the greatest blessing. It is not an exaggeration to say that today the world's population is far from natural. As a person moves away from natural treatment methods, addiction to chemical analgesic drugs is formed. Long-term use of drugs reduces the effectiveness of drugs, and as a result, the human body requires an increase in the amount of drugs.*

*This article discusses the treatment of migraine, which is becoming more and more widespread among people, based on musical sounds.*

**Keywords:** migraine, autonomic nervous system, hemicranium, micranium, music therapy.

**Kirish.** Barchamizga tanish bo'lgan holat charchaganimizda asabiylashganimizda yohud shomollaganimizda boshimizda og'riq seziladi. Biz doimiy usul sifatida kimyoviy dori vositalaridan foydalangan holda og'riqni qoldiramiz. Garchi bu dorilar vaqtinchalik ta'sir ko'rsatuvchi vosita ekanligini, haddan oshiq og'riq qoldiruvchi dorilarni ichish salbiy ta'sir etishini bilsak-da, iste'mol qilaveramiz. Natijada inson noto'g'ri dori qabul qilishi oqibatida turli nuqsonli kasalliklar orttirib oladi. Dunyoda shunday aholi qatlami borki, ularning boshi og'riganda, og'riq qoldiruvchi dori vositalari ham ojizlik qiladi. Bu kasallikning nomi "Migren" deyiladi. "Bugungi kunda yer yuzining 20 % aholisi ushbu kasallikdan aziyat chekadi. Migren kasalligi bilan og'riq bemorlarda mavsumiy tinimsiz bosh og'riqlari kuzatiladi. Ba'zi insonlarda doimiy bosh og'riqlari kabi tuyulsa, ba'zi insonlarda bir oyda, haftada yoki yilda bir bosh og'riqlari kuzatiladi. Ayrim insonlar migren kasali borligini ham bilmaydi. Oddiy shomollash yoki holsizlik deb o'tkazib yuborishadi" [1].

Biz o'rganayotgan migren kasalligi bugun paydo bo'lgan kasallik emas. "Migren insoniyatga qadimdan tanish bo'lgan kasallik. Migren haqida ilk ma'lumotlar 3000 yil ilgari qadimgi Misr



yodgorliklaridan topilgan. Dastlab bu kasallik *gemikraniy* deb atalgan. Ushbu atama rimlik shifokor Galen tomonidan (miloddan avvalgi 129-201- yillar) tavsiya etilgan. Galen boshning yarmida kuchli og‘riqlar bilan namoyon bo‘luvchi bosh og‘riqlarni *gemikraniya* deb atagan. Bu atama asrlar mobaynida o‘zgarib, *mikraniya*, keyinchalik *migren* deb atala boshlandi”[5].

**Asosiy qism.** Migren insonlarda kuzatilganda bemorlar, asosan, “Sumamigren” deb nomlangan dori vositasidan foydalanadilar va shu doriga qaram bo‘lib qoladilar. Ana shu qaramlikdan va mavsumiy bosh og‘riqlardan qutulish yo‘llaridan biri *musiqa terapiya* hisoblanadi. Inson organizmidagi nerv sistemalar inson miyasidan keladigan buyruqlarni bajaradi va miya buyurgan ishni qiladi. Ammo inson organizmidagi vegetativ nerv sistemasi ham mavjud bo‘lib, bu nerv sistemasi aqlan beriladigan buyruqlarga bo‘ysunmaydi. Mustaqil ravishda atrof- muhitdan ta’sirlanadi. Biz ham ana shu nerv sistemasidan foydalangan holda insonga musiqiy terapiya orqali ta’sir o‘tkaza olishimiz mumkin. Migren kasalligi bilan kurashish jarayonida biz TTA tibbiyot fanlari falsafa doktori S.A. Qaraxonova bilan o‘tkazgan amaliy tajribamizdan ma’lum bo‘ldiki, inson ongiga *musiqiy terapiya* orqali o‘tkazilgan ta’sir juda samarali hisoblanadi. Bemorning dunyo qarashidan kelib chiqib ikki oy mobaynida jonli tarzda tinglatilgan musiqiy ohanglar natijasida uning ruhan taskin topa olishi, hayotdan zavqlanish tuyg‘usi yuzaga kelganligi va asab tolalari tinchlanishining yaqqol guvohi bo‘ldik. Shuni ham ta’kidlash kerakki, migren bilan og‘riq bemorlarga shifokor asabiylashmaslikni, yoqtirmagan ishlaridan o‘zini uzoq tutishni hamda shovqin-suronli joylardan uzoq yurishni ta’kidlaydi.

Agar inson tabiatga quloq solsa va yon atrofiga qarasa tabiatning o‘zi ham tabib ekanligini his qiladi. Misol tariqasida oddiy bosh og‘rig‘ini olsak, bunda kuchli aqliy mehnat, asabiylashish va irsiy kasallik hisoblangan migren insonning boshi og‘rishiga sabab bo‘ladi.

Yevropa tajribasida migren kasalligini davolashda analgetik dorilardan ko‘ra musiqa terapiyasining ta’sir jarayoni sezilarli darajada ekanligi qator ilmiy tadqiqotlarda o‘z isbotini topdi. Foydali musiqa inson ongiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qilishi natijasida uning asab tolalari yaxshilanadi, yurak urushi meyorlashadi va turli stresslardan forig‘ qiladi. Birgina migrin kasalligidan millonlab odamlar aziyat chekadi va yildan yilga iste’mol qiluvchi dori-darmonlarning doza miqdori ko‘payishda davom etmoqda. Biz musiqa orqali migrin kasalligi bilan og‘riq bemorga ijobiy tasir o‘tkazishimiz natijasida uning organizmi kimyoviy dorilardan ancha kam zarar ko‘radi va migren bilan davolanish uchun yillik sarf xarajati to‘rt barobarga qisqaradi.

O‘tmishga nazar solar ekanmiz, musiqa terapiyasining inson salomatligiga ta’sir kuchi yuqori ekanligi borasida Abu Ali ibn Sinoning “Kitob ash-shifo” asarida qimmatli ma’lumotlar keltirilganligining guvohi bo‘lamiz. Shu bilan birga, Ibn Sinoning zamondoshi buyuk faylasuf, olim, musiqa cholg‘ularining mohirona ijrochisi bo‘lmish al-Farobiyning “Kitob ul musiqa al-kabir” (Musiqa haqida katta kitob) asarini ham qayd etishimiz o‘rinlidir. Manbalarda qayd etilishicha, Farobiy birgina kuy orqali insonlarni ham yig‘lata ham kuldira olgan va uyquga solib qo‘ygan ekan. Yevropada olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, yurak xastaligi bo‘lmish infarkt kasalligini davolash davomida gitara cholg‘usi samarali natija beradi. Demak, birgina cholg‘uda taralgan ohang orqali inson salomatligi yomonlashishi yoki yaxshi tomonga o‘zgarishi ham mumkin.

Migren yer yuzida keng tarqalgan kasallik bo‘lib, asosan, bu kasallikdan ayollar ko‘p aziyat chekishadi. Migren kasalligi erkaklarda 20 %, ayollarda esa 40 % tashkil etadi. Bu irsiy kasallik bo‘lgani uchun nasldan-naslga o‘tuvchi hisoblanadi. Migren bilan og‘riq bemorlarning 20 % gina vrachlarga murojat qiladi. Xattoki, ko‘plab bemorlar o‘zida migren kasali borligini bilmaydilar [3]. Ular doimiy ravishda og‘riq qoldiruvchi analgetiklarni ichib yurishadi. Vaqt o‘tgan sayin og‘riq qoldiruvchi analgetik dori vositalarining miqdorini oshirib borishadi. Natijada migrin kasalligi uchun mavsumiy oladigan muolajalari bemorga ta’sir qilmay qo‘yadi va bemor mustaqil harakat qila boshlaydi. Bu holatda faqatgina bizga kuchli psixologik maslahat va *musiqa terapiya, art terapiya* yordamga keladi. Psixologik maslahatlar va musiqa terapiyasi yordamida bemorning ong ostiga kirib boriladi. Bemorda kuchli shijoat va ishonch tuyg‘usi uyg‘otiladi va tinchlantirilib hayotga mehri uyg‘ongan bemorlarga shifokor tavsiyasidagi dorilar beriladi. Uch tomonlama og‘riq qoldirishga qilingan harakatlar o‘zining to‘liq natijasini beradi.

Demak, musiqa orqali insonga ta’sir o‘tkazish imkoni bõlsa birinchi ishni nimadan boshlashimiz kerak.

Musiqa terapiya o‘tkazish uchun, avvalo, yaxshi sharoitdagi xona bemorni ko‘rigdan o‘tkazish uchun EEG aparat Migren kasalligi bo‘yicha mutaxassis vrach Nevrolog va psixolog vrach Musiqa terapiya o‘tkazish uchun o‘z xoxishi bilan tajriba otkazih uchun rozi bo‘lgan bemor tanlab olinadi.

Dastlabki ishni bemor bilan suhbatdan boshlab olamiz Bemorning dunyo qarashi xohish istaklarini o‘rganamiz. Nima yoqadi nima yoqmaydi. Qaysi ranglarni ko‘rganda kayfiyat yaxshilanadi qaysi ranglarni ko‘rganda boshida og‘riq seziladi qanday obihavoda o‘zini erkin his qiladi. Yoqtirgan ishlari va shug‘ullanadigan hobbisi nima ekanligini bilishimiz shart. Bazi bemorlar musiqani juda yomon ko‘radi. Oddiy tabiat shovqinuroni ham boshida og‘riq his qildiradi. Yoki xonadagi ovoz temбири yuqori va ingichka bo‘lgan suhbatdoshining suhbatidan boshi og‘rib asabiylasha boshlaydi. Bunday bemorlar bilan past ovozda

suhbat o'tkazib musiqani yomon emasligi uning turlari juda ko'pligini va imkonsiz ishning o'zi yo'qligini tushuntirib o'tish lozim.

Demak, bemor bilan suhbat jarayonida uning dunyo qarashi va xohish istagini o'rganib bo'lgach unga musiqa haqida tushuncha berishni boshlamiz. Musiqa haqida beradigan ma'lumotlarimiz aniq faktlarga asoslangan bo'lishi shart, chunki bemor doim isbot talab qiladi. Kasallik charchatib qo'ygan bemor har doim umid bilan shifokorga murojaat qiladi. Bemorga musiqani davolovchi xususiyati mavjud ekanligini tushuntirib o'tgach amaliy ishga o'tamiz. Bemorimiz uchun maxsus tibbiyot xonamizda birinchi navbatda bemorimizning boshiga EEG aparatini kiydirib olamiz. Vrach nazorati ostida bemorimizning miya faoliyatini ko'zdan kechiramiz. Avvalo, EEG aparti yordamida bemorimizning ko'zi yumulgan holatini. Ko'zi ochilgan holatini. Chuqur chuqur nafas olgan xolatini tekshirib ilk xulosani yozib olamiz. Bemorimizni xolatini aniqlab bo'lgan tajriba rejasiga muvofiq unga O'zbek milliy cholg'ularidan kuylar eshittira boshlaymiz. O'zbek milliy cholg'ulariga nazar solsak bizda 20 dan ortiq milliy cholgular mavjud ularning asosiy qismi Buyuk ipak yo'li orqali bizning yurtimizga kirib kelgan va vaqit o'tgani sayin milliy cholgular tarkibiga kirgan. Biz imkonimizga qarab 5 tacha ozbek milliy cholgularini tanlab olganimiz maqsadga muvofiq. Bular Dutor Tanbur Dombira Nay Qonut ushbu cholgular. Ushbu cholgular tovush diapazonlari katta va notalaridagi oraliq Sentlari zamonaviy talablarga to'liq javob beradi. Ushbu tanlab olingan cholg'ularni bemorga chalib eshittirib ko'riladi. Bemor turli sozlardagi turlicha kuylarni eshitib ozi uchun xulosa hosil qiladi. Bemorga kuylarni eshittirish jarayonida uning boshiga kiydirilgan EEG aparati bemorga qaysi kuy qanday tasir qilayotganini ekranda korsatib turadi. Shu orqali bemorga muayyan bir musiqiy laddagi kuylar tizimini va bemor uchun cholg'uni tanlab olamiz.

Tanlab olingan cholg'u asosida bemorga kunlik kuylar berib boriladi. Ikki oylik muolajadan keim qayta tekshiruv otkaziladi [4].

Migren shunday kasallik u tabiatdagi har qanday o'zgarishdan tasirlanadi. Migren xuruj qilganda tasodifiy tabiat xodisalari ham bemorda o'zgarish hosil qiladi. Birgina bulutli havo quyoshli havoga o'zgariganida ham yoki bemorning yon atrofidagi suhbatdoshlarning ijobiy aurasini ham migren xuruj qilganda ijobiy yordam bera oladi. Migren bilan kasallangan bemorda nevrologik status sog'lom odamnikidan farq qilmaydi nevrologik simptomlar faqat xuruj paytida aniqlanishi mumkin. Migren kasalligi turli korinishlarda bo'lib bular *oddiy* migren, *aurali* migren, *bazilyar* migren balog'at yoshidagi bolalarda uchraydi. Retinal migren kabi ko'rinishlari mavjud.

Oddiy migrenning diagnostik belgilari quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

- auralar bo'lmaydi.
- xurujsimon bosh og'riqlarning 4-72 soat davom etishi.
- bir tomonlama bosh og'riqlari gohida ikki tomonlama boshda og'riq kuzatiladi.
- lo'qillovchi bosh og'riqlar kuzatiladi.
- og'riqlar kuchli yoki o'rta darajada namoyon bo'ladi.
- jismoniy zoriqishlardan so'ng og'riqlar kuchayadi.
- ko'ngil aynishi qusishli holatlari kuzatiladi.

Uzoq yillik kuzatishlardan ma'lum bo'lgan xulosa shuki oddiy migrenda boshning bir tarafi og'riydi.

Aurali migrenda og'riq xurujdan oldin auralar kuzatilishi 10 daqiqadan 60 daqiqagacha tinimsiz og'riq sezish holati kuzatiladi.

Bazilyar migren ya'ni jinsiy balog'atga yetish davrida va asosan qizlarda uchraydigan migren hisoblanadi. Migrenning bu turi kam uchraydi. Kuchli bosh og'riq xurujlari boshlashidan oldin kuchli fotopsiya ya'ni bosh aylanish, quloqda shovqin, gipoakuziya, tilda va ba'zida oyoq-qo'llarda titrash holati kuzatiladi.

Quyidagi omillar migren kasalligi xurujini kamaytiradi:

- o'z vaqtida va yetarli miqdorda uxlash.
- otinch va sokin joylarda ishlash va dam olish.
- oqorong'u va hidsiz joylarda bo'lish.
- oyashash joyini o'zgartirib turish ba'zan foyda beradi.
- og'riq paytida boshga sovuq yoki iliq narsa qo'yish va dam olishni to'g'ri tashkil qilish.

Og'riq qoldiruvchi dorilarni zudlik bilan qabul qilish samara beradi, ammo doriga qaramlikni yanada oshiradi.

Qayd etish lozimki, o'tmishda turli giyohlar va musiqiy ohanglar orqali davolash yo'lga qo'yilgan edi. Jumladan, Ibn Sinoning musiqiy terapiyadan foydalanib og'ir hastaliklarga davo topa olganligi bot-bot aytiladi.

**Xulosa** qilib aytadigan bo'lsak, musiqa terapiyasidan insonning avtanom nerv sistemasi hisoblangan, vegetativ nerv sistemasi orqali inson ongiga ijobiy ta'sir o'tkazish yo'li bilan stress va tushkunlikdan qadam-

baqadam olib chiqqan holda, doimiy va mavsumiy bosh og‘rig‘i hisoblangan migren kasaligini davolashda foydalandik. Bilamizki, imkonsiz ishning o‘zi yo‘q. Musiqa terapiya orqali inson salomatligini qayta tiklash imkoni, albatta, mavjud. Faqatgina harakat va mehnat hamda oxirida bemordan yakuniy a’lo natija olishimiz mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. Саноева М.Ж., Саидвалиев Ф.С., Гулова М.А., Современный взгляд к проблеме мигрени. // Вестник совета молодых учёных и специалистов Челябинской области №3 (14) Т. 3 2016.
2. Анисимов Б.Н., Кузнецов А.Н. Лечебный эффект метода музыка-резонансной терапии // Музыкальная психология и психотерапия, №5, 2011, 118-132.
3. Гринева И.М. Изучение особенностей музыкального восприятия у больных с начальными проявлениями неполноценности кровоснабжения мозга: Дис.канд.мед.наук.-Л.,1981.
4. Захарова Н.Н., Авдеев В.М. Функциональные изменения центральной нервной системы при восприятии музыки // Журн. высш. нерв. Деят., Т32. вып.5, 1982, 915-929.
5. Карвасарский Б.Д., Психотерапевтическая энциклопедия. - СПб: Питер, 3-е изд., 2000, 304-306.
6. Ключева.С. (2010) Музыкаотерапия: эстетико-психологический и клинический аспекты. СПбГИПСР, Санкт-Петербург, 35с.



## MILLIY MUSIQA SAN'ATINING YOSHLAR MA'NAVIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI

*Fayzullayev Ermat Majidovich,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi, p.f.n.  
Bekmirzayeva Shahlo Abdurasul qizi,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-kurs magistranti*

*O'qituvchi o'quvchilarda musiqa san'ati ta'sirida go'zallikka intilish, odob, rostgo'ylik, yaxshilik, do'stlik kabi axloqiy-estetik tushunchalarni tarkib toptira borish, o'zini tuta bilish, kamtarlik, shirinsuxanlik, toza va chiroyli kiyinish kabi estetik madaniyatning qator sifatleri shakllana borishida, ma'naviy-madaniy tadbirlar vositasida milliy musiqa san'atining yoshlar madaniyatini shakllantirishda tutgan o'rni haqidagi fikr-mulohazalar bildiriladi.*

**Kalit so'zlar:** musiqa, madaniyat, san'at, ma'naviy-tarbiya, axloqiy-estetik, musiqa madaniyati.

## РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОГО МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ

*Под влиянием музыкального искусства у учащихся формируются нравственно-эстетические понятия, такие как стремление к красоте, порядочности, честности, доброте, дружбе, а также такие эстетические качества, как самообладание, скромность, приятная речь, чистота и элегантность в одежде, в статье высказываются мнения о роли национального музыкального искусства в формировании молодёжной культуры как средства духовно-культурных мероприятий.*

**Ключевые слова:** музыка, культура, искусство, духовно-воспитательная, нравственно-эстетическая, музыкальная культура.

## THE ROLE OF NATIONAL MUSICAL ART IN SHAPING THE SPIRITUAL CULTURE OF YOUTH

*Under the influence of musical art, students form moral and aesthetic concepts such as striving for beauty, decency, honesty, kindness, friendship, as well as such aesthetic qualities as self-control, modesty, pleasant speech, cleanliness and elegance in dress. The article expresses opinions on the role of national musical art in the formation of youth culture as a means of spiritual and cultural activities.*

**Keywords:** music, culture, art, spiritual and educational, moral and aesthetic, musical culture.

**Kirish.** Dono xalqimiz qadim-qadimdan musiqqa va qo'shiqni o'z ijtimoiy va madaniy hayotlarining muhim bo'lagi deb bilganlar. Farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish oila orzusi sanalgan, xonadonda yaxshi niyat bilan biron-bir cholg'u sozi saqlanishi odat qilingan. Dunyoga kelgan farzand birinchi bor yo'rgaklanishidayoq kuylanadigan ma'yus ona allasi, ism qo'yilishida go'dak qulog'iga qiroatli azon aytilishi, surnayning mungli sadolari ostida bolaning xatna qilinishi aslo bejiz bo'lmagan. Kuy va ohangni(ning) go'dak qalbiga tez yo'l topa olishi, qalbi va hissiyot olamiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ezgulik tomon yetaklay olishi buyuk donishmand avlodlarimiz tomonidan chuqur anglab yetilgan.

Yoshlik - inson umrining bahori. Barcha go'zal fazilatlar ham, xunuk odatlar ham yoshlikdan shakllana boshlaydi. Inson yoshligidan nafas olamiga jalb etilmasa, eng ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalanmasa, keyinchalik turmush chorahalarida dovdorab qoladi. Shuning uchun ham ma'naviy tarbiyaning muhim qismi -musiqa saboqlari berishni yoshlikdan boshlash lozim.

Sharqning ibn Sino, Farobiy, Beruniy, Kavkabi, hazrat Navoiy, Umar Hayyom, Jomiy kabi jahonga nom taratgan buyuk allomalari ham musiqa ilmiga katta e'tibor berganliklarini ko'ramiz, musiqa san'ati inson tarbiyasida muhim o'rin tutishligini, kishi madaniyati va umuman ma'naviyatida ustuvor o'rinda turishligini baralla ta'kidlaganliklarini bilamiz.

San'at - ijtimoiy ongning bir turi, kengroq mushohada etsak, asl san'at ideal mafkura demakdir. Hatto yuksak taraqqiy etgan fan va texnika vositalari ham yechimini topa olmayotgan muammolarni san'at vositasida ijobiy hal etish, insoniyat taqdirida muhim o'zgarishlarga erishish mumkinligi mubolag'a emas. Ayniqsa, musiqa ko'hna san'atlar sirasida insonga tabiatan xos, ta'sir quvvati beqiyos san'at sifatida alohida mavqega ega. Musiqaning yuksak badiiy-estetik qimmat, kuchli ruhiy-ma'naviy ta'siri, tarbiyaviy ahamiyati xususida o'rta asrlarga mansub ilmiy va badiiy adabiyotlarda talaygina e'tiborga loyiq fikrlar mavjud. Ajdodlarimiz musiqani ilohiy go'zallik, latif san'at sifatida asrlar osha e'zozlab kelganlar. Qolaversa, biz ham kundalik hayotimizni musiqasiz tasavvur eta olmaymiz.

Gʻurur - umuman, maʼnaviyatda ustuvor oʻrinda turishligini baralla taʼkidlaganliklarini bilamiz. Aristotel taʼbiri bilan aytganda, «Musiqqa qalbning axloqiy-estetik jihatlariga taʼsir koʻrsata olish

layoqatiga qodir. Modomiki, musiqa shunday xususiyatlarga ega ekan, demak u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga kiritilmogʻi lozim».

«Avicenna» nomi bilan butun dunyoda mashhur boʻlgan Abu Ali ibn Sino faqatgina shifokor emas, taniqli musiqashunos ham edi. Hatto gʻijjakning yaratilishi bilan bogʻliq rivoyat ham ibn Sinoga bagʻishlangan: goʻyoki bu cholgʻu asbobini ixtiro qilgan va unda kuy chalgan odam ulugʻ hakim emish. «Kitob ash-Shifo» asarida yozilishicha, musiqa kishi ruhini davolovchi, inson qalbiga kuchli taʼsir etuvchi estetik vositalardan biridir.

**Asosiy qism.** Alisher Navoiy nozik taʼb, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sevib tinglar, dil-dildan zavqlanardi. Shoir talantli sanʼatkorlarga hamisha gʻamxoʻrlik qildi, yoshlarning kamoloti uchun tinmay qaygʻurdi. Insonning kamolotga yetishuvida asosiy rol oʻynovchi vositalardan biri - musiqa sanʼatidan bahramand boʻlish deb bildi. Musiqani sevmagan shoir qalbi huvillagan charbogʻ, xazon boʻlgan bahordir. «Musiqani idrok etmagan shoir, nim shoirdir», - deydi Navoiy.

Arastu yozgan ediki: «Musiqqa koʻngilga axloq taʼsir koʻrsatish qudratiga ega ekan, u albatta, yoshlarni tarbiyalash qoʻllanmalari qatoriga qoʻyilmogʻi lozim». Musiqqa va musiqashunoslik ilmini chuqur tadqiq qilgan buyuk alloma Farobiy ham musiqaning axloq bilan bogʻliqligiga chuqur ishonch hosil qilgan edi: «Bu ilm oʻz muvozanatini yoʻqotgan odamlar xulqini muvozanatga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi, muvozanatda boʻlgan kishilar xulqini esa muvozanatda saqlab turadi. Musiqani inson qalbidan oʻt-olov chiqarishi lozimligini istagan Betxoven esa uni ..... gapning oxiri yoʻq », - deb baholagan.

Abdurahmon Jomiy oʻzining «Musiqqa haqida risola»sida maqomlar haqida fikr yuritib: «Bilki, kishiga lazzatbaxsh etishdan iborat umumiy xususiyatlardan tashqari 12 maqomdan har biri, har bir ovoza va shoʻba maxsus taʼsir kuchiga ega. Masalan: Ushshoq, Navo, Boʻsaliq tinglovchida qudrat va jasurlik uygʻotadi, vaholangki, ovoz bunday taʼsir kuchga ega emas», - deya hayratlangan.

Soʻz mulkingning sultoni, yuksak madaniyat sohibi Alisher Navoiyning oʻlmas asarlari, u haqida yozilgan ilmiy-tadqiqotlar uni oʻz zamonasining yuksak aql-zakovatli, qomusiy olimligi bilan bir qatorda, sanʼatni chuqur tushunuvchi, musiqiy ohanglar sehridan qattiq taʼsirlanuvchi nozik qalb sohibi ekanligidan ham dalolat beradi. A.Navoiy oʻz davrining musiqashunosi, bastakori ham boʻlgan boʻlsa ajab emas, zero u oʻz zamonasidagi musiqa sanʼati taraqqiyoti darajasidan toʻla xabardor boʻlgan, sanʼatkorlarga rahnamolik qilgan, hatto musiqaga bagʻishlab maxsus «Risolai musiqa» asarini yozganligi maʼlum. Yozgan sheʼr va gʻazallarini nihoyatda musiqiy yangrashiga intilgan. Shu bois Ogahiyning taʼbiri bilan aytganda «Navoiyning navosidan ortiqcha bahra yoʻq». Navoiyning fikricha, har bir shoir bir oz boʻlsa-da, kuy bastalay bilishi lozim, soz chala bilgan shoir esa ravon musiqiy sheʼrlar yozishi mumkin, biron-bir cholgʻuda sado tarata olmaslik esa shoirlikning nuqsonidir. Binobarin, sheʼr va musiqa doimo hamohang va oʻzaro mushtarak boʻlmogʻi lozim.

Musiqqa bilan shugʻullangan kishi «Nooʻrin harakatlar bilan oʻziga dogʻ tushirmaydi, balki undan olam-jahon bahra va foyda olib oʻziga ham, Vatanga ham foydali ishlar»ni bajaradi.

Farobiy ensiklopedist olim boʻlish bilan birga buyuk musiqashunos ham edi. Uning musiqa ilmi sohasidagi faoliyati faqat nazariy qarashlari bilan chegaralanib qolmasdan, amaliy faoliyatida ham oʻz ifodasini topgan. Farobiyning oʻz davri uchun yangilik boʻlgan musiqa asbobi yaratgani, mohir sozanda va bastakor sifatida tanilgani haqida rivoyatlari koʻp.

Farobiy musiqa ilmini keltirib chiqargan sabablarni bilish xususida yozar ekan, umuman, musiqaning axloqiy-tarbiyaviy jihatlariga diqqatni jalb etadi. «Bu ilm shu maʼnoda foydaliki, deb yozadi Farobiy «Ixsu ul ulum» asarida, - u oʻz muvozanatini yoʻqotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda boʻlgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki, tana kasal boʻlsa, ruh ham soʻladi, tana toʻsiqqa uchrasa, ruh ham toʻsiqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning taʼsiri bilan ruhni sogʻaytirish yordamida tana pasaytiriladi, ruh esa oʻz kuchlarining tartibiga solinishi va oʻz abstanovkasiga moslashtirilishi orqali sogʻayadi».

Aytishlaricha, al-Farobiyning oʻzi mohir ijrochi-qonun, bastakor boʻlgan. Rivoyatlarga qaraganda, u yangi asbob ixtiro qilgan.

Oʻzining musiqiy pedagogik qarashlari boʻyicha al-Farobiy qadimiy yunon olimlari bilan hamfikir boʻlgan. Ular musiqani taʼlim va tarbiyaning zaruriy predmeti deb hisoblaganlar. Qadimiy yunon olimlarining fikricha, gimnastika odamlarning tanasi va qaddini shakllantirgani kabi, musiqa inson qalbini shakllantirishga qodir boʻlgan vosita hisoblanadi.

Abu Ali ibn Sino qadimgi yunon faylasuflari hamda Farobiyning musiqa to‘g‘risidagi ta‘limotlarini chuqurlashtirgan holda musiqaning inson ma‘naviyati bilan bog‘liq jihatlariga ham katta e‘tibor beradi. Olimning fikricha, «Musika hayotbaxsh, olijanob axloqiy kelinni kuyov xonadoniga kelishi bilan yuzaga kelib, kuyovning ota-onasi, qarindosh-urug‘lari kelin nomidan ma‘lum ohanglarda salom aytib turiladi. Ijrochi ijro jarayonida she‘r mazmuniga o‘zgartirish kiritadi, ya‘ni ushbu xonadonga qarashli insonlarga murojaat etgan holda badiha (tayyorgarliksiz ijro etilgan kuy yoki qo‘shiq) ijro etadi».

Ch.Darvin san‘atning zaruriyati hamda uning kishi ongi va axloqiga ta‘siri to‘g‘risida bunday degan edi: «Agar menga qaytadan umr ko‘rish nasib bo‘lganda edi, men har kuni oz- ozdan she‘riy asarlar o‘qib borishni va ozroq musiqa tinglashni o‘zimga odat qilib olgan bo‘lardim». Agar juda yoshlik chog‘idanoq bola qalbiga musiqa asarining go‘zalligi ta‘sir ettirilsa, agar bola tovushlarda inson his-tuyg‘ularining ko‘p qirrali ma‘nolarini sezsa, u hech qanday boshqa vositalar bilan erishib bo‘lmaydigan madaniyat cho‘qqisiga ko‘tariladi. Musika ohanggi go‘zalligini his etish, bola qarshisida o‘z go‘zalligini yaratadi - kichik inson o‘z obro‘ - e‘tiborini anglaydi.

“Sharq musiqasi, - degan edi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimidagi tadbir so‘zida, - Sharq falsafasi, Sharq dunyosining uzviy bir qismidir. Sharq musiqasining jahon marosimida tutgan o‘rni benihoya buyuk... Bu musiqa ming-ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda. O‘zining nozik jozibasini bilan dunyo madaniyatiga ozuqa berib, umumbashariy qadriyatlarga munosib hissa qo‘shmoqda”.

Musiqa ulkan ta‘birchan kuchga ega bo‘lgan tarbiya vositasidir. Musika inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bera oladigan jon ozig‘idir. U kishilarning zavqlanishi, huzurlanishi, rohatlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi, falsafiy mushohada qilishi uchun yordam beradi.

Ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarning tarbiyaviy ahamiyati milliy istiqloq g‘oyasini targ‘ib qilishda ham ko‘rinadi. Milliy istiqloq g‘oyasining muhim funksiyalaridan biri yoshlarni tarbiyalash ekan, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar ana shu g‘oyani targ‘ib qilish orqali yoshlarga o‘tkazadigan o‘zining tarbiyaviy ta‘sirini yana ham kuchaytiradi.

O‘quvchi-yoshlar ongiga milliy istiqloq g‘oyasini singdirish ta‘lim tizimida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarining markazida turibdi. Bu maqsadga erishish yo‘lida ta‘lim-tarbiyaning turli usul va vositalaridan foydalanilmoqda. Kuzatuvlarimiz ba‘zi ta‘lim muassasalarida milliy istiqloq g‘oyasi bo‘yicha ma‘ruzalar, seminarlar, kollokviumlarga ko‘proq e‘tibor berilib, darslardan so‘ng o‘tkaziladigan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarga yetarli ahamiyat berilmayotganini ko‘rsatdi. Holbuki, bunday tadbirlar yoshlarni tarbiyalashda va ular ongiga milliy istiqloq g‘oyasini singdirishda ulkan ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz ta‘lim tizimida interfaol usullardan foydalanishga katta ahamiyat berilayotgan hozirgi kunda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni qo‘llash yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg‘or o‘qituvchilarning tajribasi ko‘rsatishicha, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlardan dars jarayonida foydalanish o‘quvchi-yoshlar faolligini keskin oshiradi. Bundan tashqari, mashg‘ulot o‘tkazishning rolli o‘yin, xizmat o‘yinlari singari shakllari asl mohiyatiga ko‘ra madaniy tadbirdir. Chunki, ular ta‘lim shakllari bilan san‘at elementlarining qo‘shilib ketishi natijasida vujudga kelgan. Dars jarayonida badiiy asarlardan parchalar keltirish, she‘rlarni ifodali o‘qish, sahna asarlaridan parchalar ijro etish o‘quvchilarning ham aqliy, ham hissiy-emotsional faolligini keskin oshirishga xizmat qiladi .

Demak, musiqa faqat badiiy ijod, san‘at turi bo‘lib qolmasdan, balki ma‘naviy madaniyatning muhim bir qismi sifatida ham o‘rganilishi lozim.

Buyuk bastakor Lyudvig van Betxoven kuy to‘g‘risida gapirib, shunday deydi: “Musika - donishmandlik va falsafadan ham yuksakroq dil izhoridir”. Kuylarimiz, navo-yu, xonishlarimiz bizning tilimizni bilmagan xalqlarga qanchalik ta‘sir qilganini, kuy-g‘azallarimiz o‘zga yurt odamlari qalbiga singib ketishini ko‘rib, hayratda qolganmiz, - mashhur sozanda Abduhoshim Ismoilov.

Umumtalim maktablarida olib borgan kuzatuvlarimiz, ahvolni o‘rganishdan to‘plagan ma‘lumotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi-yoshlarda umuman san‘atga, xususan musiqa darslariga nisbatan istak va qiziqish pasaygan. Ularda milliy musiqa merosimizni o‘rganishga o‘ziga xos loqaydlik mavjudligi, estetik hissiyot, estetik did, estetik ehtiyoj masalalari ko‘ngildagidek emasligi ko‘zga yaqqol tashlanadi, yozilmagan qonunlar asosida amalga oshirib boriladi. O‘zbekiston diyorida o‘zbek farzandlari ona allasidan qon-joniga singgan ota-bobolarining musiqiy sanatinini har tomonlama va chuqur o‘rganish imkoniyatidan chegaralanib qoldilar:

- turli sabablarga ko‘ra respublikamiz maktablari va ayniqsa qishloq maktablari yuqori bilimli, mahoratchi kadrlar bilan yetarli darajada ta‘minlanmadi;

- hanuzgacha umumta‘lim maktablari musiqa darsliklari bo‘yicha darsliklar, qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar, dasturlar bilan ta‘minlab berilmadi;

- ko‘p hollarda fan o‘qituvchilarida kasbiy va pedagogik mahoratlari yetishmasligi sababli, bu ish o‘ziga kasb egalari topshirib qo‘yilishi oqibatida darslar sifatsiz o‘tkaziladi, dars orqali o‘quvchilarda estetik idrok, estetik his-tuyg‘u uyg‘otish, musiqiy-estetik madaniyat shakllantira berish ishi e‘tibordan chetda qoladi va hokazo.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston umumta‘lim maktablarida amalga oshirib borilayotgan musiqiy-estetik tarbiya o‘zining to‘liq mazmuni bilan qayta ko‘rib chiqilganda, ilmiy-nazariy va zamonaviy uslub vositalari bilan ta‘minlanishga yaqqol muhtojlik sezadi.

Maktabda dars orqali o‘quvchi-yoshlarni musiqiy-estetik jihatdan tarbiyalashda o‘zbek xalq musiqasidan keng foydalanish va uning tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berish muhim o‘rin tutadi. Ona tabiat, Ona zamin tushunchalari kabi beshik allasidan boshlangan ona musiqasi ham o‘z tabiati bilan bola qalbiga, uning his va idrokiga naqadar yaqin, milliy musiqa san‘atimizning mazmunan rang-barangligi, allayu-qo‘shiq, kuyu-alla, termayu-lapar, yor, yoru-o‘lan, katta ashulayu-maqom qaysi bir janrni olmag, u o‘zining dilbar ohangi, sho‘x va jozibador usullari, serjilo qochirimlari bilan o‘zbekning tabiatini, o‘zgaga o‘xshamas udum va urf-odatlarini musiqiy ohanglarda aks ettiradi va har bir o‘quvchi uchun uni tushunish, his-hayajon bilan idrok etish va bu jarayondan qalb to‘la zavq olishi tabiiy bir holdir.

Maktabda musiqa darslarini tashkil etish musiqiy ta‘lim va estetik tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligi, ta‘limning ilmiyligi, ongilligi, ko‘rgazmali va tushunarliigi, o‘zlashtirilgan bilimlarning mustahkamligi, tarbiya jarayonida barcha o‘quvchilarni estetik faoliyatga tortish, bu faoliyatni kundalik hayot bilan bog‘lab borish, ongillik va hissiylikni mushtarakligiga erishish kabi muhim prinsiplarga suyangan holda amalga oshirilib boriladi.

Musiqiy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda musiqa san‘atiga nisbatan qiziqish va san‘atning ortib borishi, musiqa mashg‘ulotlari asosida ularda ijodiy faollikni o‘ziga borishi, qo‘shiqlarni xushohang kuylash, musiqani ishtiyoq bilan tinglash, asarlarni tahlil qilish orqali musiqadagi xushsozlik, xushovozlik, yani go‘zallikni payqash, uni baholash malakalari shakllana borishi alohida ahamiyatlidir.

O‘qituvchi o‘quvchilarda musiqa san‘ati ta‘sirida go‘zallikka intilish, odob, rostgo‘ylik, yaxshilik, do‘stlik kabi axloqiy-estetik tushunchalarni tarkib toptira borish, o‘zini tuta bilish, kamtarlik, shirinsuxanlik, toza va chiroyli kiyinish kabi estetik madaniyatnig qator sifatleri shakllana borishida alohida ahamiyatlidir.

O‘zbekistonning mustaqilligiga yoshlar ma‘naviyatini ko‘tarish, ularda yuksak madaniyatlilik sifatlerini shakllantirib borish, milliy qadriyatlarimizni tiklash yo‘lida, milliy san‘atimiz durdonalarini chuqurroq o‘rganish, maktab sharoitida musiqa san‘atining tarbiyaviy imkoniyatlaridan to‘la va samarali foydalanish vazifasini yuklaydi. Shunga chuqur komil-ishonch bilan qarash kerakki, maktab sharoitida musiqiy-estetik tarbiya bolalarning o‘qishga kelgan dastlabki kunlaridanoq, quyi sinflaridan boshlab aql tarozisi bilan o‘lchangan, ilmiy jihatdan puxta asoslangan samarali yo‘lga qo‘yilmog‘i lozim. Zero insonning faqat ilk bolalik yillari aql yig‘ish, bilim to‘plash, tarbiyaga o‘rganish va albatta yuksak madaniyatlilik sifatlerini shakllantirib borishda eng sarmahsul va betakror yillardir. Undan aql va katta samara bilan foydalanish har bir fan o‘qituvchisining muqaddas burchi bo‘lmog‘i lozim.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining “Musiqi madaniyati” darslariga kiritilgan qo‘shiqlar dasturida ham istiqloqni, mustaqilligimizni, o‘zligimizni, bayram va an‘analarimizni, ona Vatanimizga bo‘lgan cheksiz tuyg‘ularni ifodalovchi o‘nlab asarlarni uchratish mumkin va bu asarlar o‘quvchilarda ma‘naviyatni o‘stirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Musiqiy ta‘limning eng asosiy vazifasi, o‘quvchilarni san‘atning ajoyib va g‘aroyib olamiga yetaklash orqali ularni go‘zallik va nafosat tuyg‘ularini o‘stirish, olam haqidagi tushuncha va tasavvurlarini boyitish, badiiy didlarini to‘g‘ri shakllanib borishiga yordamlashish, ularda axloqiy sifatleri shakllantirish va eng asosiysi, san‘at vositasida yosh o‘quvchilarda Vatanga muhabbat hislarini tarbiyalash, ma‘naviyatini o‘stirib, borishdan iboratdir.

Bu vazifalar musiqa o‘qituvchisiga yuklatiladi. Bu jiddiy, pedagogik va psixologik jihatdan birmuncha murakkab bo‘lgan vazifalar qanday yo‘llar bilan bajariladi? Buning yo‘l va vositalari ko‘p. Shulardan biri o‘quvchilarning ma‘naviyatini o‘stirishni ta‘minlash. Bu ham bir qarashda murakkab ko‘rinadi. Lekin, musiqa o‘qituvchisi yetarli bilimli bo‘lsa, o‘z ishini sevsa, bolalar bilan ishlash unga bahra bersa, albatta maqsadga erishish mumkin.

Bolalarda musiqa darsleri jarayonida ma‘naviyatni o‘stirishda quyidagi yo‘l va vositalardan faol foydalanish yaxshi natijalar berishi isbotlangan:

- har bir darsni yaxshi kayfiyat bilan boshlash. Sinfda va o‘quvchilarda jonli holat sodir etish, qiziqish hosil qilish;

- har bir dars uchun mantiqiy jihatdan asoslangan repertuar tanlash (dasturda o‘qituvchi dars repertuarini erkin tanlashi, darsliqqan tashqari qo‘shimcha manbaalardan ham foydalanish mumkinligi ko‘rsatilgan);

- darsda bolalarni ularda qiziqish holda kabi uyg'otadigan yangi pedagogik texnologiyalarni oqilona qo'llash;

- o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgani ko'proq ijodiy o'yinlar, musiqali topishmoq, musiqali rebus harakatli usullardan foydalanish; darsdan-darsga o'quvchilarning musiqiy tasavvur va taassurotlarini boyitishga qaratilgan rang-barang amallarni qo'llab borish;

- darsda ko'proq jonli ijrodan foydalanish. Har bir qo'shiq va musiqa asarini o'qituvchi jajji tinglovchilarga jonli, yorqin, ifodali ijro etib berishi;

- sinf konsertlarini tashkil qilib borish (har chorakda bir marta). Bunda o'quvchilar musiqa darslarida o'rgangan qo'shiqlarni yakka, duet, kichik xor shaklida ijro etib beradilar va bu konsertlarga parallel sinf o'quvchilarini ham taklif etib boradilar. (Ijodiy musiqali hisobot konsertlari);

- sinf xorini toza va yorqin jaranglashi uchun bo'sh o'zlashtiruvchi (qobiliyati past) bolalar bilan individual ishlashni rejali asosda tashkil etish;

- o'quvchilarni faqatgina dars bilan chegaralamay, balki sinfdan va maktabdan tashqari turli to'garaklarga, konsertlarga, uchrashuvlarga olib chiqish ishlarini amalga oshirish kabi tadbirlar nafaqat dars mazmunini boyitadi, balki o'quvchilarning ijodiy faolliklarini o'stirib borishga ham xizmat qiladi;

- ko'plab ma'naviy-tarbiyali tadbirlar o'tkazib borish (suhbatlar, uchrashuvlar, bahs-munozaralar, savol-javoblar).

Xulosa shuki, biz ustoz-murabbiylar yosh avlodga ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan milliy musiqaning ohorini to'kmay, yoshlarga yetkazishimiz lozim. Shunday qilyalikki, mustaqil O'zbekiston manfaatlariga xizmat qiluvchi, tilini, dinini, tarixiy madaniyatini, adabiyoti va san'atini yuksak darajada biluvchi, uning quvonchi va tashvishi bilan hamnafas yashashga qodir musiqa o'qituvchilari voyaga yetishsin.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. – 102 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
4. Fayziyev K., Nishonov S. “Pedagogika tarixi” (o'quv qo'llanma) T.1996 yil.
5. Xoshimov O. “Maktabda musiqaviy tarbiya”.-T., 1992 yil.
6. Omonullayev D. va boshqalar. “Davlat ta'lim standartlari”. Dastur, 1992 yil.
7. Matyoqubov O. “Forobiy Sharq musiqasi asoslari haqida”. -T., 1986 yil.
8. Ibrohimov O. “O'zbek xalq musiqasi ijodi”. Metodik tavsiyalar. -T., 1994 yil.
9. Ziyomuhamedov B. «Ma'rifat asoslari». -T., «O'zbekiston».1998 yil.
10. Isroilov Sh. «Milliy qadriyatlar». «Maktabgacha tarbiya» jurnali. 1992 yil. 3-son.
11. Musurmonova O. «Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi». -T., «O'qituvchi». 1996 yil.
12. Soipova D. Musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. – T;- Fan va texnologiyalar, - 2006 yil.
13. Fayzullaev E.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.fan.nomz... dissertatsiyasi. TDPU. T.: 2010y.
14. www.ziyouz.com kutubxonasi. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.– Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. 761b.
15. Gulboyev A.T. “Art-pedagogik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash” - ”Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 8 - 4 - b.
16. Гулбоев А.Т. “Харакатлар стратегияси-буюк келажегимизнинг янги босқичи” “Педагогик маҳорат”. -Бухоро, 2019.-№3.-Б.36- 39 – 3 – bet.
17. Xasanova N.H. Electronic Journal Of Actual Problems Of Modern Science, Education And Training. December 2023-12. ISSN 2181-9750. 44-48- betlar. <https://khorezmscience.uz/ru>
18. Бобокулов Қаҳрамон. Чолғу ижрочилиги (танбур). (5150700 – Чолғу ижрочилиги фани (турлари бўйича) бакалавриат босқичи талабалари учун мўлжалланган). Тошкент, 2021. 114 бет.
19. "Pedagogik aksiologiya darslik Босма -Бухоро, “Durdona” nashriyoti, 2023. -138-bet 8,7 bet.
20. Gulboyev A.T. "Art-pedagogik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash" - Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 8, 4 bet.





**O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNI  
MA‘NAVY-AXLOQIY SHAKLLANTIRISHNING AMALIY IMKONIYATLARI**

*Fayzullayev Ermat Majidovich,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi, p.f.n.  
Daliyeva Matluba Haydarovna,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-kurs magistranti*

*Xalq ijtimoiy, ma‘naviy va madaniy turmush tarzining o‘zgarishi bilan xalq qo‘shiqlari ham shakllanib va mazmunan boyib, uning madaniy turmush tarzi, orzu-istaklarini namoyon etuvchi ta‘lim-tarbiya vositasiga aylangan. Ushbu maqola mazmunida ham o‘zbek xalq qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy shakllantirishning amaliy imkoniyatlari yuzasidan fikr-mulohazalar bildiriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *musiqa, ma‘naviyat, marosim, xalq qo‘shiqlari, ma‘naviy-axloqiy, axloqiy-estetik, musiqa madaniyati.*

**ПРАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО  
ФОРМИРОВАНИЯ УЧАЩИХСЯ ПРИ ПОМОЩИ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПЕСЕН**

*С изменением социального, духовного и культурного образа жизни людей народные песни сформировались и обогатились по содержанию, стали средством воспитания и обучения, показывающим их культурный образ жизни и мечты. В содержании данной статьи изложены мнения о практических возможностях духовно-нравственного формирования учащихся посредством узбекских народных песен.*

**Ключевые слова:** *музыка, духовность, обряд, народные песни, духовно-этическая, нравственно-эстетическая, музыкальная культура.*

**PRACTICAL OPPORTUNITIES FOR SPIRITUAL AND MORAL FORMATION OF  
STUDENTS THROUGH UZBEK FOLK SONGS**

*With the change in the social, spiritual and cultural way of life of people, folk songs were formed and enriched in content, becoming a means of education and training, showing their cultural way of life and dreams. The content of this article outlines opinions on the practical possibilities of the spiritual and moral formation of students through the means of Uzbek folk songs.*

**Keywords:** *music, spirituality, ritual, folk songs, spiritual-ethical, moral-aesthetic, musical culture.*

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov musiqa san‘ati, xususan, Sharq musiqasining tarbiyaviy ta‘siriga yuqori baho berar ekan quyidagilarni alohida qayd etgan edilar: “Sharq musiqasi - Sharq falsafasi, Sharq dunyosining uzviy bir qismidir. Sharq musiqasining jahon merosida tutgan o‘rni benihoya buyuk... Bu musiqa ming-ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda. O‘zining yuksak jozibasi bilan dunyo madaniyatiga ozuqa berib, umumbashariy qadriyatlarga munosib hissa qo‘shmoqda”.

Istiqlol adabiyotining buyuk vakillaridan Abdurauf Fitrat shunday degan edi: ”Agar dinga, Vatanga, molg‘a-jong‘a, avlodg‘a muhabbatingiz bo‘lsa, agar dinning xalos bo‘lishi, shariatning rivoji, Vatan obodligi, avlodning tinchligi, yaxshi nom qoldirishning chorasini xohlasangiz, sizning ilojingiz, avvalo, kasbi maorifdir. Qobilyatlilarni tahsil uchun o‘qishga yuboring”. Ushbu iqtibosda buyuk allomaning millat va vatan kelajagi, yoshlar ta‘lim-tarbiyasi uchun qanchalar kuyunchaklik bilan yondashganini ko‘rishimiz mumkin.

“Avesto” va pandnomalar matni xarbed va dasturlar tomonidan og‘zaki tarzda yoddan bayon qilingan. Matnlarni bayon qilish shakli sifatida **hikoyat, rivoyat, nasihat, o‘git, qo‘shiqlardan** foydalanilgan. O‘rganilgan yangi bilimlarni mustahkamlashga oid topshiriqlar berilgan. Ustoz-muallimlar tomonidan har bir saboq jarayonida, og‘zaki bayon tarzida “Avesto” nasihatlarining “Patmonlari, bandlari, zandlari, so‘rovlari, javoblari, **ikki dafha kuylanishi**, yaxshi o‘qilmog‘i, yod aytilmog‘i” lozim bo‘lgan.

Kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi bilan boshqa elatlar qatori turkiy xalqlarning ham qadimda ko‘p xudolikka bo‘lgan etiqodi, animistik va totemistik tafakkur tarzi ta‘lim-tarbiya‘ni, jamoa bo‘lib amalga oshirishga asos bo‘lgan. Ibtidoiy kishilarning mifologik tushunchalar (parilar, devlar, jinlar, arvohlar, shaytoniy va rahmoniy ruhlar)ga bo‘lgan ishonchi hamda inson ongi va tafakkuriga bog‘liq bo‘lmagan tabiiy

hodisalarini ilohiy quvvat asosida bo'ysundirishga intilish motivlari negizida mehnatsevarlik, odamiylik, hamfikrlik kabi umuminsoniy- ma'naviy-axloqiy qadriyatlar yotadi.

Jamiyat taraqqiyotida, inson ongining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq holda ta'lim-tarbiya jarayoni uzluksiz, doimiy tarixiy xarakterga ega bo'lib takomillashib bordi.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, paleolit davrida (taxminan miloddan 40-41 ming yil ilgari) yer yuzining shimoliy qismiga totemizmga oid “ayiq bayramlari”, keyinchalik “mehnat o'yinlari”, “orgaist bayramlar”, “erkaklikka o'tish” marosimlari, “sust xotin”, “choy momo”, “qurbon hayiti” kabi bayramlar xursandchilik, yaxshilik, to'qlik, farovonlik ramzi sifatida o'tkazilgan.

**Asosiy qism.** Xalq ijtimoiy, ma'naviy va madaniy turmush tarzining o'zgarishi bilan xalq qo'shiqlari ham shaklanib va mazmunan boyib, uning madaniy turmush tarzi, orzu-istaklarini namoyon etuvchi ta'lim-tarbiya vositasiga aylangan.

Keyinchalik “Navro'z”, “Mehrijon”, “Sado”, “Gul” bayramlari, “Guli surx”, “chigon”, “Xatar”, “Darvishona”, “Ashaddaroz” o'yinlari, “Iyd al-fitr” (kichik iyd yoki ro'za hayiti), “Iyd al-kabr” (katta iyd yoki qurbon hayiti) kabi milliy udum va qadriyatlar ham xalq an'alariga qo'shildi. Har bir bayram, marosimning tabiiy ta'sir kuchi shu an'anaviy mazmunini ochishga xizmat qiluvchi urf-odatlar, rasm-rusumlar bilan mustahkamlanadi.

O'zbek xalq qo'shiqlarining qadimiy namunalari mehnat mavsum qo'shiqlaridir. Qo'shiq ijodkorlarining amaliy faoliyati ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan bevosita bog'langan va ular mehnatkash xalqning qadimiy urf-odatlarini, marosim va e'tiqodlari negizida yashab kelgan.

Mehnat qo'shiqlari turli mehnat jarayonlari bilan bog'liq. Masalan, xirmon yanchishda “xo'p mayda” yoki “mayda gul”, sigir, qo'y, echkilarni sog'ish va buzoq, qo'zi uloqlarni emizishda “xo'p-xo'p”, “gurey-gurey”, “churey-churey” qo'shiqlari kuylangan. Yer haydash, o'rim, yorg'uchoq tortish, charx yigirish va bo'z to'qish jarayonlarida maxsus qo'shiqlar aytilgan. Insonning yashash tarzi, turli-tuman irim-sirimlar, urf-odatlar, mavsumiy yumushlar, marosimlar va bayramlar bilan bog'liq ravishda juda ko'p xalq qo'shiqlarining namunalari yaratilgan.

“Navro'z” bayrami bilan bog'liq bo'lgan dasturxon bezash, sumalak, halim pishirish, ariq-zovurlarni tozalash, birinchi ko'chat ekish, marhumlarni xotirlash, ota-ona va keksalar, nogironlarga hurmat ko'rsatish, qadamjolarni ziyorat qilish, shirinliklar ulashish, bir-biriga hadyalar in'om etish, mash'alalar yoqib, ariq, daryolar bo'yiga borish, sayllar o'tkazish kabi udumlar odat tusiga kirib qolgan. Shuningdek, Navro'z bayramida yetti xil (bug'doy, arpa, no'xat, jo'xori, guruch, mosh, loviya) dan go'ja tayyorlanib, qo'ni-qo'shnilarga ulashilgan. Bu odatlarning barchasi ramziy ma'noga ega. Xalq bu marosimlar orqali yangi yilda yog'ingarchilikning mo'l bo'lishi (yog'ingarchilik ko'p bo'lsa, hosil mo'l bo'ladi, chorva uchun yem-xashak serob bo'ladi), tinchlik, farovonlik bo'lishi, odamlar o'rtasida mehr-muruvvat, insonparvarlik barqarorlashuviga ishora etadi.

Xalq bayramlari munosabati bilan badiiy-estetik xarakterdagi sayllar o'tkazilgan. Sayllarda xalqning ichki tuyg'usi, o'zligini anglatuvchi xarakter xislatlari og'zaki ssenariylar, jonli muloqotlar asosida ifodalangan. Har bir bayram yoki marosim munosabati bilan o'tkaziladigan sayllar shu tantananing shakliga mos qo'shiqlar, yallalar va boshqalar bilan mazmunan rang-barang tarzda o'tkazilgan.

O'tmishda sayl shaharlardagi registon maydonlari, chorsu va rastalar, shahar tashqarisidagi katta maydon va adirlarda qaror topgan saylgohlar, shuningdek, qadamjolarida o'tkazilib, bir haftadan va bir va bazan ikki oygacha davom etgan. Saylga yoshu-qari, ayollar, bolalar, butun xalq maxsus tayyorgarlik ko'rishgan, yangi kiyimlar tiktirishgan, yangisiga qurbi yetmaganlar, eskisini yuvib yamashgan, hovlilar, ko'chalar supurilgan, tovuq taomlari, shirinliklar tayyorlangan. Hunarmandlar saylgohlarda sotish uchun amaliy san'at asarlari, dehqonlar meva-cheva, noz-ne'matlari, savdogarlar, baqqollar, attorlar noyob mollardan olib borishgan. Saylgohlarda mansab va nasibiga qarab tartib bilan chodir-chaman tikilgan. Xalq savdo-sotiq qilishgan, ko'ngil ochishgan, tomosha qilgan. Saylgohlarda davlat va xalq oqsoqollari tomonidan uyushtirilgan poyga, uloq, kurash, chavgon, chakoi deb atalmish san'at bayramlari, sozanda, hofiz, raqqos, masxaraboz, qiziqchi, nayrangboz, ko'z-bog'lovchi, dorbozlarning chiqishlari, ayiq, echki, maymun, ilon o'ynatuvchi, xo'rak, qo'chqor, tuya uyushtirish, mushakbozlik namoyish qilingan. Bayramlar, sayllarda turli narsalardan yasalgan qo'g'irchoq o'yinlari ham namoyish etilgan.

O'tkazilgan barcha bayram va sayllarda cholg'uchi va qo'shiqchilarning bevosita ishtiroki va tadbirlarda ko'tarinki ruh va tantanavorlik kiritgan. Ayniqsa, ko'pchilik bo'lib kuylanadigan xalq qo'shiqlari va ommaviy raqslar xalqning erkin nafas olib, yayrashida muhim ahamiyat kasb etganligi hech kimga sir emas.

Xalq qo'shiqlarida hayot badiiy obrazlar orqali aks ettiriladi va kishi qalbida estetik his-tuyg'ular, hayajonlar, ko'tarinki kayfiyat, rahm-shafqat, shodlik, quvonch, g'am-qayg'u, hasrat, nafrat paydo bo'ladi. Shuning uchun ham xalq qo'shiqlariga barcha yoshdagi kishilar birday murojaat qiladilar.

“Ma'naviyat - o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi”. Milliy musiqiy tafakkur esa, yuqorida ta'kidanimizdek, ma'naviyatimizning ajralmas bo'lagi. Uning yuksalishi - musiqiy boyligimizni asrash, e'zozlash va uni jahon musiqa madaniyatida tutgan o'rnini anglab olishga imkon yaratadi. Demak, yoshlar ongida milliy musiqiy tafakkurni shakllantirish - o'zligimizni anglashda, musiqiy qadriyatlarimizni tiklashda mezon bo'lib xizmat qiladi.

2020-yil - “Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, - deb e'lon qilindi va Prezident Shavkat Mirziyoev ilm-ma'rifat va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratdi:

“Sharq donishmandlari aytganidek,

Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm,

Eng katta me'ros – bu yaxshi tarbiya,

Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”

Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish, uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak!

Har bir narsa xalqning tajribasi, dididan o'tgandan keyingina an'anaga aylanadi. Xalq qo'shiqlarining aksariyat qismi xalq an'analari bilan bevosita bog'liq holda yaratilgan. Har bir davr kishilari o'z badiiy zavqi, ma'naviy estetik didi va tafakkuri bilan bu asriy an'analarni boyitib borgan hamda unga o'z hissasini qo'shgan.

Xalq ijodkorligi namunalari sifatida qadimdan aytib kelingan xalq qo'shiqlari turli hududlarda turlicha kuylab kelingan. Bu xalq asarlarining xilma-xil nusxalarda takrorlanishiga olib kelgan, bu ko'p variantlilikka xalq qo'shiqlari rivojining o'ziga xos taraqqiyot manbai deb qarash joizdir. Xalq qo'shiqlarining ommaviyligi, an'anaviyligi shu bilan izohlanadi.

Xalq ohanglari va qo'shiqlari bastakorlar ijodiga ham o'z ta'sirini o'tkazib kelgan.

Uzoq o'tmishdan bastakorlik ijodida ustuvor o'rin egallab VII asr musiqachilaridan biri Markaziy Osiyolik mashhur bastakor Borbad Marvaziy xalq qo'shiqlari va kuylarini mukammal egallagan hamda u saroyda musiqachilar tarbiyasiga ham alohida e'tibor bergan.

Sosoniylar sulolasi davrida yetishgan mashhur sozandalar Nekso Changiy, Ozadvar Changiy, Gersni Novagar, Sarhash va Sarkablar bevosita yoki bilvosita Borbad shogirdlari bo'lib ularning ijrochiligida xalqchilik ustuvor o'rin egallagan. Borbad bastakor va hofizgina bo'lib qolmay, iste'dodli shoir ham edi. Uning aksariyat kuylari va she'rlari matniga yozilgan. O'sha davrdagi hijoliya barmoq vazniga yaqin yangi she'riy shaklning ixtiro qilinishi ham Borbad nomi bilan bog'liq.

Abu Ali ibn Sino (983-1037) qalamiga mansub “Kitob ash-Shifo” (Shifo kitobi) ning “Ilm al-rizoyat” (Matematika) qismida Javonu “Ilmi al-musiqiy” bo'limida musiqa va tabiyat olamining o'zaro bog'liqligi haqida ham teran fikrlarini bayon qiladi.

Temur va Temuriylar hamda ularning ilm, madaniyat va san'atga homiylik faoliyatlarini davom ettirgan Bobur va Boburiylar davrida mazkur sohalarida ikkinchi uyg'otish jarayoni yaqqol kuzatiladi.

O'zbek musiqa merosini asrab qolish va boyitishga hissa qo'shgan san'atkorlardan biri Yunus Rajabiy (1897-1976)dir. Yu.Rajabiyning o'zbek musiqasining deyarli barcha janrlariga mansub yozuv namunalari ko'p tomlik “O'zbek xalq musiqa”si (1955, 1957, 1959) da nashr etilgan. Ushbu to'plamlarda, jumladan, bolalar qo'shiqlari, xalq ayimlari (qo'shiq, lapar, yalla, ashula), katta ashulalar, cholg'u kuylari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari muhtasham Shashmaqom turkumi kabi xalq qo'shiq va musiqalari munosib o'rin olganlar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining qo'shiq repertuarini boyitish maqsadida qilingan muhim ishlardan biri Respublika miqyosida o'tkazilayotgan «O'zbekiston Vatanim manim» ko'rik tanlovi hisoblanadi. Xalq ta'limi vazirligining tashabbusi bilan o'quvchilar uchun mos qo'shiqlarni mualliflardari yozib olish keng yo'lga qo'yildi va natijada «O'zbekiston Vatanim manim» nomi bilan qo'shiqlar to'plami chop etila boshlandi.

Hozirgi kunda shunday kitoblar o'quvchilarning qo'shiq repertuarini yangi, zamonaviy qo'shiqlar bilan boyitishga ham muhim hissa bo'ldi [116, 117, 118, 119]. Bu chop ettirilgan to'plamlardan ham o'quvchilarning Vatanga sadoqat, mehnat kishilariga hurmat, farzandlik burchi, g'urur va faxr hislarini rivojlantirishga imkon beradigan o'nlab qo'shiqlarni tanlab olish mumkin.

Turli viloyatlarda kuylash udum bo'lgan xalq qo'shiqlarini notaga yozib olish va ularni chop ettirish bo'yicha ham dastlabki qadamlar qo'yildi. Xususan, «Jizzax xalq qo'shiqlari» bu sohada yaratilgan dastlabki qo'llanmadir. Bunday qo'llanmalarning barcha viloyatlarda kuylanadigan qo'shiqlarni jamlab chop ettirilishi

va ularni maktab dasturlariga tanlab kiritish xalq qo'shiqlari orqali o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Turli viloyatlardagi bastakorlar tomonidan chop ettirilgan mualliflik qo'shiqlari to'plamlarida ham o'quvchilarga mos qo'shiqlar mavjud bo'lib, ularni tanlab o'quv dasturlariga kiritish lozim. Zero, bunday qo'shiqlar o'quvchilarni mazkur hududda yashayotgan xalq hayoti, urf-odatlarini, rasm-rusumlari bilan yaqindan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, R.Tursunovning «Qalbmida o'zing borsan» [99], S.Anvarovning «Vatan madhi» [24], Q.Mamirovning «Ohanglarda hayot nafasi» [55], «Quyosh yurtim» [56] to'plamlarida ham o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirishda foydalanish mumkin bo'lgan rang-barang mavzudagi qo'shiqlar mavjud.

Shunday to'plamlardan biri «Asrlarga tengdosh qo'shiqlar» (25) majmui bo'lib, unda, asosan, xalq qo'shiqlarining matni berilgan. Unda Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax, Buxoro, Xorazm, Toshkent, Farg'ona, Namangan viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida kuylangan xalq qo'shiqlari jamlangan. Bu qo'shiqlar turli janrlarga mansub bo'lib, ular quyidagicha tasniflanadi:

1. Allalar.
2. To'y qo'shiqlari.
3. Termalar.
4. Aytishuvlar.
5. O'lanlar.
6. Motam marosim qo'shiqlari.
7. Ramazon.
8. Navro'z qo'shiqlari (sumalak, boychechak, sayilga kel, sust xotin, halinchak va h.k.).

Xalqimizning urf-odati, marosimlari bilan mavzu jihatidan chambarchas bog'langan bu qo'shiqlarga kitobda ma'lum tahlilnoma berilgan bo'lsa-da, uning notalar bilan berilmaganligi ulardan maktab musiqa darslarida foydalanishni murakkablashtiradi. Musiqa o'qituvchilari uchun yordam sifatida ushbu qo'shiqlarning notalashtirilgan variantlarini taqdim qilish zarur.

Bola endigina dunyoga kelgan kundan boshlab, onaning ardog'ini, yoqimli allalarini eshitadi. Bolalar uchun maxsus yaratilgan bu qo'shiq kishi ongiga ona suti bilan kiradi. Keyinchalik u tobora kuchayadi, rahm-shafqat, shodlik, quvonch, g'am-qayg'u, hasrat, nafrat paydo bo'ladi. Shuning uchun ham xalq qo'shiqlariga turli-xil ramzlar orqali mukammallashib boradi.

Farzand tug'ilishi, chaqaloqning beshik davri, ulg'ayishi, jismoniy va nutqiy barkamolligi, yosh va sunnat to'ylari, ulg'ayish ehtirolari bilan bog'liq ayrim-olqish, erkalama, ovutmachiq, chiqirmachiq, yalinchoq, hukmlagich, chalg'itma, chorlama, guldur-gup, sanama, aytishma, tegishmachiq, masxaralamalardan iborat butun bir bolalar qo'shiqlari tizimi yaratilgan.

Alla qo'shig'ining bola shaxsida ota-ona, Vatan, millatga muhabbat tuyg'usini eng dastlabki kurtaklarini shakllantiruvchi vositasi sifatida maydonga kelgan. Alla vositasida bola milliy til va milliy musiqa ohanglariga o'rganib, unda milliy ruh qaror topib boradi. Bola ulg'aygan sari uning ma'naviy tafakkur darajasi ham rivojlanadi, turli shakl va mazmundagi xalq teatrlari vositasida zehni o'tkirlashib, nutqi o'sib, dunyoqarashi kengayib, ma'naviy ehtiyoji va qiziqishi ortib boradi.

Ona allasi umumbashariy qimmatga ega. Allalar beshik qo'shiqlarining keng tarqalgan an'anaviy janri hisoblanadi. Jahonda biror xalq, millat yoki elat yo'qki, ularning tilida alla kuylanmasa ... Ruslarda “bayki” yohud “bayushki” deb yuritiluvchi bunday qo'shiqlar turkmanlarda “huvdilar”, tatarlarda “elli-belli”, qoraqalpoqlarda “hyeyya-hyeyya”, tukrlarda “ninni”, forslarda “lolo”, o'zbek va tojiklarda “alla” atamallari bilan mashhurdir. Alla jahon onalarining mehriqaga yo'g'rilgan bir qadar farahbahsh, ammo o'rni bilan esa bir qadar g'amgin eng muqaddas qo'shiqdur.

Alisher Navoiy “alla” aytishni “navog'a” deb ataydi:

Ko'zining nozi eldan eltib uyqu,

Anga uyg'u keturmakka navog'a.

Ya'ni, alla bolalarni uyquga eltuvchi sehrli kuch sifatida ishora qiladi.

Abu Ali ibn Sino allomalarining bola tarbiyasida ahamiyatini ko'rsatib, bu masalada faqat jismoniygina emas, ruhiy omilga ham diqqatimiz ortadi: “Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-asta tebratib, ikkinchisi uni uxlatish uchun odob bo'lib qolgan alladir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil bo'ladi”.

Xalq qo'shiqlari badiiy-estetik manbalar sifatida kishi hissiyoti orqali aqlni, aql orqali esa hissiyotini tarbiyalash vositasidir. Xalq qo'shiqlariga xos xususiyat ham mantiqiy fikrlash asosida manaviy fazilatlarining barcha qirralarini ongli ravishda aqliy barkamollikka ta'minlashdan iboratdir.

**Xulosa.** Bizning nazarimizda, Respublikamiz maktablari uchun chop etilgan darsliklari muayyan bir tizim asosida yaratilgan bo'lsa-da, biroq mukammal, xalq musiqiy an'analariga tayangan, betakror bir tizimga solinmagan. Xususan, xalq qahramoni Alpomishning ming yilligi o'tkazilishi arafasida O'zbekiston teleradio kompaniyasi tomonidan baxshilar ijrosidagi “Alpomish” dostoni to'liq matni magnit tasmasiga yozib olindi. Xalq og'zaki ijodiyoti, folklorlarning salmoqli qismini tashkil etuvchi yana o'nlab dostonlar baxshilarimiz tomonidan kuylanib kelinmoqda. Lekin ularning birortasi ham notalashtirilib, musiqa shinavandalariga, o'quvchi va talabalarga yetkazilgan emas. Xalqimizni asrlar davomida maftun qilib kelgan bu asarlar: “Go'ro'g'li”, “Kuntug'mish”, “Alpomish”, “Oshiq G'arib va Shohsanam” kabi o'nlab dostonlar yosh avlodni tarbiyalashning bosh mezonini, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asl sarchashmasiga aylanmog'i lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan “Musiqa darslari”ning mohiyatini o'rganish natijasida asosiy urg'u o'zbek xalq ijodiyotiga berilishi zarur degan xulosaga keldik. Chunki xalqimizning milliy kuy-qo'shiqlari zamirida yoshlarni mardlikka, halollikka va poklikka chorlovchi hamda ma'naviy qadriyatlarga hurmat hissini uyg'otuvchi oliyanob tuyg'ular mujassam etilgandir. Albatta, bu kabi ijodiy va mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirish uchun, eng avvalo, xalq musiqasi ijodini yaxshi bilimdoni bo'lgan malakali mutaxassislar bo'lmog'i lozim. Musiqa darslarining samarador bo'lishi ko'p jihatdan o'qituvchining bilim saviyasi, milliy dunyoqarashi, xalq qo'shiq va kuylarini nechog'lik ezozlashi, ularni badiiy yetuk tarzda ijro eta olishi va umuman, kasb mahorati va madaniyatiga bog'liqdir.

O'qituvchilarga xalq qo'shiqlarini o'rgatishda quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya qilindi:

1. Qo'shiqning yaratilish tarixi haqida suhbat;
2. Asarning qaysi janrga mansubligini aniqlash va shu janrga xos xususiyati;
3. Xalq qo'shiqlarining milliy urf-odatlar va marosimlar bilan bog'liqligini tushuntirish;
4. Kuylash jarayonida turli harakatlarni bajarishga odatlantirish;
5. Qo'shiqni rollarga bo'lib ijro etish;
6. Qo'shiqni o'rganishda o'yin elementlaridan foydalanish;
7. Suhbat, savol-javob va boshqa metodlardan foydalanish natijasidagi asardagi ma'naviy-axloqiy qarashlarini anglab yetishga odatlantirish kabilar.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. – 102 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
4. Ergashev A. Sherobod dostonchilik maktabi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 10.01.09.Folklorshunoslik. 1991.
5. Ergashev A., Yusupov Z. Xalq og'zaki ijodi. Qarshi «Nasaf» nashriyoti. 2002.
6. O'zbek badiiy madaniyati. -T.: 1996. 86-b.
7. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. (Ilmiy ishlar to'plami)- T.: O'zbekiston, 1997. - 199 b.
8. Omonullayev D. va boshqalar. “Davlat ta'lim standartlari”. Dastur, 1992 yil.
9. Matyoqubov O. “Forobiy Sharq musiqasi asoslari haqida”. -T., 1986 yil.
10. Ibrohimov O. “O'zbek xalq musiqasi ijodi”. Metodik tavsiyalar. -T., 1994 yil.
11. Ziyomuhamedov B. «Ma'rifat asoslari». -T., «O'zbekiston».1998 yil.
12. Isroilov Sh. «Milliy qadriyatlar». «Maktabgacha tarbiya» jurnali. 1992 yil. 3-son.
13. Musurmonova O. «Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi». -T., «O'qituvchi». 1996 yil.
14. Soipova D. Musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. –T.;- Fan va texnologiyalar, - 2006 yil.
15. Fayzullaev E.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.fan.nomz... dissertatsiyasi. TDPU. T.: 2010y.
16. www.ziyouz.com kutubxonasi. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.– Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. 761b.
17. Gulboyev A.T “Art-pedagogik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash” - ”Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 8 - 4 - b.
18. Gulboev A.T “Харакатлар стратегияси-буюк келажегимизнинг янги босқичи” “Педагогик маҳорат”. -Бухоро, 2019.-№3.-Б.36- 39 – 3 – bet.
19. "Pedagogik aksiologiya". – darslik. - Босма -Бухоро, “Durdona” nashriyoti, 2023. -138-bet 8,7 bet.
20. A.T.Gulboyev "Art-pedagogik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash” // Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. - 2023, № 8 4 bet,



## MUSIQA TA'LIMI VA TARBIYASIDA O'ZBEK MILLIY KUY QO'SHIQLARIMIZ IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

*Fayzullayev Ermat Majidovich,*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*“Musiqqa ta'limi” kafedrasida katta o'qituvchisi  
pedagogika fanlari nomzodi*

*Majidov Dilshod Shermat o'g'li,*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti sirtqi bo'limi o'qituvchisi*

*Barkamol avlod tarbiyasida musiqaning o'rni beqiyosdir. Musiqqa boshqa san'at turlaridan farqli ravishda, u insonning eng nozik tuyg'ularini, his-hayajonini, insondagi boy emotsiya zahiralarini ishga solishga qodir mo'jizali vositadir. Ushbu maqola mazmunida bo'lajak musiqqa o'qituvchilari badiiy didini o'stirishda, o'zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish yuzasidan taklif-mulohazalar ilgari suriladi. Musiqiy faoliyatdagi uch qirra, ya'ni musiqqa tinglash qobiliyati, musiqiy did va musiqiy sezgirlik jihatlari natijasida musiqqa tinglovchisi yoki ijrochisining umumiy badiiy didini qay darajada rivojlanganligini belgilab beruvchi omillar tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *musiqqa, musiqqa asari, musiqqa tinglash, an'anaviy qo'shiqchilik, mumtoz ashula, maqom, tovush, nola, qochirim, bezak, tarbiya, estetik tarbiya, musiqiy did, musiqiy idrok, ritm, tembr, badiiy did, tadqiqod.*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ УЗБЕКСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ МЕЛОДИЧЕСКИХ ПЕСЕН В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Музыка имеет большую роль в воспитании гармонически развитого поколения. В отличие от других видов искусства музыка пробуждает самые глубокие чувства и эмоций человека. В этой статье речь идёт об использовании возможностей узбекской классической музыки в развитии художественного вкуса будущих учителей музыки. Три аспекта музыкальной деятельности, а именно способность слушать музыку, музыкальный вкус и музыкальная чувствительность, анализируются как факторы, определяющие степень развития общего художественного вкуса слушателя или исполнителя музыки.*

**Ключевые слова:** *музыка, музыкальное произведение, прослушивание музыки, традиционное пение, классическое пение, статус, звук, мелизм, украшение, воспитание, эстетическое воспитание, музыкальный вкус, музыкальное восприятие, ритм, тембр, художественный вкус, исследование.*

## USING THE POTENTIAL OF UZBEK NATIONAL MELODIC SONGS IN MUSIC EDUCATION

*Music plays an important role in upbringing harmoniously developed generation. Unlike other types of art music brings out deep feelings and emotions in us. This article discusses the use of Uzbek classic music in developing artistic taste in perspective teachers. Three aspects of musical activity, namely the ability to listen to music, musical taste and musical sensitivity, are analyzed as factors that determine the degree of development of the general artistic taste of a listener or music performer.*

**Keywords:** *music, musical work, listening to music, traditional singing, classical singing, status, sound, melisma, decoration, education, aesthetic education, musical taste, musical perception, rhythm, timbre, artistic taste, research.*

**Kirish.** Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning sa'yi harakatlari bilan “2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha” “Harakatlar strategiyasi”ni hayotga tadbir etish lozimligi zamon talabi bo'lib qolmoqda. Mazkur “Harakatlar strategiyasi” har birimizdan harakat va mas'uliyatni talab qiladi! Shundan kelib chiqqan holda “Harakatlar strategiyasi”ning maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.[1]

Musiqqa ulkan ta'sirchan kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasidir. Musiqqa o'zining jozibasi bilan inson qalbini rom etadi. U kishi ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bag'ishlaydi. Musiqqa kishilarning zavqlanishi,

huzurlanishi, rohatlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi va mushohada qilishiga ko‘makdosh bo‘ladi. Ayni bir paytda, musiqa kishilarning ulug‘ ishlarga safarbar etuvchi qudratli kuchga ham ega.

Shu bois bo‘lsa kerak, Sharqning buyuk mutafakkirlari Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ahmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar o‘z ijodlarida musiqa san‘atiga alohida e‘tibor qaratganlar, uni ulug‘laganlar. San‘atni inson qalbi va ruhiyatining jon ozig‘i deb bilganlar. San‘at va san‘atkorni doimo qadrlaganlar. Ularning ta‘kidlashlaricha chinakam san‘atga oshno bo‘lgan madaniyatli va ma‘naviyatli kishilar yurt obro‘cini ko‘taradilar, o‘zlari esa xalq hurmatida bo‘ladilar.

Xalqimizning musiqiy merosini o‘ziga xos bir xazina desak, uning uchta qulfi bo‘lib, musiqa tinglovchining va ijrochining uch muhim o‘zaro bir-birlariga bog‘liq jihatlari, unga tushadigan kalitlar hisoblanadi. Bularni quyidagicha belgilash mumkin:

1. Musiqani tinglay olish qobiliyati.
2. Musiqiy did.
3. Sezgirlik, musiqiy idrok.

Musiqani tinglay olish qobiliyati faqat uni eshitishdangina iborat bo‘lmay, balki anchagina murakkab jarayondir. Xususan, ayrim kishilar musiqani yaxshi eshita olishlari barobarida, unga bee‘tibor bo‘ladilar. Bunday kishilarga har qanday go‘zal musiqa ham o‘z ta‘sirini o‘tkaza olmaydi.

Yana bir jihati, musiqani tinglay oluvchilarning hammasini ham birday musiqa tinglash qobiliyati yaxshi deb bo‘lmaydi.

Demak, yoshlarni milliy kuy qo‘shiqlarimiz, milliy-ma‘naviy merosimiz vositasida tarbiyalashda o‘z madaniy qadriyatlarimiz va buyuk allomalarimizning bizga qoldirgan meroslaridan samarali foydalanish, ularning ma‘naviy dunyoqarashini yanada kengaytirish zarur. Natijada o‘quvchi-yoshlar ajdodlar tarixi, adabiyoti, san‘ati, an‘analari va urf-odatlar haqida chuqur bilimga ega bo‘ladilar, ularning milliy musiqa merosimizga bo‘lgan qiziqishi oshib, ma‘naviy-madaniyati yanada takomillashadi.

**Asosiy qism.** Musiqani yaxshi tinglay oluvchilarda quyidagi muhim tahliliy qobiliyatlar rivojlangan bo‘ladi:

1. Musiqani tinglay olish uquvi.
2. Tovushlarning baland-pastligi, intervallarni idrok etish.
3. Ritm tuyg‘ularining yaxshi shakllanganligi.
4. Tovushlarni bir-birlariga yaxshi qo‘shib keta olish uquvi.
5. Tovushlar tembri (bo‘yog‘i)ni his qilish qobiliyati.
6. Tovushlarning baland-past jaranglashini his qilish.
7. Bir ovozli asarlarni yaxshi esda saqlab qola olish qobiliyati.
8. Ko‘p ovozi asarlardagi gamafon-garmonik interval va akkordlarning jarangdorligini his etish.
9. Imitatsion holatlarni his etish.
10. Musiqiy asarning shaklini bila olish va hokazo...

Musiq pedagogikasi musiqiy qobiliyatning barcha turlarini tizimli mashq qildirish orqali rivojlantirish mumkinligini isbotlab berdi. Bu jihatlari tahliliy qobiliyat sifatida, oxir-oqibatda musiqa tinglovchilarning badiiy didini shakllantirishga imkon berishini ko‘rsatdi.

Sharq allomalari musiqa insonning ichki dunyosiga kirib borishi va uni boyitish borasida ko‘plab fikrlarni aytganlar. Sharqda musiqa vositasida bemor kishilarni davolash qadimdan keng tarqalgan. Xususan, buyuk tabib Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” kitobida ruhiy kasallarni musiqa orqali davolaganligini yozadi.

Musiq ta‘sirida inson ruhiyatida jasorat ko‘rsatish istagi, g‘ayratining jo‘sh urishi hollari yuz berishi mumkin.

Musiq san‘atining nodir namunalarini ijro etish va ularni tinglash jarayoni faqat musiqiy qobiliyatdangina iborat bo‘lib qolmasdan, balki u talabalarning badiiy didini ham rivojlantirib boradi. Xususan, musiqiy did - bu talabalarning asl, nodir badiiy asarlar va ularning ijrosini, sun‘iy, sayoz va bo‘sh asarlardan ajrata bilish qobiliyatidir.

Musiqiy qobiliyat bilan musiqiy did har doim bir-biriga mos kelavermaydi. Hayotda kuchli musiqiy qobiliyatga ega bo‘lgan holda, haqiqiy durdona musiqiy asarlarni unchalik tushunmaydigan san‘atkorlarni ham uchratish mumkin. Xususan, murakkab janrdagi mumtoz maqom asarlarini tan olmaydigan, ulardagi badiiy saviyaning nihoyatda baland ekanligini his etmaydigan, ammo, ayni paytda, katta musiqiy qobiliyat sohibi bo‘lgan kishilar bor. G‘arb musiq asarlari bo‘yicha yaxshigina mutaxassislikka ega bo‘lganlari holda, o‘zbek mumtoz musiqiy asarlarini idrok qila olmaydigan kishilar ham mavjud.

Musiqiy did musiqani tinglay olish va uni idrok qilish qobiliyatiga nisbatan anchagina murakkab bo‘lib, u kishidan alohida sezgirlik xususiyatini ham talab qiladi.

Musiqiy didning rivojlanganligini faqatgina nodir asarlarni badiiy bo‘sh asarlardan farqlay olish qobiliyatigagina qarab emas, balki boshqa bir qator nozik tuyg‘ularning mavjudligiga qarab ham aniqlash mumkin.

Musiqiy didning rivojlanganligini ijro mahorati ham belgilaydi. Bunda muhim jihat asarni yuksak did bilan hamda musiqaning tili hisoblangan ovozlarning tembr, soz, ansambl, kabilardan unumli foydalanib ijro etish sirlarida namoyon bo‘ladi.

Musiqani idrok etishning muhim jihatlaridan yana biri – bu sezgirlik bo‘lib, u tinglovchi yoki ijrochidan alohida qobiliyat talab etadi.

Asar ijrosidagi alohida nafas, kamdan-kam uchraydigan texnika va nozik didlilikni his etish tuyg‘usi - sezgirlik hisoblanadi. Ijrolardagi badiiy saviya bir-biriga yaqin, nihoyatda yuksak darajada bo‘lgan holatlarda, ularning nozik jihatlarini ilg‘ab baholash uchun, aynan, shu sezgirlik lozim bo‘ladi. Ayrim asarlar yuksak texnikada ijro etilgan bo‘lsa-da, nimadir yetishmaydi, qandaydir sovuqlik bor, qalb harorati qo‘shilmaganday tuyuladi. Bunday ijroni tinglagan kishining qalbida go‘zallikka intilish, undan lazzatlanish hislari paydo bo‘lmaydi. Tinglovchi - musiqachi sifatida bu ijroni o‘zining ijrochilik mahoratiga bevosita solishtirib ko‘radi va o‘ziga tegishli xulosa chiqarib oladi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining qalbida aynan shu xislatlarni shakllantirish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk nemis kompozitori Betxoven: “Musika insonlar qalbida olov hosil qilish kerak” - degan.

Badiiy didni shakllantirishda, ayrim hollarda, musiqiy texnika ustida olib borilgan harakatlar xalaqit berishi ham mumkin. Asarning texnik jihatdan qiyin joylarini o‘rganishda, qayta-qayta takrorlashlar va uni mexanik tarzda ijro etilish darajasiga erishish, ammo undagi shira va nolalarni his etmaslik, badiiy did va sezgirlikni ikkinchi darajaga aylantirib qo‘yish, ijroga ijodkorlik ruhi bilan yondoshishni yoddan chiqarish, nihoyatda, xatarlidir.

Musiqiy faoliyatdagi bu uch qirra, ya‘ni musiqa tinglash qobiliyati, musiqiy did va musiqiy sezgirlik oxir-oqibatda musiqa tinglovchisi yoki ijrochisining umumiy badiiy didini qay darajada rivojlanganligini belgilab beradi.[4]

Musiqa san‘ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli ta‘sir etadi. Oilada, bog‘chada, maktabda musiqa mashg‘ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san‘atni to‘g‘ri tushunishdagi samarali yo‘ldir.

Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri ta‘lim-tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go‘zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san‘atning xalqchilligi to‘g‘risidagi ta‘limotga suyanib, o‘quvchilarning obyektiv dunyo haqidagi bilimni kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste‘dodini o‘stiradi hamda ularda yuksak ma‘naviy fazilatlarining tarkib topishiga yordam beradi.

Odatda, estetik tarbiyaning maqsadi bolalarda estetik his-tuyg‘u va fikrlarni rivojlantirish, go‘zallikni ko‘ra bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb tushuniladi. Aslida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari bu bilan chegaralanib qolmaydi, o‘quvchilarni go‘zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik, kulfatni anglash va ko‘ra bilishga o‘rgatadi.

Musiqa inson his-tuyg‘ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg‘ulariga faol ta‘sir etadi.

Musiqa ham fan, ham san‘atdir. U fizika va matematikaga asoslanadi, bu fanlar musiqani fanga aylantiradi. Lekin musiqa asariga shu fanning turg‘un tushunchasi sifatida qarab bo‘lmaydi. Chunki musiqa har doim rivojlanib turuvchi jonli san‘atdir. Musiqa san‘ati inson hayotining ilk yillaridanoq uning hamrohiga aylanib, umumiy madaniy rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shadi. Musiqa inson umrining doimiy yo‘ldoshi. Olim Stendalning aytishiga ko‘ra, musiqa - san‘at turlari ichida insonning yuragiga chuqur kirib, uning ichki kechinmalarini aks ettirishga qodirdir.

Musiqaning insonga ta‘siri, shaxsning va jamiyatning ruhiy hayotidagi o‘rni kompleks muammo hisoblanadi. Ushbu murakkablik va serqirralik fanga darrov kelmadi. Shu o‘rinda Asafevning “...musiqa - bu ham san‘at, ham fan, ham til, ham o‘yin” - degan so‘zlarini eslash maqsadga muvofiqdir.[5]

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta‘kidlaganlaridek, – “Ta‘lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda Oliy o‘quv yurtlari muhim o‘rin egallaydi”. Bu fikr bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashga ham daxldordir.

Jumladan, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari tomonidan o‘quv dasturlariga muvofiq o‘rganilishi lozim bo‘lgan maqom sho‘balarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ular “Sarahbor”, ya‘ni vazmin aytiluvchi keng diapozonli sho‘balardan boshlanib turlicha kayfiyatdagi taronalar bilan davom etadi. Ta‘lim jarayonida, shuningdek, insonni ulug‘lovchi, unga kuch-quvvat bag‘ishlovchi, unda lirik kechinmalarni uyg‘otuvchi xarakterli sho‘balar ham o‘rganiladi. Maqomlar odatda raqsbop, quvnoq kayfiyatli uforlar bilan



yakunlanadi. Maqom yoʻlidagi xalq qoʻshiqlari inson ruhiyatida kechayotgan turli kayfiyatlarga mos holda yaratilgan.

Maqomlarning inson ruhiyatida kechadigan psixologik holatlarga muvofiqligini nazarda tutgan holda har bir shoʻba va xalq ashulalarini oʻrganishdan oldin talabalarda oʻrganilishi nazarda tutilayotgan qoʻshiqqa mos kayfiyatni yuzaga keltirish maqsadga muvofiqdir.

Oʻquv dasturi boʻyicha talabalar bilan oʻrganilishi uchun zarur boʻlgan musiqiy asarlarning salmoqli qismini maqom shoʻbalari va mumtoz xalq qoʻshiqlari tashkil qiladi. Ularni oʻrganish jarayonida talabalarda maʼnaviy-axloqiy sifatlar - bosiqlik, jiddiylik, mulohazalilik, did va farosatni shakllantiradi. Shuningdek, mavjud vaziyatga muvofiq oʻzida quvnoq kayfiyatni hosil qila olish, biroq bachkanalikdan yiroqlashish koʻnikmalarini hosil qiladi.

Jamoa bilan ishlashda faqat mumtoz ashulalarni bilishning oʻzigina kifoya qilmaydi. Balki jamoaning ovoz imkoniyatlaridan toʻgʻri foydalanish mumtoz ashulalarning mahorat bilan ijro etilishini taʼminlabgina qolmay, ularning jozibadorligini ham oshiradi. Bu holatni shaxsan men yuz kishilik xor jamoasi bilan ishlash chogʻida yaqqol his etaman.

Mashgʻulotlar jarayonida mumtoz asarlarni oʻrganishda mashhur hofizlarning ijro uslublari, ular tomonidan ishlatilgan nola, qochirimlar bilan yaqindan tanishish ularning tajribalarini oʻrganish asosida talabalarning tabiatlariga mos uslubni tanlashga yordam berish zarur. Ana shu maqsadda taniqli hofizlar - Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Halim Ibodov, Mulla Toʻychi Toshmuhamedov, Matchan Xudoyberganov, Muhiddin Qori Yoqubov, Joʻraxon Sultonov, Maʼmurjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov, Komiljon Otaniyozov, Fattohxon Mamadaliev, Orifxon Hotamov, Eson Lutfullaev, Orif Alimahsumov, Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Oʻlmas Saidjonov, Maʼmurjon Toʻxtasinov, Munojat Yoʻlchieva, Nasiba Sattorova va boshkalarining ovozlari yozilgan magnit tasmlarini talabalar ishtirokida tinglash, ularni milliy anʼnalardan samarali foydalana olishga oʻrgatish, musiqa taʼlimi metodikasi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Tabiiyki, bu muammolarning har biri alohida taʼrif va yoʻl-yoʻriq berishni talab qiladi.[4]

Boʻlajak musiqa oʻqituvchilarini pedagogik amaliyotga tayyorlashda ham ular tomonidan mumtoz qoʻshiqlarning puxta oʻrganilishi muhim ahamiyatga ega. Zero, mumtoz asarlar taʼsirchan kuchga ega boʻlishi bilan birga ularda xalqona ruh mavjud boʻlib, nafaqat talabalarni, shu bilan birga oʻquvchilarni ham milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda asrlar davomida eʼzozlanib kelingan maʼnaviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashda muhim oʻrin tutadi. Mumtoz qoʻshiqlar yashovchanligining sababi ham ularning xalq didiga mosligi, xalq tomonidan tan olinganligidir.

Shuningdek, ularning mazmunan va musiqiy jihatdan mukammalligi, gʻoyaviyligi barcha yoshdagi kishilar eʼtiborini oʻziga torta oladi. Milliy mumtoz qoʻshiqlarning umrboqiyiligini taʼminlovchi omillardan yana biri - har qanday zamon va makonda ham insonlarning maʼnaviy ehtiyojini toʻla qondira olganligi boʻlib, ana shu jihati bilan bugungi kunda ham yuqori badiiy qiymatga ega.

Oʻquvchilarning musiqiy bilim, koʻnikma va malakalariga qoʻyiladigan bu talablar mohiyatini mantiqan tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin, birinchidan, ularda milliy mumtoz musiqani oʻrganishga boʻlgan eʼtibor oʻz ifodasini topgan; ikkinchidan, ularning asosida oʻquvchilarda yuksak badiiy didni shakllantirish imkoniyatlari inobatga olinadi.

Musiqiy taʼlimning samarali tashkil etilishi natijasida oʻquvchilarda mumtoz musiqiy asarlariga toʻgʻri baho berish, yuqori badiiy saviyaga ega qoʻshiqlardan mazmuni sayoz asarlarni ajrata olish hamda mumtoz qoʻshiqlarga obʼektiv baho bera olish koʻnikmalarining shakllanishiga imkon yaratadi.

**Xulosa.** Musiqiy taʼlimning eng asosiy vazifasi, oʻquvchilarni sanʼatning ajoyib va gʻaroyib olamiga yetaklash orqali ularni goʻzallik va nafosat tuygʻularini oʻstirish, olam haqidagi tushuncha va tasavvurlarini boyitish, badiiy didlarini toʻgʻri shakllanib borishiga yordamlashish, ularda axloqiy sifatlarini shakllantirish va eng asosiysi, sanʼat vositasida yosh oʻquvchilarda Vatanga muhabbat hislarini tarbiyalash, maʼnaviyatini oʻstirib borishdan iboratdir.

Bu vazifalar musiqa oʻqituvchisiga yuklatiladi. Bu jiddiy, pedagogik va psixologik jixatdan birmuncha murakkab boʻlgan vazifalar qanday yoʻllar bilan bajariladi? Buning yoʻl va vositalari koʻp. Shulardan biri oʻquvchilarning maʼnaviyatini oʻstirishni taʼminlash. Bu ham bir qarashda murakkab koʻrinadi. Lekin musiqa oʻqituvchisi yetarli bilimli boʻlsa, oʻz ishini sevsa, bolalar bilan ishlash unga bahra bersa albatta maqsadga erishish mumkin.

Oʻquvchilarni mumtoz kuy-qoʻshiqlar bilan tanishtirishda quyidagi shakl va metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi:

1. Oʻrganish uchun tanlab olingan ayrim kuylarni magnit tasmlari yordamida tinglatish.
2. Musiqa fani oʻqituvchisining oʻzi tomonidan cholgʻu asboblari yordamida ijro etib koʻrsatish.
3. Taniqli sozandalarni taklif etish orqali ular bilan uchrashuv tashkil qilish vaqtida oʻrganilishi koʻzda tutilgan kuy mohiyati bilan tanishish.

4. Musiqa to‘garagining a‘zosi bo‘lgan o‘quvchilar ijrosida o‘rganilayotgan mumtoz kuyni tinglash.[4]

Kuzatishlarning ko‘rsatishicha, jonli ijro o‘quvchilar ruhiyatiga yanada ijodiy ta‘sir etadi. Shu sababli mumtoz kuy-qo‘shiqlarni jonli ijroda tinglash musiqa fani o‘qituvchisining diqqat-e‘tiborida bo‘lishi zarur.

O‘quvchilarda ham asarlarni o‘rganish vaqtida ularning mazmunini tahlil qilish, nola, qochirim va boshqa bezaklarni anglash kabi ko‘nikmalarning bosqichma-bosqich shakllantirilib borilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, musiqa yosh avlodning ma‘naviy, badiiy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g‘ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, fikr doirasini kengaytirishga, ijodiy mahorati va badiiy didi o‘shirishga, mustaqilligi va tashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.O‘.2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 20- apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori. www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
4. Fayzullaev E.M.. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o‘zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.fan.nomz... dissertatsiyasi. TDPU. T.: 2010y.
5. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.:Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2005 y., -84 bet.
6. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma‘naviyat, 2008. - 176 b.
7. Fayziyev K., Nishonov S. “Pedagogika tarixi” (o‘quv qo‘llanma) T.1996 yil.
8. Xoshimov O. “Maktabda musiqaviy tarbiya”.-T., 1992 yil.
9. Omonullayev D. va boshqalar. “Davlat ta‘lim standartlari”. Dastur, 1992 yil.
10. Matyoqubov O. “Forobiy Sharq musiqasi asoslari haqida”. -T., 1986 yil.
11. Rajabov I. “Maqomlar masalasiga doir”. -T., 1963 yil.
12. Ibrohimov O. “O‘zbek xalq musiqasi ijodi”. Metodik tavsiyalar. -T., 1994 yil.
13. Ziyomuhamedov B. «Ma‘rifat asoslari». -T., «O‘zbekiston».1998 yil.
14. Isroilov Sh. «Milliy qadriyatlar». «Maktabgacha tarbiya» jurnali. 1992 yil. 3-son.
15. Musurmonova O. «Ma‘naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi». -T., «O‘qituvchi». 1996 yil.
16. Mamirov Q. Musiqa vositasida yoshlarni axloqiy-estetik ma‘naviyat ruhida tarbiyalash //Musiqiy ta‘lim va ma‘naviyat. Resp. Ilmiy-nazariy konf.mat.to‘plami. – T.: Nizomiy nom. TDPU, 1998. 3-5- b.
17. Халилов Ф.Н. Дидактические основы инструментально-исполнительской подготовки будущих учителей музыки: Автореф.дисс. ... докт.пед.наук. – Т.: 2006. – 48 с.
18. Gulboyev. A. T “Art-pedagogik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini estetik tarbiyalash” //”Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 8 – 4 – b.
19. Гулбоев.А.Т “Харакатлар стратегияси - буюк келажегимизнинг янги босқичи” “Педагогик маҳорат”. -Бухоро, 2019.-№3.-Б.36- 39 – 3 - bet
20. Xasanova N.H. Electronic Journal Of Actual Problems Of Modern Science, Education And Training. December 2023-12. ISSN 2181-9750. 44-48- betlar. <https://khorezmscience.uz/ru>
21. Бобокулов Қахрамон. Чолғу ижрочилиги (танбур). (5150700 – Чолғу ижрочилиги фани (турлари бўйича) бакалавриат босқичи талабалари учун мўлжалланган). Тошкент, 2021. 114 бет.

## TUMANLARDA YOSH TOMOSHABINLAR TEATRI TASHKIL ETILISHINING AHAMIYATI

*Rahmatova Maftuna To'yevna,*

*Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti*

*Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasida 3-bosqich talabasi*

*Teatr san'ati bizning mamlakatimizda katta shuhrat qozongan. Teatr san'atining barcha janr ildizlari qadimdan folklorga, xalq hayoti, ijodi, orzu milliy qadriyatlar, urf-odatlar, vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalari sadoqatni tarbiyalaydigan mavzular bilan bog'lanib hamda talab qilib kelgan va bu an'anaviy xalq teatri san'ati oqimlariga borib taqalgan. Tumanlarda teatr tomoshalarini rivolantirish yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asos bo'ladi.*

**Kalit so'lar:** teatr, xalq teatri, mustaqillik, bolalar teatrlari, urf-odatlar, tomoshabin, marosimlar.

## ЗНАЧЕНИЕ СОЗДАНИЯ ТЕАТРА ЮНОГО ЗРИТЕЛЯ В РАЙОНАХ

*Театральное искусство приобрело большую популярность в нашей стране. Все жанровые корни театрального искусства издавна связаны с фольклором, народным бытом, творчеством, темами, которые воспитывают в мечте национальные ценности, традиции, любовь к родине, приверженность идеям независимости и уходят корнями в традиционные течения народного театрального искусства. Развитие театральных представлений в районах станет основой воспитания молодёжи в духе патриотизма.*

**Ключевые слова:** театр, народный театр, независимость, детские театры, традиции, зритель, ритуалы.

## THE IMPORTANCE OF CREATING A YOUNG AUDIENCE THEATER IN THE DISTRICTS

*Theatrical art has gained great popularity in our country. All the genre roots of the theater hour have long been associated with folklore, folk life, creativity, themes that foster national values, traditions, love of the motherland, commitment to the ideas of independence and are rooted in the traditional currents of folk theater art. The development of theatrical performances in the districts will become the basis for educating young people in the spirit of patriotism.*

**Keywords:** theater, folk theater, independence, children's theaters, traditions, spectator, rituals.

**Kirish.** Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning takomillashuvi va rivojlanishida subyektiv omillar – insonning aql-idroki, tafakkur tarzi, intellektual salohiyati, iqtidori, erkinligi va ijodkorligi kabi fazilatlar alohida rol o'ynamoqda. Bularni harakatga keltiradigan botiniy kuch ma'naviy manfaat, ehtiyoj, intilishlar bo'lib, ular orasida estetik ehtiyoj alohida o'rin tutadi.

Bu borada teatr san'ati birlamchi bo'lib, sahnaviy asar orqali bir vaqtning o'zida tomoshabin tafakkuriga – ham estetik, ham ma'naviy, ham ma'rifiy, ham madaniy ta'sir etadi, uni go'zallikka, nafosat va ma'rifatga, ma'naviyatga chorlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan Taraqqiyot strategiyasida ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, “Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish orqali madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash dolzarb masalasi sifatida qayd etilgani madaniyat va san'atga berilayotgan e'tibor va madaniyat hamda san'at muassasalari, teatr va san'at saroylari taraqqiyotining huquqiy asosidir.

**Asosiy qism.** XX asrda O'zbekistonda o'z tomoshalarini bino ichida, sahnada ko'rsatuvchi, dramaturg tomonidan yozilgan aniq matn asosida faoliyat ko'rsatuvchi Yevropa shakldagi teatr san'ati tarkib topdi va rivojlandi. Shu bilan bir qatorda qadim zamonlardan XX asrgacha yetib kelgan va bir asr davomida shu yangi teatr bilan yonma – yon ijod qilgan xalq ijodiyoti ruhida teatr san'ati ham yashab keldi. Bu yangi va qadimgi teatrlar ham dramaturgik asosi, ham ijrochilik, ham sahnalashtirish uslubi bilan bir – biridan keskin farq qiladi. Ularni ajratish va farqlash maqsadida ilmiy adabiyotda qadimgi teatrlarni og'zaki an'anaviy o'zbek

teatri (qisqacha: o‘zbek an’anaviy teatri), yangi teatrni Yevropa shakldagi o‘zbek teatri (qisqacha: yangi o‘zbek teatri) deb atala boshlandi.

To‘g‘ri, ilmiy adabiyotda an’anaviy teatrga nisbatan “Xalq teatri”, “Folklor teatri” atamalarini qo‘llash ham uchraydi. Shundan “Folklor teatri” atamalarini, o‘zbek an’anaviy teatr mohiyatiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Chunki folklor teatri deganda, nuqul urf – odatlar, marosimlar bilan bog‘liq ibtidoiy teatr shakllari nazarda tutiladi. Holbuki o‘zbek an’anaviy teatri og‘zaki dramaturgiya negizida ijod qilsa-da, u malakali, professional san’atdir.

“Xalq teatri” atamasi qadimiy teatrga mos bo‘lib, uning mohiyatini aniq belgilaydi. Zotan, u asosan mehnatkashlar (hunarmandlar, dehqonlar) orasidan yetishgan qobiliyatli kishilar ijodida yashaganligi, jamiyatning muhim ijtimoiy mavzularini tasvirlab, xalq hayoti, ijodi, orzu – intilishlari bilan chambarchas bog‘lanib, uning manfaatlarini himoya qilib, kelganligi bilan chinakam xalq teatridir. Ammo xalq teatrining boshqa ma’nolari ham bor. Chunonchi, mehnat jarayonlari, urf – odatlar hamda marosimlar bilan bog‘liq bo‘lgan ibtidoiy teatr ham xalq teatri deb kelinadi. Hatto Hindiston, Xitoy, Yaponiya kabi qadimiy Sharq mamlakatlarining yozma drama asosida ish ko‘ruvchi yuqori malakali an’anaviy teatrlariga nisbatan ham “xalq teatri” atamasi qo‘llanadi. Bu ham yetmaganday sovet mustamlakachiligi davrida havaskorlikning ba’zi bir barqaror ishlaydigan teatr guruhlarini ham “xalq teatri” unvoniga ega bo‘ldi. Shuning uchun chalkashliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida qadimiy shakllarda bizning davrimizgacha yashab kelgan milliy teatrni “O‘zbek an’anaviy teatri” deb atash, maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, teatr ma’lum millatning o‘zligini, orzu-intilishlarini, tarixini, kelajagini, urf-odatlarini, qadriyatlarini badiiy obrazlar orqali psixologik ifoda etuvchi beqiyos san’atdir. Qolaversa, milliy mafkura, milliy g‘urur, vatanparvarlik, e’tiqod, millatlararo do‘stlik va totuvlik, insoniylik, mehr-saxovat, odob-axloq masalalarini yoritishda teatr boshqa barcha san’at turlardan ta’sirliroq, kuchliroq va jozibalibroq psixologik imkoniyatga ega. Shunday ekan, har qaysi xalq teatrni milliy kolorit asosida shakllantirishga intiladi. Shu orqali, xalqning qalbi va ongiga ta’sir o‘tkazishni istaydi. Teatr tarixiy an’analar va yuksak insoniy fazilatlar bilan bevosita bog‘langan.

Aynan bolalar teatrlarida xalqona xususiyatlardan va milliy nuqtayi nazardagi yondashuvlardan keng foydalanish, doim teatrning qadrini va qimmatini oshirishga xizmat qilgan. Shu asosda, yosh tomoshabinlar teatrlarida mana shu badiiylikni tomoshabinga yetkazuvchi aktyorlar jamoasining faoliyatini tavsiflash, munosabat bildirish, tahlil qilish keyingi avlod teatrlari va teatr ijodkorlari uchun o‘zining samarali ta’sirini ko‘rsatadi.

Bolalar teatri bizning mamlakatimizda katta shuhrat qozongan. Teatr sa’atining bu janr ildizlari qadimda folklorga, an’anaviy xalq teatri san’ati oqimlariga borib taqalgan. Umuman olganda, ibrat bo‘la olish, namuna ko‘rsatish yo‘li bilan kattalar va bolalarning ruhiyatiga ta’sir o‘tkazishda san’atning ahamiyati muhim ekanligini eramizdan avvalgi IV-V asrlardayoq ajdodlarimiz anglab yetgan ko‘rinadi. Teatr orqali nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham ta’sir o‘tkazib kelinganligi Gerodot, Mark Avreliy, Aristotel kabi qadimgi tarixchi va allomalarning asarlarida keltirilgan. Dunyoning barcha qit’alarida bolalar teatrining o‘ziga xos an’analari mavjud bo‘lib, ular bir necha asrlar tarixiga ega. Kelajak avlodni davrimizga munosib kishilar qilib tarbiyalashda yosh tomoshabinlar teatrining o‘rni katta. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan har ikki o‘zbek va rus yosh tomoshabinlar teatrlari ana shu yo‘lda xizmat qilmoqda. Ular bugungi kunga qadar ancha uzun va mashaqqatli ijod yo‘lini bosib o‘tdilar.

G‘arbiy Yevropa o‘quv yurtlarida bolalar tomonidan ijro etiladigan spektakllar XV asrdan ma’lum bo‘lgan. Sobiq Ittifoq respublikalarida XX asrning yigirmanchi yillaridan paydo bo‘ldi. Bolalar badiiy havaskorligining bir turi sifatida o‘quvchilar uyi va saroylari, maktab va boshqa joylarda tashkil topdi. Bolalar va o‘smirlar uchun xizmat qiladigan professional teatr Yosh avlodni badiiy, estetik va g‘oyaviy jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. Repertuari ertak va bolalar adabiyoti namunalarini asosida yozilgan inssenirovkalardan, mumtoz dramaturgiyaning maktabda o‘tiladigan namunalaridan, bolalarbop pyesalardan iborat. Dramatik (yosh tomoshabinlar teatri) va qo‘g‘irchoq teatri kabi turlari bor.

Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra yosh tomoshabinlar teatr 1928-yilda dunyoga kelgan bo‘lib, uning birinchi teatr truppasi sifatida tashkil etilishida shifokor S.Eten va rassom S. Maltlarning hissasi katta bo‘lgan. Yosh tomoshabinlar teatrining faoliyati jamoatchilik e’tiborini tortib, 1929-yil 10-may kuni Toshkentda Kolizey teatrida uning bir yillik faoliyati tantanali suratda nishonlandi. Yig‘ilishda Xalq maorifi komissarligi vakili S.Voshene teatrga “Birinchi davlat bolalar teatri” nomini berilganligini va uni Xalq maorifi komissarligi o‘zining qaramog‘iga olganligini e’lon qildi. Xalq komissarligi, shu bilan birga teatrni yozda O‘zbekiston ichki rayonlari bo‘ylab gastrolga yuborish, ko‘rgazma teatrga maxsus bino ajratish, hamda yozning oxirida uning qoshida “O‘zbek milliy yoshlar teatri” tashkil etish haqida qaror qabul qildi. Ammo ba’zi ichki sabablarga ko‘ra, rejissura va aktyorlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar tufayli bu truppa gastrol yakunlanib qolganda tarqalib ketdi. Yosh jamoa hayotida yuz bergan bu voqea Xalq maorifi komissarligiga teatrning hayotiy ekanligiga yana shubha tug‘dirdi. Natijada, 1929-1930-yillar teatr mavsumi uchun mo‘ljallangan

moddiy yordamning deyarli yarmi qisqartiriladi. Lekin jamoatchilik Xalq maorifi komissarligining bu ishini tanqid qilib, yosh tomoshabinlar teatri va uning qoshida o‘zbek yosh tomoshabinlar teatri tashkil etish uchun zarur mablag‘ni to‘la to‘kis berishni talab qiladi. S.Eten tashkil etgan yangi truppa ishini 1-oktabrdan boshlaydi.

Oyning o‘rtalariga kelib Toshkentdagi Kafanov nomli klub binosi (San‘at muzeyining yangi binosi) yosh tomoshabinlar teatri ixtiyoriga topshirildi. Shu vaqtning o‘zida truppa o‘zining birinchi asari bo‘lmish L.Makar pyesasi asosida “Timoshkaning qoni” spektaklini namoyish etadi. Uzoq tortishuv va bahslardan so‘ng, bir oy vaqt o‘tgach, nihoyat, Rus yosh tomoshabinlar teatri qoshida o‘zbek aktyorlari milliy studiyada o‘zining dastlabki mashg‘ulotlarini boshlaydi.

Respublika bolalar teatri masalasi 1930-yil 6-7-fevral kunlari bo‘lib o‘tgan san‘at xodimlarining birinchi O‘rta Osiyo kengashida ham ko‘tarilgan. Kengash qatnashchilari Respublika san‘at boshqarmasi boshlig‘i Bala Dobrov ma‘ruzasini muhokama qilar ekanlar, 1930-yilda faqat O‘zbek yosh tomoshabinlar teatrigina qoldirilishi, Rus yosh tomoshabinlar teatriga esa tarqatilajagi haqidagi rejani qoralab, keskin tanqid qiladilar. Muzokarada so‘zga chiqqanlar orasida o‘zbek bolalar teatriga keksa arboblardan bir Nurxon Eshmuhamedov ham bo‘lgan. U jumladan bunday degan: “Men yosh tomoshabinlar (rus) teatrida u tashkil topgan davrdan beri ishlayman. S.Eten juda yaxshi ishlar qilgandi. U ishlagan vaqtda Yosh tomoshabinlar teatri qoshida o‘zbek teatri ham faoliyat ko‘rsatardi. Keyinchalik, rus teatri tarqalgach men gosdramaga o‘tmoqchi bo‘lgan edim. Lekin, Xalq maorif komissarligi milliy teatr (TYUZ)ni tasdiqlamadi. Bizlar o‘zbekcha qo‘g‘irchoq spektakli tashkil etgan paytlarimizda barcha o‘zbek bolalari mamnun edilar. Ular bo‘sh vaqtlarini qanday o‘tkazishni bilmay, ko‘chada it urishtirib yurar edilar. Milliy studiyaning yashashi, zarur mablag‘ ham, o‘qituvchilar ham yo‘q. Studiyachilar bilan bir o‘zim shug‘ullanmoqdaman. O‘zbek studiyasiga albatta yaxshi e‘tiborda bo‘lmoq va uni mustahkamlamoq zarur”.

Shunday qilib, 1929-yil oktabrda Rus yosh tomoshabinlar teatri qoshida o‘zbek bolalar teatri uchun ochilgan studiya bir yil davomida iste‘dodli kadrlar bilan to‘ldirib boriladi. Truppa o‘qish jarayonida ikkita tarjima asar “Beshlar” va “Shimolga harakat” pyesalarini tayyorlaydi. Avvaldan va‘da qilinganidek, 1930-yil oktabr oyiga kelib milliy studiyaga “Birinchi o‘zbek yosh tomoshabinlar teatri” nomi berildi. Truppa endi davlat teatri sifatida shu oyning o‘zida eski shahardagi xotin-qizlar klubida dastlabki spektakllarini namoyish etdi.

1930-yil studiyachilar bir necha pyesalarni sahnalashtirib, bu teatni professional teatr darajasiga ko‘tarishdi. Yoshlar tarbiyasida yosh tomoshabinlar teatriga ahamiyati juda katta bo‘lib, 1930-1931 yillar teatr mavsumi ruslar uchun hamda mahalliy millat bolalari hayotidan pyesalar qo‘yishni ma‘lum qiladi. Truppa tarkibida Nurxon Siddiqov, Tojivoy Ahmedov, Jo‘ra Tojiyev, Zokirxon Sodiqov, Afandixon Ismoilov, Qutbi Mavlonova, Rahima Sirojiddinova, Ibrohim Odilov, Muhammadjon Soliyev, Sanjar Tillayev, Abdurahmon Tolipov, Zikrilla Xo‘jayev kabi iste‘dodli aktyorlar bo‘lgan.

Yosh tomoshabinlar teatri ya‘ni “Yo‘ldosh Oxunboboyev” nomidagi O‘zbek davlat respublika yosh tomoshabinlar teatri – bolalarga mo‘ljallangan teatrdir. Biz bu teatni rus yosh tomoshabinlar teatri tarkibidagi o‘zbek qo‘g‘irchoq truppassi zahirida milliy studiya sifatida tashkil etilganligini yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan bilib oldik. Bu teatring birinchi rejissyori va aktyori Nurxon Eshmuhamedov, birinchi rassomi Shonazir Shorahimovlar bo‘lgan.

Nihoyat, har ikki respublika yosh tomoshabinlar teatriga tashkil etilgan davrini tasdiqlovchi bir hujjat mavjud bo‘lib, bu Respublika Xalq maorifi komissarligi ma‘naviyat boshqarmasining 1931-yil 3-yanvarda Respublika rahbar tashkilotlari madaniyat bo‘limlariga ularning O‘zbekiston teatrlari haqidagi tushuntirish xatidir. Unda respublikamizdagi teatrlarning soni, ijodiy tarkibi, tashkil bo‘lgan yillari keltirilgan. Jumladan, shunday ya‘ni Rus yosh tomoshabinlar teatri 1929-yil 21-mayda, O‘zbek yosh tomoshabinlar teatri esa 1930-yil oktabr oyida, davlat teatri sifatida tashkil etilgan deb ko‘rsatilgan.

1931-yil truppa Buxoro teatriga birlashtirilib F.Xojayev nomidagi Buxoro o‘zbek davlat drama, “Birinchi o‘zbek yosh tomoshabinlar teatri” deb atalgan. Bu teatrga Y. Bobojonov badiiy rahbar hamda bosh rejissyor etib tayinlangan. Jamoa qiziqarli spektakllar qo‘yishiga qaramay, o‘z tomoshabinini topolmaydi. Shu sababli aktyorlar tarqab ketib, 1933-yil teatr vaqtincha o‘z faoliyatini to‘xtatdi. 1934-yil Toshkentda Yosh tomoshabinlar teatriga faoliyati qayta tiklandi. Shundan so‘ng teatr jamoasi yangi aktyorlar hisobiga kengaydi. Qisqa vaqt ichida “Qutqarish”, “Kurash bolasi” kabi to‘laqonli spektakllar sahnalashtirildi.

Teatr truppassi 1937-yilda Lohutiy nomidagi Toshkent teatr studiyasini bitiruvchilari hisobiga to‘ldirildi. Bu davrda teatr I.Axmedov, T.Tula, O.Tolipov, S.Bayazitova, K.Azamova, Y.Xusanboyev, V.Usmonov, N.Do‘stxo‘jayev, M.Kriyev, M.Yo‘ldosheva, M.Xamidova kabi aktyorlar, X. Ismatullayev, U.Ismoilov, T.Sachakova, T.Ibroximova, D.Obidov, Y.Azamov, A.Turdiyev, A.Ismoilov, B.Xo‘jayev, A.Grigoryan kabi rejissorlar ijod qilganlar. Teatr repertuari “Zo‘raki tabib”, “Veronalik ikki yigit”, “Rashkchi chol”, “Ikki sergak”, “Men kurash bolasi”, “Yoriltosh”, “Revizor” singari spektakllar bilan

boyidi. Teatr tomoshalari yoshlar tarbiyasiga psixologik yondashishda ularni tarbiyalashga hamda psixologiyasini o'rganish uchun katta xizmat qiladi.

1947-yilda alohida san'at asarlari va arboblari faoliyatiga nisbatan subyektiv yondashuv hamda iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli truppa faoliyatini vaqtincha to'xtatib Toshkentdan gastrol safariga jo'nab ketadi. Faqat 1948-yilning oxirida qayta tashkil qilingan jamoa faoliyat ko'rsatishni boshladi. Teatr oldingi eng yaxshi spektakllarni tiklash bilan bir qatorda, e'tiborni asosan ertak janriga hamda mumtoz asarlarga qaratdi. “Semurg”, “To'g'ri va egri”, “Skapening nayranglari” va boshqalar shular jumlasidandir. 1950-yilning oxirlaridan teatr oliy ma'lumotli rejissyorlar, aktyorlar bilan ta'minlanadi. 1950-yildan to 1980-yilgacha teatr sahnasidan bolalarga bag'ishlangan “Chirancha g'oz”, “Ali Vali”, “Qovoqvoy va Chanoqvoy”, “Doktor Hakimning g'aroyib ixtirosi”, yoshlar hayotiga bag'ishlangan “Dil tortsa”, “O'n sakkiz yoshligim”, qahramonlik, tarixiy- biografik mavzuda “Abdulla Nabiye'v”, “Amu qahramonlari”, “Toshkent - non shahri”, “Donishmandning yoshligi”, mumtoz asarlardan “Uch mushketyor”, “Gavrosh”, “Revizor”, “Noraso”, “Oltin tulpor”, shuningdek, “Shum bola” kabi spektakllar sahnalashtirildi.

Yo'ldosh Oxunboboyev nomidagi teatr 1968-yil rus yosh tomoshabinlar teatridan ajralib chiqadi. Teatr asosini A.Ismoilov, N.Eshmuxamedov, X.Abdullayev, M.Usmonova, M.Soliyev, I.Odilov, Z.Soqiyev, A.Mavlonov, K.Mavlonova, O.Ibroximov, Tojiyev, K.Siddikov, R.Sirodjiddinov, U.Raxmon, SH.Shoraximov tashkil etganlar. Dastlabki yillar teatr repertuari yosh tomoshabinlar qiziqishidan yiroq, asosan tashviqot va targ'ibot asarlaridan iborat bo'lgan.

Yosh tomoshabinlar teatrlarining faoliyati respublikada bolalar teatriga asos solib, bu sohada taraqqiyot yo'lini belgilab berdi. Teatrdagi turli yillar davomida R.Pirmuxamedov, A.Ismatov, M.Kuznesova, Y.Bobodjonov, I.Ladigin, A.Ginzburg, N.Ivanov, K.Xodjayev, X.Sadiyev va boshqalar ijod qilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng teatr ijodiy hayotida garchand keskin burilishlar ro'y bermagan bo'lsada uning ijodiy yo'nalishi qayta ko'rib chiqildi. Asosiy e'tibor milliy dramaturgiyani rivojlantirish, yosh tomoshabinlar ongida milliy mafkurani shakllantirish, ruhan oziqlantirishda milliy dramaturgiyaga tayangan holda ish olib borish asta-sekin yo'lga qo'yila boshlandi. “Kecha va kunduz”, “Mehr ko'p ko'rgazdim”, “Ming bir kecha”, “Hasan kayfiy”, “Osmondan tanga yoqqan kun”, “Eski jo'va gavroshlari” kabi spektakllar birinchidan o'tmish tariximizga yangicha nazar bilan qarashga undasa, ikkinchidan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalari sadoqatni tarbiyalaydi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng teatr jamoasida yuzaga kelgan imkoniyatlardan to'la-to'kis foydalanish, eskirib yaroqsiz holga kelgan ayrim ijro va talqin, uslub va shakllardan voz kechildi. Teatr ijodiy hayotida garchand keskin burilishlar ro'y bermagan bo'lsada, uning ijodiy yo'nalishi qayta ko'rib chiqildi. Asosiy e'tibor milliy dramaturgiyani rivojlantirish, ruhan oziqlantirishda milliy dramaturgiyaga tayangan holda ish olib borish kabi vazifalar asta-sekin yo'lga qo'yila boshlandi.

**Xulosa.** Shuni aytib o'tish joizki, keyingi yillar ijtimoiy, axloqiy masalalarni yorituvchi, yosh tomoshabinlar idrokini, tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan, erkin fikrlashga o'rgatadigan spektakllar teatr repertuaridan o'rin oldi. Masalan, “Oq kema”, “O'z uyingdasan”, “Donishmandning yoshligi”, “Beozor laylaklar”, “Qaldirg'ochlar”, “Qorinbotir”, “Essiz umr”, “Hayotbaxsh tomchi”, “Ot kishnagan oqshomda”, “Alpomish”, “Boz masx araboz”, “Advokatlik osonmi” va boshqalar shular jumlasidandir. Tomoshabin ziyarak shaxs. Ayniqsa, bolalarni shunchaki aldab bo'lmaydi va shunchaki ularga hamma narsani taqdim etib bo'lmaydi. Ularning istaklari doim teatr jamoasini befarq qoldirmasligi kerak va teatr ularning istaklarini nazorat qilishi lozim. Shu asosda, tanlangan mavzuga yondashishda tomoshabiniga ta'sir etish tamoyilini hisobga olish lozim. Masalan, azaliy kurash omillari sanalmish ezgulik va yovuzlikning mohiyatini aniq tushuntirish asnosida shtamplarga berilmaslik kerak.

#### Adabiyotlar:

1. Safarov O. O'zbek bolalar folklori. – T.: O'qituvchi, 1985.
2. Rajabov D. va Rajabov T. Xalq qo'shig'i va musiqa ijrochiligi. – Toshkent: “Navro'z” nashriyoti 2018.
3. 4 Tukhtasin Ibodovich Rajabov Effectiveness of the process of teaching Bukhara children folk songs in music class <https://www.eurchembull.com/issue-content/effectiveness-of-the-process-of-teaching-bukhara-children-folk-songs-in-music-class-7277> ECB European Chemical Bulletin.ISSN 2063-5346 Eur.Chem. Bull. 2023, 12 (Special Issue 4), 16389-16397
4. Ражабов Тухтасин Ибодович Возможности совершенствования процесса обучения узбекскому музыкальному фольклору // Образование и инновационные исследования (2023 год, №7) ISSN 2181-1717(E) <http://interscience.uz>

5. Tukhtasin Ibodovich Rajabov Distinctive Features of Folk Songs That Serve in The Spiritual and Moral Formation of Pupils International Journal of Culture and Modernity <https://ijcm.academicjournal.io> ISSN 2697-2131, Volume 29/ Jun-2023
6. Tukhtasin Ibodovich Rajabov The Role of Folk Songs in Children's Education Middle european scientific bulletin ISSN 2694-9970 <https://cejsr.academicjournal.io> Middle European Scientific Bulletin, Volume 37 | June-2023.
7. Tukhtasin Ibodovich Rajabov Izuchenie uzbekskix folklornyx narodnyx pesen i ix psixologicheskoe vliyanie. Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axbototnomasi 2 son, 2023 yil 127-130- bet.
8. Ражабов Тухтасин Ибодович Тематическая классификация узбекского детского музыкально-игрового фольклора. 10.47689/2181-1415-vol4-iss5/S-pp340-345 «Jamiyat va innovatsiyalar» jurnali ([www.inscience.uz](http://www.inscience.uz) Том 4 № 5/S (2023): Спецвыпуск междисциплинарного электронного научного журнала «Общество и инновации».
9. Ражабов Тухтасин Ибодович Возможности совершенствования процесса обучения узбекскому музыкальному фольклору // Иlimiy-metodikaliq jurnal Muallim hem uzliksiz bilimlendirio‘ 2023 3/4-san mart-aprel Nökis 494-504-bet.
10. Tukhtasin Ibodovich Rajabov O‘zbek musiqa folklorini o‘rgatish jarayonini takomillashtirish imkoniyatlari. Иlimiy-metodikaliq jurnal Muallim hem uzliksiz bilimlendirio‘ 2023 3/4-san mart-aprel Nökis 486-494-bet.

## ZAIF KO'RUVCHI VA KO'ZI OJIZ O'QUVCHI YOSHLARNING MUSIQIY SAVODINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

*Fayzullayev Ermat Majidovich,*

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti katta o'qituvchisi, p.f.n.*

*Sadirov Bobirjon Minavar o'g'li,*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-kurs magistranti*

*Zaif ko'ruvchi o'quvchi yoshlarning musiqa savodi, jamoaviy ijrochilik ko'nikmalarini tarkib toptirishda ularga dars jarayonida o'rganilishi lozim bo'lgan kuy va qo'shiqlar matnlari ustida ishlash, mashqlar kuylash, nota savodxonligini tarkib toptirish, musiqiy savodxonligini shakllantirish texnologiyalari yuzasidan fikr-mulohazalar bildiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *musiqa, eshitish, fikrlash, zaif ko'ruvchi, ko'zi ojiz, musiqiy savodxonlik, musiqiy tuyg'u, audiokitob, kompyuter dasturlari.*

## ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ СЛЕПЫХ И СЛАБОВИДЯЩИХ УЧАЩИХСЯ

*В части технологий развития музыкальной грамотности и навыков коллективного исполнения у слабовидящих учащихся предусмотрена работа над текстами мелодий и песен, которые следует разучить на уроке, певческие упражнения, развитие нотной грамоты, формирование обратной связи по музыкальной грамотности.*

**Ключевые слова:** *музыка, слух, мышление, слабовидящие, слепые, музыкальная грамотность, музыкальное чувство, аудиокнига, компьютерные программы.*

## TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING MUSICAL LITERACY OF THE BLIND AND VISUALLY IMPAIRED STUDENTS

*The technologies for developing musical literacy and collective performance skills in visually impaired students include working on the lyrics of melodies and songs to be learnt in class, singing exercises, development of musical literacy, and feedback on musical literacy.*

**Keywords:** *music, hearing, thinking, visually impaired, blind, musical literacy, musical sense, audiobook, computer programs.*

**Kirish.** Barkamol avlodni ma'naviy ongini shakllantirishda barcha fanlar qatori musiqaning ham alohida o'rni bor. Bugungi kun musiqa ta'limining eng muhim maqsadlaridan biri nazariy va amaliy jihatdan bilimli, ijodkor, qobiliyatli yoshlarni tarbiyalab yetishtirishdir. Shu bois musiqa ta'limining sifat va samaradorligini oshirishning turli metodik jarayonlarini yangi ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar asosida ishlab chiqish malakalari alohida mavzu sifatida tahlil etilmoqda. Shuningdek, musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning eshitish, fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va ularni musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirishda ularning psixologik-fiziologik xarakterlariga oid hamda yosh xususiyatlariga mos musiqiy asarlar haqida ma'lumotlarni umumiashtirish, o'rganish va tahlil qilish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, yurtimizda yoshlarning tutgan o'rnini alohida ta'kidlagan holda, "Biz yoshlarga oid davlat siyosatini hech qachon og'ishmasdan, qattiyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" – deya urg'u berib o'tganlar.

Shundan kelib chiqqan holda bo'lajak kadrlarni har tomonlama tayyorlash – pedagogik, texnik-texnologik, kasbiy bilim olishining o'ziga xos belgisi ularning amaliyot asosida yangilikni o'rganish, bilimga intilish, ko'nikma, malaka, mahorat darajasini ko'tarish, ishlab chiqarish va jamiyatning muhim masalalarini ochishga qaratiladi. Ta'lim mazmunini yangilash, takomillashtirish va sifat ko'rsatkichlarini oshirish barobarida o'qituvchi – murabbiylarning malakasini oshirish, ularning ilm – fan taraqqiyoti bilan hamqadam borishini, ayniqsa barcha ta'lim tizimida keng kirib kelgan va qo'llanilayotgan uzluksiz ta'lim



tizimida imkoniyati cheklangan ko'zi ojizlar maktabi o'quvchilarining musiqa nazariyasi fanidan bilimini oshirish.

**Asosiy qism.** Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, ko'zi ojiz va nuqsoni cheklangan yosh - o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va ahloqiy - g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir Al-Farobiy “Bu fan tanning sog'ligi uchun foydalidir”, degan edi, bobomiz Shayx Sa'diy esa “Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir” deb ta'kidlaydilar. Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni rivojlantiruvchi vositadir.

Musiqa ta'limi o'quvchi - yoshlarga nafaqat qo'shiq kuylash, musiqa tinglash malakalarini shakllantiradi, musiqiy savodxonligini o'stiradi. Shuningdek musiqiy qobiliyatini tarbiyalashda hissiyotni o'stirishda, diqqat, xotirani rivojlantirishda, taassurot olamini boyitishi, tafakkur ko'lamini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zlarining “Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch” nomli asarlarida “Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi”. Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining “Zafarnoma” kitobida Amir Temur davrida o'tkazilgan musiqiy anjumanlar haqida to'xtalib, “Yaxshi ovozli xonandalar kuylashni boshlab, g'azalu naqsh aytur erdilar. Va turku - mo'g'ul, xitoyu arab va ajamdin har kim o'z rasmi bilan nag'ma aytur erdi” degan ma'lumotlarni keltiradi” deb ta'kidlaydilar.

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarga badiiy-estetik tarbiyani shakllantirish, hissiy tuyg'ularni rivojlantirish borasida izlanishlar olib borish, shuningdek, umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish musiqa pedagogikasining asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Dunyoda 7,7 milliardga yaqin odam yashaydi. Afsuski, ularning ko'pchiligi sog'liq uchun cheklangan imkoniyatlarga ega. JSST ma'lumotlariga ko'ra, Yer yuzida 37 millionga yaqin ko'r va 124 million ko'rish qobiliyati zaif odamlar bor.

Ammo inson uchun imkonsiz narsa yo'q. Rey Charlz, Art Tatum, Andrea Bocelli, Stivi Uander, Diana Gurtskaya o'zlarining ahvoliga qaramay, musiqa sohasida dunyo miqyosida shuhrat qozongan ko'r odamlardir. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan odamlarning shaxsiy fazilatlarini shakllantirishda musiqaning o'rni qanchalik katta ekanligini taxmin qilish mumkin.

“Musiqa” fanining mazmuni o'quvchilarning insoniyat sivilizatsiyasi va shaxs hayotining madaniy-tarixiy taraqqiyotida san'atning mazmun-mohiyatini anglashini ta'minlaydi, ma'naviy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilarning qadriyat yo'nalishlarini shakllantiradi.

“Musiqa” fanining kursi turli xil san'at turlarini: musiqa va adabiyot, xalq amaliy san'ati, kino, teatr va xoreografiya, rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik, fotografiya, arxitektura, dekorativ-amaliy san'at va dizayn, multimedia san'ati salohiyati sifatida o'rganadi. Badiiy-ijodiy faoliyatda talabalarining barkamol, intellektual ijodiy, ma'naviy va umumiy badiiy didini rivojlantiradi.

“Musiqa” o'quv fani ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi talabalar hayotida alohida o'rin tutadi. Har bir darsda bolaning yanada samarali rivojlanishiga, ikkilamchi og'ishlarning oldini olishga yordam beradigan tuzatish ishlari olib boriladi: ob'ektlar va hodisalar haqida g'oyalarni aniqlashtirish va shakllantirish, vizual idrok etish, ixtiyoriy xotira, nutq va o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim hisoblanadi.

Musiqa darslarida beriladigan ma'lumotlar ko'zi ojiz maktab o'quvchilarining dunyoqarashini kengaytiradi, ularning atrofdagi olam haqidagi bilimlarini boyitishga, hayotiy tajribani shakllantirishga yordam beradi. Jamoada, guruhda, mikroguruhda (juftlikda) ishlash vizual mahrum bo'lgan talabalarga zarur ijtimoiy muloqot tajribasini beradi.

“Musiqa” fani tufayli imkoniyati cheklangan o'quvchilar ham sog'lom odamlar, ham nogironlar teng imkoniyatlarga ega bo'lgan zamonaviy jamiyatda hayotga tez moslasha oladilar. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan talabalar uchun musiqa qo'shimcha ma'lumot manbai, sevimli mashg'ulot, mumkin bo'lgan kasb va muloqot usulidir.

Zaif ko'ruvchi o'quvchi yoshlarning musiqiy savodxonligini shakllantirish texnologiyalari ushbu toifadagi o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan bir qator innovatsion usul va usullarni o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar musiqiy materiallarni moslashtirish va ulardan foydalanish, maxsus dasturlar va qurilmalardan foydalanish va har bir talaba bilan individual ishlashga asoslangan.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi talaba yoshlarning musiqiy savodxonligini shakllantirishning asosiy texnologiyalaridan biri bu o'quvchilarga musiqa tinglash, musiqiy terminologiya va turli janrlarni o'zlashtirishga imkon beradigan ovozli dasturlardan foydalanishdir. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilarga ovozli signallar yoki ovozli teksturalar asosida o'z musiqalarini yaratishga imkon beradigan maxsus dasturlar ham mavjud.

Shuningdek, musiqiy savodxonlikni shakllantirish texnologiyasining muhim jihati moslashtirilgan musiqiy materiallardan foydalanishdir. Zaif ko'ruvchi o'quvchilar uchun maxsus musiqiy yozuvlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular kattalashtirilgan belgilar o'lchamlari va qarama-qarshi elementlarga ega. Bunday yozuvlar o'quvchilarga musiqiy notalarni yaxshiroq boshqarish va idrok etish imkonini beradi. Zaif ko'ruvchi talaba yoshlarning musiqiy savodxonligini shakllantirishda talabalar bilan individual ishlash ham muhim rol o'ynaydi. Musiqa o'qituvchilari har bir talabaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishlari va o'rganishga alohida yondashishlari kerak. Bunga turli xil ta'lim usullaridan foydalanish, eshitish va teginish sezgilariga e'tibor qaratgan holda darslar qurish, musiqiy qobiliyat va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan ota-onalar va mutaxassislar bilan faol muloqot qilish kiradi.

Ko'zi ojiz o'quvchilarda musiqiy savodxonlikni rivojlantirishga yordam beradigan bir nechta usullar mavjud. Ushbu usullardan biri audio o'qitish metodikasi.

Audio trening - bu musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan klassik musiqiy topshiriqlarning ovozli versiyasi.

Ushbu usul, ayniqsa, ko'zi ojiz o'quvchilar uchun juda samarali, chunki ular o'zlarining ko'rish qobiliyatiga tayanmasdan musiqa va turli xil musiqiy figuralarni aqliy ravishda namoyish etishlari mumkin.

Yana bir usul - bu maxsus o'quv dasturlaridan foydalanish. Bu sizga turli xil musiqiy asarlarni tinglash va tahlil qilish, ularning ohangdor va ritmik tuzilishini aniqlash, asboblar va tovushlarni tanib olish imkonini beradigan dasturlar.

Bunday dasturlar odatda mavjud interfeyslarga ega va ko'rish qobiliyati past o'quvchilar foydalanishi uchun moslashtirilishi mumkin.

Ko'zi ojiz o'quvchilarga musiqa asboblaridan foydalanishga yordam beradigan maxsus texnika va texnologiyalardan foydalanish ham muhimdir. Masalan, ko'zi ojiz o'quvchilarga asbob tugmachalari yoki torlarini yo'naltirishga imkon beradigan teginish belgilariga ega bo'lgan maxsus musiqa asboblari mavjud.

Har bir ko'zi ojiz o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda individual o'quv dasturlarini ishlab chiqish muhimdir. Ular ovozli materiallardan foydalanish, eshitish mashqlari, musiqiy terminologiyani o'rganish va musiqa asboblarini qanday chalishni o'rganishni o'z ichiga olishi mumkin.

Ko'zi ojiz yoshlar uchun musiqiy savodxonlikni shakllantirish texnologiyalaridan foydalanish ushbu o'quvchilarning musiqiy ko'nikmalarini o'rganish va rivojlantirish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. To'g'ri tanlangan texnika va texnologiyalar ko'rish qobiliyati cheklangan to'siqlarni yengib o'tishga va ko'zi ojiz yoshlarning iste'dodlarini to'liq o'qitish va rivojlantirishga imkon beradi.

Ko'zi ojiz o'quvchi yoshlarning musiqiy savodxonligini shakllantirishda muhim materiallar quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Brayl yozuvlari grafikasi: bu ko'rish qobiliyati past va ko'zi ojiz odamlar o'qishi mumkin bo'lgan nota yozuvlari uchun mo'ljallangan konveks belgilar tizimi. Bunday materiallar o'quvchilarga musiqiy notalarni o'qish va ijro etishni o'zlashtirishga yordam beradi.

2. Ovoz yozuvlari: ko'zi ojiz o'quvchilarga turli xil musiqa yozuvlaridan foydalanish imkoniyatini berish ularga eshitish qobiliyatini rivojlantirishga, asboblar ohanglari, ritmlari va tembrlarini tahlil qilishga yordam beradi.

3. Ixtisoslashgan musiqa dasturlari: musiqani o'rgatish uchun mo'ljallangan elektron dasturlar va kompyuter dasturlari ko'zi ojiz o'quvchilarda musiqiy savodxonlikni rivojlantirish uchun foydali vosita bo'lishi mumkin. Ular o'yin vazifalari, vizual va ovozli materiallar, musiqa nazariyasi tushuntirishlari va interaktiv mashqlarni o'z ichiga olishi mumkin.

4. Audiokitoblar va darsliklar: batafsil tushuntirishlar va misollar bilan maxsus ishlab chiqilgan audio yozuvlar va musiqa darsliklari o'quvchilarga musiqa nazariyasi asoslarini, jumladan notatsiya, akkordlar, ohang va ritmi tushunish va o'zlashtirishga yordam beradi.

5. Qo'l asboblari: ko'zi ojiz o'quvchilarga pianino, gitara, baraban, shamol yoki torli asboblar kabi turli xil asboblar bilan tanishish va o'ynash imkoniyatini berish ularga musiqani yaxshiroq tushunishga, vosita mahoratini va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

6. Maxsus o'quv qo'llanmalari va metodologiyalari: ko'zi ojiz o'quvchilarga musiqa o'rgatish uchun ixtisoslashtirilgan o'quv materiallari va metodologiyalari mavjud. Ushbu materiallar musiqani o'rganish va tushunishni yaxshilash uchun katta belgilar bilan moslashtirilgan notalarni, notalar yoki ritmik piktogrammalar bilan teginish kartalarini, nuqta belgilarini, tovush tavsiflarini va boshqa o'ziga xos elementlarni o'z ichiga olishi mumkin.

**Xulosa.** Shunday qilib, zaif ko'ruvchi o'quvchi yoshlarning musiqiy savodxonligini shakllantirish texnologiyalari audio dasturlardan, moslashtirilgan musiqiy materiallardan foydalanish va o'quvchilar bilan individual ishlashni o'z ichiga oladi. Ushbu usullar ko'zi ojiz o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va ular uchun musiqa sohasida yangi imkoniyatlar ochadi.

Zaif ko'ruvchi o'quvchi yoshlarning musiqa savodi, jamoaviy ijrochilik ko'nikmalarini tarkib toptirishda ularga dars jarayonida o'rganilishi lozim bo'lgan kuy va qo'shiqlarni matnlari ustida ishlash, mashqlar kuylash, nota savodxoligini tarkib toptirish, cholg'u sirlarini mukammal egallash, dars faoliyatlarini chuqur o'rgatish orqali ularda ko'nikmalarni shakllantirish, musiqiy his-tuyg'ularini, eshitish va fikrlashni rivojlantirishda darsning barcha faoliyatlari asosiy vosita sifatida o'rganildi va umumiy izoh berib chiqildi:

1. Zaif ko'ruvchi o'quvchi yoshlarga musiqa savodini shakllantirish sirlarini o'rgatish, zamonaviy o'qitish texnologiyalari jamoaviy ijrochilik faoliyat turi vositasida ularda, musiqiy tuyg'usini rivojlantirish, eshitish, fikrlash qobiliyatlarini tarkib toptirishda musiqa faoliyatlari tarkibidagi asarlarning kuyi, ohang tuzilishi va badiiy-g'oyaviy mazmuni tahlil qilindi;

2. Zaif ko'ruvchi o'quvchi yoshlarning musiqiy savodini shakllantirish texnologiyalarini o'rgatish, ko'nikmalarini tarkib toptirishni rivojlantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari hamda psixologik-fiziologik xarakterlariga mos bo'lgan musiqiy asarlar haqida ma'lumotlar to'plandi.

3. Musiqa madaniyati darslarida zaif ko'ruvchi o'quvchi yoshlarning musiqiy savodini shakllantirish texnologiyalari metodlarini qo'llash, jamoaviy ijrochilik ko'nikmalarini tarkib toptirishni rivojlantirishning shakl va usullari ishlab chiqildi hamda manbalar asosida yaratildi.

4. Musiqa madaniyati darslarida zaif ko'ruvchi o'quvchi yoshlarning musiqiy savodini shakllantirish texnologiyalari sirlarini o'rgatish jarayonida zamonaviy o'qitish texnologiyalardan foydalangan holatda jamoaviy ijrochilik ko'nikmalarini tarkib toptirishda ularning eshitish, fikrlash qobiliyatlarini yuksaltirish va musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirishga doir ishlab chiqilgan usul va yo'llarning natijalari o'rganildi va tahlil qilindi.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. – 102 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
4. Ризолати Г. Зеркально-нейронная система и имитация. Перспективы подражания: от зеркальных нейронов до мемов. Кембридж, Массачусетс: MIT Press; 2014; 11(4); 147-149
5. Xoshimov O. “Maktabda musiqaviy tarbiya”.-T., 1992 yil.
6. Musurmonova O. «Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi». -T., «O'qituvchi». 1996 yil.
7. Баундер А. Новые информационные технологии образования. Вашингтон, изд. Share; 2015; 14(2): 214 – 224
8. Таубаева Ш.Т., Лактионова С.Н. Педагогические инновации как теория и практика инноваций в системе образования. Алматы: Гылым; 2001. с.216
9. Петелина Ю.В. Обучение музыкальным компьютерным технологиям // Звуковые виртуальные студии. 2008. № 1.
10. Мямешева Г. Добродетель в современном умном мире. Вестник КазНУ. Серия «Педагогическая наука». 2015; 44 (1): 152-156
11. Soirova D. Musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. – T;- Fan va texnologiyalar, - 2006 yil.
12. Кадыров Р. «Музыкальная педагогика». Ташкент, 2009.
13. Fayzullaev E.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.fan.nomz... dissertatsiyasi. TDPU. T.: 2010y.
14. www.ziyouz.com kutubxonasi. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.– Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. 761b.
15. Gulboyev A.T “Art-pedagogik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash” // ”Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 8, 4 - b.
16. Xasanova N.H. Electronic Journal Of Actual Problems Of Modern Science, Education And Training. December 2023-12. ISSN 2181-9750. 44-48- betlar. <https://khorezm-science.uz/ru> 18.
17. "Pedagogik aksiologiya". – darslik. - Buxoro, “Durdona” nashriyoti, 2023. -138-bet 8,7 bet.

## NOMODDIY MADANIY MEROS MUHOFAZASIDA O‘ZBEKISTON SIYOSATI: ISLOHOT VA ISTIQBOL

*O‘rinov Shamsod Komilovich,  
Buxoro davlat universiteti, Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasida o‘qituvchisi  
Negmatova Sevinch Jahongir qizi,  
Madaniyat va san‘at muassalalarini tashkil etish hamda  
boshqarish ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi*

*Makzur maqolada nomoddiy madaniy meros muhofazasini yuritishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil ishlar, soha rivojini ta‘minlash maqsadida qonun osti hujjatlar qabul qilinishi to‘g‘risida so‘z boradi. Bundan tashqari nomoddiy madaniy merosni xalqimiz hayotining ajralmas qismi hamda ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan buyuk meros sifatida qarab uni asrab-avaylash, targ‘ib qilish va yoshlarimiz ongida yo‘qolib borayotgan milliy madaniyatimizga bo‘lgan hurmat va ehtiromni oshirish maqsadida hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan jadal islohotlar haqida bayon etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** nomoddiy madaniy meros, YUNESKO, yoshlar, milliy o‘zlik, islohot, Konvensiya, Davlat dasturi, globallashuv.*

## ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА ПО ЗАЩИТЕ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ: РЕФОРМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

*В статье говорится о последовательной работе, проводимой в нашей стране в области охраны нематериального культурного наследия, о принятии подзаконных актов в целях обеспечения развития отрасли. Кроме того, будет рассказано об ускоренных реформах, проводимых нашим правительством с целью сохранения, пропаганды нематериального культурного наследия как неотъемлемой части жизни нашего народа и великого наследия, передаваемого от предков к потомкам, а также повышения уважения к национальной культуре, которая исчезает в сознании нашей молодёжи.*

***Ключевые слова:** нематериальное культурное наследие, ЮНЕСКО, молодёжь, национальная идентичность, реформы, конвенция, государственная программа, глобализация.*

## UZBEKISTAN'S POLICY FOR THE PROTECTION OF INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE: REFORMS AND PROSPECTS

*The article talks about the consistent work carried out in our country in maintaining the protection of intangible cultural heritage, the adoption of documents under the law in order to ensure the development of the sphere. In addition, intangible cultural heritage is described as an integral part of the life of our people and the rapid reforms carried out by our government in order to preserve, promote it and raise respect and respect for our national culture, which is disappearing in the minds of our young people, depending on the great heritage passed down from ancestors to generations.*

***Key words:** Intangible cultural heritage, UNESCO, Youth, national identity, reform, Convention, state program, globalization*

**Kirish.** Har bir xalqning nomoddiy madaniy merosi shu xalqning o‘zligini ifodalaydi. Nomoddiy madaniy merosni saqlab kelgusi avlodga qoldirish barqaror taraqqiyot asosida shakllanadi. Chunki har bir xalqning nomoddiy madaniy merosi barqaror taraqqiyotga xizmat qilishi mumkin. Nomoddiy madaniy merosni o‘rganish masalalarini ta‘lim tizimiga singdirish muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki nomoddiy madaniy meros yoshlarimizning azaliy qadriyatlarining asl mohiyatini tushunishga yordam beradi. O‘zligini yo‘qotgan xalq tanazzulga yuz tutadi. Milliy o‘zlikni anglash millat taraqqiyotining poydevoridir. O‘zlikni anglash "Milliy o‘zlikni anglash" va nihoyat "Umumbashariy o‘zlikni anglash" tushunchalari bir-biridan ayri emas, balki bir-biri bilan uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadi. Milliy o‘zlik avvalo xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelayotgan milliy madaniyati va san‘atida o‘z aksini topadi. Ma‘lumki, har bir xalqning madaniyati, nomoddiy merosi o‘sha xalqning o‘zligini ifodalaydi. Ana shu o‘ziga xos nomoddiy meros namunalari bilan har biri alohida ajralib turadi va boshqalar ham ana o‘sha o‘ziga xoslik sabab ham ularni taniydi, biladi. Xususan, biz o‘zbek xalqini ham chet xalqlar o‘ziga xos madaniyatimiz, asrlar osha davom etib kelayotgan va o‘tmishimizdan so‘zlaydigan dostonlarimiz-u,

maqomlarimizdan bilishadi. Milliy kiyim va milliy taomlarimizdan tanishadi va qiziqishadi. Bu kabi madaniy meros namunalar albatta hurmat qilinishi kerak. Shuningdek nomoddiy madaniy merosning muhofaza qilinishi, saqlanishi va kelgusi avlodlarga yetkazilishi barqaror taraqqiyotga o‘z hissasini qo‘shishi ham kundek ravshan. Chunki, biror xalqning nomoddiy madaniy merosida barqaror taraqqiyotga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omil yo‘q va bu meros to‘laligicha taraqqiyotga xizmat qiladi. Har bitta xalqning nomoddiy madaniy merosi shu xalqning o‘zligini ifodalaydi va u albatta hurmat qilinishi kerak. Nomoddiy madaniy merosning muhofaza qilinishi, saqlanishi va kelgusi avlodlarga yetkazilishi barqaror taraqqiyotga ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Globallashuv jarayonida moddiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda ma‘naviy sohada yuz berayotgan yo‘qotishlar ko‘p vaqtdan buyon dunyo hamjamiyatidagi ilg‘or kishilarni tashvishga solib kelayotgan bo‘lsada, dunyo miqyosida bunday yo‘qotishlarni oldini olish va tegishli choralar ko‘rish masalasiga alohida e‘tibor berilmoqda. *Mamlakatimizda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish uni xalqimiz tomonidan hurmat qilinishi, asrab avaylanishi va kelgusi avlodga yetib borishini ta‘minlash maqsadida bir qancha qonun va hukumat qarorlari chiqarilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi “2010 – 2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 222-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-fevraldagi “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 47-sonli qarorlari tasdiqlangan.*

**Asosiy qism.** Bugungi kunda, O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosining YUNESKO ro‘yxatiga kiritish va ularni jahon hamjamiyatiga tanitish bo‘yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda, jumladan, Marokash davlatining Rabot shahrida bo‘lib o‘tgan Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitaning 17-sessiyasida ikkita birinchi «Ipakchilik va to‘quv uchun an‘anaviy ipak ishlab chiqarish» nomli va Ikkinchi nominatsiya «Xo‘ja Nasriddin haqidagi latifalarni takrorlash an‘analari» ko‘pmillatli element Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi.

Davlatimiz rahbari boshchiliklarida mamlakatimizning boy nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish va uni ko‘paytirish yo‘lida tizimli ishlar olib borilmoqda. Urf-odat an‘analarimizning YUNESKO ro‘yxatidan joy olishi buning yaqqol dalilidir.

Hozirgi kunda Insoniyat nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro‘yxatiga O‘zbekiston tavsiyanomalariga binoan 12 ta ob‘ekt kiritilgan. Bular;

- 1) Boysun madaniy muhiti.(2008-yil)
  - 2) Shashmaqom.(Tojikiston bilan birgalikda 2008-yil)
  - 3) Katta ashula.(2009-yil)
  - 4) Navro‘z.(Ozarbayjon,Hindiston,Eron,Qirg‘iziston,Pokiston va Turkiya bilan birgalikda,2009-yil mazkur davlatlarga Tojikiston,Afg‘oniston,Iroq,Qozog‘iston va Turkmaniston bilan birgalikda yangillangan tarkibda 2016-yil)
  - 5) Askiya(2014-yil)
  - 6) Palov madaniyati va an‘analari.(2016-yil)
  - 7) Marg‘ilon hunarmandchilik markazining atlas va adrasni an‘anaviy usulda ishlab chiqarish amaliyoti.(2017-yil)
  - 8) Xorazm raqsi\_lazgi(2018\_yil)
  - 9) Miniatyura san‘ati(Ozarbayjon,Turkiya va Eron Bilan birgalikda 2020-yil)
  - 10) Baxshichilik san‘ati(2021-yil)
  - 11) Ipakchilik va an‘anaviy to‘qimachilik uchun ipak ishlab chiqarish.(Afg‘oniston, Ozarbayjon, Eron, Turkiya, Tojikiston va turkmaniston bilan birgalikda 2022-yil)
  - 12) Xo‘ja Nasriddin haqidagi an‘anaviy hikoyalar va latifalar.(2022-yil)
- Yuqorida nomlari keltirilgan obyektlar quyidagi sohalarda namoyon bo‘ladi;
- a) o‘zlikni namoyon etishning og‘zaki an‘analari va shakllari, shu jumladan, ayni paytda til - nomoddiy madaniy merosni aks ettiruvchi omil sifatida;
  - b) ijro san‘atida;
  - c) jamiyatning urf-odatlari, marosimlari, bayramlari;
  - d) tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig‘indisi;
  - e) an‘anaviy hunarmandchilik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar.

Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 23 fevraldagi 47-sonli qarori bilan “Nomoddiy madaniy meros obektlarining ro‘yxatini yuritish to‘g‘risidagi nizom” tasdiqlangan va shu asosda mamlakatimizda 4 xil ro‘yxat yuritilmoqda.

1. Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Rerezentativ ro'yxatiga tavsiya etilayotgan obektlar ro'yxati.

2. Zudlik bilan muhofaza ostiga olinishi lozim bo'lgan nomoddiy madaniy meros obektlarining ro'yxati.

3. Nomoddiy madaniy meros obektlarining milliy ro'yxati.

4. Nomoddiy madaniy meros obektlarining mahalliy ro'yxati.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-fevraldagi 47-sonli “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash” to'g'risida Qaror ham qabul qilingan bo'lib unga ko'ra, Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini ro'yxatini yuritish to'g'risidagi Nizom, Nomoddiy madaniy meros obektlarining tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom tasdiqlangan bo'lib nomoddiy madaniy meros sohasidagi huquqiy baza yanada mustahkamlandi. Nomoddiy madaniy meros ro'yxatini yuritish to'g'risidagi Nizom nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatini yuritish qoidalarini belgilaydi. Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatini yuritishga quyidagilar kiradi:

nomoddiy madaniy meros obyektini indentifikatsiya qilish;

tegishli nomoddiy madaniy meros obyektlarining tarmoqlari, yo'nalishlari, janrlari va uslublarini tasniflash;

nomoddiy madaniy meros obyektlarini doimiy ravishda tiklovchi shaxslarni, guruhlarni ko'rsatish;

ma'lumotlarni tizimga solish, saqlash va yangilab borish;

- тестирование, направленное на оценку сформированности у студентов практических умений в области использования материалов PIRLS;
- анализ методических разработок студентов (конспектов уроков, технологических карт и т.п.), выполненных с использованием заданий из банка PIRLS.

Обработка эмпирических данных проводилась с использованием методов описательной и индуктивной статистики, частотного анализа, расчета коэффициентов корреляции.

Теоретическую базу исследования составили труды зарубежных учёных, раскрывающие концептуальные основы программы PIRLS, особенности ее инструментария, методики проведения исследования в различных странах (С. Wallner-Paschon, К. Schwippert, А. Eivers, J.F. Andrade и др.), а также работы, посвященные проблемам подготовки педагогических кадров к работе с материалами международных сравнительных исследований (S. Provasnik, К. Malley, М.-Н. Cho, L. Rutkowski, М. Prusinski и др.). При разработке методологии и инструментария исследования использовались научно-методические публикации узбекистанских специалистов по вопросам модернизации педагогического образования и повышения качества подготовки учителей начальных классов (А.Р. Джураев, Ш.С. Шарипов, Г.Х. Ибрагимова, Ш.К. Мардонов и др.).

Эмпирическое исследование было организовано на базе педагогических вузов и колледжей Узбекистана, осуществляющих подготовку учителей начальных классов. География исследования охватила такие регионы, как г. Ташкент, Ташкентскую, Самаркандскую, Ферганскую и Хорезмскую области. Общая выборка исследования составила 280 студентов выпускных курсов.

**Результаты.** Анализ нормативно-правовой базы показал, что решение об участии Узбекистана в программе PIRLS принято на высшем государственном уровне и закреплено соответствующим Постановлением Президента [7]. В документе подчеркивается, что данный шаг отвечает стратегическим приоритетам развития системы образования страны, будет способствовать укреплению ее конкурентоспособности и международного авторитета. При этом особый акцент сделан на необходимости обеспечить надлежащую подготовку педагогических кадров к

использованию методологии и инструментария международных исследований как важнейшего условия успешной реализации поставленных задач.

Результаты анкетирования студентов показали, что уровень их осведомлённости о программе PIRLS является довольно низким. Лишь 12% респондентов смогли продемонстрировать хорошее знание целей, задач и особенностей данного исследования, в то время как 63% опрошенных имеют о нем самое общее представление, а 25% - практически ничего не знают. Большинство студентов (74%) не чувствуют себя готовыми к работе с инструментарием PIRLS, лишь 8% оценивают свою готовность как высокую.

В ходе тестирования только 16% студентов сумели успешно справиться с заданиями, проверяющими сформированность базовых умений в области использования материалов PIRLS (умение соотносить задания с проверяемыми читательскими умениями, определять возможные затруднения учащихся при их выполнении, планировать работу по их предупреждению и т.п.). У 48% студентов данные умения сформированы частично, 36% продемонстрировали их полное или практически полное отсутствие.

Анализ методических разработок студентов (всего проанализировано 120 работ) показал, что в большинстве случаев (69%) материалы PIRLS используются формально, бессистемно, без учета их обучающего и диагностического потенциала. Лишь в 14% работ прослеживается осмысленное использование заданий PIRLS для формирования и оценки конкретных читательских умений, четкая взаимосвязь с планируемыми результатами обучения.

Статистический анализ выявил значимую положительную корреляцию между уровнем теоретических знаний студентов о программе PIRLS и уровнем сформированности у них соответствующих практических умений ( $r=0,68$ ;  $p<0,01$ ). Это позволяет предположить, что одной из основных причин затруднений, возникающих у будущих учителей при работе с материалами PIRLS, является недостаточная теоретическая подготовка в данной области.

**Анализ и обсуждение.** Полученные результаты со всей очевидностью свидетельствуют о наличии серьёзных проблем в системе методической подготовки будущих учителей начальных классов Узбекистана к использованию программы PIRLS. Ни содержание, ни технологии этой подготовки в настоящее время не отвечают актуальным задачам, стоящим перед страной в связи с ее участием в международном исследовании. Большинство студентов покидают стены вуза, не имея необходимых компетенций для работы с материалами PIRLS, что с высокой долей вероятности негативно скажется на результатах Узбекистана в данной программе.

Среди основных причин сложившейся ситуации можно выделить:

- недостаточное внимание к программе PIRLS в учебных планах и программах педагогических специальностей, отсутствие целостной системы формирования у будущих учителей готовности к работе с ее инструментарием;

- преобладание в вузах традиционных методов обучения, слабо ориентированных на практическое освоение студентами современных технологий оценки образовательных результатов;

- недостаточную компетентность профессорско-преподавательского состава в вопросах организации и проведения международных сравнительных исследований, неготовность большинства преподавателей выступать в роли тренеров и менторов для своих студентов.

Для преодоления указанных проблем необходима системная модернизация методической подготовки будущих учителей начальных классов на основе следующих принципов:

- обеспечение целостности и непрерывности подготовки: знакомство студентов с программой PIRLS должно начинаться с первого курса и продолжаться на протяжении всего периода обучения через систему как учебных дисциплин, так и внеаудиторных мероприятий;

- усиление практической направленности подготовки через увеличение доли активных и интерактивных форм учебной деятельности (workshops, кейсы, ролевые игры, микропреподавание и т.п.), позволяющих студентам освоить необходимые умения и навыки;

- переподготовка преподавателей вузов с целью освоения ими современных методов и технологий оценки образовательных достижений, изучения лучшего мирового опыта в данной области;

- разработка учебно-методического обеспечения на основе материалов PIRLS (учебных пособий, практикумов, кейсов и т.п.);

- организация педагогической практики студентов на базе школ, участвующих в программе PIRLS, с привлечением учителей, имеющих опыт работы с ее инструментарием, в качестве менторов.

Резюмируя вышесказанное, можно констатировать, что участие Узбекистана в международном исследовании PIRLS ставит перед системой педагогического образования республики новые

масштабные задачи по модернизации подготовки учителей начальных классов. Существующие на сегодняшний день подходы к методической подготовке будущих педагогов не отвечают требованиям времени и нуждаются в серьезном реформировании.

Важнейшими направлениями этого процесса должны стать: переориентация содержания подготовки на освоение студентами современных методов оценки образовательных достижений, усиление ее практической составляющей, интеграция в образовательную практику педагогических вузов передового международного опыта, наращивание кадрового потенциала за счет привлечения специалистов, компетентных в вопросах проведения сравнительных исследований.

Только в этом случае Узбекистан сможет достойно представить свою систему образования на международном уровне, использовать участие в программе PIRLS как мощный рычаг повышения качества обучения родному языку и чтению в начальной школе, формирования у младших школьников функциональной грамотности - ключевой компетенции XXI века.

Перспективы дальнейших исследований в данном направлении связаны с разработкой и апробацией в педагогических вузах Узбекистана инновационных моделей методической подготовки, адекватных задачам, стоящим перед страной на современном этапе. Именно на решение этой задачи должны быть направлены усилия ученых-педагогов, методистов, специалистов в области сравнительной педагогики в ближайшие годы.

**Выводы.** Таким образом, проведенное исследование показало, что существующая в Узбекистане система методической подготовки будущих учителей начальных классов нуждается в серьезной трансформации с учётом новых задач, стоящих перед страной в связи с её участием в международном исследовании PIRLS. Дальнейшее игнорирование данной проблемы может негативно отразиться на способности системы образования Узбекистана достойно представить себя на международной арене, ограничить возможности для повышения качества начального образования на основе использования эффективных мировых практик.

Решение выявленных проблем видится в комплексной модернизации содержания и технологий подготовки педагогических кадров, повышении ее практикоориентированности, усилении кадрового потенциала педагогических вузов за счет привлечения специалистов, владеющих методологией международных сравнительных исследований. Именно на этих направлениях, на наш взгляд, должны быть сосредоточены усилия научно-педагогического сообщества и органов управления образованием Узбекистана в ближайшей перспективе.

#### Литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 29.04.2019 г. № УП-5712 // Национальная база данных законодательства, 29.04.2019 г.
2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по организации международных исследований качества образования в системе народного образования» от 08.12.2018 г. № 997 // Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2018 г., № 49, ст. 512.
3. Mullis I.V.S., Martin M.O. PIRLS 2021 Assessment Frameworks. - Chestnut Hill, MA: Boston College, 2019. - 202 p.
4. Provasnik S., Malley L., Neidorf T. U.S. PIRLS and ePIRLS 2016 Technical Report and User's Guide (NCES 2020-028). U.S. Department of Education. - Washington, DC: National Center for Education Statistics, 2020. - 338 p.
5. Cho M.-H., Kim S.-W. Teachers' readiness and perspectives on the implementation of PIRLS 2021 in South Korea: Findings from focus group interviews // Large-scale Assessments in Education. - 2021. - Vol. 9. - Article no. 14.
6. Джураев А.Р., Турдиев Н.Ш. Качество образования в системе непрерывного образования Узбекистана: проблемы и перспективы // Непрерывное образование. - 2020. - № 2 (32). - С. 3-9. [Djuraev A.R., Turdiev N.Sh. The quality of education in the system of continuous education in Uzbekistan: problems and prospects // Continuous education. - 2020. - No. 2 (32). - Pp. 3-9. (In Russ.)]
7. Постановление Президента Республики Узбекистан «Об участии Республики Узбекистан в Международном исследовании качества чтения и понимания текста PIRLS» от 04.06.2021 г. № ПП-5133 // Национальная база данных законодательства, 05.06.2021 г. [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the participation of the Republic of Uzbekistan in the International Reading and Comprehension Study PIRLS" dated 04.06.2021 No. PP-5133 // National database of legislation, 05.06.2021]

## ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

### MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA TALABALARNING KASBIY KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

*Aliqulov Shukurullo Fayzullo o‘g‘li,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti assistenti  
everest11@gmail.com*

*Ushbu maqolada multimedia texnologiyalari vositasida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetentligini shakllantirish metodikasidan texnologiyalar orqali o‘rganish jarayonlari va interaktiv usullarni talabalar bilan qanday shaklda muvaffaqiyatli ishlatish, ularni nutqni chuqur tushunish, savol berish, ma‘lumot olish va ulashish jarayonlarini o‘rganishda samarali metodikalar bilan tanishtirilgan. Metodika o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish va texnologiyalardan foydalanishlari uchun yaratilgan qulay va samarali yo‘llarni qamrab oladi.*

**Kalit so‘zlar:** *multimedia texnologiyalari, kasbiy kommunikativ kompetentlik, rivojlantirish metodikasi, o‘quv jarayoni, interaktiv usullar, nutqni chuqur tushunish, savol berish, ma‘lumot olish, ulashish jarayonlari, muvaffaqiyatli ishlatish, mustaqil o‘rganish, texnologiyadan foydalanish.*

### МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

*В данной статье рассмотрены метод формирования профессиональной коммуникативной компетентности студентов посредством мультимедийных технологий, процессы обучения с помощью технологий и способы успешного использования интерактивных методов со студентами, эффективные методы обучения процессам глубокого понимания речи, постановки вопросов, представлены получение и обмен информацией. Методика охватывает удобные и эффективные способы самостоятельного обучения студентов и использования технологий.*

**Ключевые слова:** *мультимедийные технологии, профессиональная коммуникативная компетентность, методика развития, учебный процесс, интерактивные методы, глубокое понимание речи, вопросы, получение информации, обменные процессы, успешное использование, самостоятельное обучение, использование технологий.*

### METHODOLOGY FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS THROUGH MULTIMEDIA TECHNOLOGIES

*This article discusses the method of forming professional communicative competence of students through multimedia technology, the processes of learning with technology and ways to successfully use interactive methods with students, effective methods of teaching the processes of deep understanding of speech, questioning, presented receiving and sharing information. The methodology covers convenient and effective ways for students to learn independently and use technology.*

**Keywords:** *multimedia technologies, professional communicative competence, development methodology, educational process, interactive methods, deep understanding of speech, questioning, obtaining information, sharing processes, successful use, independent learning, use of technology.*

**Kirish.** Bugungi dunyoda, texnologiyalar o‘ziga xos innovatsiyalarni birgalikda olib kelmoqda va ta‘lim sohasida ham, Multimedia texnologiyalari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarga yuqori darajada kasbiy kommunikativ kompetentlikni shakllantirish imkoniyatini beradi. Bu maqolada multimedia texnologiyalarining o‘quv jarayonida qanday qilib kasbiy kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish metodikasini taklif qilish, bu metodni tanlagan o‘quvchilar bilan yangi kompetentlik olishdagi natijalarni ko‘rib chiqamiz.

Multimedia texnologiyalari, har xil noaniq asarlarni (matn, tasvirlar, audio, va video) birlashtirib, har bir ma‘lumot turi va media formatini boshqarish uchun qo‘llaniladigan texnologiyalarni ifodalaydi. Ushbu texnologiyalar bir qancha vositalar, dasturlar va platformalardan iborat bo‘lishi mumkin.

*Matn (Text):* Bu multimedia turining asosiy qismi. Uning orqali elektron matnlar, dasturlash tili, maqolalar va boshqa matnli ma'lumotlar ko'rsatiladi. *Audio (Ovoz):* Multimedia texnologiyalari orqali ovoz ma'lumotlarini (podcastlar, musiqa, audiotraklar) eshitish va yaratish mumkin.

*Rasm (Image):* Rasm, fotosurat, grafiklar va boshqa ko'rsatmalar orqali vizual ma'lumotlarni ifodalash uchun multimedia texnologiyalardan foydalaniladi. *Video:* Videolar, real vaqtda harakatlanadigan tasvir, animatsiya va audiotraklarni jamlab chiqarishda foydalaniladi.

*Animatsiya:* Multimedia texnologiyalari animatsiyalar orqali harakatlanadigan tasvirlar yaratishda va o'rgatishda foydalaniladi. *Interaktiv Interfeyslar:* Multimedia texnologiyalari, o'quvchilar bilan interaktiv ravishda aloqani o'rnatishda va ularni ma'lumotlarni o'rganish jarayonlariga qo'llashda foydalaniladi.

*Virtual Realitiya (VR) va Augmentatsiya (AR):* Bu texnologiyalar orqali o'quvchilar, san'at asarlari, tarixiy joylar yoki qo'llanma o'rganishda o'zlarini virtual dunyoga olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

*Elektron Portfellar va Bloqlar:* O'quvchilar o'z ishlarini, proyektlarini, va tajribalarni elektron portfellar yoki bloqlar orqali taqdim etishda multimedia texnologiyalardan foydalanishadi. *Onlayn Platformalar va O'quv Tizimlari:* O'quvchilarning ta'lim olishlari uchun onlayn platformalar va o'quv tizimlaridan foydalaniladi, bu orqali o'quvchilarga interaktiv darslar, vazifalar va boshqa ta'lim materiallari taqdim etiladi.

*Onlayn jamoat platformalari:* O'quvchilar, o'qituvchilar va mutaxassislar orasida aloqani kuchaytirish, muzakara qilish va ma'lumot almashish uchun onlayn jamoat platformalardan foydalaniladi.

Bu texnologiyalar o'quvchilarning tajribalarini ko'rsatish, ma'lumotlarni samarali tarzda tushuntirish va o'rganishda juda muhim bo'lgan vositalardir. O'quvchilarga interaktiv va qiziqarli o'rganish jarayonlari taqdim etish, fikrlarni ifodalash va boshqa o'quvchilar bilan hamkorlik qilish imkoniyatini yaratishda juda samarali bo'ladi.

**Asosiy qism.** Multimedia texnologiyalari va kommunikativ kompetentlik. Bu qismda, multimedia texnologiyalarining ta'lim jarayonlarida qanday shaklda ishlatilishi, o'quvchilar uchun qanday imkoniyatlarni ochadi va ularning kommunikativ kompetentliklarini qanday o'stiradi, bu haqda tushunchalar beriladi. Shu bilan birga, texnologiyalar orqali o'rganish jarayonida o'quvchilarning aktiv qatnashishini ta'minlash uchun metodikalar haqida gaplashiladi.

*Kasbiy kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish metodikasi:* bu qismda, o'quvchilarning kasbiy kommunikativ kompetentliklarini rivojlantirishda multimedia texnologiyalarini qanday qilib samarali ishlatish kerakligi, o'quvchilarning fikrlarini ifodalash, savol berish, ma'lumot olish va ulashish jarayonlarini o'rganishga qaratilgan metodikalar ta'kidlanadi. Bu metodikalar, o'quvchilarni multimedia texnologiyalari yordamida nutqni chuqur tushunish va qo'llab-quvvatlash orqali ularni kasbiy kompetentliklarini oshirishda o'z vaqtida samarali bo'ladi.

Kasbiy kommunikativ kompetentlik, o'quvchilarning biror tilni noto'g'ri o'rgangan bo'lishi emas, balki uni amaliy ravishda, ma'naviyatda va mazmuni o'rganib, fikr bildirish va tushunish, ma'lumot almashish, qo'llash va ulashish jarayonlarida muvaffaqiyatli ishlashlariga erishishlarini anglatadi. Bu kompetentlik, faqat o'quvchilar orasida emas, balki umumiy jamiyat va ko'ngil ochiq insonlar orasida ham o'rnatilishi kerak bo'lgan texnologik jamiyatda katta ahamiyatga ega.

Kasbiy kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda texnologiyalardan samarali foydalanish, mustaqil o'rganishni ta'minlash va o'quvchilar orasidagi aloqani kuchaytirish katta ahamiyatga ega. Bu usullar o'quvchilarni ma'lumotlarni qiziqitirish, fikrlarini ifodalash, jamiyat bilan o'zaro muntazam munosabatlarni o'rnatish va global xilma-xil fikrlashga tayyorlashda yordam beradi.

Multimedia texnologiyalari va kasbiy kommunikativ kompetentlikni yangi yondashuvlar:

*Virtual Realitiya (VR) va argumentatsiya:* Talabalarga VR vositalar orqali virtual tajribalar taqdim etish, ularga biror savolga, masalan, jismoniy madaniyat, siyosat yoki ilm-fan sohasida, argumentatsiyalar keltirish uchun ma'lumot topish va fikr bildirish imkoniyatini berish.

*Kreativlikni o'rganish uchun podcastlar:* Podcastlar orqali o'quvchilarni ma'lum bir mavzuni tahlil qilish, o'z fikrlarini ifodalash, diskussiyalarga qo'shilish va bu jihatdan kasbiy kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishni tezlashtirish.

*Onlayn interaktiv tezkorliklar:* Onlayn interaktiv o'quv-tezkorliklar orqali, o'quvchilar uchun texnologiyalarni o'zlashtirish, ma'lumotlarni chuqur tushunish va onlayn jadvalda ishlash jarayonlarini o'rganishni taqdim etish.

*Onlayn jamoat platformalari orqali muzakara va munozara:* Talabalarga onlayn platformalarda muzokara va munozaralar orqali fikrlarini ifodalash, savollar berish va do'stlari bilan o'zaro muloqot qilish imkoniyatini yaratish.

*Innovatsion o'quv resurslari:* Talabalarga texnologiyalarni o'rganish uchun eng so'nggi ilmiy va texnologik izlanishlarga asoslangan yangi o'quv resurslarini taqdim etish.

*Simulyatsionlar va virtual o'quv modullari:* Ma'lum bir mavzuni o'rganishda o'quvchilarga simulyatsion va virtual o'quv modullari taqdim etish orqali amaliyotni oshirish, jismoniy madaniyat, tibbiyot yoki muhandislik sohalarida joriy bo'lgan vazifalarni bajarish uchun maslahatlar olish imkoniyatini berish.

*San'at asoslari va yaratuvchanlik:* San'at asoslari orqali, o'quvchilarga ularning o'zlarini ifodalash va dunyoni qanday ko'rib chiqishlari orqali kasbiy kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga yordam bermish, shuningdek, ularni ijodiy bo'lish va yangi tajribalar qozonish uchun ma'lumotlarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratish.

Bu yangi yondashuvlar, multimedia texnologiyalari yordamida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetentliklarini shakllantirishda innovatsion va samarali yollar ko'rsatishga qaratilgan. Bu, talabalarning ma'lumotlarini o'rganish va ulashish jarayonlarini joriy etish, ularni savol berish, muzokara qilish va ijodiy fikrlarni ifodalashda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun muhimdir.

**Metodikasi.** O'quvchilarning nutqni chuqur tushunish, savol berish, ma'lumot olish va ulashish jarayonlarini rivojlantirish.

Kasbiy kommunikativ kompetentlikni multimedia texnologiyalari orqali mustaqil o'rganishda yuqori darajada ta'minlash. O'quvchilarni motivatsiyalash. Multimedia texnologiyalarining qo'llanishiga dastlabki o'quvchilar bilan tanishish va ularni texnologiyalardan foydalanishga rag'batlantirish.

Kasbiy kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishni o'zlashtirish uchun o'quvchilarga shakllangan interaktiv vazifalar va vositalar.

O'quv jarayonlari va interaktiv usullar:

Virtual darsliklar, animatsiyalar, va interaktiv o'quv vositalarini joriy etish. Gruppa ishlari, vazifalar va vazifa interaktivlikni ta'minlash uchun integratsiya qilinadi.

Texnologiyalardan foydalanish:

Videolar, veb-saytlar va ilovalar orqali ma'lumot olish va ularni tushunish. Real vaqt rejalar, webinarlar, va onlayn savollar orqali interaktiv komponentlar qo'llash.

Monitoring va baholash: O'quvchilarning faoliyati va natijalari monitoring qilinadi. Feedback tizimi orqali o'quvchilarga boshqa vositalar va yo'llar orqali rivojlanishlar uchun tavsiyalar beriladi.

Mustaqil o'rganishni ta'minlash: O'quvchilarga mustaqil o'rganish va o'z fikrlarini ifodalash imkoniyatini berish. Boshqa maqolalar, ilmiy manbalar va onlayn resurslar orqali o'quvchilarni o'zlashtirish. Multimedia darsliklar, elektron kitoblar, va interaktiv materiallar tuzish. Mavzuga oid videolar, animatsiyalar va ilovalar yaratish. Ishbirliги va aloqa. O'quvchilar o'rtasidagi ishbirligini ta'minlash uchun online platformalardan foydalanish. Elektron pochta, foydali saytlar va jamoat tarmoqlari orqali aloqa o'rnatish. Bu metodika, o'quvchilarning multimedia texnologiyalari orqali kasbiy kommunikativ kompetentliklarini samarali va tizimli shakllantirish uchun amaliy yondashuvlar va resurslarni taqdim etadi.

**Fanlarni AKT asosida o'qitish.**

Pedagogik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda raqamli kompetentsiyani shakllantirish shartlari quyidagilardan iborat:

1. Treningning ilg'or xarakterini ta'minlash;
2. Informatika va AKT bo'yicha ta'limning metodik tizimlarini talabning tayyorgarlik profiliga qarab ishlab chiqish va moslashtirish;
3. Talabalarning bilim olishida zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish;
3. Raqamli ta'lim resurslari sifatini tahliliy va ekspert baholash;
4. Talabalarning o'quv va mustaqil ishlarida internetning o'quv raqamli resursidan foydalanish;
5. Dasturiy ta'minot vositalari orqali gumanitar fanlar bo'yicha elektron ta'lim resurslaridan foydalanish, loyihalash va rivojlantirish;
6. Lokal va global tarmoqlar negizida axborot bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etish;
7. Axborot-metodik avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda o'quv jarayonini boshqarish;
8. Talabalar bilimini tekshirish va nazorat qilishning raqamli tizimlari asosida fanlarni o'rganishda nazorat faoliyatini tashkil etish;

**Amaliyotga tadbiqi.** Bu metodika o'quvchilarning multimedia texnologiyalari orqali kasbiy kommunikativ kompetentliklarini rivojlantirishda muvaffaqiyatli natijalarni ta'minlayadi. O'quvchilar metodika orqali texnologiyalardan samarali foydalanish va mustaqil o'rganish bilan nutqni chuqur tushunish, savol berish, ma'lumot olish va ulashish jarayonlarini o'rganishlari natijasida, ular o'zlarini o'zlashtirishda, o'z fikrlarini ifodalashda va jamiyat bilan samarali aloqalarni o'rnatishda kuchli kasbiy kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishadi. Monitoring va baholash tizimi orqali o'quvchilarning rivojlanishini nazorat qilish, ularni qo'shimcha yondashuvlarga chaqirish, va ularning g'oya va innovatsiyalarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Natijada o'quvchilar o'zlarini texnologiyalardan samarali foydalanish,



yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish orqali kasbiy kommunikativ kompetentliklarini rivojlantirishga muvaffaqiyatli erishishlari ta'kidlanadi.

**Xulosa.** Bu metodika, multimedia texnologiyalari vositasida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun katta potentsialga ega. O'quvchilar bu metodika orqali texnologiyalardan samarali foydalanish, mustaqil o'rganish, va interaktiv jarayonlarda ishtirok etish orqali nutqni chuqur tushunish, savol berish, ma'lumot olish va ulashish jarayonlarini o'rganishadi. Monitoring va baholash tizimi, o'quvchilarning rivojlanishini kuzatib borishda yordam beradi, ularni qo'shimcha yondashuvlarga chaqirish va ularning fikrlarini o'zlashtirishlari uchun motivatsiyalashda ishonch hosil qiladi. Natijada o'quvchilar o'zlarini texnologiyalardan muvaffaqiyatli foydalanish, fikrlarini ifodalash, jamiyat bilan muntazam aloqalarni o'rnatish, va kasbiy kommunikativ kompetentliklarini rivojlantirishda yetarli tajriba olishadi. Bu xususiy metodika, o'quvchilarning global yangiliklarga taalluqli, yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lishini ta'minlaydi, shuningdek, ularni o'z ishlarini o'zlashtirish va ijodiy bo'lishga yo'l qo'yimoqda o'n muhim o'rinlarga ega bo'lishadi.

#### Adabiyotlar:

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
2. Ehtimolliklar nazariyasi va matematik statistika. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. Farmonov Sh.Q., Turgunbayev R.M., Sharipova L.D., Parpiyeva N.T., Toshkent, 2007
3. Abduqodirov A.A. N.D.Mamatov va boshqalar. Axborot texnologiyalari. – T.: O'qituvchi, 2002. – 133 b.
4. Yuldashev U., Boqiyev R.R., Zokirova F.M. “INFORMATIKA” Toshkent. 2002 yil.
5. Xodjamqulov U.N. // Pedagogik ta'lim klasteri ilmiy pedagogik muammo sifatida (Pedagogik ta'limni klasterlashtirish zarurati)// Zamonaviy ta'lim 2019 yil.
6. Hamrayev J.H. Reasons Why it (Information Technology) Is Essential in Education. Eurasian Scientific Herald. Volume 7| April, 2022 ISSN: 2795-7365. Page 181-184.JIF:8.325
7. Hamrayev J.H. Axborot texnologiyalari fanini ўqitish asosida talabalarнинг амалий фаолиятини ривожлантириш (Матлаб дастури мисолида) // Scientific Bulletin of NamSU - Научный вестник - NamDU ilmiy axborotnomasi – 2022-yil\_3-сон. Б. 573-578. Hamrayev J.H. Таълимда замонавий ахборот технологиялари – янги имкониятлар // Ўзбекистон миллий университети хабарлари, 2022, [1/4] ISSN 2181-7324 Б. 190-192.
8. Hamrayev J.H. Телекоммуникация технологияларида замонавий ахборот технологияларни қўллаш. 2022-жылушын // «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендирий» Илмий методик журнал №2/1. Б. 77-80. (13.00.00-Pedagogika fanlari)
9. Махматқулов, Ф. (2023). Савдо корхоналарининг инновацион фаолиятини эконометрик моделлаштириш. *Иqtisodiyot va ta'lim*, 24(6), 33–38. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1350>

## KOMPYUTER VOSITASIDA TALABALARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

*Beknazarova Dilafruz Amirovna,*

*Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasida stajyor tadqiqotchisi  
dilafruzamirovna@mail.ru*

*Maqolada kompyuter texnologiyalari, ulardan oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonlarida samarali foydalanish, bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarini keng joriy etish, elektron formatdagi o'quv resurslarining zamonaviy pedagogik talablar asosida yaratilishini ta'minlash mazmuni keltirilgan. Kompyuter dasturlari asosida dars jarayonlarini real kuzatish, kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda darsni uzoqdagi manbalar bilan ta'minlash, talabalarni mustaqil, tanqidiy fikrlay oladigan kreativ shaxs sifatida tayyorlashga qulay muhit yaratish imkoniyatlari tavsiflangan.*

***Kalit so'zlar:** kompyuter texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter dasturlari, telekommunikatsion tizimlar, zamonaviy ta'lim, internet, kreativ qobiliyat, muloqot.*

## КОМПЬЮТЕРНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ

*В статье представлено содержание компьютерных технологий, их эффективное использование в образовательных процессах высших учебных заведений, широкое внедрение информационных технологий в процесс подготовки будущих педагогов, создание образовательных ресурсов в электронном формате с учётом современных педагогических требований. На основе компьютерных программ описаны возможности реального наблюдения за учебными процессами, обеспечения уроков дистанционными ресурсами с использованием средств связи, создания комфортной среды для воспитания учащихся как творческих личностей, умеющих самостоятельно и критически мыслить.*

***Ключевые слова:** компьютерные технологии, информационно-коммуникационные технологии, компьютерные программы, телекоммуникационные системы, современное образование, Интернет, творческие способности, общение.*

## TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES WITH THE HELP OF COMPUTERS

*The article presents the content of computer technologies, their effective use in educational processes of higher educational institutions, the wide introduction of information technologies in the process of training future pedagogues, the creation of educational resources in electronic format based on modern pedagogical requirements. On the basis of computer programs, the possibilities of real observation of lesson processes, providing lessons with remote resources using communication tools, and creating a comfortable environment for training students as creative individuals who can think independently and critically are described.*

***Keywords:** computer technologies, information and communication technologies, computer programs, telecommunication systems, modern education, Internet, creative ability, communication.*

**Kirish.** Mamlakatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotining barcha sohalarida bo'lganidek, ta'lim tizimida ham keng qamrovli islohotlar yo'lga qo'yildi, bunda ta'lim-tarbiya tizimiga, oliy ta'limning o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini olib kirish orqali uning sifatini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish, ta'lim samaradorligini ortirish talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-79-son "Raqqamli O'zbekiston- 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora- tadbirlari to'g'risida Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-357-son "2022-2023- yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori asosida ta'lim tizimini axborotlashtirishni jadallashtirishning tashkiliy shart-sharoitlari belgilab berilgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassis pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarini keng joriy etish, elektron formatdagi o'quv resurslarining zamonaviy pedagogik talablar asosida yaratilishini taqozo etadi [1,2]. Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kreativ shaxsni tayyorlash talabi oliy ta'lim

tizimi oldiga bilim olishning zamonaviy samarali vositalarini joriy etishdan iborat yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bu vazifalar bosqichma-bosqich, islohotlar yo‘li bilan amalga oshirilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Respublikamizda ta‘lim tizimini kompyuter texnologiyasi asosida o‘qitishning ilmiy-nazariy va metodik asoslari bo‘yicha A.Abdugodirov, M.M.Aripov, U.Sh.Begimqulov, F.Zokirova, M.Mamarajabov, R.R.Boqiev, O.E.Tigay, S.S.G‘ulomov va boshqalar [3], axborot texnologiyalari yordamida o‘qitish va dasturiy vositalar yaratish bo‘yicha A.A.Abdugodirov, A.I.Ashirova, U.Sh.Begimqulovlar [4]; kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha MDH olimlaridan N.N.Baranskiy, A.V. Darinskiy, V.A. Juchkevichlar; xorij olimlaridan Bitzatsé K, Chichua T “Ta‘limda axborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish”, Chachanidze G, Santaria V “Internet ta‘lim texnologiyasi va uning rivojlanish istiqbollari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar [5,6].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Innovatsiyalarni tadqiq etishda muvaffaqiyat qozonish omillari, axborot kommunikatsiyalarini o‘z ichiga olgan o‘quv muhiti, o‘qitish va o‘qitish muammolarini hal qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun kompyuterli texnologiyalardan foydalanish va tanlash talabalar uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish. O‘quv faoliyatini virtual makonga aylantirish, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi aloqani mustahkamlashning samarali usullari.

**Muhokama va asosiy natija.** Oliy ta‘lim muassasasi dars jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haqiqiy ma‘lumotlarni olishga undaydi, ya‘ni har qanday muammoni hal qilish va ta‘lim jarayoni bilan bevosita aloqasi bo‘lgan shaxslarni jalb qilish uchun zarur ta‘lim faoliyati (masalan, boshqa maktablardagi hamkasblar, ilmiy doiralar vakillari va boshqalar shunga o‘xshash muammolar ustida ishlash) kabi bir qancha zarur omillar uchun imkon beradi. Shuningdek, talabalarga kompyuter vositalaridan samarali foydalanish yo‘llarini o‘rgatish juda muhimdir. Talabalarga qulay muhit yaratish uchun, bu jarayonda zamonaviy texnologiyalar katta rol o‘ynashini hisobga olish kerak. Masalan, kompyuter dasturlari o‘quv jarayonni real kuzatish, kerak bo‘lganda ko‘p marta takrorlashga imkon yaratishi mumkin. Bunday dasturlar talabalarga kuzatish bilan birga yozib olish, ularning tanqidiy va mustaqil fikrlashi, tadqiqot va tajribalar orqali muammolarni hal qilishga undaydi. Kompyuter texnologiyalari dasturlashtirilgan o‘qitish g‘oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning yirik imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qitishning mutlaqo yangi hali tadqiq qilinmagan texnologik variantlarini ochib beradi. Telekommunikasion tizimlar, shu jumladan, kompyuterlar hozirgi zamon ilmiy-texnik taraqqiyotning mahsuli hisoblanadi. Talabalarining individual tabiiy qobiliyatlarini hisobga olib, imkoni boricha maksimal darajadagi axborotni o‘zlashtirish faqat kompyuterlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ya‘ni o‘qitishning kompyuter texnologiyasi asosida o‘quv jarayonini jadallashtirish va samaradorligini maksimal darajada oshirishga erishish mumkin.

Kompyuter texnologiyalari talabalarda ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, o‘z tasavvurlarini erkinlashtirishga yordam beradi. O‘qituvchi pedagogikasi bilan uyg‘unlashganda, u ijodkorlik uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Misol uchun, Gallup tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, ijodiy o‘rganishga e‘tibor qaratadigan va zamonaviy texnologiyalarini transformativ usullarda qo‘llaydigan o‘qituvchilarning 85 foizi o‘z o‘quvchilarini mustaqil ravishda muammolarni hal qilishda ko‘proq jalb qilishlarini ko‘rishadi. O‘qitishning kompyuter texnologiyasi, kompyuterning inson individual qobiliyatlariga mosligiga tayanadi. O‘qitish jarayonini optimal darajada tezkor boshqarish imkoniyati mavjudligi, bu o‘qitishning turining universal muloqoti ko‘rinishida ekanligi, psixologik qulayliklari, o‘qitishning cheklanmaganligi bilan ajralib turadi.

Bu iqtidorli, o‘ta qiziquvchan talabalar uchun mustaqil ta‘lim olish vositasi. Kompyuterli o‘qitishning afzalliklari juda ko‘p:

- talabalarda ma‘lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaradi; mashq qilinadigan topshiriqlar soni oshadi;
- talabalarining ishlash sur‘ati jadallashadi, kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida talaba ta‘lim subyektiga aylanadi;
- talabalar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyati hosil bo‘ladi;
- kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda darsni uzoqdagi manbalar bilan ta‘minlash imkoniyati hosil bo‘ladi;
- kompyuter bilan muloqot didaktik o‘yin xarakterini oladi va bu bilan talabalarda o‘quv faoliyatiga motivatsiya kuchayadi va hokazo.

Shu sababli ta‘limni kompyuterlashtirish muammolarini hal qilish bo‘yicha barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, ular bilan bir qatorda respublikamizda ham turli yo‘nalishdagi tadqiqot ishlari o‘tkazilmoqda.

Kompyuterlar rivoji bugungi kunda o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro ta‘sirini kuchaytirdi. Endilikda o‘qituvchilar kompyuterda turli vositalar yordamida nazariyalarning amaliy jihatlarini talabalarga o‘rgatib, ko‘rsatishlari mumkin. Talabalar endi turli qiyin mavzularni qiziqarli tarzda oson tushuna oladilar.

**Ta‘limni kompyuter texnologiyalari asosida tashkil etishning noan‘anaviy usullari**

<p>Kompyuter va internet</p>		<p>Zamonaviy ta‘lim tizimida kompyuter ta‘limi muhim ahamiyatga ega. Talabalar uchun katta kitoblardan ma‘lumot izlashdan ko‘ra Internetda tadqiqot o‘tkazish qulayroqdir. Ma‘lumotlarga kirish ancha oson va Internetda mavjud. Kompyuterlar ma‘lumotni qo‘lda yozilgan yozuvlarni olishdan ko‘ra saqlashni osonlashtiradi.</p>
<p>Kompyuterda online ta‘lim</p>		<p>Ta‘lim muhiti onlayn ta‘lim orqali o‘zgartirildi. Masofaviy ta‘lim kompyuter texnologiyalari tufayli endi imkoniyatdir. Ta‘lim endi faqat sinflar bilan bog‘liq emas. Kompyuterlar tufayli u keng tarqaldi. Shuning uchun, agar ular bir joyda bo‘lmasa ham, talabalar va o‘qituvchilar har biri samarali o‘zaro hamkorlik qilishlari mumkin. Ular o‘z uylarida qulay sharoitda o‘qishlari va kerak bo‘lganda jadvallarini o‘zgartirishlari mumkin.</p>
<p>Kompyuterda talaba tadqiqoti</p>		<p>Internet yordamida biz kompyuterlarda ilg‘or tadqiqotlar o‘tkazishimiz mumkin. Tadqiqotning bu shakli oddiygina butun dunyo bo‘ylab veb-kutubxonalariga va Internetga ulangan turli veb-saytlarga kirish uchun kompyuterdan foydalanishni o‘z ichiga oladi.</p>
<p>Kompyuterda yangi texnologiyalarni o‘rganish</p>		<p>Texnologiyalar doimo rivojlanib borayotganligi sababli, ta‘limda kompyuterlardan foydalanish talabalarga yangi vositalar va bilimlarni o‘rganish imkonini beradi, bu ularni kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnologik o‘zgarishlarga tayyorlaydi.</p>

<p>Kompyuterda talabalar yozuvlari</p>		<p>Kompyuterdan ta’lim muassasalari, ro’yxatga olish, kurslar, imtihonlar, natijalar haqidagi ma’lumotlarni boshqarish vositasi sifatida foydalanish mumkin.</p>
<p>Online kutubxona</p>		<p>Kompyuterlar davrida kutubxonaga tashrif buyurish shart emas. Hozirgi kunda ko’plab onlayn kutubxonalar mavjud; kompyuter yordamida onlayn kutubxonadan kitoblarni bemaol o’qish mumkin.</p>
<p>Kompyuterga asoslangan treyning</p>		<p>O’qituvchilar tomonidan audio-vizual vositalar yordamida (Kompyuterga asoslangan trening) uchun ko’plab loyihalar va ta’lim dasturlari yaratiladi yoki o’rnatiladi. Ushbu o’quv dasturlari ko’pincha kompakt disklarda ma’lum bir mavzu bo’yicha ma’ruzalar shaklida taqdim etiladi. Talabalar xohlagan vaqtda uyda o’qishlari mumkin.</p>

Agar an’anaviy ta’lim sharoitlarida bilish faoliyatini tashkil etishning eng ko’p tarqalgan shakllari individual va frontal shakllar bo’ladigan bo’lsa, axborot texnologiyalaridan foydalanish sharoitida ularning ikkalasidan bir vaqtda foydalanish mumkin.


O’quv jarayonini tahlil qilish, mazkur fanning o’quv dasturini o’rganib chiqish natijasida talabalarga kreativ ko’nikmalarini berish jarayonida kompyuterlarni qo’llashning imkoniyatlari, yo’llari ochadi. Kompyuter - bu talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda yangi texnik - didaktik vosita bo’lib, ularning politexnik tafakkurini kengaytirib va chuqurlashtirib, ularda kreativlik bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirishni yuqori bosqichga ko’taradi.

**Talabalarining kompyuter vositasida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini uch bosqichda olib borish lozim:**

- birinchi bosqichda talabalarining asosiy kreativ tushunchalari kompyuter o’quv muloqot dasturlarini qo’llash orqali shakllantiriladi;
- ikkinchi bosqich buyum va detallarning konstruksiyalarini ishlab chiqish jarayonida zarur bo’lgan grafik ko’nikmalarini kompyuter o’quv-muloqot dasturlaridan foydalanib shakllantiriladi;
- uchinchi bosqich kreativlik qobiliyatlarini aniq buyum va detallarni yasash jarayonida kompyuter o’quv dasturlari asosida shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Ta’limni kompyuterlashtirish bilan bog’liq muammolarni tadqiq qilishda ko’plab yutuqlarga erishilganligini qayd qilgan holda bu sohada yechimini kutayotgan masalalari ko’p ekanligini ham ta’kidlash joiz. Chunonchi, ta’limni kompyuterlashtirishga bir necha yil oldin kirishilgan va qator ishlar qilingan bo’lsa-da, ko’pchilik uchun bu ta’limni tashkil qilishning yangi, noan’anaviy shakli sifatida taassurot qoldirib kelmoqda. Albatta, kompyuter ta’lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega, buning uchun sifatli pedagogik dasturlar va mukammal metodikadan foydalanish lozim. Bugungi kunda turli optik xotirlovchi qurilmalar (videodisklar, optik disklar) keng tarqaldi. Ulardan foydalanish matnli grafik axborotni bir vaqtda birgalikda yozish imkonini beradi, shu bilan birga uni qayta tiklashda yuqori sifatli tasvir paydo bo’ladi. Magnit yozuvdan farqli o’laroq, optik disklardagi yozuv istalgan sondagi qayta tiklashlarda ham yomonlashmaydi. Kompyuterlar ishining dastur-matematik ta’minoti yuqori texnologik ishlab chiqarish taraqqiyotining muhim yo’nalishi bo’lmoqda.

**Shuningdek, texnik va dasturli axborot texnologiyalari mavjud bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:**



Kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta‘lim jarayonini axborot bilan ta‘minlashni rivojlantirish omillari quyidagilar: bunda kompyuterlashtirishning har ikkala yo‘nalishini ham rivojlantirib borish zaruriyati tug‘iladi. Buning uchun shu sohada qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda uzluksiz ta‘lim tizimini hamma bosqichlarida “kompyuterlashtirishning konsepsiyasi” yaratilishi lozim. Kompyuterli texnologiyalar dasturli o‘qitish g‘oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikasiyalarning noyob imkoniyatlari bilan bog‘liq ta‘limning ham tadqiq qilinmagan yangi texnologik variantlarini ochadi. Kompyuterli texnologiya mazmuni bir qancha shakllantirilgan modelini qo‘llashga asoslangan bo‘lib, bu model kompyuter xotirasiga yozib qo‘yilgan pedagogik dasturli vositalar va telekommunikasiya tarmog‘ining imkoniyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Axborot texnologiyalaridan faqat o‘quv jarayonida emas, balki uzluksiz ta‘lim tizimida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarni ilmiy-texnik va maxsus axborot bilan ta‘minlaydigan axborot ishida, ta‘lim tizimini boshqarishda ham foydalanilish mumkin.

E.Chaykovskaya faqat yuqori sifatli kompyuter o‘quv dasturlarini qo‘llashda kompyuterni texnik vosita sifatida amalga oshirish samaradorligiga ishonch hosil qiladi. Tadqiqotchi o‘qituvchilar, psixologlar va dasturchilarning birgalikdagi say-harakatlari bilan markazlashtirilgan holda kompyuter o‘qitish dasturlarini ishlab chiqish va loyihalash zarur deb hisoblaydi [7]. V.Sheremetning qayd etishicha, kompyuter “ijodiy g‘oyalaringizni takrorlash va sinab ko‘rish, ovozi fayllarni xuddi professional studiyadagidek

tahrirlash, ularga har xil effektlarni qo‘shish, istalgan ishni osongina terish va chop etish imkonini beradi [8]. Bundan kelib chiqib aytilish mumkinki, kompyuterdan foydalanish:

- o‘quv jarayonini dinamik va jonli qiladi,
- talabalarni faol kognitiv va ijodkorlikka jalb qiladi
- shaxsga yo‘naltirilgan va tabaqalashtirilgan holda amalga oshiradi,
- ta‘lim jarayonini oqilona tashkil etadi, samaradorlikni oshiradi,
- o‘quv va mustaqil ta‘lim jarayonini zamonaviy va qiziqarli qiladi.

Kompyuter oqi‘sh davomida har bir talabaning ish faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plab boradi. Bu talabalarning o‘qish faoliyatini baholashga va o‘qituvchi tomonidan o‘quv materiallarini takomillashtirishga xizmat kdladi.

**Xulosa.** Ta‘limning kompyuterli (yangi axborot) texnologiyalari – bu ta‘lim oluvchiga axborotni tayyorlash va uzatish jarayoni bo‘lib uni amalga oshirish vositasi kompyuterdir, ya‘ni o‘quvchi axborot bilan ishlash mahoratini shakllantirish, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, “axborotli jamiyat” shaxsini tayyorlash, ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish imkoni darajasidagi yetarli miqdorda axborot bilan ta‘minlash, o‘quvchi-talabalarda tadqiqotchilik mahoratini, optimal qarorlar qabul qilish mahoratini shakllantirishdir. Axborot texnologiyalaridan foydalanish natijasida talabalar axborot ko‘nikmalari, va faoliyat usullarini egallash imkoniyatiga ega: global tarmoqdan foydalangan holda axborotni uzatish, qidirish, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini egallash; kutubxona kataloglaridan kerakli ma‘lumotlarni izlash; ma‘lumotlarni jadval shaklida, diagramma shaklida taqdim etish; ma‘lumotlarni mavzu bo‘yicha tartibga solish, son qiymatlari bo‘yicha tartiblash; matn, jadval, grafik, tovush ko‘rinishida taqdim etilgan ma‘lumotlarni yaratish va o‘zgartirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-60-79-son “Raqamli O‘zbekiston 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgusrdagi PQ-357-son "2022-2023- yillarda axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori.
3. Абдуқодиров А.А. Теория и практика интенсификации подготовки учителей физико-математических дисциплин. Аспект использования компьютерных средств в учебно-воспитательном процессе: Дис.... доктора пед. наук. – Т.: ТГПИ, 1990. – 360 с.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
5. Bitsadze K, Chichua T,( 2004) Scientific research collection “Sazrisi” # 14, “Review of information Technology implementation and development in learning. pg 34-39.
6. Chachanidze G. Santaria V. (2004)“Technology of internet education and perspectives of its development”. Tbilisi
7. Чайковська О.А. Використання мультимедійних технологій в мистецтві, освіті / О.А.Чайковська // Компьютеру школы та самы. – 2004. – № 2. – С. 19–20.
8. Шеремет В. П. Музыка и Finale: навчально-методичний посібник / В. П. Шеремет. – Краматорськ: Тритон-МФ, 2008. – 284 с.

## BO’LAJAK TEXNOLOGIYA O’QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA WEB-PLATFORMALARDAN FOYDALANISH

*Hamdamova Nozima Muqimovna,  
Buxoro davlat universisteti doktoranti,  
pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Ushbu maqolada bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarining kompetentligini web platformalardan foydalanib rivojlantirish keltirilgan bo’lib, bugungi kundagi mavjud web platformalar tahlil qilingan. Bugungi kunda texnologiya fanini o’qitishda web platformalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tizimining holati va uni takomillashtirish borasida olib borilayotgan izlanishlar tahlil qilish bilan birga ta’lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish bo’yicha qilingan ijobiy ishlar tahlili keltirilgan.*

**Kalit so’zlar:** dastur, vosita, tizim, kompetentlik, elektron ta’lim, fan, innovatsiya, bilim, ko’nikma, tahlil, web platforma, amaliyot, axborot, kommunikatsiya, jarayon, shakl, usul, muammo, vaziyat.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ WEB-ПЛАТФОРМ В РАЗВИТИИ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ

*В данной статье представлено развитие компетентности будущих учителей технологии с использованием веб-платформ, а также проанализированы существующие на сегодняшний день веб-платформы. На сегодняшний день проводится анализ состояния системы дидактических возможностей использования веб-платформ при обучении технологии и проводимых исследований по её совершенствованию, а также анализ проделанной положительной работы по повышению эффективности образования путем внедрения информации и коммуникационных технологий в систему образования.*

**Ключевые слова:** программа, инструмент, система, компетентность, электронное обучение, наука, инновации, знания, навыки, анализ, веб-платформа, практика, информация, коммуникация, процесс, форма, метод, проблема, ситуация.

## USING WEB PLATFORMS IN DEVELOPING THE COMPETENCE OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS

*This article presents the development of the competence of future technology teachers using web platforms, and also analyzes the currently existing web platforms. Today, an analysis is being made of the state of the system of didactic opportunities for using web platforms in teaching technology and ongoing research to improve it, as well as an analysis of the positive work done to improve the effectiveness of education through the introduction of information and communication technologies into the education system.*

**Keywords:** program, tool, system, competence, e-learning, science, innovation, knowledge, skills, analysis, web platform, practice, information, communication, process, form, method, problem, situation.

**Kirish.** Bugungi kunda ta’lim tizimini jahon ta’limi standartlariga muvofiq modernizatsiyalash, ta’lim tizimida yuz berayotgan yangilanishlar mazkur sohada faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun zarurat tug’diradi [1, b. 39]. Hozirgi vaqtda oliy ta’lim muassasalarida davlat ta’lim standartlarini zamon talablariga moslash va uni amaliyotga joriy etish, bo’lajak mutaxassislarni kredit-modul tizimi asosida tayyorlash, ta’lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etishga keng e’tibor qaratilmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida texnologik ta’lim yo’nalishi o’quv reja va dasturlari tahlil qilishi natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Texnologik ta’lim yo’nalishi o’quv dasturlari mazmuniga raqamli texnologiyalarni kiritilgan mavzular mavjud. Ular orasida “Texnologiya o’qitish metodikasi”, “Robototexnika asoslari” fanlari yetakchi o’rinlarni egallaydi.

2. Hozirgi vaqtdagi dasturlarda innavtsion texnologiyalar va texnologik ta’limning umumiy masalalarini qamrab oladi.



3. Texnologiya ta’lim yo’nalishi o’quv rejasidagi fanlar va o’quv dasturlarida raqamli texnologiyalarning mutaxassislik fanlariga tadqiq etishga oid fanlar kam uchraydi.

Texnologiya o’qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolarini tahlil qilishda tadqiqotchilar metodik va texnologik kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish metodologiyalari, texnologik ta’limning uzluksizligi, texnologiya o’qituvchilari mashg’ulotlarda raqamli texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash, fanlar integratsiyasini ta’minlashga e’tibor qaratilmoqda [5, b. 98].

Elektron ta’lim resurslari hamda masofaviy ta’lim o’quv-metodik ta’minotining samarali integratsiyasini ta’minlashi, talabalarga mustaqil izlanish yo’li bilan materiallarni topish, o’rganish hamda muammoli masalalarni hal etish orqali ularda ma’lum tadqiqot ishlarini amalga oshirish ko’nikmalarini shakllantirishi, talabalar kurs, malakaviy bitiruv ishlarini bajarishda, magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda o’quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlab olish, axborot hamda ma’lumotlarni tahlil eta olish kabi malakalarni shakllantirishi uchun sharoit yaratishi kabi didaktik vazifalarni ham amalga oshiradi.

**Asosiy qism.** Texnologik ta’lim yo’nalishi o’quv rejasi asosida o’qitiladigan “Texnologik ta’lim praktikumi”, “Tikuv buyumlarining avtomatlashtirilgan tizimlari”, “Gazlama materiallaridan buyum tayyorlash texnologiyasi” kabi fanlarda talabalarga kiyimlar, kiyimlarni tikishda foydalaniladigan mato turlari, kiyimlarni loyihalash, tikuvchilikda ishlatiladigan jihoz va vositalar, kiyimlarni loyihalash, zamonaviy dizayn usullari, tikuv mashinalari, kiyimlarni loyihalashda zamonaviy dizayn talabalaridan foydalanish, kiyimlarni loyihalashga kompyuter dasturlaridan foydalanish ko’nikmalarini egallash nazarda tutiladi.


Fan va texnologiya yuksak ravnaqlar bilan rivojlanayotgan davrda oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisining tayyorgarligi zamon talabi darajasida bo’lishi ta’lim sifatining asosiy mezoni deb qaralmoqda. Bunda bilim, malaka va ko’nikmalarni bo’lajak kasbiy faoliyatda tezkor joriy etish imkon beruvchi kafolatlangan ta’lim berish masalasi dolzarb hisoblanadi. Bu muammoning yechimi esa nazariyani amaliyotga qo’llash asosida amalga oshiriladi [2, b. 14].

Dasturiy ta’lim vositalari asosida loyihalash tizimlari doimiy ravishda takomillashib bormoqda va ta’lim muassasasining raqobatbardosh bitiruvchilarini tayyorlashdagi asosiy vazifasi talabalarda nafaqat an’anaviy bilim va ko’nikmalarni balki, maxsus amaliy dasturlar bilan ishlash sohasida ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat. Nafaqat o’z ko’nikmalarini amalda qo’llashga tayyorlikni, ushbu fan bo’yicha o’z malakalarini oshirishga, o’z-o’zini rivojlantirishga intilishga tayyorlikni o’z ichiga olgan axborot kompetensiyalarini shakllantirish ham mumkin.

Hozirgi kunda barcha sohalarda axborot texnologiyalarining joriy etilishi axborotni, shu jumladan, texnik axborotni yaratish va taqdim etish vositalarini almashtirishga olib keldi. Endilikda sanoatning barcha tarmoqlarida konstruktorlik va texnologiya hujjatlarni shakllantirish va tahrirlash integratsiyalashgan kompyuter yordamida loyihalashtirish tizimlarida (CAD/CAM/CAE) amalga oshiriladi. CAD (Computer Aided Design) – loyihalashni avtomatlashtirish tizimi, CAM (Computer Aided Manufacturing) – ishlab chiqarishni avtomatlashtirilgan tayyorlash tizimi, CAE (Computer Aided Engineering) – tahlilni avtomatlashtirish tizimi.


Texnologiya mashg’ulotlarida o’qituvchi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda turli dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish imkoniyati mavjud [3, b. 14]. Talabalarga mashg’ulot jarayonida kiyimlarni loyihalash, zamonaviy dizayn usullari, kiyimlarni turli xilda bezash kabi kompetensiyalarni egallashlari hamda mustaqil tikuvchilikni o’rganishlariga mo’ljallangan platformalardan foydalanishlari mumkin. Quyida biz ana shunday platformalar, ularni qanday maqsadlarga mo’ljallanganligi to’g’risida qisqacha to’xtalib o’tamiz.

**Made to Sew onlayn platformasi** - Onlayn tikuvchilik kurslari bo’yicha eng yuqori o’rinda turadigan platformalardan biri (1-rasmga qarang). Web platformaning barcha kontentlari YouTube video platformasida ham bepul foydalanish uchun joylashtirilgan. YouTube platformasi orqali kerakli dars mashg’ulotlari video darslarini foydalanuvchilar o’zlari uchun qulay hatto doimiy ko’rish uchun pleylist yaratish orqali kuzatib borishlari yoki o’rganishlari mumkin.



1-rasm. Made to Sew onlayn platformasi

Made to Sew web platformasida yangi foydalanuvchilar uchun tikuvchilik darslari hamda kiyimlarni andozalash darslari mavjud. Platformaning ko'p sonli obunachilari borligi orqali darslarning mazmuni, sifati orqali bilib olish mumkin..




2-rasm. Skillshare onlayn o'quv platformasi

**Skillshare** - onlayn o'quv platformasi butun dunyoga mashhur platformalardan biri (2-rasmga qarang). Foydalanuvchilar uchun platformadan ular tanlagan kurslar butun oy davomida bepul beriladi. Foydalanuvchilar uchun tikuvchilik asoslarni o'rganish uchun keng imkoniyat yaratilgan.

**Anita by Design** – ushbu platforma foydalanuvchilarga bepul onlayn tikuvchilik kurslarini taklif qiladi. Platformadan foydalanish uchun foydalanuvchiga shaxsiy tikuv mashina kerak bo'ladi. Ushbu platformada erkaklar kiyimlari bilan bir qatorda kiyimlarning matolari haqidagi ma'lumotlar ham yoritib berilgan. Ushbu platforma tikuvchilikni boshlash uchun mustahkam poydevor olishning eng yaxshi usullaridan biri. Shuningdek, platformada tikuv mashinalaridan foydalanish bo'yicha ham qo'llanmalar keltirilgan.


**Udemy** – ushbu platforma yuqoridagi platformalardan farqli ravishda pullik kurslarni taklif qiladi (3-rasmga qarang). Yuqoridagi platformalarning o'quv kurslarida farqli ravishda Udemy platformasi kurslari keng qamrovli bo'lib, uzoq muddatda o'z samarasini berishini kafolatlaydi. Misol uchun Udemyning "<https://jitendra.co/ru/pluralsight-vs-udemy/>" kursini sotuvga chiqqanda 10 dollarga sotib olish mumkin.

Platformadagi Kimberli Irvin va Margaret Smit deb nomlangan video darslarni olib boruvchi malakali tikuvchilarning kurslari saytdagi eng yuqori baholangan va eng ko'p sotiladigan kurslardan hisoblanadi.



3-rasm. Udeemy onlayn platformasi

**Creativebug** - kontentini bepul 1 oy muddatga sinab foydalanib ko'rish mumkin (4-rasmga qarang). Ushbu platformada nafaqat tikuvchilik balki, hunarmandchilik kurslari ham mavjud. Ushbu platforma boshqa platformalaridan hunarmandchilik kurslari borligi bilan farqlanib turadi.



4-rasm. Creativebag online platformasi

Bundan tashqari, chakana savdo uchun maxsus mahsulotlarni yaratish bo'yicha o'quv qo'llanmalari ham kiritilgan. Ushbu saytdan onlayn kurslarni sotib olishdan oldin sharhlarni ko'rib chiqib hamda mahsulotning sotilish grafikasini kuzatishingiz mumkin.

Onlayn dars bilan ish boshlashdan oldin foydalanuvchi oldin video darsni to'liq tomosha qilishi tavsiya etiladi. Agar dars foydalanuvchiga yoqmasa, to'lovni qaytarishni so'rashi mumkin (tizim darslarini kafolatlaydi!).

Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'quv rejasida o'qitilishi nazarda tutilgan "Texnologik ta'lim praktikumi", "Tikuv buyumlarining avtomatlashtirilgan tizimlari", "Gazlama materiallaridan buyum tayyorlash texnologiyasi" kabi fanlardan mashg'ulotlarda o'qituvchi mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda yuqorida keltirilgan on-line ta'lim platformalaridan foydalanishga e'tibor qaratsa tayyorlanadigan mutaxassislarning kasbiy kompetentligini yuri bo'lishiga erishadi. Bundan tashqari talabalar fan bo'yicha mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun zamonaviy materiallardan foydalanish bo'yicha zarur tavsiyalarni egallashlari mumkin [4, b. 19].

**Xulosa.** Bugungi texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan davrda oliy ta’lim muassasalarida texnolog ta’lim yo’nalishi o’quv dasturlari mazmuniga yangiliklar va qo’shimchalarni kiritish hisobiga tayyorlanayotgan mutaxassislarni yangi texnologiyalardan zarur kompetensiyalarni o’z vaqtida egallashlariga erishiladi. Fanlar bo’yicha o’quv materalari mazmuni o’quv dasturlarida nazarda tutilgan har bir mavzuga maqsadli yondashuv asosida kiritilishi lozim [6, b. 136]. Ta’lim yo’nalishida o’qitilayotgan mavzularning ahamiyati, ta’lim maqsadiga muvofiq amalga oshirishni nazarda tutadi.

Texnologiya mashg’ulotlarida Web texnologiyalaridan foydalanish bo’lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlanishida fan bo’yicha malakalarni egallashlarni emas, balki mustaqil integrative bilimlar va harakatlarni o’zlashtirishlarga xizmat qilishi lozim. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik fanlaridan doimiy yangilab borishni, axborotlarni qayta ishlash, yangi texnologiyalarni o’rganishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish va ulardan faoliyat davomida qo’llay olishni taqozo etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. –Т.: 2017. – Б.39.
2. Абдуллаева Қ.М. Махсус фанларни ўқитишда бўлажак ўқитувчиларнинг касбий билим ва кўникмаларини шакллантиришнинг методик асослари: Дис. ... пед. фан.ном. –Т.: 2006. –182 б.
3. Алимов А.А. Бўлажак меҳнат таълими ўқитувчиларини шахсга йўналтирилган технологиялар асосида инновацион фаолиятга тайёрлаш: Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. - 48 бет.
4. Қўйсинов О.А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологиялари: Дисс. ... пед. фан. док. (DSc). -Тошкент, 2018.
5. Хуторской А.В. Компетентностный подход в обучении. Научно-методическое пособие. Издательство Института образования человека, 2013 -73с: ил (серия «Новые стандарты»).
6. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo‘ysinov O.A. Mehnat ta‘limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash. Darsiik / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. – Toshkent: 2014. – 456 b.

## LOYIHALASH TEXNOLOGIYASINI KONSTRUKSIYALASH ORQALI O‘QUVCHILAR BILIMINI RIVOJLANTIRISH

*Raxmatov A'zam Ashur o'g'li,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
raxmatovazam016@gmail.com*

*Ushbu maqolada o'quvchilar bilimlarini rivojlantirish maqsadida loyihalash texnologiyasini konstruksiyalash ishlari ko'rsatib o'tilgan. Texnologiya darslarida loyihalash texnologiyasini konstruksiyalash ishlari sifatli tashkil etilishini amaliy mashg'ulot jarayonida shakllantirishni inobatga olgan holda biz stadion modelini tayyorlash jarayoni, ish ketma-ketligi, kerak bo'ladigan jihoz va moslamalar hamda loyihalash texnologiyasining kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari, loyihaviy ta'lim shakllari, konstruksiyalash, modellashtirish tushunchalari keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** loyihalash, konstruksiyalash, modellashtirish.

## РАЗВИТИЕ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ КОНСТРУИРОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ

*В данной статье показаны работы по построению технологии проектирования с целью развития знаний учащихся. С учётом формирования качественной организации проектно-технологических строительных работ на технологических занятиях в ходе практических занятий мы познакомим с процессом подготовки модели стадиона, последовательностью работ, необходимым оборудованием и приспособлениями, а также с историей создания. Упоминаются зарождение технологии проектирования, этапы развития, формы проектного образования, построения, концепции моделирования.*

**Ключевые слова:** проектирование, конструирование, моделирование.

## DEVELOPMENT OF STUDENTS' KNOWLEDGE THROUGH CONSTRUCTION OF DESIGN TECHNOLOGY

*In this article, construction works of design technology in order to develop students' knowledge are shown. Taking into account the formation of the quality organization of design technology construction work in the technology classes during practical training, we will introduce the process of preparing a stadium model, the sequence of work, the necessary equipment and devices, as well as the history of the origin of design technology, stages of development, project education forms, construction, modeling concepts are mentioned.*

**Keywords:** design, construction, modeling.

**Kirish.** Shiddat bilan rivojlanib borayotgan yurtimizning ravnaqiga hissa qo'shish maqsadida yoshlarni ijodkor, barkamol shaxs etib tarbiyalash o'qituvchilarning asosiy maqsadidir. Shu maqsad yo'lida pedagoglar har xil metodlar, vositalardan keng ko'lamda foydalanadilar. Masalan: aqliy hujum, amal va xato, muammoli vaziyat, BBB, ko'rgazmali vositalar kabi metodlar Texnologiya darslarida amaliy mashg'ulotlarning sifatli o'tilishini loyihalash texnologiyasini konstruksiyalash orqali amalga oshirish juda samarali hisoblanadi. Loyihalash texnologiyasi hozirgi kunda AQSH, Buyuk Britaniya, Belgiya, Isroil, Finlandiya, Germaniya, Rossiya, Italiya, Braziliya va Niderlandiya kabi rivojlangan mamlakatlarning ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda. J.Dyu o'qitishni o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojini hisobga olgan holda o'quvchilarning muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini faollashtirish orqali tashkil etishni taklif etgan. Buning uchun o'quvchilarga o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotga qo'llash, ulardan kelgusi hayotda foydalanish yo'llarini ko'rsatish, ya'ni nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'liq holda o'qitish lozimligini uqtirgan. Bu jarayonda o'quvchilar tanish vaziyatdagi ahamiyatga tegishli muammolarni avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalarini amaliyotga qo'llab hal etish orqali yangi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradilar.

**Asosiy qism.** Texnologik jarayonlarni loyihalashda bir tomondan buyumga qo'yiladigan texnik talablar, ikkinchi tomondan ishlab chiqarishning imkoniyatlari, uning zarur stanoklar, instrumentlar va ishchi kadrlar bilan ta'minlanganligi hisobga olinadi.[1]

O‘quvchilar muammolarni muvaffaqiyatli hal etishlari uchun o‘qituvchi ularga tegishli ko‘rsatmalar berishi, foydalaniladigan manbalarni tavsiya etishi, o‘qitishdan ko‘zlangan natijaga erishish yo‘llarini ko‘rsatishi, buning uchun muammoni hal etishda o‘quvchilarning faoliyatini loyihalashi lozim.

Loyihalash texnologiyasining asosiy g‘oyasi amaliy yoki nazariy ahamiyatga tegishli bo‘lgan muammoni hal etish jarayonida ko‘zlangan natijaga erishishdir. Agar nazariy muammoni loyihalash lozim bo‘lsa, uning aniq yechimi, agar amaliy muammo bo‘lsa, amaliyotga qo‘llash masalasi bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

O‘quvchilar ushbu natijaga erishish uchun mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini egallagan bo‘lishlari, muammoni anglash va uni hal etish yo‘llarini izlashlari bu borada avval o‘zlashtirgan bilimlaridan foydalanishlari, fanning turli sohalarida izlanishlar olib borishlari, olinajak natijalarni bashorat qilish, turli yechimdagi variantlar ishlab chiqish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tasavvur qilishlari zarur.

Loyihalash texnologiyasining asosiy mohiyati ma’lum bir muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o‘quvchilarning qiziqishlarini orttirish, loyihalash faoliyatini shakllantirish, ularning tegishli bilimlarni egallashlari, fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish sanaladi. Loyihalash texnologiyasining asosiy g‘oyasi: o‘rganilayotgan bilim, ko‘nikmalar menga nima uchun zarurligi va undan qayerda va qay tarzda foydalanishni bilaman. Bu g‘oya o‘quvchilarning fan asoslarini ongli o‘zlashtirishlari, hayotga moslashishlari va mo‘ljalni to‘g‘ri olishlariga yordam beradi. Texnologiya fanini o‘qitishda o‘qituvchi loyihalash texnologiyasidan o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda nafaqat darsda o‘quv muammolarini hal etishda, balki darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham ijodiy muammolarni hal etishda foydalanishi zarur

D.Dyui g‘oyalariga asoslangan holda, boshqa amerikalik pedagoglar U.Kilpatrick va E.Kollings loyihaviy ta’limni yaratdilar. [2]

Ta’limda loyiha bu o‘qituvchi tomonidan maxsus tashkillashtirilgan (laboratoriya) sharoitlarida amalga oshiriladigan natijaviy faoliyatdir.

Muammoli ta’limdan loyihaviy ta’lim talabalar faoliyati loyihaviy harakterga egaligi, uning yakunida aniq (amaliy) natija olinishi va taqdim etilishi bilan farqlanadi.


Loyihaviy ta’lim maqsadlari:

- Loyihaviy faoliyat, loyihali tafakkurni shakllantirish;
- O‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan motivatsiyani oshirish;
- Barcha o‘quvchilarni mustaqil faoliyat bilan mashg‘ul qilish;
- Zaruriy ma’lumotlarni turli manbalardan mustaqil izlab topish va o‘zlashtirishga o‘rgatish;
- Oldin shakllantirilgan bilimlarni yangi sharoit, yangi masalalarni yechishda qo‘llashga o‘rgatish;
- Bilimlarni hayotiy vaziyatlarga nisbatan qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- O‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Zamonaviy hayot uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish;
- Tadqiqot olib borish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Modellashtirish — ilmiy faoliyatning keng tarqalgan shakllaridan biridir. Modellashtirish asosida o‘xshashlik nazariyasi yotadi, u shuni tasdiqlaydiki, mutloq o‘xshashlik bir obyektning boshqa xuddi shunday obyekt bilan almashtirish mavqeiga ega bo‘lishi mumkin.[3]


Barcha fanlarda modellashtirilayotgan hodisalar haqida ma’lumot olishda, farazlar va nazariyalarni ishlab chiqishda modeldan foydalaniladi. Modellashtirish, soddalashtirish, ideallashtirish bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Biz “Stadion modelini tayyorlash texnologiyasi” ko‘rib chiqadigan bo‘lsak:

Stadion modelini yasash uchun bizga eni 45 sm, bo‘yi 21.5 sm tekis kardon qog‘ozi kerak bo‘ladi. Kardon qog‘ozini markazini aniqlab olamiz. Markazidan eni 2 sm, bo‘yi 1 sm bo‘lgan o‘yiq kesib olamiz. Markazidan eniga 5.25 sm, bo‘yiga 3.25 sm joy qoldirib, eni 10.5 sm, bo‘yi 6.5 sm o‘lcham chizib olamiz. Keyingisini yana markazdan eniga 8.25 sm, bo‘yiga 6.25 sm uzoqlikda eni 16.5 sm, bo‘yi 12.5 sm qilib o‘lcham chizib olamiz. Keyingi o‘cham oxirgi katta o‘lcham hisoblanadi va u markazdan eniga 11.25 sm, bo‘yiga 9.25 sm uzoqlikdan o‘lchamlari eniga 22.5 sm, bo‘yi 18.5 sm qilib chiziladi (1-rasm).



1-rasm.

- Kardondagi chizmadan tashqari joylarini kesib katta chizma joyini qoldiriladi. Markazdan 2-o‘changacha joyini kesib aloxida bo‘lak qilinadi (2-rasm).



2-rasm.

- Boshqa kardon yoki fomeks materialidan tayanch sifatida bo‘laklar kesiladi va yuqorida kesib olingan katta bo‘lak ostiga kley yordamida mustaxkamlab chiqiladi (3-rasm). Kesguncha va kleylaguncha ehtiyot chorolari ko‘rilishi kerak. Ya‘ni qaychi bilan ishlaganda tig‘ tarafidan ehtiyot bo‘lish kerak.



3-rasm.


- Tayanch o‘rnatilgandan so‘ng, tog‘irlab qo‘yiladi va 1-bo‘lak markazini joylashtiriladi (4-rasm).






4-rasm.

- Markazdagi o'lcham chizig'iga oq varaqni qatlab to'siq shakliga keltiriladi va yopishtiriladi. To'siqdan tepagacha o'lchab, fomeks yoki boshqa oq qattiq qog'oz kesib yopishtirib chiqiladi (5-rasm).



5-rasm.

- Tepa qismi uchun rasmdagidek daftar kardonidan yoki qattiq qog'ozdan shakl kesib olinadi. Yuqori qismiga tikka qo'yib, kley yordamida mustahkamlanadi. Ustidan fomeks materiali yoki qattiq qog'ozdan kesib, kley yordamida qo'yib mustahkamlanadi (6-rasm).



6-rasm.


- Markaz qismiga maxsus stadion yeri chizilgan qog'ozidan qo'yamiz. Fomeks yoki qattiq qog'ozdan qilingan o'rindiqlar ustiga ham rangli o'rindiq rasmlarini yopishtirib chiqiladi (7-rasm).






7-rasm.

Rasmda ko‘rsatilgandek yana kardon qog‘ozidan kesiladi (8-rasm) va stadion tashqi tarafidan ustiga o‘rnatiladi (9-rasm).




8-rasm.



9-rasm.

O‘lcham asosida oq qog‘ozni kesib, stadion ustidan tepa va yon qisimlarini o‘rab chiqiladi (10-rasm).



10-rasm.

- Stadionni ichki qismiga keraksiz katta qog‘ozni qo‘yib, tashqi tomonini kumush rangdagi suyuqlik bilan purkab bo‘yaladi (11-rasm). Qog‘ozni qo‘yganimizning sababi shundaki, purkab rang berganda ichiga ham o‘tishi mumkun. Shuning uchun ichiga qog‘oz qo‘yiladi. Purkaguncha extiyot choralarini ko‘rish kerak, ya‘ni atrofga yoki ko‘zga sepmaslik kerak.



11-rasm.

- Bo‘yalgandan so‘ng qog‘oz olinadi. Stadion tayyor (12-rasm). Uni uyga, o‘qish binolariga, ish binosiga, xonalarga qo‘ysak bo‘ladi.



12-rasm.

- Ushbu stadion modelini uyga, maktab, litsey va boshqa o‘quv binolariga, ishxonalarga va boshqa joylarda ko‘rgazmali model sifatida qo‘yishimiz mumkun.

**Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak**, Loyihalash texnologiyasini konstruksiyalash jarayonida o‘quvchilar quyidagi ishlarni amalga oshiradilar:

- ✓ birinchidan, loyihalash texnologiyasini konstruksiyalash haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘ladilar;
- ✓ ikkinchidan, stadion modelini yasash jarayonida ijodiy loyiha ishi bilan shug‘ullanadilar;
- ✓ uchunchidan, loyihalash bo‘yicha ishlarni amalga oshiradilar, stadion uchun ketadigan jihozlar, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishadilar;
- ✓ to‘rtinchidan, stadion modelini yasash bo‘yicha loyihalash texnologiyasini konstruksiyalash elementlari shakllanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Qurbonov B., Qurbonova G. Texnologiya va dizayn o‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 138 bet.
2. Joyiyev M., Ziyamuxamedov B., O‘ralova M. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanining o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash o‘quv qo‘llanma. “Tafakkur-bo‘stoni” T-2012, 224 bet.
3. Yusupbekov N.R., Muxitdinov D.P. Texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari. Darslik T.: << Fan va texnologiya>>, 2015, 440 bet.
4. Babaxonova X.A., Jalilov A.A. Texnik jarayonlarni loyihalash asoslari. - Darslik - "Tafakkur Bo‘stoni" - Toshkent 2013, 176 bet.

## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MAJBURIY FANLARNI O'QITISHDA MUSTAQIL HARAKATGA VA FAOLIYATGA YO'NALTIRILGAN TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Sayfullayeva Dilafro'z Axmadovna,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti “Texnologik ta'lim” kafedrasida dotsenti  
dsayfullayeva15@gmail.com*

*Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida majburiy fanlarni o'qitishda mustaqil harakatga va faoliyatga yo'naltirilgan texnologiyasini qo'llashning ahamiyati, tuzilmasi va amalda joriy etish bosqichlari hamda majburiy fan gazlamalarga ishlov berish praktikumi fani misolida amaliy mashg'ulot ishlanmasi, individual yondashuv asosida amaliy topshiriqni bajarish texnologik ketma-ketligi bayon etilgan. “Mustaqil harakatga va faoliyatga yo'naltirilgan texnologiya” qo'llanilganda talabalarning bilim olish faoliyati faollashishi, o'z fikrini mustaqil bayon eta olishi, amaliy ko'nikmalari rivojlanishi yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, majburiy fanlar, o'qitish, mustaqil harakat, faoliyatga yo'naltirish, texnologiya, tuzilma, bosqich, ko'nikma, axborotni mustaqil izlash, individual yondashuv, amaliy topshiriq, mustaqil fikr, faoliyat, faollashtirish.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ, НАПРАВЛЕННЫХ НА САМОСТОЯТЕЛЬНОЕ ДЕЙСТВИЕ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ОБЯЗАТЕЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН В ВУЗАХ

*В данной статье рассмотрены значение, структура и этапы реализации использования самостоятельного движения и деятельностью-ориентированной технологии при преподавании обязательных предметов в высших учебных заведениях, а также развитие практической подготовки, индивидуального подхода, на примере практикума обязательной обработки предмета, на основе которого описана технологическая последовательность выполнения практического задания. При использовании «технологии, ориентированной на самостоятельное действие и деятельность» активизируется учебная деятельность учащихся, они могут самостоятельно выражать своё мнение, развиваются их практические навыки.*

**Ключевые слова:** высшее образование, обязательные предметы, обучение, самостоятельное действие, направленность к деятельности, технология, структура, этап, навык, самостоятельный поиск информации, индивидуальный подход, практическое задание, самостоятельное мышление, деятельность, активизация.

## USE OF TECHNOLOGIES AIMED AT INDEPENDENT MOVEMENT AND ACTIVITY IN TEACHING COMPULSORY SCIENCES IN UNIVERSITIES

*In this article, the importance of using the technology of independent movement and activity in the teaching of compulsory subjects in higher education institutions, the structure and stages of its implementation, as well as the development of practical training on the example of the subject of compulsory subjects processing practicum, practical training based on an individual approach the technological sequence of task execution is described. When "technology oriented to independent movement and activity" is used, students' learning activities are activated, they are able to express their opinions independently, and their practical skills are developed.*

**Keywords:** higher education, compulsory subjects, training, independent action, focus on activity, technology, structure, stage, skill, independent search for information, individual approach, practical task, independent thinking, activity, activation.

**Kirish.** Jamiyatning barcha jabhalaridagi o'zgarishlar texnologik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarini tayyorlash jarayoniga ta'sir qiladi va yangi-yangi talablarni qo'yadi. Hozirgi paytda ham nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega, barqaror o'zgarishlarga moslanuvchan, erkin fikrlaydigan, kasbiy hamda hayotiy muammolarini mustaqil hal qila oladigan mutaxassis-pedagoglarga ehtiyoj katta. Shu bilan birga, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari talabalaridan har tomonlama bilimdonlik, mustaqil fikrlay oladigan shaxs darajasini talab etadi. Bunday talablarning bajarilishi albatta ularni butun hayoti davomida bilim olishga o'rgatish orqali ta'minlanadi.

**Asosiy qism.** Buning uchun oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy kompetensiyalar bilan bir qatorda ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalari ham shakllantirilishi kerak. Shu sababli talabalarda axborotni mustaqil izlash, topish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda talabalarning kerakli ma’lumotlarni mustaqil izlash, topish va tahlil qilish hamda amalda qo’lly olish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularni muntazam o’rganish va bilim olishga o’rgatiladi. Bunday qobiliyatlar va kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirish o’qitish jarayoniga boshqacha yondashuvni, ya’ni yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo’llashni talab etadi. Biz yangi texnologiyalardan biri bo’lgan «Harakatga yo’naltirilgan o’qitish va o’qish» haqida fikr yuritimiz.

«Harakatga yo’naltirilgan o’qitish va o’qish» tushunchasi haqidagi barcha bahs-munozaralarda quyidagi yagona g’oya ilgari suriladi. Bu mehnat faoliyatlarga yo’naltirilgan o’quv jarayonini harakatli o’qitish asosida tashkil etish va o’tkazish orqali talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish va o’stirish g’oyasidir[1].

- Harakatga yo’naltirilgan o’qitish:

- ishlab chiqarish vaziyatlarida talabaniq mustaqil rejalashtirish, o’tkazish va baholash harakatlariga asoslangan kasbiy faoliyatni o’rganishga yo’naltirilgan;

- talabalarning dastlabki tajribasiga mos keluvchi, faoliyatli va muammoli ta’limlarga asoslangan;

- barcha o’quv jarayonlari elementlarining psixologik qonuniyatlarga asoslangan ravishda tuzilishi (kognitiv-psixologik nazariyalar, harakatlarni rostdash nazariyalari, ikki turdagi nazariyalarning pragmatik bog’lanishi asoslanish masalan, abstrakt, ya’ni hayoliy, mavhum, o’zida begona harakatni hayoliy tasavvur qilish);

- talabalarni o’zlashtirish imkoniyatlari darajasida mustaqil harakat orqali o’qitish; bunda ta’lim oluvchilar o’zida begona harakatlarni hayoliy tasavvur qilish orqali emas, balki faol harakat orqali o’rganadilar (voqeani o’rganish orqali, loyiha tajriba orqali o’qish);

muayyan kasbiy harakatlarga o’rgatish, natijalarini nazariy bilimlar orqali emas, balki sinov tarzida aniqlanadi (masalan, elektrik sxemaning ishlab qobiliyatini sinab ko’rish);

talabalarda egallagan bilimlaridan qobiliyatini o’stirish maqsadida o’quv jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etish; (shaxsning o’sishi, umuminsoniy qadriyatlarining shakllanishi);

yangi bilimni shakllantirish va uzatishga yo’naltirilgan (xatoni qidirish ularni bartaraf etish);


mustaqil ishbilarmonlikni belgilarini egallash kabi harakatga yo’naltirilgan o’qitish (masalan, korxonada nuqtayi nazaridan yoki mutaxassis kabi fikrlash va harakat qilish);

kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo’naltirilgan faoliyatlar.

Oliy ta’lim muassasalarida majburiy fanlarni harakatga yo’naltirilgan o’qitish jarayonida talabalar hamda o’qituvchi roli o’zgaradi va yangi o’quv madaniyati yuzaga keladi. Bu yangi ta’lim paradigmasi butun umr davomida ta’lim olish g’oyasiga asoslanadi va o’qish faolligi, o’z-o’zini boshqarish, mustaqil o’rganish, o’qish hamda o’rganishga qayta yo’naltirish asoslarini o’zida aks ettiradi. Mustaqil tashkil etilgan ta’lim o’zida yangi o’quv madaniyatining asosiy modelini namoyon qiladi.

Bu metod an’anaviy metodlardan farqli ravishda talabalarga o’z-o’zini namoyon qilishning juda yuqori darajasini belgilaydi.

Yangi o’quv shaklini faqat bilimlarni uzatish nazariyasidan va o’z-o’zini boshqarish ta’limiga o’tishni bildiradi [1].



An'anaviy ta'lim.

Harakatga yo'naltirilgan ta'lim.

Harakatga yo'naltirilgan o'qish hamda o'rganishni tashkil etish, asosan, mustaqil ta'lim jarayoni va o'quv harakatlariga tayanadi, uning belgilari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

faoliyatga yo'naltirilgan;  
o'z-o'zini boshqaradigan;  
faol harakat;

- kompetensiyani rivojlantiruvchi;  
o'qitishning texnik vositalaridan foydalangan holda.

Ularni joriy qilish yangi o'quv madaniyatini va rolini tushunishdagi o'zgarishlarni ko'zda tutadi.

**Talaba harakatining farqli belgilari.** Harakat maqsadga yo'naltirilgan va ongli ravishda, ya'ni harakat natijalari fikran aniqlangan.



Inson faoliyati iyerarxik (shajaraviy) ketma-ketlikda joylashgan harakat elementlaridan tashkil topgan. Harakatni umumiy va xususiy maqsadlar amalga oshirishda harakatning «psixologik tuzilmasi» shakllanadi hamda u «muayyan harakatlarni» boshqaradi.

Harakatlar abstrakt fikrlash orqali amalga oshirilishi va ularning natijalari tekshirilishi mumkin (masalan, xayoliy tajriba). O'qituvchilar uchun rejalashtirish bo'yicha namunaviy dasturlardan ularning tartibli harakatga asoslangan tuzilmada amaliy qo'llanilishi haqida bilib oladilar.

**Harakatga yo'naltirilgan o'qitishni amalga oshirish bo'yicha qadamlar:**

1 – qadam: Mazmun va hajmdan iborat ish maqsadlarini aniqlash: chegaraviy ruxsat etilgan ish vaqtini aniqlash.

2 – qadam: Ishning dastlabki tuzilmasi, bilimlardagi nuqsonlarni qoplash va axborotga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash.

3-qadam: Internet tarmog'idan foydalanishda izlanishga tayyorlanish, izlanish strategiyasi: axborot – qidirish mashinalari, kataloglar.

4-qadam: Axborotni qidirish, baholash, maqbul bo'lgan axborotni aniqlash, axborotni qisqartirish.

5-qadam: Axborotni qayta ishlash, qattiq diskka, axborot tashuvchisiga hujjatlashtirish yoki bosmadan chiqarish.

6-qadam: Ish natijalarini nazorat qilish, umumlashtirish va baholash.

Harakatlanish qo'llanmasi yordamida o'qish foydalanuvchiga bir qator afzalliklarni taklif qiladi:

- yakka tartibda o'qish imkoniyati;
- har tomonlama o'qish imkoniyati;
- shaxsiy mas'uliyat ostida mustaqil rostanadigan o'qish imkoniyati;
- oldingi yutuqlarga muvofiq differensiyalash (farqlash) imkoniyati;
- shaxsiy e'tibor hissiyatini oshirish va o'qishga qiziqtirishni kuchaytirish imkoniyati;
- hamkorlikda harakatlanishga tayyorlik imkoniyati va jamoada ishlay olish qobiliyati;
- muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Ammo joriy qilishning bir qator muammolari ham mavjud:

- talabalar axborotni mustaqil qidirib topish zaruriyatini tan olishlari kerak;
- yakka tartibda mustaqil harakatlanish qobiliyati va mos ravishda o'qituvchi bilan differensiyalashgan holda rivojlanishi kerak;

- raqamli axborot tashuvchilari va internet tarmog'i bilan ishlash (shu jumladan, majburiy fan bo'yicha mashg'ulotlarda ham) resurslarini, shuningdek, murakkab bo'lmagan maktabni tashkil etishni talab qiladi;

- kompyuterlar va dasturiy ta’minotning nisbatan tez amortizatsiyasi uzluksiz moliya vositalarini yetkazib turishni talab qiladi;

- o’qituvchi talabalarga nisbatan keng masshtabda ilgarilab ketishga ehtiyojni sezadi, maxsus pedagogik va psixologik bilimdonlik texnik ma’lumot bilan to’ldiriladi;

- harakatlanishga qo’llanmani tayyorlash va ishlab chiqish o’qituvchidan vaqt sarflashni talab qiladi.

Harakatga yo’naltirilgan o’qitishni amalga oshirish bo’yicha gazlamalarga ishlov berish praktikumi fani misolida amaliy mashg’ulot namunasini keltiramiz.

**Mashg’ulot mavzusi:** O’g’il bolalar ko’ylagi uchun andaza tayyorlash, andazani gazlamaga joylashtirish, bichish va tikish mavzusini o’qitish texnologiyasi.

#### **Mashg’ulotni o’tkazish vaqti - 80 daqiqa**

Mashg’ulot maqsadlari:

Ta’limiy: Talabalarga o’g’il bolalar ko’ylagi uchun andaza tayyorlash, andazani gazlamaga joylashtirish, bichish va tikish haqida amaliy ko’nikmalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy: talabalarga o’g’il bolalar ko’ylagi uchun andaza tayyorlash, andazani gazlamaga joylashtirish, bichish va tikish jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, bir-birini hurmat qilishni hamda milliy va umummadaniy qadriyatlarni shakllantirish ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: Fanga qiziqtirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish, erkin va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

O’quv faoliyatini tashkil etish shakli: Individual ishlash

O’qitish sharoiti: Jihozlangan auditoriya

O’qitish texnologiyasi va metodlari. mustaqil harakatga va faoliyatga yo’naltirilgan texnologiyasi, amaliy mashq.

O’qitish vositalari: o’quv qo’llanmalar, darsliklar, kompyuter, videoprojektor, ekran, slayd, tarqatma materiallar, tikuv mashinasi, o’g’il bolalar ko’ylagi namunalari, gulli va gulsiz gazlamalar, yelimli qotirma, dazmol, ip, igna, qaychi, satimetr, lenta.

Tarqatma materiallar: testlar, texnologik xaritalar, slaydlar, yo’riqnomalar.

#### **Mashg’ulotning borishi**

##### **Reja:**

1. Kichik va o’smir yoshdagi o’g’il bolalar ko’ylagi andazasini tayyorlash.

2. Kichik va o’smir yoshdagi o’g’il bolalar ko’ylagi andazasini gazlamaga joylashtirish.

3. Kichik va o’smir yoshdagi o’g’il bolalar ko’ylagi bichish va tikish

O’g’il bolalar ko’ylagi uchun andaza tayyorlash, andazani gazlamaga joylashtirish, bichish va tikishda uchraydigan mayda bo’laklar ularga texnologik ishlov berish jarayonini tushuntiriladi bajariladigan ishlar ketma-ketligi bayon qilinadi.

**Talabalar ushbu mavzuni o’rganish jarayonida quyidagi amaliy ko’nikmalarni egallashlari kerak.**

- o’g’il bolalar ko’ylak bo’laklari qirqimlarining texnik shartlariga

- ko’ra chok haqqi berish va andoza konturlarini chizish;

- ko’ylak bo’laklari andozalarini konturlar bo’yicha qirqish;

- andozalarni texnik shartlarga ko’ra rasmiylashtirish;

- o’g’il bolalar ko’ylagini bichish uchun gazlamani tayyorlash;

- o’g’il bolalar ko’ylagi andozalarining texnik shartlariga muvofik gazlamaga joylashtirish;

- andozalar ziyidan burlama chiziqlar chizish;

- burlama chiziqlar asosida gazlamani bichish.

O’qituvchi tomonidan mavzu doirasidagi asosiy ma’lumotlar beriladi. O’qituvchi talabalarga mashg’ulotning umumiy mazmuni va uni o’tkazish tartibini tushuntiradi. Mashg’ulotni mustaqil harakatga va faoliyatga yo’naltirilgan texnologiya asosida o’g’il bolalar ko’ylagi uchun andaza tayyorlash, andazani gazlamaga joylashtirish, bichish va tikishni mustaqil ish topshiriq sifatida amalga oshirilishini aytib o’tadi.

Dars jarayonida talabalar mehnat xavfsizligi qoidalariga bilan tanishtiradi. Ishlab chiqarish sanitariyasi va elektr, yong’in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni tushuntiriladi. Talabalar texnologik xarita bilan ta’minlanadilar.

“Mustaqil harakatga va faoliyatga yo’naltirilgan texnologiyadan foydalanib talabalarga individual yondashuv asosida amaliy topshiriqni bajarish texnologik ketma-ketligi tushuntiriladi.

Mustaqil harakatga va faoliyatga yo’naltirilgan texnologiya yordamida o’g’il bolalar ko’ylagi uchun andaza tayyorlash, andazani gazlamaga joylashtirish, bichish va tikish bo’yicha talabalar individual

topshiriqlarni bajaradilar. Talabalarni yangi mavzu bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalari asosida amaliy topshiriqlar beriladi.

### 1- Talaba uchun topshiriq

1. Berilgan o‘lchamlar bo‘yicha o‘smir yoshdagi o‘g‘il bolalar ko‘ylagi andazasini tayyorlash, gazlamaga joylashtirish, bichish va tikish ishlarini bajarish

### 2- Talaba uchun topshiriq

2. Berilgan o‘lchamlar bo‘yicha kichik yoshdagi o‘g‘il bolalar ko‘ylagi andazasini tayyorlash, gazlamaga joylashtirish, bichish va tikish ishlarini amalga oshirish

### n... Talaba uchun topshiriq

Ushbu texnologiyada mashg‘ulot quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

**1.Topshiriqni anglab olish.** Bu bosqichda o‘qituvchi talabalarga o‘g‘il bolalar ko‘ylagi uchun andaza tayyorlash, andazani gazlamaga joylashtirish, bichish va tikish texnologiyasi haqida kerakli barcha manbalarni hamda savollar va topshiriqlar varag‘ini beradi. Ushbu varaqda talabalarga tikish ketma-ketligi, tikish texnologik sxemalari, o‘g‘il bolalar ko‘ylagi namunalari, andaza tayyorlash, andazani gazlamaga joylashtirish ta‘riflari, o‘g‘il bolalar ko‘ylagi uchun andaza tayyorlash, andazani gazlamaga joylashtirish, bichish va tikish bo‘yicha ko‘rsatmalar va yo‘riqli texnologik xaritalar, mato ranglarning mujassamlashtirilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlarni bosqichma-bosqich tikish tartibi savollar yoki topshiriqlar shaklida berilishi kerak.

Talabalarga topshiriq ta‘rifi to‘liq yoritilib beriladi. O‘qituvchi talabalarni topshiriqni to‘laqonli tushunib va anglab olishga hamda tahlil qilishga jalb etadi. So‘ngra ular loyihani bajarishdagi ish bosqichlarini tuzishadi.

Talabalar o‘zlariga berilgan ish topshiriq‘ini tahlil qilib, darsliklar, o‘quv-uslubiy ko‘rsatmalar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, sxemalar va jadvallar, texnik hujjatlar, yo‘riqli texnologik xaritalar asosida berilgan topshiriqni anglab oladi.

**2. Rejalashtirish.** Bu bosqichda talabalar mustaqil ravishda o‘g‘il bolalar ko‘ylagi uchun andaza tayyorlash, andazani gazlamaga joylashtirish, bichish va tikish rejasini tuzishlari, ya‘ni ish topshiriq‘ini hal qilishga qaratilgan o‘zlarining bajaradigan ish bosqichlarini mato tanlash, andozasini tayyorlash, bichish, texnologik ishlov berish ketma-ketligini bajarish, tikilgan ko‘ylak namunalaridan hamda jixozlar va yordamchi vositalardan foydalanishlarini rejalashtirishlari lozim. Talabalar texnika xavfsizligiga rioya qilgan holda, o‘zlarining dastlabki nazariy bilimlariga tayanadilar va shaxsiy yozuvlaridan foydalaniladilar. Ko‘ylak turiga qarab, texnologik ishlov berishni rejalashtiradi. Yuzaga kelgan muammolarni o‘qituvchi bilan birgalikda muhokama qilishadi.

**3. Amalga oshirish.** Bu bosqichda talabalar yoqa turiga qarab, texnologik ishlov berishni topshiriq‘ini tuzilgan rejaga muvofiq mustaqil ravishda bajarishadi. Berilgan vaqtga qarab, ko‘ylakka texnologik ishlov berish ketma-ketligi asosida, o‘g‘il bolalar ko‘ylagi uchun andaza tayyorlanib, andazani gazlamaga joylashtirilib, bichib tikiladi. Talabalar bu bosqichda o‘rganib olgan bilimlari va ko‘nikmalarini yangi vaziyatda qo‘llay olishlari lozim. O‘qituvchi esa ularning ishini nazorat qilib turishi lozim.

**4. Tekshirish.** Talabalar bajargan topshiriqlari, ya‘ni tikkan o‘g‘il bolalar ko‘ylagini o‘zlari tekshirib sifat ko‘rsatkichlarini “Baholash varag‘iga” qayd qilishlari va bir-birlarining ishini tekshirishlari mumkin. O‘qituvchi natijalarni “Xulosalar varag‘iga” yozib qo‘yadi.

**5. Baholash.** O‘qituvchi ular tikkan har xil o‘g‘il bolalar ko‘ylagini tahlil qilib, yakuniy suhbat o‘tkazadi va keyingi safar qaysi jihatlarga e‘tibor berish kerakligini aytib o‘tadi. Talabalar yangi mavzu bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalari asosida berilgan amaliy topshiriqni bajarib taqdimot tayyorlaydilar.

Yakka tartibdagi ishni keng ko‘lamdagi o‘quv topshiriqlarini mustaqil bajarishga yo‘naltirilgan individual ish bilan almashtirmaslik lozim.

Ushbu shakldagi o‘quv mashg‘ulotlarini ta‘lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- natijalarni solishtirish (tanlovlar, musobaqalar);
- o‘zlashtirishni aniqlash;
- axborotni mustaqil izlash va to‘plash;
- qayta shug‘ullanish va takrorlash;
- o‘quv yozuvchilari, topshiriqlarni individual bajarish;

O‘qituvchi ular tomonidan tayyorlangan har xil o‘g‘il bolalar ko‘ylagini tahlil qilib, yakuniy suhbat o‘tkazadi va kelgusida qaysi jihatlarga e‘tibor berish kerakligini aytib o‘tadi. O‘g‘il bolalar ko‘ylagi uchun andaza tayyorlash, andazani gazlamaga joylashtirish, bichish va tikish bo‘yicha ijodiy topshiriqlarni bajaradi.

O‘g‘il bolalar ko‘ylagini bichib tikganligini tekshirib ularni ma‘lum mezon asosida baholaydilar. Topshiriqni bajarishda ijodiy yondashuv ham alohida baholanishi kerak. Ishni tayyorlayotganda

talaba ijodiy ish mahsuli sifatida biron bir buyum yoki kompozitsiya yaratadi. Talabalar bajargan ishni baholash orqali ularning mustaqil va ijodiy qobiliyatlari haqida ham ma'lumotga ega bo'lishi mumkin.

“Mustaqil harakatga va faoliyatga yo'naltirilgan texnologiya” qo'llanilganda talabalarning bilim olish faoliyati faollashadi, o'z fikrini mustaqil bayon eta oladi, amaliy ko'nikmalari rivojlanadi.

Talabalarga kiyim tikish ketma-ketligini tuzish mayda bo'laklarni tayyorlash to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan amaliy mashg'ulotda xilma-xil fikrlar, ma'lumotlar ichidan kerakligini tanlab olishni, shu bilan bir qatorda, o'zgaralar fikrini hurmat qilish va ularga o'z fikrini o'tkaza olish hamda o'z faoliyati, kunini rejalashtira olishni o'rgatishga qaratilgan. O'rganishning butun jarayoni davomida o'qituvchi maslahatchi sifatida ishtirok etadi: u – tashkilotchi, o'quv maslahatchisi, axborot yig'uvchi va kuzatuvchidir. O'qituvchi vaqtinchalik chegaralarni aniqlaydi, talabalarni qo'llab-quvvatlaydi va ish natijalarini nazorat qiladi.

**Xulosa.** Ushbu texnologiya orqali talabalar faollashadi va o'z fikrlarini namoyon qiladi. Mustaqil ravishda belgilash, kichik juftliklarda o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo'la olish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

### Adabiyotlar:

1. Olimov Q.T. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2012.-B.87
2. Алимов А.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини шахсга йўналтирилган технологиялар асосида инновацион фаолиятга тайёрлаш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.-Т., 2018.-Б.52
3. Akobirova M. B. The role of "folk craft" science in improving the living culture and spirituality of the people //Current research journal of pedagogics. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 135-139.
4. Sayfullayeva D. et al. Improving the quality of education in higher educational institutions with the using innovative educational technologies //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – Т. 2647. – №. 1.
5. Sayfullayeva D. A., Rustamov E. T., Rayimova D. D. Innovative Technologica: Methodical //Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 06. – С. 37.
6. Сайфуллаева Д. Бо'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning kreativligini rivojlantirish //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
7. Sayfullayeva D. A. Methodology of using autocad software in developing technical creativity of students. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) № 10.2022. – B-661-671.
8. Sayfullayeva D. The educational value of works created on children's stories //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B3. – С. 252-257.
9. Sayfullayeva D. The educational value of works created on children's stories //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B3. – С. 252-257.
10. Sayfullayeva D., Sharobiddinova G. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kreativligini rivojlantirish mazmuni //Current approaches and new research in modern sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 48-51.
11. Sayfullayeva D. A., Ibragimovna M. N. Amaliyotchi-talabalarning malakaviy pedagogik amaliyotiga qo'yiladigan talablar //Ustozlar uchun. – 2023. – Т. 18. – №. 1. – С. 203-208.
12. Bazarbayev M., Sayfullayeva D., Isroilova S. The importance of digital technologies in improving the irc system in higher medical educational institutions // Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B4. – С. 206-210.
13. Сайфуллаева Д. Texnologiya fani o'qituvchilarini kreativ, kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 25. – №. 25.
14. Сайфуллаева Д. Texnologik ta'lim yo'nalishida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanini innovatsion texnologiyalardan foydalanib xorijiy tilda o'qitish //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 25. – №. 25



## ЎҚУВ МАҚСАДЛАРИ ТАКСОНОМИЯСИ АСОСИДА ТУЗИЛГАН НОСТАНДАРТ ТЕСТЛАР КВАЛОМЕТРИК БАҲОЛАШ МЕТОДИ СИФАТИДА

*Салимова Сарвиноз Фарходовна,  
Бухоро давлат педагогика институтини  
Табиий фанлар кафедраси доценти  
<https://orcid.org/0000-0003-2745-6457>  
sarvinoz8915@gmail.com*

*Ушбу мақола таълим мақсадлари таксономиясига асосланган ностандарт тестларни квалометрик баҳолаш методологиясига бағишланган. Мақолада таълим мақсадларини таснифлаш асосида тест топшириқларини квалометрик баҳолашнинг асосий тамойиллари ва ёндашувлари муҳокама қилинади. Тестлар сифатини баҳолаш мезонлари ва усуллари, шунингдек, уларни таълим сифатини ошириш контекстида қўллаш муҳокама қилинади. Тадқиқотда тестлар баҳолаш воситаси сифатида таълим мақсадлари таксономиясидан фойдаланиш муҳимлигини ва таълим амалиётининг самарадорлигини ошириш мақсадида ушбу жараённи оптималлаштириш усулларини очиб беради.*

***Калит сўзлар:** ўқув мақсадлари, таксономия, ностандарт тестлар, квалометрик, метод, сифат, билиш, тушуниш, амалиётга қўллаш, таҳлил қилиш, синтезлаш, баҳолаш.*

## НЕСТАНДАРТНЫЕ ТЕСТЫ, СОСТАВЛЕННЫЕ НА ОСНОВЕ ТАКСОНОМИИ УЧЕБНЫХ ЦЕЛЕЙ КАК МЕТОД КВАЛИМЕТРИЧЕСКОГО ОЦЕНИВАНИЯ

*Данная статья посвящена методологии квалометрической оценки нестандартных тестов на основе таксономии образовательных целей. В статье рассматриваются основные принципы и подходы к квалометрической оценке тестовых заданий на основе классификации образовательных целей. Обсуждаются критерии и методы оценки качества тестов, а также их применение в контексте повышения качества образования. В исследовании тесты раскрывают важность использования таксономии образовательных целей в качестве инструмента оценки и способы оптимизации этого процесса с целью повышения эффективности образовательной практики.*

***Ключевые слова:** цели обучения, таксономия, нестандартные тесты, квалометрика, метод, качество, знания, понимание, применение, анализ, синтез, оценивание.*

## NON-STANDARD TESTS BASED ON THE TAXONOMY OF LEARNING OBJECTIVES AS A QUALIMETRIC ASSESSMENT METHOD

*This article is devoted to the methodology of qualimetric assessment of non-standard tests based on the taxonomy of educational goals. The article discusses the basic principles and approaches to the qualimetric assessment of test tasks based on the classification of educational goals. Criteria and methods for evaluating the quality of tests are discussed, as well as their application in the context of improving the quality of education. In the study, the tests reveal the importance of using the taxonomy of educational goals as an assessment tool and ways to optimize this process in order to increase the effectiveness of educational practice.*

***Keywords:** learning objectives, taxonomy, non-standard tests, qualometrics, method, quality, knowledge, understanding, application, analysis, synthesis, evaluation.*

***Кириш.** Таълим жараёнини тўғри ташкиллаштириш учун мавжуд имкониятлардан фойдаланиш ўқитувчининг биринчи навбатдаги вазифаси бўлиб ҳисобланади. Ҳозирги кунда анъанавий ва ноанъанавий дарс намуналаридан фойдаланиб дарс ўтиш, дарсга қўйиладиган асосий талаблардан бири. Талабаларга таълим - тарбия бериш бир - бири билан чамбарчас боғланган ҳолда олиб борилади. Мутахассислар тайёрлашда талабаларнинг билим, малака ва кўникмаларини шакллантириш жараёнини назорат қилиш муҳимдир. Бу соҳа билан педагогик квалометрия шуғулланади. Тўғри ташкил этилган назорат, талабаларни олаётган билимларини янада чуқурлаштириш, энг асосийси, уларнинг шахсий хусусиятларини ривожлантириш иш учун турли воситаларни танлаш имконини беради. Таълим олувчилар томонидан ўқув материалларини*

Ўзлаштирилганлигини, кўникма ва малакалар ҳосил бўлганлигини текшириш ва баҳолаш таълим жараёнининг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Бу фақат ўқитиш натижаларини назорат қилиш эмас, балки ўқув жараёнининг турли босқичларида таълим олувчиларнинг билиш фаолиятига раҳбарлик қилиш ҳамдир [1].

Бизга маълумки, ҳозиргача фойдаланиб келинган тест турларини ўқувчи-талабалар томонида тўлиқ ўзлаштиришади. Натижада уларда бу жараёнга малака ва кўникма ҳосил қилинади. Ҳозирда аънанавий тестларни кўп йиллар қўллаш натижасида айрим камчиликлар ҳам сезилиб қолди, талабалар тестлардаги берилган жавобларни аниқ фикрламасдан тўғридан-тўғри белгилаш ҳоллари учрайди. Шуларни инобатга олиб, квалометрик баҳолаш методи сифатида ностандарт тестлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

**Тадқиқот метадологияси.** Ностандарт тестлар мазмуни ва моҳиятига кўра қуйидаги гуруҳларга ажратилади:

1. Интегртив тестлар;
2. Адаптив тестлар;
3. Мезонли-мўлжал олиш тестлари.

Интегртив тестлар интеграл мазмун, шакл, қийинчилик даражаси бўйича ўсиб боровчи, таълим муассасасининг битирувчисининг тайёргарлик даражаси ҳақида умумлашган якуний хулоса чиқаришга имкон берадиган тест топшириқлари саналади.

Адаптив тестлар автоматлаштирилган, талабаларга нисбатан индивидуал ёндашиш имконини берадиган, топшириқ мазмуни, бажариш тартиби, қоидаси, шу топшириқни бажариш натижасида талабанинг эгаллаши мумкин бўлган бали ва тест натижаларини умумлаштириш бўйича кўрсатмалардан иборат бўлади.

Адаптив тестларнинг асосий гуруҳини пирамидали адаптив тестлар ташкил этиб, қўлланиш мақсадига кўра: ўртача оғирликдаги, талабанинг танлашига кўра аралаш, топшириқлар банкидан фақат қийин даражали бўлиши мумкин.

Адаптив тестлар таълим-тарбия жараёнини ташкил этишнинг модул-кредит парадигмасида муваффақиятли қўлланиши мумкин. Бунинг учун педагог битта мавзу, боб, бўлим, курс мазмуни бўйича турли қийинчилик даражадаги бир неча вариантли тест топшириқларини тузиш ва амалда қўллаш маҳоратига эга бўлиши лозим.

Мезонли-мўлжал олиш тестлари талабаларнинг умумий тайёргарлик даражаси, мазкур курснинг ўқитилиш сифати, педагогнинг педагогик маҳорати, таълим-тарбия жараёни самарадорлигини аниқлаш мақсадида ўтказилади.


Мазкур тест топшириқларини тузиш учун, аввало, ўқув курси мазмуни ДТС асосида таҳлил этилади, билим, кўникма ва малакалар аниқланади, уларни аниқлаш учун топшириқлар мажмуаси тузилади, мазкур топшириқлар тест топшириқларига айлантирилади ва синов ўтказилади, пировар натижада талабаларнинг шу курсни ўзлаштириш даражаси юзасидан хулоса тайёрланади.

Мезонли-мўлжал олиш тест синовлари орқали талабаларнинг билимларидаги бўшлиқлар аниқланади ва уларни бартараф этиш йўллари аниқланади.

Юқорида қайд этилган ностандарт тест топшириқларини таълим-тарбия жараёнида мақсадга мувофиқ фойдаланиш жараёни талабаларнинг ўзлаштирган билим, кўникма ва малакаларини ҳаққоний ва одилона назорат қилиш ва баҳолаш имконини беради.

Ностандарт тест топшириқларини тайёрлашда мазмун ва шакл асосий ўринни эгаллайди.

Шу сабабли, тест топшириқлари мазмунини танлаш принциплари ҳақида фикр юритиш лозим (1-расм).



1-расм. Тест топшириқлари мазмунини танлаш принциплари

Тест топшириқларига қуйидаги талаблар қўйилади:

- Тест топшириғи мазмунининг тўғрилиги;
- Саволнинг мантикий жиҳатдан тўғри танланиши;
- Тест топшириғи шаклининг тўғрилиги;
- Тест топшириғининг савол ва жавобнинг қисқалиги;
- Тест топшириғи элементларининг тўғри жойлашганлиги;
- Тест топшириғининг тўғри жавоблари бир хил баҳоланиши;
- Талабаларга тест топшириғининг бажариш бўйича бир хил кўрсатма берилиши;
- Кўрсатмаларнинг тест топшириғи ва мазмунига мослиги.

Бундан ташқари тест топшириқлари Давлат тест маркази томонидан белгиланган талабларга жавоб бериши лозим.

Тест топшириқларини тузишда мазмун асосий ўринни эгаллайди, шу сабабли ўқув курси мазмунидаги билимларни аниқлаш ва уларга мос ўқув мақсадларига эришиш даражасини белгилайдиган тест топшириқларини тузиш мақсадга мувофиқ.

Профессор-ўқитувчилар ўрганиладиган мазмуни мазмунидан келиб чиққан ҳолда Блум таксономиясига асосан ўқув мақсадларини аниқлаши ва шу асосда машғулотларни ташкил этиши лозим. Ўқув мақсадларини машғулотнинг дидактик мақсадларига мувофиқ белгиланиши таълим самарадорлигини аниқлаш ва камчиликларга барҳам берилишига замин тайёрлайди [2].

Ўқув мақсадлари таксономияси Бенжамин Блум - томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, у ўз ичига билиш, тушуниш, амалиётга қўллаш, таҳлил қилиш, синтезлаш, баҳолаш кабиларни ўз ичига олади.

Блум таксономиясини қуйидагича изоҳлаш мумкин:

Ўқув мақсадлари	Таърифи	Калит сўзлар	Машғулотдаги назорат тури	Рейтинг тизимидаги тест топшириғи тури
Билиш	Ахборотни ўзлаштириш	1. Аниқлаш; 2. Таърифлаш; 3. Қайта ишлаш; 4. Айтиб бериш; 5. Моҳиятини тушунтириш; 6. Ажратиб кўрсатиш;	Тест топшириғи Оғзаки жавоб Кластер тузиш Оғзаки жавоб Оғзаки жавоб Кластер тузиш	Репродуктив Продуктив Қисман-изланишли Креатив даража
Тушуниш	Аҳамиятни англаш, асосий ғояни ажратиб кўрсатиш	Умумлаштириш; Қайта ишлаш; Асосий ғояни қайта ишлаш; Мисоллар келтириш; Ҳимоя қилиш;	Кластер тузиш Кластер тузиш Венн диаграмма Масалалар ечиш Венн диаграммаси	Продуктив Қисман-изланишли Креатив даража
Амалиётга қўллаш	Ахборотни янги кутилмаган вазиятда қўллаш	1. Мослаштириш; 2. Қайта ишлаш; 3. Лойиҳалаш; 4. Моделлаштириш; 5. Қайта айтиб бериш;	Оғзаки жавоб Кластер тузиш Кластер тузиш Кластер тузиш Оғзаки жавоб	Репродуктив Продуктив Қисман-изланишли Креатив даража
Таҳлил	Ахборотни ёки объектни қисмларга ажратиш	1. Таққослаш 2. Қисмларга ажратиш 3. Ажратиб кўрсатиш 4. Қиёслаш	Венн диаграммаси Кластер тузиш Кластер тузиш Венн диаграммасини тузиш	Қисман- изланишли Креатив даража
Синтез	Ғояларни мужассамлаштириш	1. Гуруҳларга ажратиш 2. Умумлаштириш 3. Реконструкция	Кластер тузиш Венн диаграммасини тузиш Кластер тузиш	Қисман- изланишли Креатив даража
Хулосалаш	Ўрганилган мавзу юзасидан хулоса ясаш	1. Баҳолаш 2. Танқидий фикр юритиш 3. Фикрга қарши фикр билдириш 4. Қўллаб- қувватлаш 5. Инкор этиш	Оғзаки жавоб Оғзаки жавоб Оғзаки жавоб Оғзаки жавоб Оғзаки жавоб	Репродуктив Продуктив Қисман-изланишли Креатив даража

Ушбу жадвалда ўқув мақсадлари, уларнинг изоҳи, яъни билимларни мақсадга айлантиришда фойдаланиладиган феъллар, семинар, амалий ва лаборатория машғулотлари давомида баҳолаш турлари, ҳамда Рейтинг тизими назорат турларида фойдаланиладиган топшириқлар ўз аксини топган.

Мазкур билимларни талабалар томонидан ўзлаштирилганлигини объектив ва ҳаққоний аниқлаш ва баҳолаш мақсадида тест топшириқларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Тест топшириқларини тузиш, педагогик амалиётда қўллаш ва олинган натижаларни таҳлил қилиш ва умумлаштириш тестология фанининг объекти саналади.

Талабаларнинг Блум таксономияси бўйича билишга оид ўқув мақсадига эришилганлик даражасини назорат қилиш ва баҳолашда фойдаланиладиган ностандарт тест топшириқлари


Талабаларнинг *Блум таксономияси бўйича* билиш ўқув мақсадига эришганлигини назорат қилишда улар томонидан муайян мавзу бўйича маълумот ва ахборотларни ўзлаштирилганлик даражасини аниқлаш мақсадга мувофиқ [3]. Бунинг учун талаба мавзу бўйича объектларни аниқлаши, уларга таъриф бериши, маълумотларни қайта ишлашлари, ўз фикрини баён этиши, муайян жараён, объект ёки воқеанинг моҳиятини тушунтириши, мазкур жараён, объект ёки воқеанинг ўзига хос хусусиятларини ажратиб кўрсатиши керак бўлади.

Ушбу фикрларни стандарт ўқув ва тест топшириғи билан амалга ошириб бўлмайди, билиш ўқув мақсадига эришилганлик даражасини аниқлашда қуйидаги **расмни ва қўп жавобли ностандарт тестлардан** фойдаланиш тавсия этилади.

Мазкур тест топшириқлари талабаларнинг ўзлаштирган нафақат билимларини балки объект ва унинг қисмларини таниш, ўзига хос хусусиятларини аниқлаш кўникмаларини назорат қилиш ва баҳолаш жараёнини ҳаққоний ва одилона амалга ошириш имконини беради.

**1. Тўқималар турларини аниқланг ва жадвалга ҳар бир расмга мос рақамларни ёзинг.**

1) силлиқ толали мускул; 2) кўндаланг йўлли мускул; 3) кубсимон эпителий; 4) нейрон; 5) юрак мускули; 6) суяк; 7) ясси эпителий



Расмни ва кўп жавобли ностандарт тест жавоби куйидагича бўлади.

2	3	6	1	7	5	4
---	---	---	---	---	---	---

**2. Расмда берилган юрак қисмларига мос рақамларни ёзинг аниқланг.**

	<b>Юрак қисмлари</b>	<b>Рақамлар</b>
	ўнг бўлмача	
	ўнг қоринча	
	чап бўлмача	
	чап қоринча	
	аорта	
	юқориги ковак вена	
	пастки ковак вена	
	ўпка артерияси	
	ўпка венаси	

Расмни ва кўп жавобли ностандарт тест жавоби:

	<b>Юрак қисмлари</b>	<b>Рақамлар</b>
	ўнг бўлмача	8
	ўнг қоринча	9
	чап бўлмача	6
	чап қоринча	7
	аорта	1
	юқориги ковак вена	4
	пастки ковак вена	5
	ўпка артерияси	2
	ўпка венаси	3

Талабаларнинг Блум таксономияси бўйича тушунишга оид ўқув мақсадига эришилганлик даражасини назорат қилиш ва баҳолашда фойдаланиладиган ностандарт тест топшириқлари

Ўқув мақсадларининг ичида тушуниш муҳим ўрин тутди. Талабалар мазкур ўқув мақсадига эришиши учун, мавзу бўйича ўрганилаётган муаммоларнинг ечимини топиш, аҳамиятини англаш, асосий ғояни ажратиб кўрсатиши лозим бўлади [4].

Талабаларнинг ушбу ўқув мақсадига эришганлик даражасини аниқлаш, назорат қилиш ва баҳолашда улар томонидан ўқув материалидаги фикрларни умумлаштириш, асосий ғояни қайта ишлаш, мисоллар келтириш, ўз фикрини баён этиш ва уни ҳимоя қилиш талаб этилади. Юқорида қайд этилганидек, ушбу даражаларни стандарт ўқув ва тест топшириқлари воситасида аниқлаб бўлмайди, уларни фақат кўп жавобли ностандарт тест топшириқлари ёрдамида аниқлаш тавсия этилади.

**1. Тўқималарни уларнинг хусусиятлари билан жуфтланг.**

1	Эпителий тўқима	А	хужайраларида миофибрил толачалар бўлиб, улар мускул толасининг қисқариш-ёзилиш хусусиятини таъминлайди.	
2	бириктирувчи тўқима	В	У одам организмнинг барча тўқима ва органлари ишини бошқаради.	
3	нерв тўқимаси	С	Ўзаро зич жойлашган хужайралардан иборат, бу тўқима хужайралари тез кўпайиш хусусиятига эга.	
4	мускул тўқимаси	Д	бу тўқимага суяклар, қон, лимфа, тоғай ва пайлар киради.	
Жавоб:	1-	2 -	3 -	4 -

**Жавоби:**

Жавоб:	1-С	2-Д	3 - В	4 - А
--------	-----	-----	-------	-------

Талабаларнинг Блум таксономияси бўйича билимларни амалда қўллаш ўқув мақсадига эришилганлик даражасини назорат қилиш ва баҳолада фойдаланиладиган ностандарт тест топшириқлари

Таълим-тарбия жараёнини ташкил этиш принциплари ичида назария ва амалиёт бирлиги муҳим ўрин тутди, шуни ҳисобга олган ҳолда ўқув мақсадларидан талабаларнинг ўзлаштирган назарий билимларини амалиётга қўллаш имкониятини яратиш зарур. Бунинг учун ўқитувчи ўқув топшириқларини тузишда талабаларнинг ўзлаштирган назарий билимларини янги кутилмаган вазиятда қўллашини назарда тутиши лозим. Бу топшириқларни бажариш жараёнида талабалар ўқув материални қайта ишлаши, мослаштириши, лойиҳалаш, моделлаштириши, қайта айтиб бериши талаб этилади.

Талабаларнинг ўзлаштирган назарий билимларини амалиётга қўллаш ўқув мақсадига эришиш даражасини стандарт ўқув ва тест топшириқлари воситасида аниқлаш кўзланган натижани бермайди. Шу сабабли, қуйида берилаётган кўп жавобли, жадвалли ностандарт тест топшириқларидан фойдаланиш тавсия этилади.

**1. Ҳаракатли ва ҳаракатсиз бириккан суякларга мос рақамларни жадвалнинг ўнг томонида ёзинг.**

1) тирсак	3) тизза	5) чакка	7) кафтусту	9) панжа
2) пешана	4) сон-чаноқ	6) пастки жағ	8) энса	10) болдир товон -
11) елка	12) тепа			

суякларнинг бирикиш тури	жавоб рақамлар
ҳаракатли	
ҳаракатсиз	

**Жавоби:**

суякларнинг бирикиш тури	жавоб рақамлар
ҳаракатли	1, 3, 4, 6, 7, 9, 10, 11.
ҳаракатсиз	2, 5, 8, 12.

**2. Қуйида берилган касалликларни меъда-ичакларнинг яллиғланиш ва юқумли касалликларга ажратинг ва мос рақамларни жадвалнинг жавоб рақамлар қисмига ёзинг.**

1) гастрит; 2) қорин тифи; 3) салмонеллоз; 4) энтерит; 5) вабо; 6) дизентерия; 7) колит; 8) ботулизм; 9) вирусли гепатит.

касаллик тури	жавоб рақамлар
меъда-ичакларнинг яллиғланиш касалликлари	
меъда-ичакларнинг юқумли касалликлари	

**Жавоби:**

касаллик тури	жавоб рақамлар
меъда-ичакларнинг яллиғланиш касалликлари	1, 4, 7
меъда-ичакларнинг юқумли касалликлари	2, 3, 5, 6, 8, 9

Билимларни ўзлаштиришда таҳлил муҳим ўрин тутди, таҳлил ўқув мақсадига эришиш учун талабалар ахборотни ёки объектни қисмларга ажратиши, таққослаши, қисмларга ажратиши, ўзига хос

хусусиятларини ажратиб кўрсатиши, қиёслаши зарур бўлади. Мазкур ўқув мақсадига эришиш даражасини аниқлаш, назорат қилиш ва баҳолашда куйидаги кўп жавобли ностандарт тестлардан фойдаланиш тавсия этилади [5].

1. Куйида берилган фикрларнинг қайсилари тўғри?

A. Одам бош скелетида мия қисми юз қисмига нисбатан катта.

B. Ҳайвонлар бош скелетининг юз қисми мия қисмига нисбатан яхши ривожланган.

C. Одам бош скелетининг юз қисми мия қисмига нисбатан яхши ривожланган.

D. Мураккаб ва нозик қўл ҳаракатларни бажаришда, айниқса, қўл бош бармоғининг роли ниҳоятда катта.

E. Мураккаб ва нозик қўл ҳаракатларни бажаришда, айниқса, қўл кўрсаткич бармоқнинг роли ниҳоятда катта.


F. Одамнинг тик юриши унинг чанок суяклари ва чанок бўшлиғининг катталашувиға сабаб бўлган.

G. Ҳайвонларнинг орқа оёқ суяклари одамнинг оёқларига нисбатан кучли ривожланган бўлишиға олиб келди.


**Жавоб:** A, B, D, F.

2. Катта қон айланиш доирасида қон қандай органлар орқали ўтиш кетма - кетлигини ифодалаган ҳолда тегишли рақамларни каттакларға ёзинг.

1) аорта қон томири; 2) юқориғи ва пастки ковак веналар; 3) ўнг бўлмача; 4) йирик, ўрта ва майда артерия томирлари; 5) веналар; 6) тўқима ва органлар; 7) юракнинг чап қоринчаси;




**Жавоби**




3. Кичик қон айланиш доирасида қон қандай органлар орқали ўтишини схемада ифодаланг.

1) ўпка артерияси; 2) ўпка алвеолалари; 3) юракнинг чап бўлмачаси; 4) юракнинг ўнг қоринчаси; 5) ўнг ва чап ўпка артериялари; 6) 4 та ўпка веналари;

**Жавоб:**



**Жавоб:**



**Хулоса** қилиб айтганда, куйидаги асосий фикрларни таъкидлаш мумкин:

1. Талабалар билимлари сифатини баҳолаш амалиётиға ўқув мақсадлари таксономиясига асосланган ностандарт тестларни жорий этиш янада самарали ва объектив баҳолаш воситаларини яратиш имкониятиға ега.

2. Таълим мақсадлари таксономиясидан фойдаланиш тест топшириқларининг мақсад ва вазибаларини аниқроқ аниқлашға имкон беради, бу еса талабаларнинг билим ва кўникмаларини аниқроқ баҳолашға ёрдам беради.

3. Ностандарт тестларнинг жорий этилиши талабаларнинг ижодий тафаккурини ривожлантиришни рағбатлантириши ва уларнинг танқидий тафаккурини шакллантиришға ҳисса қўшиши мумкин.

#### Адабиётлар:

1. Блум Б. С., Галлихер Дж. С., Форд У. Г. Таксономия образовательных целей: книга 1. Когнитивная область. - М.: Просвещение, 1984.

2. Андерсон Л. В. и др. Таксономия образовательных целей: книга 2. Аффективная область. -

Нью-Йорк: Longman, 2001.

3. Старшая школа: Новые технологии оценки знаний / под ред. В.П. Беспалько. - М.: Просвещение, 2004.

4. Голубева Н.В., Скаткина М.С. Нестандартные формы контроля знаний. - М.: Педагогическое общество России, 2008.

5. Усманова Г. Ш., Садыкова М. М. Психолого-педагогические основы квалиметрической оценки результатов обучения: учебное пособие. - Ташкент: Юлдузи, 2019.



## БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА STEAM ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ХАЛҚАРО ТАЖРИБАЛАРИ

Уринова Нодира Шавкатовна,  
Фаргона давлат университети

“Гуманитар йўналишлар бўйича чет тиллари” кафедраси ўқитувчиси

Ушбу мақолада бошлангич синфларда STEAM технологиясидан фойдаланишнинг самарадорлиги кўриб чиқилади. STEAM таълими — бошлангич синф ўқувчиларида кўникмаларни такомиллаштириб янги босқичга чиқишга имкон берувчи инновацион техникадир.

**Калит сўзлар:** технология, таълим, интеграция, модуль, мутахассис, инновация, методика.

## ТЕНДЕНЦИИ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ STEAM В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

В этой статье рассматривается эффективность использования технологии STEAM в начальных классах. STEAM - это инновационный метод, который позволяет учащимся начальной школы выйти на новый уровень, улучшая свои навыки.

**Ключевые слова:** технология, образование, интеграция, модуль, эксперт, инновация, методология.

## TRENDS AND INTERNATIONAL EXPERIENCES IN THE USE OF STEAM TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH IN PRIMARY EDUCATION

The article discusses the effectiveness of using steam technologies in elementary school. STEAM education is an innovative methodology that allows you to reach a new level of improving the skills of primary school students.

**Keywords:** technology, education, integration, module, expert, innovation, methodology.

**Кириш.** Бугунги кунда баркамол авлодни тарбиялаш энг мухим вазифалардан бири хисобланади. Ушбу вазифанинг бажарилиши кўп жиҳатдан ўқитувчиларга боғлиқ бўлади. Шу мақсадда ёшлар тарбиясига катта эътибор қаратиш зарур. Давлатимиз раҳбари таъкидлаганидек, биз ёшларни эркин фикрлаш ва мустақил ҳаётга йўналтиришимиз керак. Бунда бизга STEAM технологияси жуда хам қўл келади. STEAM ёш авлодга - ихтирочиларнинг келажак авлодига, тадқиқотчиларга олим сифатида тадқиқот олиб бориш, технологияларни шакллантириш, муҳандис сифатида лойиҳалаш, рассом сифатида яратиш, математиклар сифатида аналитик фикрлашни шакллантириш имкониятини беради. Бугунги кунда STEAM таълими дунёдаги асосий тенденциялардан бири сифатида ривожланмоқда ва амалиёт ушбу ёндашувни қўллашда бешта соҳани ягона ўқув схемасига бирлаштиришга асосланган.

Ҳаммаси 2001 йилда АҚШда пайдо бўлган STEAM атамаси билан бошланди. АҚШ Миллий илмий жамғармаси мутахассислари томонидан таклиф этилган методология кўплаб Европа мамлакатларида тадқиқотчиларни кизиқтирди ва бугунги кунда танқидий фикрлашни ривожлантиришга қаратилган ёндашув дунёнинг кўплаб мамлакатларида фаол фойдаланилади. Сўнгги пайтларда STEAM таълими АҚШ ва Европада ҳақиқий тенденцияга айланди ва кўплаб мутахассислар буни келажак таълими деб аташади.

STEAM таълими-бу бошлангич синф ўқувчиларининг малакасини оширишнинг янги босқичига чиқиш имконини берувчи инновацион техника. Бу табиий-илмий элементлар ва инновацион технологияларни уйғун тарзда бирлаштирган дастурлар тўпламидир.

**Асосий қисм.** Замонавий таълимнинг прогрессив йўналиши STEAM таълимидир. Унинг моҳияти шундаки, у боланинг шахсиятини, ақл-заковатини, тадқиқот қобилиятини, илмий усуллар, техник қўлланмалар, математик моделлаштириш, муҳандислик дизайни ва бошқаларга асосланган муҳандислик тафаккурини ривожлантиришга имкон беради.

STEAM таълими алоҳида фан эмас, у турли соҳалардаги билимларни бирлаштиришни назарда тутаяди, бунинг натижасида STEAM таълими болаларга турли фанларни ўқитишда ишлатилиши мумкин. Турли соҳалардаги билимларни бирлаштириш келажакдаги мутахассисларга аксарият

соҳаларда муваффақият қозонишга имкон беради. Деярли барча мутахассисларнинг таъкидлашича, илғор технологиялар дизайн ва дастурлаш соҳасидаги асосий билимларни ўрганиш ва кенгайтириш мотивациясини оширади.

STEAM таълими болаларни тажриба қилишга, моделларни куришга, мустақил фикрлашга, ғояларни илгари суришга ундайди. STEAM таълими табиий фанларни технология, муҳандислик ижодкорлиги ва математикага интеграциялашувига асосланган фанларро алоқа ва дизайн усулини бирлаштиради. Бу муҳандислик билан боғлиқ касбларни ўқитишни таъминлайди. STEAM таълимида амалий машғулотлар ёрдамида болаларга илмий ва техник билимларидан реал ҳаётда фойдаланиш кўрсатилади. Ҳар бир дарсда талабалар замонавий саноат моделларини ишлаб чиқадилар, курадилар ва моделлаштирадилар.

STEAM таълими олтита модулдан иборат. Ҳар бир модуль STEAM таълими мақсадларини амалга оширишни таъминлайдиган аниқ муаммоларни ҳал қилишга қаратилган: когнитив ва тадқиқот фаолияти жараёнида интеллектуалқобилиятларни ривожлантириш ва мактаб ёшдаги болаларни илмий ва техник ижодкорликка жалб қилиш. STEAM технологияларида қуйидаги модуллар мавжуд:

"Ф.Фребелнинг дидактик тизими" ўқув модули:

- атрофдаги дунё объектлари билан тажриба ўтказиш;
- геометрик жисмлар ва фигуралар билан ҳаракатлар орқали математик

ҳақиқатни ўзлаштириш;

- фазовий муносабатларни ўзлаштириш;
- турли бурчак ва проекциялардан лойиҳалаш.

"ЛЕГО - қурилиш":

-амалий ва ақлий тажриба, умумлаштириш, оғзаки режалаштириш ва ўз фаолияти жараёни ва натижаларини оғзаки шарҳлаш қобилияти;

- она тилини равон сўзлаш (луғат бойлиги, нутқнинг грамматик тузилиши, фонетик тизим, семантик тузилиш ҳақидаги элементар фикрлар);

"Математик ривожланиш" ўқув модули:

- болаларнинг ёш ва индивидуал хусусиятларини қуйидаги соҳаларда ҳисобга олган ҳолда математик ривожланиш муаммоларини комплекс ҳал қилиш: ўлчам, шакл, макон, вақт, миқдор ва ҳисоблаш.

- янги тасвирларни яратиш, фантазия қилиш ва аналогиялардан фойдаланиш қобилияти.

"Тирик ва жонсиз табиат билан тажриба" ўқув модули:

- Экспериментал фаолиятда атрофимиздаги дунё ҳақидаги тасаввурларни шакллантириш;
- Визуал ва ҳиссий идрок этиш жараёнида барча тирик мавжудотларнинг бирлигини англаш;
- Экологик онгни шакллантириш.

"Роботехника" ўқув модули:

- мантикий ва алгоритмик фикрлашни ривожлантириш;
- дастурлаш асосларини шакллантириш;
- режалаштириш ва моделлаштириш қобилиятларини ривожлантириш;
- маълумотларни қайта ишлаш;
- абстрактлаштириш ва нақшларни топиш қобилиятини ривожлантириш

"Мен дунёни яратаман" мультфильм студияси ўқув модули:

- АКТ (ахборот-коммуникация технологиялари) ва рақамли технологияларни ўзлаштириш;
- медиатеологияларни ўзлаштириш;
- бадий ва техник ижод синтези асосида ишлаб чиқариш фаолиятини ташкил этиш.

STEAM технологияси бу ўқитиш фанлар бўйича эмас балки мавзулар бўйича. Бу барча модулларнинг интеграциясини англатади. Болаларнинг илимий-техник ижодкорликка қизиқишни ривожлантириш ва шакллантириш. Бу ерда мавжуд STEAM технология модуллари бўйича физика, кимё, биология, моделлаштириш, технология, муҳандислик, дизайн, анимация педагогикаси, визуал саводхонлик асослари бўйича билимлар шакллантирилади.

Намойиш, тақдим этиш, шарҳлаш каби нутқ фаолиятини шакллантириш ва ривожлантириш, бу орқали нутқ бойиб боради ва янада эркин бўлади.

Ўқувчилар фикрлашни ва таҳлил қилишни ўрганадилар. Жамоавий ишлашни ва ўзига ишончини шакллантириш ва ривожлантириш.

Эрта касбий йўналишга қизиқишни шакллантириш ва ривожлантириш.

Танқидий, фазовий, ижодий, мантикий, аналитик фикрлашни шакллантириш ва ривожлантириш, шунингдек, алгоритмик фикрлаш ва дастурлаш асослари.

Ихтирога, самарали фаолиятга, тадқиқот ва оддийдан мураккаб масалаларни ҳал қилишга когнитив қизиқиш ва қобилиятларни шакллантириш ва ривожлантириш.

Сабаб-оқибат муносабатларни ўрнатиш қобилиятини шакллантириш ва ривожлантириш.

Бошланғич таълим 3-синф ўқувчиларининг мисолида STEAM технологиясини қўлланилишини кўришимиз мумкин. Ушбу гуруҳда ўқитувчи инглиз тили машғулотида “Озиқ-овқат” мавзусини олди.

Ўқитувчи ўз ўқувчиларини ўйин тарзида озиқ-овқатлар номлари билан таништиради. Ўқувчиларнинг диққатларини доскада илинган озиқ-овқатлар расмларига қаратади ва уларнинг номларини ўз она тилларида, сўнгра инглиз тилида таржимасини айтишни ва такрорлашни сўрайди. Ўқитувчи доскага жадвални чизиб, уларни “Фойдали” ва “Зарарли”га ажратишларини сўрайди.

Жадвал тўлдирилгандан сўнг ўқитувчи куйидагиларни бажаради:

1. Ўқувчиларни 2 гуруҳга бўлади.
2. Сўнг уларга мавзуга оид қисқа метражли ролик қўйиб беради.
3. Ўқувчилар роликни томоша қилгандан кейин уларга озиқ-овқат макетини ясашни айтади.

Биринчи гуруҳ фойдали иккинчи гуруҳ зарарлиларни ясайди.

4. Макетни ясаб бўлишгандан сўнг уларни бўяб безашини айтади.

5. Дарсинг сўнгида ўқувчилар ясашган озиқ-овқатлар қайси таомга қанча солиниш кераклигини ҳисоб-китоб қилишади.

Кўриниб турибдики, дарс жараёни STEAM технологияси талабларига жавоб берган ҳолда ўтилди. Яъни дарсда ўқувчилар мавзунини ўрганишда назарий билимлар билан бир қаторда амалий машғулотлар ўтказдилар. Дарс давомида ўқувчилар гуруҳларда ўзларини фикрларини баён қилишиб ўзаро мулоқот қилдилар. Бу эса ўз навбатида нутқни ривожлантиради. Ва албатта, дарс жараёни иложи борича инглиз тилида олиб борилади. Бундан ташқари инглиз тили дарсини барча фанлар билан интеграция қилиш мумкин. Яъни инглиз тили дарсини табиатшунослик фани билан интеграция қилиб, озиқ-овқатлар қайси ўлкаларда қай тарзда етиштирилиши ҳақида маълумотлар бериш ёрдамида китъалар, давлатлар инглиз тилида номланишини ҳам ўргатиш мумкин. Шунингдек, расм дарси билан ҳам интеграция қилиниши мумкин. Яъни мавзу ўтилгандан сўнг ўқувчиларни икки гуруҳга бўлиб, қоғоз берилади ва уларга “фойдали” ва “зарарли” озиқ-овқатларнинг расмларини чизишлари сўралади.

Шу ўринда STEAM машғулотларининг афзалликлари куйидагиларни ўз ичига олишини айтиб ўтишимиз керак:

- Таълим интеграцияси академик фанлар бўйича эмас, балки мавзулар" бўйича
- Ҳақиқий ҳаётда техник билимлардан ҳуқуқий-техник фойдаланиш
- Танкидий фикрлаш кўникмаларини ривожлантириш ва муаммоларни ҳал қилиш
- Фаол мулоқот ва жамоавий иш ўзига ишониш туйғусининг ошириш
- Техника фанларига қизиқишларни ривожлантириш
- Лойиҳаларга ижодий ва инновацион ёндашув
- Таълим ва мартаба ўртасидаги кўприк
- Талабаларни технологик инновацион ҳаётга тайёрлаш

Бошланғич мактаб ёшидаги болаларнинг устувор фаолиятида таълим куйидаги модулларини жорий этишни талаб қилади:

- Ўйин.
- Режалаштириш.
- Когнитив ва тадқиқот фаолияти.
- Таълим фаолияти.
- Бадий ва ижодий фаолиятнинг ҳар хил турлари.
- XXI аср технологияларини ўзлаштириш (дастурлаш элементлари ва рақамли технологиялар).

Ҳар бир модул аниқ вазифаларни ҳал қилишга қаратилган бўлиб, уларни комплекс ҳал қилиш билан STEAM таълимининг мақсадларини амалга оширишни таъминлайди: когнитив тадқиқот фаолияти жараёнида интеллектуал қобилиятларни ривожлантириш ва бошланғич мактаб ўқувчиларининг илмий-техник ижодига жалб қилиш.

**Хулоса** қилиб айтишимиз мумкинки, агар анъанавий таълимнинг асосий мақсади билимларни ўргатиш ва бу билимларни фикрлаш ва ижодкорлик учун ишлатиш десак, STEAM ёндашуви бизга олинган билимларни ҳақиқий кўникмалар билан бирлаштиришни ўргатади. Узоқ муддатда биз табиий фанлар билан бирлаштирилган технология ва юқори технологияли ишлаб чиқариш билан боғлиқ касбларга эга бўламиз.

**Адабиётлар:**

1. Каримова Б.Т. STEM-обучение – инновационный подход в современном образовании. Innovation Management and Technology in the Era of Globalization Materials of the V International Scientific-Practical Conference: In 2 volumes, 2018: 107 – 111.
2. Плиева А.О. Применение интернет-технологий в обучении студентов иностранному языку. Мир науки, культуры, образования. 2020; №2 (81): 325 – 327.
3. Буеракова М.А., Ламанова Л.Л. Внедрение элементов «STEM-образования» в начальной школе. Актуальные научные исследования в современном мире. 2019; № 1-4 (45): 48 – 50.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги “Халқ таълими тизимида бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3931- сонли Қарори.
4. Авлиякулов Н.Х., Мусаева Н.Н. Педагогик технологиялар. – Т.: “Фан ва технологиялар” нашриёти, 2008 йил.
5. Йўлдашева Г., Каримова Г.-Таълим-тарбия технологиялари ва жаҳон тажрибаси модули бўйича ўқув-услубий мажмуаси. Тошкент. 2018 йил.

## O‘QUV JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SMART TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

*Qutliyev Nabi Bafoyevich,*

*Buxoro innovatsiyalar universiteti II bosqich magistranti*

*Ushbu maqolada o‘quv jarayonida Smart axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari muhokama qilinadi. Smart ta‘lim interfaol ta‘lim muhitida ta‘limning moslashuvchanligi, ta‘limni shaxsiylashtirish va moslashtirish hamda butun dunyo bo‘ylab kontentga bepul kirish sifatida qaraladi. Talabalar uchun Smart muhit uzluksiz ta‘limning fanlararo yo‘naltirilgan ta‘lim tizimi (maktab, universitet, korporativ ta‘lim) bo‘lib, moslashuvchan ta‘lim dasturi, portfoli, talabalar haqida ko‘proq ma‘lumot, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi va bilim yaratishdan iborat.*

**Kalit so‘zlar:** *Smart-texnologiyalar, AKT, klassik ta‘lim, Internet tarmog‘i, konsepsiya, informatika, fizika, matematika, bilim, tajriba.*

## МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ SMART-ТЕХНОЛОГИЙ В ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

*В данной статье рассматриваются проблемы использования интеллектуальных информационных технологий в образовательном процессе. Умное обучение рассматривается как гибкость обучения в интерактивной среде обучения, персонализация и настройка обучения, а также свободный доступ к контенту со всего мира. Умная среда для студентов — это междисциплинарная образовательная система непрерывного образования (школа, университет, корпоративное образование) — гибкая учебная программа, портфолио, дополнительная информация об учениках, совместное обучение, технология преподавания и создание знаний.*

**Ключевые слова:** *Смарт-технологии, ИКТ, классическое образование, сеть Интернет, концепция, информатика, физика, математика, знания, опыт.*

## METHODS OF USING SMART TECHNOLOGIES IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS

*This article discusses the problems of using Smart information technologies in the educational process. Smart learning is seen as the flexibility of learning in an interactive learning environment, personalization and customization of learning, and free access to content from around the world. Smart environment for students is an interdisciplinary educational system of continuous education (school, university, corporate education) - flexible curriculum, portfolio, more information about students, collaborative learning teaching technology and knowledge creation.*

**Key words:** *Smart technologies, ICT, classical education, Internet network, concept, informatics, physics, mathematics, knowledge, experience.*

**Kirish.** Kompyuter imkoniyatlarining juda tez rivojlanishi barcha sohalarda AKTdan keng foydalanilishiga olib kelmoqda. Jumladan, ta‘lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5544-sonli Farmonida O‘quv-tarbiya jarayoniga yangi ta‘lim dasturlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va SMART- texnologiyalarni joriy etish orqali ta‘lim muassasalarida o‘qitish sifatini yanada yaxshilash (elektron modullar tashkil etish va masofaviy o‘qitishni joriy etish) vazifalari belgilab berilgan.

Smart texnologiya o‘zi nima? Axborot asrining kirib kelish davri haqida so‘z borganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), ularni real o‘quv jarayoniga qo‘llash, zamonaviy axborot infrastrukturasi yaratish, mutlaq yangi multimedia o‘quv dasturlarini yaratish va ta‘limga tatbiq etish bosqichlari asta-sekin nihoyasiga yetib bormoqda.

Shu o‘rinda, tabiiy bir savol paydo bo‘ladi: orttirilgan bilim va tajribalarni qanday baholash mumkin, keyingi qo‘yiladigan qadam qanday bo‘lmog‘i kerak?! Masalan, an’anaviy o‘quv jarayonlarining AKT qo‘llash bilan bog‘liq muammolari, jumladan: dunyo internet tarmoqlarida tobora taraqqiy etib borayotgan turli ko‘rinishdagi noformal ta‘lim birlashmalari, «real» ta‘lim maskanlarini «virtual» lari bilan almashinuvi, masofaviy ta‘lim va boshqalar [4;175].

AKT rivojlanishining zamonaviy bosqichida nafaqat klassik ta’lim texnologiyalari, balki elektron ta’lim (e-learning) ham qanoatlantira olmaydigan ehtiyojlar kuzatiladi. Ayni vaqtda e-learning tizimidan Smart (ingl. — aqilli, mushohadali, harakatchan) e-learning hamda Smart Education (aqilli ta’lim) ga o’tish jarayoni bormoqda. Bu konsepsiya ta’lim sohasining barcha jarayonlarini, shuningdek, bu jarayonda qo’llaniluvchi barcha usul va texnologiyalarni kompleks modernizatsiyasini mujassamlashtiradi. Smart konsepsiyasi ta’lim kesimida o’zi bilan birga, «aqlli taxta», «aqlli ekran», ixtiyoriy nuqtadan Internetga chiqish kabi texnologiyalarni shakllantiradi. Ushbu texnologiyalarning har biri kontentni ishlab chiqish jarayonini yangidan qurish, yetkazib berish va aktuallashtirish imkonini beradi. Natijada ta’lim olishni nafaqat sinfda, balki uyda, ish joyida, jamoat joylarida, dam olish joylarida ham amalga oshirish mumkin bo’ladi. Bunda ta’lim jarayonini baholovchi asosiy element sifatida faol ta’lim beruvchi kontent maydonga chiqadi. Uning asosida vaqt va fazo tushunchalari to’sig’idan xoli qiluvchi yagona repozitor yaratiladi.

Smart ta’lim — bu ta’lim muassasalari hamda professor-o’qituvchilar tarkibining umumiy standartlar, kelishuvlar va texnologiyalar asosida yagona Internet tarmog’i orqali ta’limni amalga oshiruvchi birlashmasidir. Toshkent axborot texnologiyalari universitetida ham ta’lim jarayonida AKTni qo’llash borasida qator loyihalar amalga oshirib kelinmoqda, jumladan, joriy o’quv yilida universitetning «Teleradioeshittirishlar tizimlari» kafedrasining Internetda Lincom.uz (Learning in communication) nomli sayti tashkil etilganligi haqida alohida to’xtalib o’tish o’rinli bo’ladi. Ushbu sayt bir nechta, bo’limlardan iborat bo’lib, ular orqali talabalar kafedra yangiliklari bilan muntazam tanishib borish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Shuningdek, sayt kutubxonasiga joylashtirilgan, kafedrada o’qitiladigan «Elektromagnetizm», «Elektromagnit maydonlar va to’lqinlar», «Antenna asoslari» kabi fanlardan yuzga yaqin mamlakatimizda va xorijda chop etilgan darslik, o’quv qo’llanmalar, o’quv-uslubiy qo’llanmalarni mutolaa qilishlari va osonlik bilan ko’chirib olishlari mumkin.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Zamonaviy inson muhitining ajralmas qismiga aylangan axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida smart ta’lim asta-sekin an’anaviy elektron ta’lim bilan o’rin almashmoqda. Smart ta’lim konsepsiyasi hozirda bir qator tushunchalar bilan bog’liq bo’lib, ularning ko’pchiligida bir xil talqin qilinmaydi. Smart ta’lim mavzusidagi nashrlar bir necha yil oldin paydo bo’lgan va ular ta’lim rivojlanishining asosiy tendensiyalarini qayd etib, ta’lim tizimidagi keyingi o’zgarishlar uchun futurologik prognozlarini yaratadi. Smart ta’limning tashkiliy, texnologik va pedagogik kabi uchta muhim jihati mavjud bo’lib, ular “aqlli” ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi. Smart ta’lim ko’p miqdordagi manbalar, multimediyaning (audio, video, grafik) maksimal xilma-xilligini, tinglovchilarning talab va ehtiyojlariga tez va oson moslashish imkoniyatini nazarda tutadi. Bu mutlaqo yangi ta’lim muhiti bo’lib, unda ta’lim faoliyati Internetda umumiy standartlar, texnologiyalar va ta’lim muassasalari tarmog’i o’rtasida tuzilgan shartnomalar asosida olib boriladi va umumiy tarkibdan foydalaniladi [5;198]. Bu turdagi ta’limning o’ziga xos xususiyati - yashash joyidan va moliyaviy ahvolidan qat’i nazar, aholining barcha qatlamlari uchun qulaylik, ya’ni "hamma joyda" ta’lim olish imkoniyatidir. Z.K. Bekturova, N.N. Vagapovalarning fikriga ko’ra smart ta’lim muhitini yaratish uchun bir qator muhim faktorlar zaruriy hisoblanadi. Ular jumlasiga: yangi bilim va texnologiyalardan foydalangan holda innovatsion usullar orqali o’rganish; texnologiyalarning yaqinlashuvi, ta’lim sharoitlarini optimallashtirish; individual o’quv maqsadlariga, mavjud bilim va ko’nikmalarga, ijtimoiy muhitga avtomatik moslashish kabilari kiradi.

Informatikani o’qitish muammolari va xususan dasturlash bo’yicha mamlakatimiz olimlari V.Q.Qobilov, Sh.A.Nazirov, M.M.Musayev, A.Ne’matov, N.A.Otaxanov, A.A.Abdudodirov, A.X.Abdullaev, M.Aripov, U.Sh.Begimkulov, Sh.S.Ahrarov, B.Begalov, F.Zakirova, N.A.Muslimov, M.Lutfullaev, Z.Q.Ermatova, S.Rahmonqulova, N.I.Taylaqov, S.S.G’ulomov, R.H.Hamdamiy, U.Yuldashev, M.M.Mamarajabov, M.Fayziyeva va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o’rganilgan.

Informatikani o’qitish muammolari va xususan dasturlash A.P.Ershova, A.G. Kushnirenko, A.S. Lesnevskiy, S.M.Okulova, A.L.Semenova, M.V.Shvetskiy va boshqalarning asarlarida aks etgan. Dasturlashni o’qitish nazariyasi va metodikasini rivojlantirishga M.M. Bejanova, N.Virt, E.Z.Lyubimskiy, V.L.Matrosov, N.N. Nepeyvoda, I.V. Pottosin, I.N.Skopin [3;98] va boshqalar katta hissa qo’shgan.

Strukturaviy dasturlash g’oyasi va texnologiyasi 60-70-yillarda paydo bo’ldi va intensiv rivojlandi. XX asr E.V.Dijkstra, H. D. Miele, E. Knut va boshqalar kabi dasturlash klassiklarining nomlari bilan bog’liq. Bu davrda dasturlash nazariyasi va amaliyotiga katta hissa qo’shgan akademik A.P. Ershov hisoblanadi.

O’quvchilar uchun smart-muhit har bir o’quvchi uchun individual ta’lim muhiti, amaliy yo’nalish, bilim, ko’nikma va malakalarni rivojlantirishda mustaqillik - ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishga imkon beruvchi barcha omillar; uzluksiz ta’limning smart, fanlararo, talabalarga yo’naltirilgan ta’lim tizimlari (maktab, oliy o’quv yurti, korporativ o’qitish); moslashtirilgan o’quv dasturlari, portfolio; hamkorlikda o’qitish texnologiyalari; ko’p miqdordagi odatiy funktsiyalarni avtomatlashtirish; amaliyotchilarni o’quv

jarayoniga jalb qilish kabilar orqali ifodalanishi mumkin. “Smart” tushunchasi paydo bo‘lishi bilan smart/interaktiv-doska (yozuv taxtasi), smart-ekranlar, internetga istalgan joydan kirish kabi tushunchalar ham ta’lim tizimiga kirib keldi. Bu tushunchalarning har biri ma’lumotlar tarkibini yangicha ishlab chiqish, yetkazib berish va amaliyotga joriy qilish jarayonini qayta tuzishga imkon beradi.

Elektron ta’limning (e-learning) to‘plangan tajribasiz smart-ta’lim kontsepsiyasini amalga oshirish ilojsiz. Smart-o‘qitish jarayoni zamirida axborot texnologiyalari, elektron va masofaviy ta’limning yutuqlari, yillar davomida orttirilgan qimmatli tajribalari yotadi. Smart-ta’lim texnologiyalarining asosiy vazifasi o‘quv jarayonida o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun yangi samaradorlikka erishish uchun sharoit yaratishdir. Ta’lim texnologiyalarining bu turini qo‘llash kompleks yondashuvni talab qiladi. Smart-ta’lim kontsepsiyasining rivojlanishi dunyodagi yangi texnologik paradigma rivojlanishiga to‘g‘ri keladi. So‘nggi yillarda, xususan, davom etayotgan pandemiya sharoitida dunyo miqyosida elektron va smart-ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga talab keskin ortdi. Deyarli barcha mamlakatlar ta’lim jarayonini asosan axborot texnologiyalari orqali amalga oshirishi natijasida, oxirgi 2 yillik muddat ichida O‘zbekistonda ham bu texnologiya avvalgi yillarga qaraganda misli ko‘rilmagan darajada rivojlandi. Ta’lim oluvchilarning aksar qismini tashkil qiluvchi maktab o‘quvchilari ham elektron o‘qitish jarayoni bilan yaqindan tanishdilar. Ta’lim texnologiyasining mazkur turi dunyoning istalgan nuqtasidan turib masofaviy ishlay olish imkoniyati bilan boshqalaridan yaqqol ustunlik qilmoqda. Bunda o‘quvchi qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar, kompyuter va internet ta’minoti bilan ta’lim jarayonida ishtirok eta oladi. O‘rganish nafaqat sinfda, balki boshqa har qanday joyda: saylgoh yoki kafe kabi jamoat joylarida ham mumkin bo‘ladi. Ta’lim jarayonini bog‘laydigan asosiy element - bu faol ta’lim mazmuni, uning asosida vaqt va makon ramkalarini olib tashlash imkonini beradigan yagona omborlar yaratishdir. O‘qitishning yangi – smart texnologiyalari zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib qoladi. U insoniyatga beqiyos imkoniyatlarni hadya etib, zamon va makon chegaralarini olib tashladi. Smart texnologiyalardan unumli foydalanish nafaqat maktab o‘quvchilari, talabalar, katta yoshli o‘rganuvchilar, balki kasbiy malaka oshiruvchilarni ham yangi bilimlarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishi kerak, shunda ular jahon hamjamiyatida muvaffaqiyatli muloqot qila oladilar, barcha talabalarni o‘z o‘zini tarbiyalash jarayoniga faol jalb qiladilar.

**Natijalar.** Hozirgi talabalar ta’limning an’anaviy modelini yaxshi qabul qilmaydilar. Shu munosabat bilan mobillikka, amaliyotga yo‘naltirilganlikka, kontentning o‘zini to‘ldiruvchanligiga, kontentni taqrizlashga ega bo‘lgan ta’lim modelini ishlab chiqish zarur. Bunday masalani SMART-ta’lim kontsepsiyasi hal qilishga qodir. Ta’lim sohasi mutaxassisleri hozirgi talaba oldingi avlodlar talabalaridan jiddiy farq qiladi, degan fikrga qo‘shiladilar. Hozirgi talabalarni “Z” avlodi deb nomlanadigan guruhga mansub qiladi, uning asosiy xususiyatlari faol mobillik, ijtimoiy media tarmoqlarda albatta ishtirok etish va doim internetga muhtojlik hisoblanadi. “Z” avlodi ta’lim jarayoniga boshqacha talablar qo‘yadi, chunki bu avlod uchun “tarmoqdan” bilim olish ko‘nikilgan va tushunarlidir. “Z” avlodi vakillarini an’anaviy ta’lim modeliga muvofiq o‘qitish ta’lim maqsadlarini samarali amalga oshirish imkonini bermaydi, bunda ko‘pincha quyidagi ikki holatdan biri kelib chiqishi kuzatiladi, jumladan: eng yaxshi holatda - tinglovchilar tomonidan fanga qiziqishning tez so‘nishi, eng yomon holatda esa — o‘qituvchini to‘liq; tan olmaslik ro‘y beradi. Bu muammoni elektron ta’limning yangilangan modeli yordamida hal etish mumkin bo‘lib, uning xususiyatlaridan biri “Z” avlodi ko‘nikib qolgan tarmoqlardan olinadigan ta’lim jarayonining jiddiy tarkibiy qismi sifatida foydalanish bo‘lishi lozim[1;38].

Ta’lim jarayoni axborot, elektron texnologiyalarni qo‘llab amalga oshiriladigan hozirgi elektron ta’lim tizimi quyidagi asosiy tamoyillarga ega bo‘lishi kerak:

-ta’limning ochiqligini va moslashuvchanligini ta’minlash tamoyili iste’molchilarga qulay bo‘lgan istalgan joyda foydalanuvchilarning hamma toifalari uchun ta’lim olish imkoniyatini yaratishni ko‘zda tutadi;

-individuallashtirish tamoyili kirish va joriy nazorat hamda har bir tinglovchi bilimlarining individual darajasiga muvofiq materiallarni taqdim qilish orqali amalga oshiriladi;

-interfaollik tamoyili NIT vositalarini qo‘llagan holda “talabalar – o‘qituvchi” va “talaba - talaba” muloqotlari qonuniyatlarida aks etadi.

Zamonaviy elektron ta’lim asoslanadigan SCORM standartlarini hozirgi talabalar ehtiyojlariga javob bermaydigan, eskirgan deb hisoblash mumkin. Masalan, shu standartga muvofik ta’lim berishda internetdan foydalaniladi, lekin talabani statsionar kompyuterga bog‘lab qo‘yiladi, bu esa, mobil va dinamik hayot talabalariga javob bermaydi. Talabalarning ko‘pida o‘qish uchun yaratilgan mobil qurilmalar: smartfonlar, planshetli kompyuter va noutbuklar bor, ammo masofaviy ta’lim tizimlari (MTT)ning hammasi ham bunday platformalarni keragicha qo‘llab-quvvatlay olmaydi. “Z” avlodi uchun bugungi bilimlar manbai faqat darsliklar va o‘quv auditoriyalarida yoki elektron muhitda ishlayotgan o‘qituvchilar emas, balki internet-saytlarning cheksiz imkoniyatlari bilan birga “Vikipediya”, ijtimoiy tarmoqlar va mikrobloglardan iborat.

Zamonaviy ta’lim standartlari talabalarning ta’lim muhitidan tashqaridagi faolliklarini hisobga olish imkonini bermaydi, bu esa, o’qituvchi (tyutor)ni zarur axborot va topshiriqlarni MTTga jismonan ko’chirish bo’yicha ishni bajarishga majbur qiladi, bu ko’pincha mualliflik huquqlarini buzishi mumkin, boshqa tomondan esa, bu keraksiz va eskirgan amaliyot bo’ladi. Mavjud qog’ozdagi va elektron darsliklar hozirgi talabalar ehtiyojlariga to’liq javob bermaydi, buning sababi ularning faqat mobilligi va individualligi yo’qligida emas, kontent (mazmuni)ning e’lon qilish vaqtidayoq eskirganidan iborat. Fizika, matematika kabi fundamental fanlar doirasida nazariya juz’iy o’zgaradi, ammo amaliy fanlar uchun o’quv materialida aks ettirilgan mazmunning o’zgarish tezligi ba’zan haftalar va kunlarga teng bo’ladi. Yuqorida keltirilgan muammolarning yechimi MESI tomonidan taklif qilingan, hozirgi talabalar ehtiyojlariga mos bo’lgan, yangi ta’lim konsepsiyasi - SMART-ta’lim konsepsiyasi bo’lishi mumkin. Zamonaviy SMART-jamiyat va uning “umr bo’yi ta’lim olish” yondashuvi “tinglovchiga qulay joyda ta’lim” tamoyili bo’yicha hamma joyda o’qitish zarurligini, ya’ni yangi konsepsiyaning muhim tamoyili kontent iste’molining mobilligi bo’lishi lozimligini ko’rsatadi. Mavjud darsliklar bu vazifani bajara olmaydi, chunki ularni sotib olish vaqtidayoq eskirib bo’lgan kontentni taqdim qiladi. SCORM standarti bo’yicha tayyorlangan elektron kurslarni ham eskirgan deb hisoblash mumkin, chunki ular tinglovchini internetga doimiy ulangan stasionar kompyuterga bog’lab qo’yadi, bu esa, hozirgi hayotning jadal sur’atlari yuqori mobilligida juda noqulay. Shu munosabat bilan o’quv kontentini tarqatishda ijtimoiy tarmoqlar alohida o’ringa ega bo’lib, bu esa, SMART-darslik bilan ijtimoiy medianing integratsiyalashuvini ta’minlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. SMART-darslik konsentratsiyasini ta’lim muhitidan tashqarida amalga oshirish imkoni yo’q. SMART-darslik SMART-o’quv jarayoni uchun asos bo’lishi, qog’oz darslikning afzalliklarini, elektron kurslarning (birinchi galda SCORM ning) texnik imkoniyatlarini o’ziga qamrab olishi hamda shu yuqorida aytilganlarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo’lishi lozim. Tinglovchilarga taklif etilayotgan ta’lim kontentining dolzarbligini, uning sohaning real muammolariga mosligini faqat o’qituvchining kuchi bilan ta’minlab bo’lmaydi. Shu sababli dolzarblikning yuqori darajasini doim saqlab turish uchun sohaning ekspertlari jamoasi vakillarini jalb qilish zarur. Kursni tinglagan va professional sohada faol ishlayotgan talabalar vaqt o’tishi bilan ekspert bo’la boradilar, bu esa, SMART-ta’lim kontsepsiyasini amalga oshirish doirasida tinglovchilar bilan (shu jumladan, ilgari bitirgan tinglovchilar bilan ham) va ekspertlar jamoasi bilan doimiy muloqot kanalini yaratish zaruratini keltirib chiqaradi [2;78].

Hozirgi ta’lim o’quv materialini berishga amaliyotga yo’naltirilgan yondashuvni talab qiladi. O’quv-metodik ta’minotning uni amalda qo’llash imkoniyati bilan bog’liqligi yo’qligi uning tinglovchilar uchun ahamiyatini jiddiy pasaytiradi va oxirida oliy o’quv yurtining nufuzini pasaytiradi. Materialni berishning mumkin bo’lgan shakllari o’quv materialiga “amaliyotni” kiritish uchun o’quv jarayonida eskirgan keyslardan foydalanishdan, to tinglovchilarni real kompaniyalarga stajyorlar sifatida kiritishgacha qamrab oladi. Ammo aytib o’tilgan yondashuvlar ishlaydigan tinglovchilarga hamda quyi kurslar talabalariga hamma vaqt ham mos kelavermaydi. SMART-ta’lim konsepsiyasi doirasida dastlab amaliy masalani qo’yish (hal etish uchun real keysni taqdim qilish), keyin o’rganish qo’yilgan biznes-rejani hal etish imkonini beradigan dolzarb nazariy materialni taqdim qilish g’oyasi taklif qilingan edi. Shunday qilib, tinglovchilarni nazariy materialni o’rganish jarayoniga jalb qilish eng yuqori darajada bo’ldi, chunki uni o’rganish muayyan real amaliy masalani hal qilish maqsadiga yo’naltirilgan edi.

**Muhokama.** Ta’limga SMART-yondoshuvning asosi nazariy materialni real biznes-masalani hal qilishga bog’lab berish hisoblanadi. Bu konsepsiyani amalga oshirish uchun har bir fan sohasi doirasida real kompaniyalardan biznes-keyslar kutubxonasini yaratish zarur. Bayon qilingan muammolar va ularni hal qilishning mumkin bo’lgan yo’nalishlari SMART-ta’limning asosiy tamoyillarini shakllantirish imkonini beradi. Bunday yondashuv SMART-ta’lim jarayoni asosida yotadi va quyidagi qator bosqichlarni amalga oshirishni talab etadi.

Tinglovchining kirish kompetensiyalarini baholash. Buni o’tkazishning mumkin bo’lgan shakllari: beshta asosiy savollardan iborat kirish testi va tinglovchi haqida ma’lumotlar. Tinglovchilarning darajasi uchga: boshlang’ich, tayanch va yuqoriga ajratiladi.

Tinglovchiga uning aniqlangan darajasiga bog’lik ravishda ta’lim olish davrining hammasi uchun masalani boshidan oxirigacha hal etish bo’yicha keys variantini taqdim qilish.

Tinglovchiga SMART-kompetensiyasiga muvofiq ta’lim olish uchun materiallarni taqdim etish. Tinglovchining reytingini aniqlash uchun oraliq nazoratni tashkil qilish. Oraliq nazoratning taxminiy variantlari: nazariy materialni bilishining test sinovi; guruhli bahs-munozaralar, shu jumladan, keys topshirig’ining bajarilishi to’g’riligini baholash maqsadida ekspertlar ishtirokida amalga oshiriladi. Keysni hal qilishning yakuniy himoyasini ekspertlar jamoasi va tadbirkorlar vakillari (keysning mualliflari) oldida tashkil qilish. Keysni hal qilish kurs bo’yicha kompetensiyalar darajasi yetarilgini haqiqiy tan olish hisoblanadi. O’quv materialini berishni “nazariya + amaliy misollar” konsepsiyasidan “amaliy biznes-



to‘shirik + uni yechish uchun zarur nazariya” kompetensiyasiga o‘zgartirish jiddiy, lekin yagona bo‘lmagan vazifa hisoblanadi, uni hal etish elektron kursni SMART-o‘quv jarayoni deb nomlash imkonini beradi. AKTni o‘qitish tizimida har yili eng yangi innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda masofaviy ta‘limning borgan sari ko‘p turli shakl va usullari paydo bo‘lmoqda. Ular ta‘lim jarayonini amalga oshirishning faqat alohida texnik vositalari yoki axborot uzatish va almashish tizimlari emas, balki o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini, nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘qitish metodlarining yaxlit tizimini ham o‘z ichiga oladi.

*The content of the article is to objectively assess the knowledge, skills and qualifications of students in fulfilling the requirements established by the state educational standard, encourage their interest in learning and determine their rating. Assessment serves the teacher to determine what students know, identify their shortcomings and defects, strengthen their weaknesses on the basis of their achievements. The purpose of checking and assessing pupils' knowledge is to ensure the quality and level of development of pupils' knowledge and to encourage them, to promote their interest in learning.*

**Keywords:** Kahoot, Quizlet, Quizlet Live, Classroom, Interactive, online test creation platforms.

**Kirish.** Ta’lim jarayoni an’anaviy yoki masofaviy ta’lim bo‘lishidan qat’iy nazar o‘quvchilarning darsga qiziqishini orttirish ularni o‘z ustida ishlashlari uchun undash mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. O‘quvchi dars jarayonida savolni javobini bilmasa qo‘rqib “bilmayman” deb emas, aksincha, shu savolni javobini qo‘rqmasdan katta qiziqish bilan “bilmayman” lekin bilishni hohlayman deb javob berishi kerak deb o‘ylayman, nazarimda. O‘quvchilar dars jarayonida bilim olishga bo‘lgan ishtiyoq, xoxish, tirishqoqlik, qiziqish, dars jarayoni boshlanishini intizorlik bilan kutish ko‘nikmalarini shakllantirish kerak. Shundagina ta’limda ancha o‘sish va rivojlanish bo‘ladi. Shu sababli biz kelajakda barkamol yetuk shaxslarni tashkil toptiramiz.

**Asosiy qism.** Hozirgi XXI asr axborot davrda dars jarayonida interaktiv test yaratuvchi onlayn platformalardan foydalanish o‘quvchilarning bilimni nazorat qilish, fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish va dars jarayonining qiziqarli o‘tishini ta’minlaydi. Quizizz, Kahoot, Wordwall va Google docs kabi onlayn test yaratuvchi platformalardan foydalanib o‘quvchilar bilimni nazorat qilish darsda interaktiv savol javob o‘tqazish o‘quvchilar qiziqishini orttirishi mumkin. Bu platformalar viktorinalar yaratuvchi maktablar va boshqa ta’lim muassasalarida sinfda qo‘llaniladigan o‘yin o‘rganish platformasi. Platforma veb-versiyasiga ega hamda mobil smartfonlardan foydalanish ham mumkin. Quizizz, Kahoot, Wordwall, Google docs onlayn platformalardan foydalanib test topshiriqlarini yaratib o‘quvchilar bilimni tekshirish uchun, guruh faoliyati uchun yoki darsda tanaffus sifatida foydalanish mumkin. Bu onlayn platformalarda yaratilgan interaktiv

o‘yinli testlar o‘quvchilar diqqatini tortadi. O‘quvchilar o‘yinlar orqali test savollarini yechadilar. O‘quvchilar o‘rtasida raqobatlashish, shu fanga bo‘lgan qiziqish ortib boradi. Biz ushbu maqolada Kahoot platformasi haqida fikr yuritmoqchimiz [1,2].

Kahoot nima?


Bu mumkin bo‘lgan ajoyib aralash o‘rganish ilovasi viktorinalar, testlar, savollar va so‘rovlarni dinamik va qiziqarli tarzda yarating, asosan maktab yoshidagi bolalar va yoshlarga mo‘ljallangan ajoyib virtual o‘qitish-ta’lim vositasi. Kahoot 2012 yilda tug‘ilgan va uning rivojlanishi o‘yinlarga asoslangan edi, shuning uchun uning dizayni barcha yoshdagi ishtirokchilarning e’tiborini tortadi, har qanday mavzuga javob berishi va ball to‘plashi mumkin.

Hozirda Kahoot saytiga kuchli raqobat ko‘rsatayotgan yana bir narsa bu Quiz, chunki quiz testlar o‘quvchilarning, ayniqsa o‘rta maktabda o‘qitish jarayoni uchun bepul o‘quv vositasi sifatida juda foydali. O‘qituvchilar o‘zlarining topshiriqlari, viktorinalari, o‘quv o‘yinlari va boshqalarni bajarishlari mumkin; o‘quvchilar esa unga javob berishlari va yuborishlari kerak, shuning uchun ularni baholash mumkin.

Ushbu dastur o‘z veb-saytidan, shuningdek, mobil telefon ilovasidan ishlaydi va milliondan ortiq yuklab olingan. Bu o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun juda qiziqarli taklif, chunki uning platformasidan Masalan, o‘quvchilaringizga anketa yoki savollar batareyasini yuborishingiz mumkin, ular unga kirishlari, javob berishlari va javoblarni xuddi shu tarzda yuborishlari mumkin

Kahootdan qanday foydalanish kerak? Kahootdan foydalanish juda oddiy, o‘quvchilar guruhi uchun ma’lum bir so‘rovnomani ishlab chiqish uchun ham eng ko‘p ishlatiladigan, muhokama yoki so‘rovar oib boriadi. O‘quvchilarga kelsak, ular javob berish uchun ikkita yoki to‘rtta javob muqobiliga ega.

1-qadam. Kahoot saytidan ro‘yxatdan o‘tish rasmiy kahoot veb-saytiga o‘ting. Birinchidan, siz Kahoot veb-saytiga kirishingiz kerak (<https://kahoot.com/>) va yashil tugmani bosishingiz kerak bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. Kahoot platformasiga kirish


Keyin sizdan Kahoot saytidan kim sifatida foydalanishingiz haqida so‘raladi va unga to‘rtta variant beriladi, variantning birini tanlashingiz kerak.

2-qadam. Kahoot hisobini yarating. Keyin tizim sizga imkoniyat beradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri Google yoki Microsoft hisob qaydnomasi orqali kiring ilgari yaratganingiz shuningdek elektron pochta va parol bilan hisob yaratishingiz mumkin, ustiga bosib. Elektron pochta orqali ro‘yxatdan o‘ting va keyin siz foydalanuvchi nomingiz, parolingiz va ish joyingiz bilan ba’zi qutilarni to‘ldirishingiz kerak.

Kirish tugmasini bosib. Kahootning asosiy sahifasiga o‘ting. Keyin elektron pochtingiz kiriting va avval yaratilgan parolingiz orqali ham boshlash imkoniyatiga ega bo‘lish.


3-qadam. O‘yin yaratish

Yaratishni bosing. U siz ochgan sahifaning yuqori o‘ng tomonida joylashgan va uni bosish orqali siz Kahoot o‘yining bir qismi bo‘ladigan turli viktoralarni yaratishni boshlashingiz mumkin(2-rasm).



2-rasm. Kahootga o‘yin dasturlari yaratish

Ushbu ko‘rinishdagi oynaga: O‘yinning birinchi savolini yozing. Keyin yuqori chapda siz kerak o‘yin nomini kiriting, bu odatda fan, imtihon yoki baholash nomidir. Keyinchalik, kerak bo‘ladi o‘yinning birinchi savolini yozing to‘g‘ri qutida savolingizni yozishni boshlash uchun bosing. Savollarni yozishda tabiiyki, murakkab funksiyalar yuzaga keladi. Bunday hollarda savol yozilishi kerak bo‘lgan satrga klavishning chap tugmasini bosganda  $f(x)$  yozuvi hosil bo‘ladi va shu  $f(x)$  funksiyaning ko‘rishi quyidagicha bo‘ladi(3-rasm).




3-rasm. Kahoot platformasiga funksiyani yaratish

Rasm qo‘shing, javob berish vaqtini aniqlang va savolga ball bering. O‘quvchilar savollarga javob berishda har bir to‘g‘ri savol uchun ball oladi, lekin ular ham eng qisqa vaqt ichida to‘g‘ri javob berish uchun, bu boshqa raqobatchilar yoki o‘quvchilarga nisbatan ustunlikdir.

Berilgan savolga to‘g‘ri javobni belgilang va qaysi biri yagona to‘g‘ri javob ekanligini tegishli katakchadagi doira belgisini qo‘yish orqali aniqlang. O‘yinni ishlab chiqish bilan yakunlang. O‘yinning bir



qismi bo‘lgan barcha savollar va javoblar bajarilgandan so‘ng, uni saqlab qolish qoladi yashil tugmani bosib.



4-rasm. Kahootga test yaratish oynasi

4-qadam. PIN kodini oling.

Kahoots bo'limiga o'ting. O'qituvchi profiliga kirganingizdan so'ng, siz faqat chaqirilgan bo'limga o'tishingiz kerak, keyinroq yaratilgan o'yinni toping va tugmani bosib.

- O'quvchilar o'yinni boshlaydilar: o'quvchilar o'zlarining planshetlari, kompyuterlari yoki internetga kirish imkoniga ega bo'lgan boshqa qurilmadan sahifaga kirishlari kerak. Kahootning bo'limga kirishingiz kerak. O'yin PIN kodini kiriting. Mana, ular kerak o'qituvchi oldindan baham ko'rgan PIN kodini kiriting barcha o'quvchilar bilan test ishlash imkoniyatiga ega bo'ling.

- Ismingizni yoki taxallusingizni kiriting. Bu juda muhim, chunki shu tarzda siz natijalarni bilib olasiz.

5-qadam. O'yin natijalari nihoyat, barcha o'quvchilar o'yinni tugatgandan so'ng, natijalar ekranda ko'rsatiladi: kuchli uchlikka ko'rinadi. Biroq, o'qituvchi natijalarga batafsil kirish imkoniyatiga ega bo'ladi, ya'ni har bir o'quvchining ismi, to'g'ri va noto'g'ri javoblari va olingan ballari batafsil ko'rsatiladi.

#### **Kahoot saytining foydali tomonlari:**

1) Hech qanday xarajatsiz turi xil viktorina, quiz testlar amalga oshirish mumkin bo'lgan ushbu sayt darsning ko'rgarmalilik darajasini oshiradi.

2) O'yin ma'lumotlariga kirish orqali:

a) o'yin natijalarini yuklab olish va tahlil qilish

b) o'quvchida eng ko'p qilingan xatolarni toppish va bu borada o'quvchida ilmiy bilimni oshirishi mumkin.

3) Platformaga tez va oson kirish: o'quvchilar ro'yxatdan o'tishlari shart emas, faqat test yaratuvchisi tomonidan 7 talik pin-kod yetarli.

4) Unda turli toifadagi savollar mavjud.

#### **Kahootdan foydalanishning kamchiliklari :**

1) Internetga doimiy ravishda ulangan bo'lish kerak.

2) Premium versiyasi pullik: yaniki, kengaytirilgan funksiyalarga kirish uchun pul to'lash kerak.

Bu sayt, o'qituvchilar, o'quvchilar va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan interaktiv o'yinlar tuzish uchun ishlab chiqilgan. "Kahoot!" o'yinlari o'rganishda qiziqarli va samarali usulni taklif etadi. Bu platforma orqali o'qituvchilar o'zlarining matn, savol, rasmlar va boshqa elementlarni qo'shishlari mumkin.

"Kahoot!" sayti doimo rivojlanib borayapti va yangi imkoniyatlar qo'shib borayapti, shuning uchun eng so'nggi yangiliklarni to'g'risida saytni ko'rib chiqishingiz foydalidir. O'qituvchilar uchun bu platforma qo'shilgan maqolalardan va video darslardan ham foydalanishingiz mumkin.

**Xulosa** o'rnida shuni aytish mumkinki, dars jarayonini Quizizz, Kahoot, GoogleDocs va Wordwall onlayn test yaratuvchi o'yinli platformalarda elektron testlar kompleksini yaratish va uni ta'limda qo'llash natijasida o'quvchilarga bilim berish uchun onlayn platformalardan foydalanib dars samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, darsga qiziqishini orttirish, o'tilgan mavzuni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lishiga darsga bo'lgan qiziqishi rivojlanishiga, darslikdan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish ko'nikma va malakalari shakllanishiga, o'quvchilarni ilmiy izlanishga

yo'naltirishda shuningdek, o'quvchilarga doimiy ravishda bilim berib borishda interaktiv o'yinli testlar yaratish va ulardan o'quv jarayonida foydalanish lozimligi, shuningdek platformalarni yanada takomillashtirish va yangi loyihalarini yaratish bo'yicha zaruriy tasavvurlarini oladi[3-11].

#### Adabiyotlar:

1. Educating teachers of science, mathematics, and technology : new practices for the new millennium / Committee on Science and Mathematics. Copyright 2001 by the National Academy of Sciences. Constitution Avenue, N.W. Washington.
2. Djurayev R.X va boshqalar. Pedagogik atamalar lug'ati. –T.: “Fan nashriyoti”, 2008 yil. – 94-bet
3. Rashidov A.Sh. Matematika darslarida ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi. // Центр научных публикаций. 2021 yil. 3-son. 68-72 bet.
4. Rashidov A.Sh. Ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishi talabalari uchun matematik fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish. // Science and Education №9. С 283-291
5. Халлоқова О.О., Рашидов А. Пороговое собственное значение модели Фридрикса. // Молодой ученый, 2015 №15. С. 1-3
6. Rashidov A.Sh. Interaktivnyye metody pri izuchenii temy “Opredelennyu integral i yego prilozheniya”. // Nauchnyye issledovaniya. № 34:3. С 21-24
7. Rashidov A.Sh. Yoshlar intellektual kamolotida ijodiy tafakkur va kreativlikning o'rni. // Pedagogik mahorat 2021 yil №7. 114-116 bet.
8. Rashidov A.Sh. Matematika fanlaridan talaba yoshlar ijodiy tafakkurini rivojlantirish. // Fan va jamiyat №3. С 45-46
9. Rashidov A.Sh. Замонавий таълим ва инновацион технологиялар соҳасидаги илғор тажрибалар. // Центр научных публикаций. 2021 yil. 3-son. 68-72 bet 8-14
10. Hamroyev Alijon. “Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish zamonaviy ta'lim konsepsiyasining asosi. // Pedagog's journali (2022): 35-37.
11. Rashidov A.Sh. “Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari” fanini o'qitishda smart-auditoriyadan foydalanib o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023 yil 12-son. 247-251 bet.

## MA’NAVIYAT VA TARBIYA

UO’K 371:3:78.

### TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA BAXSHICHILIK SAN’ATI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

*Abdumannatova Aziza Abdumajid qizi,  
O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti  
“Musiqqa ta’limi” kafedrasida o‘qituvchisi*

*Bugungi globallashuv jarayonida shaxslar, millatlar, xalqlar o‘rtasida tolerantlikni rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Sababi, tolerantlik insonlar, millatlar, xalqlar, davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi.*

*Talabalarda tolerantlikni rivojlantirishda baxshichilik san’atidan foydalanish dolzarb vazifalaridan biridir. Baxshichilik san’atini rivojlantirish davlatimiz rahbari va hukumatimizning qaror va ko‘rsatmalarida o‘z ifodasini topgan.*

*Bu borada Qo‘rg‘on dostonchilik maktabining asoschisi Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining o‘rni beqiyos. Baxshining ma’naviy merosini o‘rganish, talabalarni baxshining uy-muzeyiga sayohatlarini tashkil etish, doston va termalarini notaga solish lozim. Doston va termalarda insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqlar o‘rtasida do‘stlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlar bo‘lajak musiqqa o‘qituvchilar tarbiyasida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *globallashuv, jarayon, shaxs, millat, xalq, talaba, tolerantlik, rivojlantirish, baxshi, baxshichilik, san’at, sayohat, imkoniyat, foydalanish.*

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ИСКУССТВА БАХШИЗМА В РАЗВИТИИ ТОЛЕРАНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ

*В сегодняшнем процессе глобализации возрастает потребность в развитии толерантности между отдельными людьми, нациями, народами. Причина в том, что толерантность укрепляет связи между людьми, нациями, народами, государствами.*

*Одной из актуальных задач является использование искусства бахшизма в воспитании толерантности у учащихся. Развитие искусства бахшизма нашло своё выражение в решениях и указаниях главы государства и правительства.*

*В этом отношении неопределима роль Эргаша Джуманбулбул оглы, основателя курганской школы эпоса. Необходимо изучить духовное наследие Бахши, организовать поездки студентов в дом-музей Бахши, записать эпосы и термы. Такие качества, как гуманизм, патриотизм, дружба между народами, терпимость в эпосах и термах, служат важным фактором воспитания будущих учителей музыки.*

**Ключевые слова:** *глобализация, процесс, личность, нация, люди, студент, толерантность, развитие, Бахши, бахшизм, искусство, путешествия, возможности, использование.*

### USING THE POSSIBILITIES OF BAKHSHI ART IN THE DEVELOPMENT OF TOLERANCE AMONG STUDENTS

*In today's process of globalization, there is an increasing need to develop tolerance between individuals, nations, and peoples. The reason is that tolerance strengthens ties between people, nations, peoples, and states.*

*One of the urgent tasks is to use the art of Bahshi in the education of tolerance among students. The development of the art of Bakhshism found its expression in the decisions and instructions of the head of state and the government.*

*In this regard, the role of Ergash jumanbulbul oglu, the founder of the Kurgan epic school, is invaluable. It is necessary to study the spiritual heritage of Bakhshi, organize trips of students to the Bakhshi house museum, record epics and thermae. Qualities such as humanism, patriotism, friendship between peoples, tolerance in epics and terms are an important factor in the education of future music teachers.*

*Keywords: globalization, process, personality, nation, people, student, tolerance, development, Bakhshi, Bakhshism, art, travel, opportunities, use.*

**Kirish.** Mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar yangi O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davriga asos solmoqda. Davlatimiz rahbari ta’kidlab o‘tganidek: “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi xorazmiylar, beruniylar, ibn Sinolar, ulug‘beklar, Navoiy va boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm – fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim” [1].

Bu bejiz emas. Yangilanayotgan O‘zbekistonni jismoniy sog‘lom, ma’naviy yetuk, mustaqil fikrga ega bo‘lgan ilmiy, iymon-e’tiqodli, so‘zi bilan ishi bir bo‘lgan shaxslargina barpo eta oladi.

Barkamol avlod tarbiyasida madaniyat, san’atning o‘rni va ta’sirchanligi yuqori ekanligi hech kimga sir emas. Shuning uchun keying yillarda respublikamizda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san’atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 14- maydagi “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4320-sonli Qarori fikrimizning isbotidir. Ushbu qarorda ko‘rsatib o‘tilganidek: “Hozirgi globallashuv davrida, tijorat vositasiga aylangan “omnaviy madaniyat”, shou – biznesning salbiy ta’siri kuchayib borayotgan bir sharoitda folklor san’atiga e’tibor va qiziqish susayib borayotganligi, ko‘p joylarda unutilib, himoya va muhofazaga muhtoj bo‘lib turgani kuzatilmoqda.

**Asosiy qism.** Xalqimiz madaniyatining hayotbaxsh sarchashmasi bo‘lgan baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish, uning milliy madaniyatimiz va san’atimizdagi o‘rni va ahamiyatini yuksaltirish, yosh avlodni milliy o‘zlikni anglash, Vatanga sadoqat, tarixiy merosga hurmat ruhida tarbiyalash”, - masalalariga alohida e’tibor qaratildi.[2]

Mazkur qaror asosida Termiz shahrida Respublika Baxshichilik san’ati markazi va uning huzurida Baxshichilik san’atini rivojlantirish jamg‘armasi tuzildi. Markazning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilab berildi:

- baxshichilik san’atining ilmiy – nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganish va mustahkamlash;
- baxshi – shoirlar, folklorshunos olimlar, o‘qituvchi va mutaxassislarining ijodiy va ilmiy faoliyatini qo‘llab quvvatlash;
- madaniyat markazlari va bolalar musiqa va san’at maktablari va boshqa ta’lim muassasalari qoshida baxshichilik san’ati to‘garaklarini tashkil etish;
- baxshichilik san’atining sara namunalari to‘plash va fondini yaratish, ularni audio va video variantlarini ko‘paytirish, bu sohani yurtimizda va dunyoda keng targ‘ib etish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, televedeniya va internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish;
- baxshichilik san’ati yo‘nalishida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, bu borada o‘zaro tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish, jumladan, turli xalqaro anjumanlar va tanlovlar, konsertlar va mahorat darslarini tashkil etish kabi masalalarga e’tibor qaratilmoqda.

Umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi bo‘lgan baxshichilik san’atini rivojlantirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Masalan, “Alpomish” dostonining ming yilligi keng nishonlandi. Termiz shahrida bu ulug‘ badiiy obida sharafiga, Samarqand shahrida atoqli baxshilar xotirasiga bag‘ishlangan yodgorlik majmualari bunyod etildi. Davlatimiz tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq baxshisi” faxriy unvoni ta’sis etildi. Ayni paytda Termiz shahrida baxshichilik maktabi respublikamizdagi bolalar musiqa va san’at maktablarida folklor sinflari faoliyat ko‘rsatmoqda, yuz tomlik “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” majmuasi nashr etilmoqda. Baxshi – shoirlar ijro etgan asarlar yozib olinmoqda, ularni ilmiy o‘rganish ishlari davom etmoqda.

Baxshichilik san’ati tarixi, baxshilar haqidagi ma’lumotlar, ular ijro etgan asarlarni o‘z ichiga olgan reestr tuzilib, Madaniyat vazirligi huzurida “baxshi.uz” sayti faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018-yil 1-noyabrda “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Termiz shahrida Xalqaro baxshichilik san’ati festivali bo‘lib o‘tdi festivalda dunyoning 74 mamlakatidan 160 dan ziyod vakillar ishtirok etdi. [3]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi “Buyuk ipak yo‘li” Xalqaro folklor musiqa festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida” gi 371-sonli qarorida quyidagilarga e‘tibor qaratildi:

- yoshlar va kelajak avlod qalbida musiqa san‘atiga bo‘lgan mehri oshirish, musiqiy merosning boy, badiiy va estetik imkoniyatlarini tarannum etish, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlash;

- o‘zbek milliy folklor san‘atini hamda boshqa xalqlarning folklor musiqa san‘atini qamrab olish, ular bilan yaqindan ilmiy va ijodiy muloqatlar va hamkorlik qilish, madaniy – ma‘rifiy munosabatlarni xalqaro miqyosda kengaytirish;

- xorijiy davlatlar bilan milliy madaniyatlar uyg‘unligini va turli xilligini saqlash va rivojlantirish, xalq ijodiyotining eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qilish, muhofaza qilish va rivojlantirish;

- turli millat vakillarini ma‘naviy muloqotga jalb etish, yaxlit madaniy muhitni asrash hamda milliy an‘analari va estetik ideallarning umumiyliги asosida davlatlararo va xalqlararo madaniy hamkorlikni mustahkamlash. [4]

Ma‘lumki, mamlakatimiz azaldan musiqa madaniyati o‘choqlaridan biri sanaladi. O‘zbek musiqa madaniyatida dostonchilik ham o‘z o‘rniga ega. Respublikamizda xalq musiqiy san‘atida dostonchilik to‘rtta: Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududlariga bo‘linadi. Ular orasida Samarqand dostonchilik maktabining alohida o‘rni bor. Dostonchilikni rivojlantirishda Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi va uning yirik vakillaridan biri, Xalq baxshisi Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining xizmati tahsinga loyiqdir.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Baxshi (sanskritcha bhikshu – budda ruhoniysi, donishmandi; duoxon; darvesh) 1. Xalq qo‘shiqchilari va dostonlarini yoddan kuylovchi shoir, oqin”, - deb izoh berilgan. [5]

Ergash Jumanbulbul o‘g‘li 1868-yilda boborakot Qo‘shrobot tumaniga qarashli Qo‘rg‘on qishlog‘ida tavallud topgan. Ergash otaning xalq baxshisi bo‘lib yetishishida oilasi va qishloqdagi adabiy muhit katta rol o‘ynagan. U 1884-1886 yillarda Buxoro madrasalarida tahsil olgan, fors va arab tillarini o‘rgandan. Ammo moddiy qiyinchiliklar tufayli o‘qishni davom ettira olmagan. Qishlog‘iga qaytib, mustaqil shug‘ullangan, dostonchilik mahoratini oshirgan. 1912-1922-yillarda Bulung‘ur, G‘allaorol, Urgut tumanlari, Jizzax va Panjikent atrofidagi qishloqlarda tabiblik, qissaxonlik, she‘rxonlik qilib, dostonlar kuylagan. 1923-yilda Qo‘shrobotga qaytib, Qorakissa qishlog‘ida bir xonali maktab ochgan.

Samarqand davlat muzey – qo‘riqxonasi bosh muhofizi Mahmudxon Yunusovning ta‘kidlashicha, baxshi bobomiz 1925-yilda Samarqandga kelgan. 1926-1928-yillarda Bulung‘ur tumani Qirqshodi qishlog‘ida Po‘lkan shoir, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li bilan birgalikda yod bilgan dostonlarini yozdirish bilan shug‘ullangan. 1936-yilda Toshkentga borib, 1937-yil oxirigacha folklorshunos olim Hodi Zaripov uyida yashagan. 1937-yil aprel oxirlarida qishlog‘iga qaytgan va vafot etgan.

Shoir hayoti davomida "Kuntug‘mish", "Yakka Ahmad", "Alibek bilan Bolibek", "Dalli", "Ravshan", "Qunduz bilan Yulduz", "Xushkeldi", "Xoldorxon", "Qiz Jibek", "Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi", "Hasanxon", "Avazxon", "Avazning Farangga safari", "Nurali", "Xiromon", "Alpomish", "Yusuf bilan Ahmad", "Tulumbiy", "Qironxon", "Qumri", "Oshiq G‘arib", "Vomiq bilan Uzro", "Varqa bilan Gulshoh", "Maxtumquli" kabi 30 ga yaqin dostonlarni, ko‘plab termalarni yod bilgan. Ergash Jumanbulbul hayoti va ijodi, dostonlari haqida 68 ta o‘zbek, 19 turdagi rus tilidagi adabiyotlar nashr etilgan. Rus adabiyotshunos olimi V.Popondopulo 1959-yilda shoirning yubileyi munosabati bilan “Rodnini narodnoy poezey” nomli asarini yozgan. Ushbu asar Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonasida saqlanmoqda.

Xalq baxshisi Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining ma‘naviy merosi olimlar tomonidan muayyan darajada o‘rganilgan va o‘rganilmoqda. Qo‘rg‘onlik fidoyi ustoz Oydin Sindorovning say harakati bilan baxshining uy–muzeyi shakllantirildi. Bu ezgu ishlar, tashabbuslar hukumatimiz tomonidan qo‘llab – quvvatlandi. 1978-yil muzeyning ochilish marosimida xalqimizning sevimli farzandi, atoqli davlat arbobi, o‘sha vaqtda respublikamizning birinchi rahbari Sharof Rashidov ishtirok etgan edi.

Mustaqillik yillarida muzeylarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Ayni paytda baxshichilik san‘atini rivojlantirish borasida dadil qadamlar tashlandi.

2019-yil 14-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Baxshichilik san‘atini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori e‘lon qilindi va sohani rivojlantirish yo‘llari belgilab berildi.

2018-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-sonli Qaroriga, asosan, eski muzey o‘rnida, yangi zamonaviy tipdagi muzey barpo etildi. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li maqbarasi, haykali va memorial muzeyi barpo etildi. 2020-yil 1-mart kuni Respublika va viloyat faollari ishtirokida muzeyning yangi binosi ochildi. Muzeyda to‘rtta ekspozitsiya zallari bo‘lib, baxshichilik san‘atiga oid eksponatlar joy olgan. [6]

Elni og‘ziga qaratgan, o‘tgan karvonni to‘xtatgan, yig‘loqi go‘daklarni uxlatgan, yurtning oldi baxshilar avlodidan bo‘lgan Ergash Jumanbulbul to‘g‘risida xalqimizning sevimli farzandi, iste‘dodli shoir Shodmonqul Salom jo‘shib yozadi: “Baxshilar millatning xulq – atvorini, o‘ylash, yashash tarzining o‘zida jamlagan o‘zlikning ayni o‘zidir. Ularning libosi, qo‘lidagi sozi, aytish, ifodalash tarzi – hamma hammasida milliylik ufurib turadi. Baxshilar tabiat bilan tillashib, Haqning sir – sinoatlariga iymon keltirib, ayni damda hissiyotini ko‘ngil saslariga jamlab, ilohiy amrlarni bilib–bilmay kuylab yuboradigan nodir kishilar. Baxshilar xalqning tilidir. Baxshining eng ulug‘ vazifasi millat farzandlarining oriyatini toblash, g‘ururini yuksaltirishdir. G‘ururi yuksalgan odamlar esa o‘z haqini taniydi, vatan oldidagi burchini yurakdan his etadi.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘li xalq dostonlarining barcha janrlaridan namunalar bilgan, Dostonlarning g‘oyaviyligi, xalqchilligi, badiiy go‘zalligi uchun kurashgan”.[7]

Botirlari qo‘riqlagan, baxshilari ulug‘lagan elning ko‘ksi ko‘tarilgan, o‘zi bilan faxrlanishni o‘rgangan.

Baxshi bobomiz kuylagan dostonlar, termalardagi insonparvarlik, xalqchilik, insoniy fazilatlar, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, ahillik, inoqlik, bag‘rikenglik kabi sifatlar bugungi kunda barkamol avlod tarbiyasida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu jarayon bevosita, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari uchun ham taalluqlidir.

**Xulosa.** Baxshichilik san‘ati asosida talabalarda tolerantlikni, ma‘naviy – axloqiy sifatlarni takomillashtirish uchun quyidagilarga e‘tiborni qaratish lozim:

- talaba – yoshlarda tolerantlikni rivojlantirishda baxshichilik san‘atini o‘rnini o‘rganish;
- “O‘zbek xalq musiqa ijodiyoti” o‘quv fanining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish;
- Xalq baxshilari, jumladan, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li tomonidan ijro etilgan doston va termalarni notaga solish;
- barcha baxshilar, shu jumladan, Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining yodgorlik muzeyiga sayohatlar tashkil etish;
- folklorshunos olimlar va xalq baxshilari bilan talaba – yoshlarning uchrashuvlarini tashkil qilish;
- musiqa fakultetida “Yosh baxshilar” to‘garagi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va iqtidorli talabalarni jalb qilish;
- baxshichilik san‘atiga bag‘ishlangan xalqaro festivallarning materiallaridan amaliyotda foydalanish;
- baxshichilik yo‘nalishiga ixtisoslashgan musiqa maktablari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish kabi vazifalar tizimli ravishda amalga oshirilsa, davlatimiz rahbari va Vazirlar Mahkamasining baxshichilik san‘atini rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlarining ijrosi ta‘minlangan bo‘ladi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020-yil, 29-dekabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 14-maydagi PQ-4320- sonli “Baxshichilik san‘atini yanada rivojlantirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 1-noyabrdagi PQ- - sonli “Xalqaro baxshichilik san‘ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 371-sonli “Buyuk ipak yo‘li Xalqaro folklor musiqa festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarori
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000ga yaqin so‘z va so‘z birikmasi. J.I.A-D/ Ma’sul muharrir A. Madvaliyev- T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashriyoti, 2020, 680 bet.
6. Katalog Buyuk ipak yo‘li tadqiqotlar turkumidan Ergash Jumanbulbul o‘g‘li yodgorlik muzeyi “Fan ziyosi”, T.: 2023, 75bet
7. Shodmonqul Salom Qo‘rg‘ondan uchgan bulbul / Ma‘rifat, 2018- yil, 6-oktabr, №=80 (9145)

## MILLIY PSIXOLOGIK QIYOFA QURILMASIDA MENTALITET

*Atadjanov Mamirjon Yusupovich,*

*Fargona davlat universiti*

*Psixologiya kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi*

*mamurjon9697@mail.ru*

*O'zbeklar milliy psixologik qiyofasini o'rganishda o'zbek etnosiga, uning a'zolariga xos bo'lgan intellektual, hissiy va madaniy xususiyatlar, qadriyat yo'nalishlari va me'yorlari majmuasidan iborat mentalitet alohida o'rin tutadi. Bu tushuncha insonning dunyoqarashi, baholari, qadriyatlari, xulq-atvor me'yorlari, axloqiy ko'rsatmalari, tafakkuri, diniy qarashlari va muayyan ijtimoiy guruhga xos bo'lgan boshqa jihatlarni o'zida mujassam etadi. Mentalitet xususiyatlari, eng avvalo, shu millat vakillari, mutafakkirlari tomonidan yaratilgan g'oyalar timsolida yaqqol namoyon bo'ladi.*

**Kalit so'zlar:** *intellektual, hissiy va madaniy xususiyatlar, qadriyat yo'nalishlari va me'yorlari majmuasi, dunyoqarash, baholar, qadriyatlar, xulq-atvor me'yorlari, axloqiy ko'rsatmalar, tafakkur, diniy qarashlar, g'oyalar.*

## МЕНТАЛИТЕТ В СТРУКТУРЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗА

*В изучении национального психологического облика узбеков особое место занимает менталитет, состоящий из комплекса интеллектуальных, эмоциональных и культурных характеристик, ценностных ориентаций и норм, свойственных узбекскому этносу. Это понятие включает в себя мировоззрение человека, взгляды, оценки, ценности, нормы поведения, нравственные ценности, мышление, религиозные взгляды и другие аспекты, характерные для той или иной социальной группы. Особенности менталитета прежде всего ярко проявляются в форме идей, созданных представителями и мыслителями этого народа.*

**Ключевые слова:** *интеллектуальные, эмоциональные и культурные характеристики, комплекс ценностных ориентиров и норм, мировоззрение, взгляды, оценки, ценности, нормы поведения, нравственные установки, мышление.*

## MENTALITY IN THE STRUCTURE OF THE NATIONAL PSYCHOLOGICAL IMAGE

*In the study of the national psychological appearance of Uzbeks, a special place is occupied by a mentality consisting of a complex of intellectual, emotional and cultural characteristics, value orientations and norms peculiar to the Uzbek ethnic group and its representatives. This concept includes a person's worldview, views, assessments, values, norms of behavior, moral guidelines, thinking, religious views and other aspects characteristic of a particular social group. The peculiarities of the mentality are first of all clearly manifested in the form of ideas created by representatives and thinkers of this people.*

**Keywords:** *intellectual, emotional and cultural characteristics, a set of value orientations and norms, worldview, views, assessments, values, norms of behavior, moral attitudes, thinking, religious views, representations.*

**Kirish.** Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarning o'lmas asarlari jahon fanini boyitdi. Mutasavvufilar: Xoja Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulholiq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, muhaddislar: Imom Buxoriy, Imom Termizilarning ta'limotida aks etgan komil inson g'oyalari, adolat haqidagi qarashlar jamiyatning sog'lom ma'naviy-axloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qildi. Bu g'oyalar Vatan va xalq manfaati yo'lida fidoyilik va insonparvarlikni ulug'ladi. Ular milliy-ma'naviy qadriyatlar sifatida xalqimiz madaniyati, adabiyoti va san'atida, jumladan, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedillar ijodida chuqur o'rin egalladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Bu g'oyalar o'zbek davlatchiligining rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizom-ul-mulkning «Siyosatnoma» kitoblarida davlat idorasi va ahli fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh g'oya sifatida ilgari surildi. Bu g'oyalar Temuriylar davlati g'oyaviy tamoyillarining ustuvor yo'nalishi edi.

XVII-XIX asrlarda umummilliy manfaatlar o'rniga tor va cheklangan, shaxsiy va sulolaviy manfaatlar ustun qo'yilishi, jamiyat hayotida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va ilm-ma'rifatni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmagani o'zbek davlatchiligining tanazzulga yuz tutishiga, mustaqillikning qo'ldan berilishiga, Turkistonda mustamlakachilik tuzumi o'rnatilib, pirovardida milliy davlatchilikning yana bir bor tugatilishiga olib keldi. Shunga qaramasdan, chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan milliy g'oyalar tamomila yo'q bo'lib ketmadi. Aksincha, mustamlakachilik sharoitida ular milliy davlatchilikni tiklash, millat taraqqiyoti va istiqboli uchun kurash bayrog'i sifatida yana ilgari surila boshladi.

Bu intilishlar XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan chiqqan Ahmad Donishning ilg'or qarashlarida, XX asr boshida yuzaga kelgan Turkiston ma'rifatparvarlik harakatining taraqqiyparvar namoyandalari – Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Ma'rifatparvarlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar.

Sharqda jamiyat rivoji va bunyodkorlik g'oyalari xususida Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos o'rin tutadi. «Al-muallim as-Soniy» («Ikkinchi muallim»), "Sharq Aristoteli" deb nom olgan Abu Nasr Forobiy (873-990yy.) o'zining «Fozil odamlar shahri», «Fuqarolik siyosati», «Baxt saodatga erishuv haqida» kabi asarlarida oliyjanob( insonga nisbatan)jamiyat, adolatli tuzum haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchil ta'limot yaratdi. U har tomonlama yetuk, barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi ideal jamoa haqidagi g'oyalarni olg'a surdi.

O'sha davrning buyuk mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning bu boradagi qarashlari ham o'ziga xosdir. Ular har bir narsani kuzatish va tajriba asosida o'rganishga, keyin xulosa chiqarishga intilganlar, barcha bunyodkorlik insonning mehnatiga bog'liqligini ta'kidlaganlar. Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy esa o'z asarlari bilan jamiyat taraqqiyotining zamonasiga xos fazilatlarini yoritishga harakat qilgan. U g'azal va dostonlarida razolatga, beqarorlikka, urush-janjallarga, ma'rifatsizlikka qarshi kurash g'oyalarini ulug'laydi. Insonlarni mehnatga, yaratuvchilikka, adolatga chaqiradi. Ma'rifatga asoslangan jamiyat yaratishni orzu qiladi. Uning bu orzulari «Farhod va Shirin», «Saddi Iskandariy» kabi dostonlarida o'z ifodasini topgan.

Xitoy va hind mutafakkirlarining jamiyat rivoji haqidagi qarashlari va bunyodkorlik g'oyalari ham Osiyoning «sharqona» ma'naviyatida o'ziga xos o'rin tutadi. Jumladan, buyuk Xitoy mutafakkiri Konfutsiy (mil. avv. 551-479) g'oyalari hanuzgacha Xitoy xalqi mafkurasida yetakchilik qilib kelmoqda. Bu g'oyaning asosi jamiyatni har qanday ijtimoiy larzalardan asrab qolish va insonlar manfaatini yuqori qo'yishga qaratilgan. Allomaning maqsadi xalqni mavjud tartib-qoidalarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash bo'lgan. Bu g'oyaga ko'ra, insonlar jamiyatning tabiiy taraqqiyotiga qarshi chiqmasligi, ya'ni inqilobiy yo'lni tanlamasligi kerak. Konfutsiy insoniyat haqida fikr yuritar ekan, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqei orqali emas, balki odamiylik, adolatparvarlik, haqg'o'ylik, samimiyat, farzandlik izzat-hurmati kabi yuksak ma'naviy fazilatlariga erishishi tufayli kamolotga yetishuvi mumkin, deb hisoblaydi. Bunday «sharqona demokratiya»ning tamoyillarini o'zida aks ettirgan g'oyalar butun-butun davlatlarning uzoq yillar davomida barqaror yashab qolishiga sabab bo'lgani, Sharq xalqlarining tarixiy, ijtimoiy, siyosiy taraqqiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatgani, shubhasiz.

Jamiyat va fuqarolar haqidagi qarashlar tizimida Amir Temur shaxsi va uning tarix oldidagi xizmati alohida o'rin tutadi.

Birinchidan, u mamlakatda kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berib, el-yurtni o'z tug'i ostiga birlashtirdi.

Ikkinchidan, Amir Temur bir qator xalqlarga va yurtlarga mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lishida yordam berdi.

Uchinchidan, Turkiston zaminini hunarmandchilik, ilm - fan va madaniyati rivojlangan eng ilg'or mamlakatga aylantirdi.

Obod etilgan shaharlar, qishloqlar, Shahrisabz, Buxoro, Yassi (Turkiston) shaharlarida qad ko'targan imoratlar «Temur va Temuriylar davlati», «Temuriylar davri madaniyati», «Ulug'bek va Samarqand», «Observatoriya maktabi» kabi ulug' tushunchalarning dunyoga kelishi va dunyo xalqlari tarixiga oltin harflar bilan yozilishi ham Amir Temur nomi bilan bog'langan. Amir Temur odob-axloq, imon, e'tiqod, ta'lim-tarbiyada o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun bobokalonimizning o'zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid o'git va dasturlarini, pand-nasihatlarini, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoya. Amir Temur o'zining o'n bir sifatiga amal qilgan. Bu sifatlarini sohibqiron shunday tasvirlaydi:

Birinchi sifat: «Men sifatlarimning eng avvalgisi, deb beg'arazlikni tushundim. Hammaga ham bir xil: jiddiy va odilona qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdim, boyni kambag'aldan ustun qo'yamadim».



Ikkinchi sifat: «Men har doim islomga qat'iy rioya qildim va Oллоh Taoloning amri bilan ulug'langan shaxslarga hurmat bilan qaradim».

Uchinchi sifat: «Men kambag'alga ko'p hayri-ehson qildim. Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va mumkin qadar to'g'ri hal qilishga butun vaqtimni sarf qildim».

To'rtinchi sifat: Xaloyiqqa rahm qildim, birovga nohaq ozor yetkazmadim, mendan yordam so'rab kelganlarni ko'krigidan itarmadim.».

Beshinchi sifat: «Islomga taalluqli ishlarni men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustun qo'yib keldim. Avval Tangri itoatini ado etib bo'lgandan keyin kundalik ishlarga qo'l urdim».

Oltinchi sifat: «Barcha so'zlarimda doim haqiqatgoylikka amal qildim. Bu dunyo va u dunyo bilan bog'liq eshitganlarimdagi haqiqatni yolg'ondan ajrata bildim».

Yettinchi sifat: «Men har kimgaki va'da bersam, unga vafo qildim. Hargiz va'daga xilof ish qilmadim. Men doim va'dalarimni aniq bajarsam, shundagina odil bo'lishimni va kimsaga jabr yetkazmasligimni angladim».

Sakkizinchi sifat: «Doimo o'zimni Oллоhning yerdagi mulkining posboni deb bildim va parvardigorning yoki uning noiblarining izniz uni sarf etmadim. Tangrining irodasisiz uning -bandalarining hech biriga zarar yetkazmadim. Oliy martabadagilarga ham, fuqaroga ham birdek xayriya qilishga intildim. Men hech qachon birovning mulkiga ega bo'lishga intilmadim. Hech qachon birovga hasad bilan qaramadim».

To'qqizinchi sifat: «Men har doim Tangrimning amrini va uning payg'ambarlarining hadislarini to'la ado etishga intildim. Barcha qilmishlarimda shariat yo'sinlariga butkul amal qildim. Nopok ishlardan butun vujudim bilan o'zimni tiydim. Payg'ambar va uning sahobalarini o'zimning yagona va eng yaxshi do'stlarim deb bildim».

O'ninchi sifat: «Men har doim insof bayrog'ini baland ko'tardim va iymon tarqatishni o'z buyukligimning qudratli zamini, deb bildim. Men inson bir onadan tug'ilgan, deb ishonganman. Shuning uchun mustahkam poydevorga tayangan qudrat buyuk bo'ladi». O'n birinchi sifat: «Men doim sayidlarga ehtirom bilan qaradim, ulamo, shayxlarni e'zozladim. Bu kishilarni doimo majlislariga chaqirardim. Ularning din masalasi yuzasidan aytganlarini diqqat bilan tinglab olardim va unga amal qilardim. Shuning uchun menga nisbatan xalqning mehri baland edi va hamma mendan minnatdor edi».

**Muhokama.** «Piru komil shayx Bahoviddin Naqshbandning «Kam yegin, kam uxla, kam gapir» degan pand-u nasihatlariga amal qildim. Arkon-u davlatga, barcha mulozimlarga ham aytar so'zim shu bo'ldi: Kam yenglar – ocharchilik ko'rmasdan boy-badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar – mukammallikka erishasizlar, kam gapiringlar – dono bo'lasizlar».

«O'g'illarim, nabiralaring va yaqinlarimni - deb yozadi Sohibqiron, uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishini davlat yumushlari bilan teng ko'rdim».

Amir Temur o'g'itlari kelajak avlodning tarbiyasi, odob - axloqi, Vatanga bo'lgan e'tiqodini chuqurlashtirishga, ularning barkamolligiga katta ta'sir ko'rsatishi muqarrar.

Abu Nasr Forobiy - "Sharq Aristoteli"ning ilmiy ta'limoti faqat Sharqninggina emas, o'rta asr Yevropasini ham yunon ilmi bilan tanishtirishda katta ahamiyat kasb etdi, Forobiy o'rta asr fanining barcha muhim sohaları: meditsina, matematika, astronomiya, filologiya, musiqashunoslik, logika, harbiy hunar, axloqshunoslik, davlatshunoslik va ayniqsa, falsafa bo'yicha 160 dan ortiq asar yozib qoldirdi.

Forobiy butun insonlarni o'zaro hamkorlikka chaqiradi, dunyoda yagona bir butun inson jamoasini tuzish haqida orzu qiladi. Uning fikricha, davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir – bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritiladi. Forobiy davlatni boshqarishning har tomonlama yetuk shaxs, yetuk xislatlarga ega bo'lgan bir necha shaxslar va demokratiya yordamida boshqarish shakllarini qayd qiladi. Forobiy har tomonlama yetuk, barcha aholini, ilm-ma'rifatga olib boruvchi ideal jamoa haqidagi g'oyani olg'a suradi. Forobiyning ideal jamoa, umumiy baxt-saodat haqidagi fikrlari gumanizmning rivoji uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Forobiy o'rta asr Sharqida ilg'or ijtimoiy falsafiy fikrlarning rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi, ayrim asarlari XII asrdayoq lotin tiliga, so'ng Yevropa tillariga tarjima qilindi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) – jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan mashhur ensiklopedist olim, tabiatshunos, faylasuf, astronom, matematik, musiqashunos, huquqshunos, axloqshunos, filolog, yozuvchi va shoir, O'rta Osiyo xalqlari madaniyatini o'rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlardan biri. Yevropada "Avitsenna" nomi bilan mashhur Ibn Sino jahon fani taraqqiyoti tarixida muhim rol o'ynagan.

Tarixiy psixologik tadqiqotlarning guvohlik berishicha, Ibn Sinoda ikkita: tabiiy-ilmiy (tibbiy) va metafizik (falsafiy) psixologiya mavjud. Ibn Sino o'z falsafiy va tabiiy-ilmiy ta'limotini shakllantirishda o'zidan oldingi ilmiy merosdan ko'ra ko'proq tajribaga, amaliyotga, Sharq tabobatining real yutuqlariga tayandi.

Ibn Sino turli yosh davrlarida organizmning jismoniy taraqqiyoti bilan uning psixologik xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan. U aynan tarbiya vositasida organizm qurilmasiga psixik ta'sir ko'rsatiladi, deb hisoblagan. Odamlar bolada u yoki bu affektlarni hosil qilib uning psixologik qiyofasini shakllantirishadi.

Ibn Sino fiziologik psixologiyasining asosiy mazmuni shundan iboratki, organizmdagi jarayonlarni uning hissiy, affektiv hayotiga ta'sir ko'rsatish orqali boshqarish, uni jismonan shakllantirish mumkin. Psixik va fiziologik omillarning o'zaro bog'liqligi, ya'ni psixikaning vujud holatiga bog'liqligi va aksincha affekt, psixik jarohat tasavvur kuchi bilan organizmga ta'sir ko'rsata olish qobiliyati Ibn Sino tomonidan tibbiy tajribada isbotlangan. Masalan: u ikkita qo'yni bir xil ovqat bilan boqib, birining ro'parasiga bo'rini bog'lab qo'yadi. Biri semiradi, lekin bo'rining ro'parasida turgani ozib, halok bo'ladi. Bu tajriba qarama-qarshi emotsional ustanovkalar chuqur somatik siljishlarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu tajriba aslida emotsional holatlar eksperimental psixofiziologiyasiga taalluqli dastlabki tajribalardan hisoblanadi.

Ibn Sino emanatsiya nazariyasini talqin qilib, quyidagicha bayon qiladi. Xudo – absolyut birlik, nuqta, nuqtaning esa tomonlari yo'q, demak, xudo faqat bitta narsani yarata olishi mumkin. "Birlikdan faqat birlik paydo bo'lishi mumkin". Ana shu yaratilgan birlik umumdunyoviy aql hisoblanadi. Bu birinchi aql. Umumdunyoviy aqlni xudo zarurat tufayli, tanilishni xohlaganligi uchun yaratgan.

**Xulosa.** Umumdunyoviy aqlning uchta tomoni bor. Bitta tomoni xudoning o'ziga qaratilib, uning o'zini anglaydi, chunki umumdunyoviy aql xudoning o'zi haqidagi bilimdir. Ikkinchi tomoni, ikkinchi aql va uning sohasini (sferasini) yaratadi. Uchinchi tomoni ana shu sohaning ruhini, ya'ni uning ijodiy mohiyatini yaratadi.

Ibn Sinoning mashhur aks ettirish nazariyasi, ya'ni olamning inson hissiyotlari, aqli va ruhida aks ettirilishi haqidagi nazariya haqiqatda olamni inson tomonidan bilish mumkinligi haqidagi nazariya hisoblanadi.

G'azzoliy(450/1058-59-505/1111) teolog, qonunshunos, faylasuf, so'fiy – o'rta asrning eng mashhur mutafakkirlaridan biri edi. U o'z hayoti davomida 100ga yaqin asarlar yozgan. G'azzoliy arab-musulmon madaniyatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

G'azzoliy asarlari orasida uning to'rt tomlik "Din haqidagi fanning vujudga kelishi"(Ixya ulum al-din) asari alohida o'rin tutadi. Asarda etika muammolariga katta ahamiyat berilgan. U odamning axloqini ichki fanga (bu odamning ruhi, joni va yuragining harakati bilan bog'liq) va tashqi axloq faniga (bu odamning jismoniy harakati bilan bog'liq) ajratadi. G'azzoliyning etik nazariyasi insonning tug'ma xususiyatlari g'oyasi bilan bog'langan.

G'azzoliy ta'limoti o'rta asr musulmon mutafakkirlari: Al-Forobiy, Ibn Sinolarning qarashlari elementlarini o'zida mujassamlashtirgan. Shuningdek, uning ta'limotida Platon va Aristotelning qarashlari, elementlari va boshqa antik dunyo, Sharq falsafiy fikrining elementlari bor.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild.– Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 B;
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 5-jild. – Toshkent. O'zbekiston, 2020. – 456 B.
3. Абу Али ибн Сина. Книга спасения // В кн. Антология мировой философии.М., 1969.стр. 730-744.
4. Абу Али ибн Сина. Даниш-наме. Сталинабад. 1957 г.
5. Абу Наср Мухаммед ибн-Мухаммед Фараби. Существо вопросов// В кн. Антология мировой философии. М., 1969.стр. 755-764.
6. Абу Хамид Мухаммед Газзали. Избавляющий от заблуждения. В кн.: Антология мировой философии.М., 1969.стр. 717-729.
7. Amir Temur o'g'itlari. Toshkent. Navro'z. 1992.
8. Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане / Под ред. И.М. Муминова,М.М.Хайруллаева Т.1-2.1976 г. 588 с.
9. Хайруллаев М. Forobiy ruhiy protsesslar va ta'lim tarbiya to'g'risida.Т., 1967. 176 s.

## HADISLARDA TARBIYA MASALASINING PSIXOLOGIK TAHLILI

*Qodirova Aziza Bekmurodovna,*

*Termiz davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasida dotsenti,  
psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)*

*Iymonning qarorgohi qalb, ilm deyilishi iymonning alomatlari, nafsning yaxshiligi ne’matlardandir. Aql uning dalilidir, uni yaxshi ishlarga dalolat qiladi. Qo’pollik va qalb qattiqligi, latofat va yumshoq qalblikdir. Ulfatchilik uch narsa bilan bo’ladi. Nafsda huzurlanish istagi bordir. Ko’ksda esa yoqtirmaslik bordir. Maqolada ana shunday tarbiyaviy mulohazalar tahlilga tortilgan.*

**Kalit so’zlar:** qalb, imon, nur, nafs, aql, yaxshilik, yomonlik, do’sst, sodiqlik, vafo, fikr, jazo, tafakkur, xulosa, tahlil, hukm, tushuncha, ne’mat, yorug’lik, tasavvur, qadriyatlar, tarbiya.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ ВОСПИТАНИЯ В ХАДИСАХ

*Обитель веры — сердце, знание — признак веры, а доброта души — одно из благ. Ум — его свидетельство, он — признак добрых дел. Грубость и жестокосердие, доброта и мягкость. Есть три вещи, которыми можно гордиться. Появляется желание предаться похоти. И в груди нелюбовь. Такие воспитательные соображения анализируются в статье.*

**Ключевые слова:** сердце, вера, свет, душа, разум, добро, зло, наркотик, верность, преданность, мнение, указание, мышление, вывод, анализ, суждение, понимание, благо, свет, воображение, ценности, воспитание.

## PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE ISSUE OF EDUCATION IN HADITHS

*The abode of faith is the heart, knowledge is a sign of faith, and the goodness of the soul is one of the blessings. The mind is its proof, it is a sign of good deeds. Rudeness and hardness of heart, kindness and gentleness. Loyalty is three things. There is a desire to indulge in lust. And there is dislike in the chest. Lusts may have the nature of loving the one who respects himself.*

**Keywords:** heart, faith, light, soul, mind, good, evil, friend, loyalty, opinion, punishment, thinking, conclusion, analysis, judgment, understanding, blessing, imagination, values, upbringing.

**Kirish.** Iymonning qarorgohi qalbdadir. Uning nuri ko’ksda porlaydir. Qachon ishlar ishlar bo’yicha fikr paydo bo’lsa, barcha narsaning hay’atini tasavvur qiladi. Bas, yaxshilikni porloqligi va go’zaligini ko’radi. Yomonlikni xunukligi va ko’rimsizlikda ko’radi. Uni ilm deyilishi iymonning alomatlari bo’lgani uchundir. Batahqiq, u qalbning ichidagi narsani ko’ksda yuzaga chiqaradi. U egasining xalilidir. Chunki o’sha uni iymonga qo’shgandir. Ilm yuzaga chiqqanda, u hidoyatlanadi va o’zi iymon keltirgan Zotga Uning amrini ado etish uchun, qaytarganlaridan qaytish moyil bo’ldi.

Boyning sabri kambag’alning sabridan qiyindir. Xuddi qo’yib yuborilgan sherga qarshi kurashmog’ing bog’lab qo’yilgan sherga qarshi kurashmog’ingdan ko’ra qiyin bo’lgani kabidir.

*Mavzuning dolzarbligi* bizning milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, hadislarimiz, ma’naviy-axloqiy, ma’rifiy-tarbiyaviy qarashlarimiz shakllanishida uzoq yillik boy va bebaho ajdodlarimiz merosi, tajribamiz, ilmiy asosimiz yetarlicha o’rganilmagan.

III Sharq allomalarinig hayoti va faoliyati aks etgan davr tarixi va ilk islom davriga oid manbalar, islom dini rivojiga o’z faoliyatlari, yozgan asarlari bilan xizmat qilgan shaxslarning ijtimoiy, pedagogik va psixologik qarashlari, islom dinida nomlari bilan tanilgan insonlar faoliyatini o’rganishga qaratilgan manbalar mahalliy olimlardan Mirzo Kenjabek[6], B.M.Murtazaev[1], Q.B.Qodirov[4], U.M.Uvatov[2], I.S.Usmanov[3], Z.U.Choriev[1], tomonidan tadqiq etilgan.

*Maqolaning ilmiy yangiligi* shundan iboratki, mustaqillik va ta’lim islohoti natijasida barkamol avlod tarbiyasining tarkibiy qismidan mustahkam o’rin olgan ma’naviy-axloqiy tarbiya chuqur bilim, mustaqil fikrlovchi, o’z kuchi va imkoniyatlariga tayanib, yoshlarni shakllantirishda allomalar merosi va hadislardan foydalanish.

*Tadqiqotning maqsadi* shaxslarni voyaga yetkazishi uchun ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning tizimini yaratish uchun allomalar merosi va hadislardan bo’yicha taklif va tavsiya ishlab chiqishdan iborat.

*Tadqiqotning obyekti* sifatida allomalar asarlaridagi ma’naviy –axloqiy fikrlaridan ta’lim jarayonida foydalanish.

Tadqiqotda tizimlilik, qiyosiy-mantiqiy tahlildan foydalanildi.

*Tadqiqotning empirik manbaini* kuzatish metodlari natijalari tashkil etdi.

**Asosiy qism.** Nafsning yaxshiligi ne'matlardan deyilishi esa, batahqiq, u qalbdagi ruhning yaqynidan ekanini zikr qildik. U vorid bo'lgan (g'aybdan kelgan) nur bo'lib, ko'ksda porlagan va qalbni hamda nafsni zulmatdan va torlikdan rohatlantirgandir. Zotan, nafs o'z shahvatlari ila zulmatdadir. Qalbni esa o'sha zulmatlar o'rab olgandir. Chaqirilgan joyga zulmatda yurib boruvchining yurishi qiyin bo'ladi. Yo'lda uchraydigan xavf-xatar va jarliklardan qo'rqib ko'ksi siqiladi. Qachon unga subh ziyosini sochib, qorong'ilik yorilsa va yo'l ravshanlashsa, qo'rquv yo'qoladi. Islom shariatida qalbi bilan Alloh taolo tomon yuruvchining holi ham xuddi shunga o'xshamaydi. Qachon qalbi shahvatlari va havosi zulmatlarida bo'lsa, u ushbu sifatda bo'ladi. Qachon ko'ksida yaqyn nuri porlasa, qalbi rohatlanadi. Ushbu hilm sifatidir. Bas, u mo'minning vaziridir. Unga Alloh taoloning amri bo'yicha yordam beradi. Qachon hilm bo'lmasa, nafs siqiladi va qalb vazirsiz yolg'iz qoladi.[: 120-123]

Aql uning dalilidir. Uni yaxshi ishlarga dalolat qiladidir. Unga o'sha ishlarning aldovini ko'rsatadi. Ularning yaxshilariga hidoyat qiladi va yomonliklaridan qaytaradi.

Xabarlarida rivoyat qilinishicha: Alloh taolo: «Ey Muso, albatta, odamlarga aqlariga qarab savob va jazo beraman», degan.

Amal qadr-qiymatdir. Qadr-qiymatning xususiyati senga ahamiyati ishlaringda yetarli yordam berishdir.

Mehr xuddi ishlarning chegarasi kabidir. U bilan ishlar yurishadi. U bilan ular bir-biriga bog'lanadi. U bilan tarqalib ketganlar jamlanadi va nafratlashganlar ulfat bo'ladi va ajraganlar o'z o'rniga qaytadi. U mo'minning ahvolini yaxshilik bilan o'raydi va unga turli yaxshiliklar va toatlarni jamlaydi.

Yumshoqlik uning birodaridir. Birodar kishining xalq qilinganlardan bo'lgan ... va suyanchidir. Qachon charchasa, dam olish manbasidir va horisa unga suyanadi va rohatlanadi. Yumshoqlik ham shunga o'xshaydi. U mo'minning rohatlanish manbasidir. Nafsi tinchlanadi. Qalbi xotirjam bo'ladi. A'zolari rohat oladi. Uning tezligi, shiddatli va g'azabi badaniga charchoqdir, nafsiga azobdir va qalbiga horishdir. Uning qalbi faqatgina nafsining tinchlanishi bilangina yumshaydi. Nafsi esa faqatgina shahvatlarining o'lishi bilangina tinchlanadi. Nafsining shahvatlari faqatgina uning qalbi Alloh taoloning jaloli va azamatidan bo'lgan yaqynning nuri ila sabrlangandagina o'ladi va yumshoqlikda xuddi moyga o'xshab qoladi. Kimning qalbi qo'pollashsa, qattiq va shiddatli bo'lsa, qasovatdan o'ladi. Qalbning qasovati esa faqatgina Alloh taolodan g'ofillikdan bo'ladi. Qalb faqatgina Alloh taoloning zikri bilan ho'l bo'lgandagina yumshaydi. Lug'atda a'sa, a'ta va qaso so'zlarining ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lib, quridi, zid bo'ldi kabi ma'nolarini anglatadi.[:124-125]

Alloh taolo aytadi: «**Allohning rahmati ila ularga muloyim bo'lding. Agar qo'pol, qalbi qattiq bo'lganingda, atrofingdan tarqab ketar edilar**».

**Empirik o'rganish natijalari.** Qo'pollik va qalb qattiqligi jamlanganni tarqatadi va ulfat bo'lganni tirqiratadi. Latofat va yumshoq qalbliq tarqalganni jamlaydi va tirqiraganni ulfat qiladi. Albatta, qalb nur tufayli latofatli va yumshoq bo'ladi. Buning sababi rahmatdir. Uning qattiq va qo'pol bo'lishi esa, shahvatlarning harorati, g'izo va qonning quvvatidandir. Rasululloh sollallahu alayhi vasallam to qabz qilingunlaricha hijomatda-qon oldirishda bardavom bo'lganlar. U zot sollallohu alayhi vasallam: «Qay bir farishtalar to'pi oldidan o'tsam, meni hijomatga – qon oldirishga buyurdilar»...

Bizning fikrimizga buning ma'nosi quyidagicha. Zotan, ular ummatlar ichida ahli yaqyn bo'lganlari uchundir. Qachon qalbdagi yaqyn nuri sho'la sochsa va u bilan birga qonning harorati bo'lsa, qalbgaga zarar va ta'bga yetadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sochlari oqarmagan bo'lsalar ham boshlarini xinalar edilar. U zotga vahiy kelganda boshlari og'rigani uchun xinalaganlar. Boshlarini xina bilan muolaja qilishlarining sababi boshlaridagi harorati yengillatish edi.

Sabr lashkarboshisidir. Sabr qalbning azmi qarorida sobit turishidir. Qachon amir sobit tursa, lashkar ham dushmanga qarshi urushda sobit turadi. Qachon nafs o'z shahvatlari ila kelib qalbdan g'olib chiqib a'zolarni qaytarilgan narsalarga ishlatsa, sabr ketadi. Bu esa azmu qarorning ketishidir. Shunda qalb nafsning asiri bo'lib qoladi. Nafs qalbni egallab oladi. Shunda aql, hilm, ilm, mehr, yumshoqlik va uning barcha lashkarlari yengiladilar. [:126-127]

Rasullulloh sollallohu alayhi vasallam:

«**Odam bolasi qariydi. Unda ikki narsa yosharadi; molga hirs va umrga hirs**» dedilar.

Hakim Termiziy dedi: hirs behuda shahvatdir. Shahvat esa tutunli olovdir. Qanchalik olovning yoqilg'isini ziyoda qilsang, yorug'ligi va alangasi ziyoda bo'ladi. Molning mol(moyil) deb nomlanishi qalbning Alloh taolodan boshqa tarafga moyil qilgani uchundir.

Umr badanning hayot bilan obod bo'lish muddatidir. U zotni molni u bilan jamiki shahvatlarga erilishishi uchun zikr qiladilar. Umrni esa uning davom etishi bilan barcha shahvatlar bardavom bo'lgani uchun zikr qiladilar.

Ushbu xabar biz zikr qilgan ma'noni kashf qiladi. Zotan, nafs shahvatlarning ma'danidir. U doimo yoshdir. Shahvat olov kabidir. Modomiki, o'tini bo'lsa, yonaveradi. Agar o'tinsiz qolsa, albatta, so'nadi. Nafs ham shunga o'xshaydi. U modomiki ne'matlanib tursa shahvatlari bilan doimo ho'l bo'lib turadi. Agar ulardan uzilib qolsa, so'lib quriydi. Qachon Alloh taolo qalbni taqvo ila sinasa, egasiga shahatlardan o'zini tiyishga quvvat beradi. Imtihon sirini chiqarishni talab qilishdir. Sir esa, uning qalbiga solgan nurdir. O'sha narsa uning qalbida qaror topsa, o'sha bilan uning ko'ksini nurafshon qiladi. Mazkur narsa uni oxiratning barcha yoqimsiz narsalaridan saqlovchi bo'ladi.

Nafslar yoshdir. Agarchi mol va umr bilan ne'matlanish davomida a'zolar qari bo'lsalar ham. Illo ushbu imtihondan o'tgan tabaqa bundan mustasnodir. Ularning nafslari yoshlik vaqtlarida qarigandir. Zotan, ularning shahvatlari qalblariga kirgan qo'rquvdan so'nib, zaiflashgandir. Ular malakut ilmi ila U Zotga qalb ko'zi bilan nazar solganlari va alloh taolo haqidagi ilmlari tufayli U Zotning asirlaridan biriga aylandilar. Qattiq sevilgan qattiq sevgisi borni asir qilib oladi.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning quyidagilarini aytganlarini eshitdim:

**«Qachon biringiz taomga chaqirilsa, borsin. Istasa, taomlanadi. Istasa, tark qiladi».**

Hakim Termiziy dedi: bu chaqirishdan ko'zlangan maqsad uns-ulfat bo'lish va do'stlik istagidir. Nafsdan huzurlanish istagi bordir. Ko'ksda esa yoqtirmaslik bordir. Nafslarda o'zini hurmatlaganga muhabbat qilish tabiati bordir. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ularni chaqiriqni qabul qilishga qiziqtirishlari birodarlari qilgan o'sha yaxshilik ila uns-ulfatliklari mustahkamlanishi va do'stlik rishtalari pishiq bo'lishi, ko'ksdagi xiraliklari ketishi uchundir.

G'illu g'ash va hiqdu hasadi bor odamning dini, birodariga nisbatan ichida saqlagan narsa uchun yomonlikdan salomat bo'lmaydi. Taomlantirish nafs uchun yaxshilik o'laroq hiqdning haroratini o'chiradi va g'illu g'ashni ketkazadi.

Ulfatchilik uch narsa bilan bo'ladi. Qachon o'shalar ta'kidlansa, tugal bo'ladi. Qalb birodarining qalbidagi imon bilan ulfat bo'ladi. Ruh uning toati bilan ulfat bo'ladi. Nafsning ishi shahvat va lazzatdir. Uning imon va toatga himmati yo'qdir. U o'ziga qilingan yaxshilik ila ulfat bo'ladi. Qachon unga yaxshilik qilinsa, musaffo bo'ladi va bo'ysinadi. Bo'lmasa yoqtirmay yuraveradi.

Birodari uni yaxshiligini qabul qilishga chaqirdi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uni birodaridan o'shani qabul qilishga qiziqtirdilar. Buni ikromi zoe bo'lmasligi, shayton yomonlikka vasvasa qilish uchun yo'l topmasligi uchun qilindi. So'ngra ixtiyor uning o'zida. Istasa taomlanadi. Istasa, tark qiladi. [:159-160]

«Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar:

**«Odamlardan yaxshilik kaliti va yomonlik qulfi bo'ladigan odamlar bor. Odamlardan yomonlik kaliti va yaxshilik qulfi bo'ladigan odamlar bor. Ikki qo'lga yaxshilik kalitlari berilganlarga jannat bo'lsin! Ikki qo'lga yomonlik kalitlari berilganlarga vayl bo'lsin!»**

Hakim Termiziy deydi: yaxshilik Allohning roziligidir. Yomonlik Allohning noroziligidir. Qachon Alloh bandadan rozi bo'lsa, U Zotning roziligining alomati uni yaxshilik kaliti qilib qo'yishidir. Agar u ko'rinsa, uning ko'rinishi bilan birga yaxshilik ko'riladi. Agar hozir bo'lsa, u bilan birga yaxshilik hozir bo'ladi. Agar zikr qilinsa, u bilan birga yaxshilik zikr qilinadi. Agar nutq qilsa, u bilan birga yaxshilik nutq qilinadi. Unda Alloh taolodan berilgan ochiq belgilar bo'lib, kim unga yo'liqsa, o'sha alomatlarni zikr qiladi. U yaxshilik ichida yaxshilik qilib yuradi. Yaxshilikni gapiradi. Yaxshilikni tafakkur qiladi. Yaxshilikni ichiga soladi. U qarda hozir bo'lsa ham yaxshilik kalitidir. U o'zi bilan aralashgan, yashagan va suhbatdosh bo'lgan har bir kimsa uchun yaxshilik sababidir.

Boshqasi bo'lsa, yomonlik ichida yomonlik qilib yuradi. Yomonlikni gapiradi. Yomonlikni tafakkur qiladi. Yomonlikni ichiga soladi. U qarda hozir bo'lsa ham yomonlik kalitidir. U o'zi bilan aralashgan, yashagan va suhbatdosh bo'lgan har bir kimsa uchun yomonlik sababidir. [:164]

«Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar:

**«Albatta mo'minlarning ruhlari bir kunlik masofadan muloqotda bo'ladi. Sohibini hech ko'rmagan bo'lsa ham»** dedilar.

Hakim Termiziy dedi: Ruhlarning ishi ajoyibdir. Ular yengildir, samoviydir. Qachon nafs o'zining shahvatlari zulmati ila uni qamrab olsagina og'irlashadi. Qachon nafsga riyozat chektirilsa va ruh undan xalos bo'lsa, xiraligidan musaffo bo'ladi va yengilligiga va pokligiga qaytadi va ahamiyatli bo'ladi. Bunga faqatgina qalbi Alloh ila xotirjam bo'lgan mo'minlarga imon keltiradilar.

Hakim Termiziy deydi: Sabr uch xildir:

Birinchisi muvahhidlarning sabri. U ularning Robbilardan norozi bo'lmagan va U Zotga javr qilmasdan iymonlari taqozosi ila sabr qilmoqlari va U Zot bunda adolatli ekanini e'tirof qilmoqlaridir. So'ngra mazkur musibatning kuyishida a'zolarini ma'siyatlaridan saqlarlar. Ana o'sha zolimlarning sabridir.

Ikkinchisi tejamkorlarning sabri bo'lib, ular qalb va a'zolari ila Robbilaridan rozi bo'lib, ularga yetgan narsa sababli, a'zolarini mas'iyatdan saqlarlar. Ammo nafsda siqilish, achinish va qiyinchilik bordir. Bundan ortig'iga molik emaslar. Bu nafs o'z shumligi ila jamolini ketkazsa sabrdir.

Uchinchisi muqarrablarning sabridir. Bunda ularning qalblaridagi Alloh taoloning qurbatidan topilgan halovat va lazzat sababli, musibatning qiyinchiligi o'ziga yo'l topa olmaydi. Chunki ularning qalblariga to'lgan nur ko'kslarida sho'ralanganda nafsning shahvatlarini va nozu umidlarini yondirib yuboradi va ko'ks qalbning nuridan nur oladi. Shunda Alloh uning ko'ksini Islom ila kengaytiradi. Bas, nafsda g'il, torlik, achchiq va qiyinchilik qolmaydi. Nafs uyqusidan uyg'onadi, o'z xohishidan chiqadi, mastligidan hushyor bo'ladi va Alloh taoloning xohishi uning uchun o'zining xohishidan ko'ra shirinroq bo'lib qoladi. Achchiqning o'rmini shirin oladi, qiyinchilik evaziga osonlik bo'ladi. U Zotning biror narsadagi xohishi g'ayb pardasidan chiqib oshkor bo'lsa, ularning qalblari U Zotning xohishiga ergashur. Ular o'zlarining Alloh nimani xohlasa o'sha bo'lur degan qavllarida sodiqdirlar.

Aralash-quralashlarning sabri ichiga jaza' to'lgan iymon sabridir. Tejamkorlarning sabri nafsning ranjishi bilan birga sabrdir. Muqarrablarning sabri qalbning va nafsning roziligidir. Chunki U Zot ularni O'z mehri va yumshoqligi ila narsalarning eng sharaflisiga erishtirmishdir. U ham bo'lsa, O'zining ma'rifatidir. [:291-292]

«Rasululloh sollallohu alayhi vasallam:

«**Qoqilmaguncha halim bo'lmas, tajriba ko'rmaguncha hakim bo'lmas**», dedilar».

Hakim Termiziy dedi: Halim qalbi daryo, ko'ksi xaloyiqning yomonliklarini va axloqsiz qilmishlarini sig'diradigan kishidir. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xaloyiqning iflosliklariga odamlarning eng sabrlisi edilar.

**Xulosalar.** 1. Istiqloq talablari asosida tarkib topayotgan milliy qadriyatlarimiz asosida o'quvchilarni voyaga yetkazish, ularni jahon andozalariga mos texnologiyalar asosida ta'lim berish bilan birga ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni ham taqozo etishi aniqlandi.

2. Jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotida ma'naviyatning ijobiy ta'sir etgani holda insonning barcha ijobiy sifatlarini, xulq-odobini, e'tiqodini, aql-zakovatini, mafkuraviy qarashlarini uzviy bog'lagan holda axloq bilan uyg'unlashadi va «ma'naviy-axloqiy tarbiya» tizimini tashkil etishi izohlandi.

3. Allomalar ilmiy merosi muhim tarbiya vositasiga aylanganligi hamda tarbiyaning g'oyaviyligi va maqsadga yo'naltirilganligi qonuniyatiga amal qilishi bilan shaxsni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga ta'sir etishi izohlandi.

#### Adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tarjimon: Rasul hadislaridagi nodir asllar (muxtasar) T.: «Hilol-Nashr» 2021. – 360b.
2. Asqolaniy, Ibn Hajar. Tahziyb at-tahziyb. Dehli, 1347 h.y.
3. Komilov N. Ma'naviy kamolot ilmi // “Islom nuri” gazetasi. 2005 yil, 17-18 (299).
4. Termiziy, Abu Iso. Sahihi Termiziy: Tanlangan hadislar /Arab tilidan tarj. va so'zboshi A.Abdulloniki: Mas'ul muharrir A.M.Musabek. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1993. – 208 b.
5. Qodirov Q.B. Imom Abu Iso Muhammad at-Termiziyning muhaddislik faoliyati va tarbiyaviy qarashlari: Ped. fan. nomz. diss... Toshkent, 2008. – 141 b.
6. Nishonova S. Sharq Uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Ped. fan. dokt. diss... Toshkent, 1998. – 202 b.
7. Мухаммад Юсуф Расул хадисларидаги нодир асллар (мухтасар) Т.: «Hilol-Nashr» 2021. – 360b.
8. Amonova Z. K. et al. Mansur hallaj and his ideas in ahmad yassavi's works //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 964-967.
9. Amonova Z. The influence of the ideas of the hurufism sect on Nasimi's work //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
10. Amonova Z. Formation of musammata (octaves) in the literary environment of bukhara (Based on the poems of samandar vahidov) //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 10. – №. 10.

## ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING O'Z-O'ZINI TARBIYALASH MAZMUNI

*Sadullayeva Zarnigor To'liqinjonovna,  
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

*Ushbu maqolada talabalarning o'z-o'zini tarbiyalash mazmuni, uning yo'nalishlari hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy takomillashuvini amalga oshirishda o'z-o'zini tarbiyalash muammosi to'g'risida so'z yuritiladi. Shuningdek, kasbiy-pedagogik takomillashuvning asosiy bosqichlari ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, o'z-o'zini anglash, diqqat, qobiliyat, kuzatish, subyekt, obyekt, shaxs, pedagogik faoliyat, kasbiy munosabat, takomillashtirish, pedagogik texnika.*

## СОДЕРЖАНИЕ САМОВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

*В данной статье рассматривается содержание самообразования студентов, его направления, а также проблема самовоспитания в осуществлении профессионального совершенствования будущих учителей. Также раскрыты основные этапы профессионально-педагогического совершенствования.*

***Ключевые слова:** образование, воспитание, самосознание, внимание, способность, наблюдение, субъект, объект, личность, педагогическая деятельность, профессиональное отношение, совершенствование, педагогический приём.*

## THE CONTENT OF STUDENTS' SELF-EDUCATION IN A MODERN EDUCATIONAL ENVIRONMENT

*This article discusses the content of self-education of students, its directions, and the problem of self-education in the implementation of professional improvement of future teachers. Also, the main stages of professional-pedagogical improvement are revealed.*

***Keywords:** education, bringing up, self-awareness, attention, ability, observation, subject, object, personality, pedagogical activity, professional attitude, improvement, pedagogical technique.*

**Kirish.** Ma'lumki, ta'lim–tarbiya deb atalgan murakkab jarayon subyektlaridan biri – bu talaba shaxsi hisoblanadi. Xo'sh, bugungi kun oliy ta'lim talabasi qanday bo'lishi kerak? Uning faoliyati maqsadi va vazifalari nimalardan iborat? Uning bilim saviyasi, salohiyati, mahorati va qobiliyatini o'stirish nimalarga bog'liq? Eng avvalo, talabalar bo'lajak o'qituvchi sifatida shuni chuqur anglashi lozimki, ular jamiyatning ishonchli vakili, talabalar kishilar jamiyatining elita qatlami. Zero, jamiyat unga o'zining eng qimmatli boyligi, umidi, ishonchi va kelajagi bo'lgan bolalarini topshiradi. Bu oliyjanob va murakkab kasb unga hayotini bag'ishlagan har bir kishidan doimiy ijod, izlanish, ulkan sahovatli qalb, bolalarga muhabbat, o'z kasbiga cheksiz sadoqatni talab etadi. Bunday mas'uliyatli vazifani faqatgina dialektik fikrlash qobiliyatiga, yorqin shaxsiy sifatlariga ega bo'lgan, o'z-o'zini uzluksiz rivojlantirish va tarbiyalashga tayyor bo'lgan bo'lajak o'qituvchi bajara oladi. Zero, o'qituvchi shaxsi pedagogik jarayon muvaffaqiyatining asosiy sharti va vositasidir.

**Asosiy qism.** Bo'lajak o'qituvchining shaxsiy sifatleri doim tayyor qilib qo'yilgan axborotlardan iborat emas, balki u jonli mushohada yurita olish, doimiy o'z-o'zini rivojlantira olish qobiliyati bilan belgilanadi. Har qanday o'qituvchi ham mahoratli o'qituvchi bo'la oladimi, degan savolga tajribali pedagoglarimiz shunday javob beradilar: “Ha! Lekin faqat o'z ustida tinimsiz ish olib borish sharti bilan”.

Taniqli rus pedagogi A.S.Makarenkoning shaxsi o'z ustida ishlab, pedagogik qobiliyatlarni takomillashtirishning yorqin namunasi bo'la oladi. U juda ko'p o'qigan, o'z mahoratini uzluksiz oshirib borgan, o'z xarakteri ustida ishlagan [1,28]. U o'z tajribasi va hamkasblari tajribasidan o'rganib, muhim xulosalar chiqara oldi, aktyorlardan dars oldi, o'z pedagogik texnikalarini rivojlantiridi. Albatta, tashqi tomondan mahorat turli pedagogik topshiriqlarni muvaffaqiyatli hal etishda, o'quv–tarbiya jarayonini yuqori saviyada tashkil etishda namoyon bo'ladi. Ammo uning mohiyati shunday faoliyatni yuzaga chiqaradigan va uning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan shaxsiy sifatlar va pedagogik qobiliyatlarga bog'liq. Zero, shunday sifatleri faqat ko'nikmalardangina emas, balki o'qituvchi uchun samarali va ijodiy faoliyat ko'rsatishga

yordam beradigan shaxsiy xususiyatlardan izlash lozim. Yuqoridagi sifatlarni shakllantirishning bosh omili bu- talabalik davrida shakllantirilgan o'zini-o'zi rivojlantira olish ko'nikmalari bilan bevosita bog'liqdir.

Talabalarning o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni bu o'z-o'zini kuzatish omili bilan bog'liq. Kuzatuvchanlik qobiliyati juda murakkab xususiyat. U faqat eshita olish va ko'ra olish bilangina belgilanmaydi. Kuzatuvchanlik qobiliyati bizning diqqatimiz qaratilgan narsaga nisbatan ortiq qiziqish, aqlning intensiv faoliyati va axborotlarni qayta ishlay olishida ham namoyon bo'ladi. Biz nimani ko'rishni xohlasak, o'shani ko'ramiz, haqiqiy qiziquvchanlik ana shundan boshlanadi.

Kuzatish bu tahlil, ana shu yerdan idrok etilayotgan hodisalarni tushunish uchun o'z-o'zimizga savol bera boshlaymiz. Kuzatuvchanlik va tajriba intuitiv qobiliyatning rivojlanishiga asos bo'ladi. A.S.Makarenko “Pedagogik poema” asarida shunday yozadi: ”Bu paytga kelib mening ko'zim yetarli darajada ravshanlashgan edi. Men birinchi qarashdayoq, kishining tashqi belgilari, ovozi, yurishi va yana qandaydir mayda belgilari orqali, balki hatto hididan ham, har bir muayyan holatlarda bu xom ashyodan qanday mahsulot olish mumkinligini deyarli aniq ayta olar edim”. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish jarayoni kasbiy-pedagogik faoliyat me'yori va asosiy funktsiyalaridan biri sifatida qaralganda uning mohiyati va loyihalashiga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchi shaxsining kasbiy takomillashuvi – bu pedagogik faoliyatning tarixiy tuzilmasi va o'ziga xos jihatlarni yaxlit ifoda etadigan kasbiy ahamiyatga molik sifatlar majmuini shakllantirish jarayonidir. Bunda o'z-o'zini takomillashtirish jarayoni ijtimoiy muhit ta'sirining o'qituvchi shaxsi rivojlanishi ichki shart-sharoitlari orqali singib o'tishi bilan kechadi. Kasbiy rolini anglash, qabul qilinishi mumkin bo'lgan pedagogik qarorlarni va ularning oqibatini anglash, o'z kasbiy faoliyatini umumlashirish va uning istiqbollarni bashorat qilish, o'z-o'zini nazorat qilish va takomillashirish malakalari – bularning barchasi usta-pedagog rivojlanishining manbai bo'lib hisoblanadi. Kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlar pedagog shaxsining ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanadi, o'zgaradi, zaiflashadi yoki kuchayib boradi (o'qituvchi shaxsining kasbiy ijtimoiylashuvi – kasbiy tajriba va madaniyatni o'zlashtirish), individuallashadi (o'qituvchi shaxsining individuallashuvi – kasbiy munosabatlarni o'zlashtirishning betakror shaxsiy usul va shakllari). Bu jarayonda o'qituvchi bir vaqtning o'zida ham kasbiy ahamiyatga molik sifatlarni tashuvchi va olib boruvchi sifatida, ham ijtimoiy shart-sharoit ta'siri obyektiva va shu bilan birga pedagogik faoliyat va o'z-o'zini shakllantirish subyektiva sifatida maydonga chiqadi [4, 32].

Bo'lajak o'qituvchi shaxsining kasbiy takomillashuvi quyidagi ko'rsatkichlarga ega: a) ichki tuzilishi – bu bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatga kirishuvi izchilligi bilan belgilanadi; b) yo'nalganlik – bu tizimli sifatlar bo'lib, kasbga munosabat, kasbiy faoliyat ko'rsatishga ehtiyoj va unga tayyorlik bilan belgilanadi; v) ziddiyatlar – bu kasbiy rivojlanishning obyektiv va subyektiv omillari va asosini tashkil etadi; pedagog shaxsini kasbiy takomillashuvdagi asosiy ziddiyatlar – bu shaxsning shakllangan sifatleri va obyektiv mavjud bo'lgan talablar o'rtasida paydo bo'ladigan ziddiyatlar bo'lib hisoblanadi; g) kasbiy ahamiyatga molik sifatleri shakllanishining notekisligi bo'lib, bu kasbiy takomillashuvning har bir bosqichida topshiriqlarning turlichaligi – biluv toshiriqlari, axloqiy-ma'naviy, kommunikativ, mehnat, qadriyatli topshiriqlar qo'yilishi bilan belgilanadi; d) ayni paytdagi rivojlanish bosqichi natijalarining keyingisiga aks ta'siri; kasbiy shakllanish yutuqlarining pedagog shaxsiga ta'siri uni yanada takomillashirishning ikkilamchi sharti sifatida maydonga chiqadi.

Tahlil va natijalar. Kasbiy qimmatga ega sifatlar umumkasbiydan individualga “ko'chirish” orqali rivojlantiriladi. Ular tranzit xususiyatga ega bo'lib, kasbiy takomillashuvning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tib boradi. Uning asosida pedagog kasbiy faoliyatining barqaror usul va shakllari va xulq-atvori, uning hayot tarzi yotadi. Kasbiy qimmatga ega sifatleri shakllanganlik darajasi pedagog shaxsi kasbiy takomillashuvi mezoni bo'lib, u pedagog kasbiy faoliyat darajasiga nisbatan qaraladi va bu faoliyat me'yorlarini qanchalik egallaganlikni ko'rsatadi.

Bo'lajak o'qituvchining mustaqil tayyorgarligi jarayonini loyihalash bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi [3,82].

1-bosqich: motivlashtirish – kasb-korga oid maqsadning shakllanishi, kasb tanlash;

2-bosqich: kontseptual – tanlangan kasbning mazmun va mohiyatini anglash, ayni paytdagi rivojlanish darajasini tashxis qilib, kasbiy o'z-o'zini takomillashirish dasturi loyahasini tayyorlash;

3-bosqich: loyihani amalga oshirish – o'z-o'zini takomillashirish bo'yicha amaliy faoliyat;

4-bosqich: refleksiv-tashxislash – oraliq va yakuniy tashxis, natijalarni tahlil qilish, o'z-o'zini takomillashirish dasturini korrektsiyalash, professionallik va pedagogik mahoratni egallash darajasiga ko'tarilish.

Har bir bosqich shaxsning kasbiy takomillashuvida ulkan sifat o'zgarishlarini sodir etishi ko'zda tutiladi. Ushbu bosqichlar maxsus vazifa va mazmunga ega bo'ladi. Topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarish psixologik mexanizmlar va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatleri barqarorlashuviga olib keladi. Shu



tariqa pedagog shaxsining kasbiy takomillashuvi kasbiy-pedagogik topshiriqlarni hal etishdagi sifat ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishini ham ta'minlaydi.

Bo'lajak o'qituvchi shaxsining kasbiy takomillashuv jarayoni (agar barcha bosqichlar to'la amalga oshirilsa) yo to'laqonli (garmonik) bo'ladi, yoki (agar o'qituvchi faqat bir necha bosqichlarnigina o'tagan bo'lsa) chegaralangan bo'ladi. Motivlashtirish bosqichida – kasbiy maqsadning shakllanishi – o'quvchilar (kasb-hunar ta'limi bosqichidagi) tanlanayotgan kasbning ijtimoiy ahamiyati, kasbiy tayyorgarlik shakl va usullari, ushbu kasb egasiga qo'yiladigan kasbiy talablar to'g'risida to'liq tasavvur hosil qilishlari lozim bo'ladi.

Ikkinchi bosqichda kasbiy o'z-o'zini anglash jarayoni kecha boshlaydi. Bu juda murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bunda shaxs kasb dunyosida o'z o'rnini qiqdira boshlaydi, muayyan faoliyat subyekti sifatida o'ziga bo'lgan munosabati, o'z jismoniy, aqliy imkoniyatlari, qiziqishlari, mayllari to'g'risidagi fikrlari shakllana boshlaydi, individual kasbiy taraqqiyot traektoriyasi rivojlanadi. Kasbiy takomillashuvning ilk bosqichlarida ijtimoiy vaziyatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ular pedagog shaxsida ijodiy faollikni ta'minlaydi.

Uchinchi bosqichda kasbiy-pedagogik yo'nalganlik, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar tizimi shakllanadi, o'qituvchi tipik pedagogik topshiriqlarni yechish usullarini egallaydi. Kasbiy adaptatsiya (moslashuv) bosqichi faoliyat me'yorlarini o'zlashtirishga yo'nalganligi, kasbiy bilim, ko'nikma va faoliyatni bajarishdagi umumiy usullarning egallanganligi bilan xarakterlanadi.

To'rtinchi bosqich o'z-o'zini tashhislashni va kasbiy tayyorgarlikning bir qadar yuqori darajasiga ko'tarilishni nazarda tutadi. Kasbiy shakllanishning ushbu bosqichida me'yoriy faoliyatning mo'tadillashuvi, kasbiy pozitsiyaning shakllanishi sodir bo'ladi, shuningdek, shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko'nikma va malakalarning integrativ majmui shakllanadi va bular pedagogik faoliyatni ijodiy darajada bajara olishning samarali uslubi paydo bo'lishiga olib keladi [4,48].

Fan kishilarning ongi va xulq-atvori ular yashayotgan ijtimoiy muhit bilan bog'liqligini tasdiqlaydi. Buning ma'nosi shuki, kishilar yashayotgan muhitlarini o'zgartirib, bu jarayonda o'zlari ham ma'naviy, aqliy, ruhiy va jismonan o'zgaradilar. Bu yerda biz tarbiya ob'ekti inson va uning sub'ekti muhitning o'zaro bir-biriga ta'siri hamda aloqadorligi, shu bilan birga obyekt va subyekt dialektikasining o'zaro almashishining sabab va oqibat tarzidagi bog'liqligini ko'ramiz. Jumladan, bunda tarbiya bilan o'z-o'zini tarbiyaning o'zaro bog'liqligini payqash qiyin emas. Bu bog'liqlik shunda namoyon bo'ladiki, yaxshi yo'lga qo'yilgan tarbiya oqibatida inson o'ziga boshqa kishilar ko'zi bilan qarab, ular bilan xulq-atvorini solishtirib, o'zidagi kamchiliklarni bartaraf qilishadi, ya'ni o'z-o'zini tarbiyalashi ichki ehtiyojga aylanadi. Ammo bu jarayon, ya'ni tarbiyaning o'zini-o'zi tarbiyalashga aylanishi silliq, tep-tekis bormasdan, balki ichki iztiroblar, his-tuyg'ular tug'yoni bilan va bu tug'yonda o'z-o'zini tarbiyalashga intilishning kuchliligi, uning hayot maqsadiga aylangandagina ustun kelishi mumkin. Ichki tug'yon (motivlar kurashi)da o'z-o'zini tarbiyalash bir havas sifatida paydo bo'lib, axloqiy jihatdan, hayot ideali orqali mustahkamlanmagan bo'lsa, tongda maysa ustiga tushgan shudring ertalabki quyosh nurlariga dosh berolmaganidek, o'z-o'zini tarbiya ham yaxshi samara bermaydi.

Tarbiya va o'z-o'zini tarbiyaning dialektik birligi shundaki, ular umumiy asosga ega bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va manaviy jarayonlardan kelib chiqadi. Har ikkalasining g'oyaviy asosini mustaqillik mafkurasi va axloqi tashkil etadi. Bundan tashqari ularning har ikkalasi tarixiy sinfiy xarakterga ega. Jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslarining o'zgarishi shaxs shakllanishiga, sifatlariga, axloqiga boshqacha talablar qo'yadi. Shu asosda shaxsning hayot maqsadi va ideali o'zgaradi. Bular qonuniy ravishda ijtimoiy mohiyatga ega. Tarbiya va o'z-o'zini tarbiya mazmunini o'zgartiradi. Chunki tarbiya va o'z-o'zini tarbiya maqsad va vazifalari yagonadir. Shaxs tarbiyasi va o'z-o'zini tarbiyasi unda ilmiy duneqarash, g'oyaviylik, jamoaviylik, siyosiy onglik va hushyorlik, mustahkam e'tiqod va faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishga harakat qilishi kerak.

Tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash dialektikasi yana shunda namoyon bo'ladiki, tarbiya o'z-o'zini tarbiyaga zamin hozirlaydi. Agar tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, o'z-o'zini tarbiya samara bermaydi yoki umuman amalga oshmaydi. Shuning uchun tarbiya o'z-o'zini tarbiyaga nisbatan birlamchi hisoblanadi. O'z-o'zini tarbiya tarbiyadan kelib chiqadi. Tarbiya o'z-o'zini tarbiyaga shart-sharoit yaratib, tashqi ko'rinishini namoyon qiladi. Shaxs yashash tarzining ob'ektiv sharoiti tarbiya jarayonida insonning o'ziga xos ma'naviy dunyosining tarkib topishi, uning o'z-o'zini tarbiyalashga intilishi va imkoniyatlarini belgilaydi.

Tarbiya va o'z-o'zini tarbiya dialektikasi o'z-o'zini tarbiya shaxsning o'z ixtiyori, istagi bilan amalga oshayaptimi yoki u tashqi talabning ta'sirimi ekanligini aniqlashni talab qiladi. Chunki o'z-o'zini tarbiya insonning «tashqi» va «ichki muhiti» bilan bog'liq. Yosh ulg'ayishi bilan «ichki muhit»ning roli kuchayib boradi. Ammo bu kishining yoshi o'tishi bilan uning shakllanishi atrof-muhitning bevosita ta'siridan xoli bo'ladi degani emas. Insonning o'z tashabbusi va irodasidan tashqari o'z-o'zini tarbiyalash bo'lmaydi,

ammo unga undovchi ichki yoki tashqi sabablar bo'lishi mumkin. Garchi rivojlanish asosida ichki kuchlar undovchi bo'lsa-da, tashqi ta'sir o'z kuchini ichki sabablar orqali amalga oshiradi.

O'zini bilishning rivojlanishini boshqarish va o'ziga baho berishni shakllanishi ancha murakkab jarayon hisoblanadi.

O'z-o'ziga munosabat o'zini anglashning qimmatli irodaviy tomoni bo'lib, insonning o'ziga shaxs sifatida qarashidan iborat. U o'z navbatida shaxsning yo'nalganligi–maqsadi, ideali, ehtiyoji, qiziqishi va qadriyatlariga munosabati, o'ziga talabchanlik, o'zini namoyon qilish bilan bog'liq bo'ladi. O'z-o'ziga munosabat hamma vaqt o'zini his qilish bilan bog'liq bo'lib, o'zini anglashning emotsional namoyon bo'lishi hamda o'zini ko'rsatish, o'zini ta'kidlash bilan bog'liq bo'ladi. Kishining psixik holati uning o'zidan qanoatlanganligi yoki qoniqmaganligini, o'z xulq-atvori ichki muhitini tashkil qilib, o'z navbatida, insonning o'z «Men»i hamma sohada namoyon bo'ladi. Shunday qilib o'zini takomillashtirishning qaysi yo'nalishda borishi ko'p jihatdan o'zini bilishi, o'z-o'ziga munosabat bilan belgilanadi. Inson o'zini to'g'ri baholay olsa, o'z hatti-harakatiga tanqidiy va ob'ektiv yondasha olsa, Shunda unda o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj paydo bo'ladi.

O'zini bilish-o'z-o'zini tarbiyalashning yaxlit jarayoniga ta'sir ko'rsatib, uning yo'nalishini, sifat va samaradorligini belgilab, o'ziga baho berish asosi hisoblanadi. O'ziga baho berish – o'quvchining o'z kuchi, qobiliyati, imkoniyati, xususiyatlari va o'jizligi, kamchiliklari, salbiy sifatleri haqida aniq tasavvuri tizimidan iborat bo'ladi. O'quvchining o'zi haqida ob'ektiv o'ylashi, o'ziga xolisona baho berishga o'rgatish-uning o'z ustida amaliy ishlashi, o'z-o'zini tarbiyalashga rahbarlik qilishda muhim vazifa hisoblanadi.

Shaxsning integrallashgan kasbiy ahamiyatga molik xususiyatlarining tarkib topib borishi mahorat bosqichida davom eta boradi. Ularning tugal shakllanishida shaxsning o'z faolligi hal qiluvchi o'rin egallaydi. Me'yoridan ortiq faollikni namoyon qila turib o'qituvchi o'zida mavjud bo'lgan faoliyat usullarini o'zgartiradi, uni takomillashtiradi, ya'ni o'z faoliyat usullarini yanada samaraliroq – ijodiylik darajasiga ko'taradi va shaxs faolligining yuqori ko'rsatkichini namoyon qiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, kasbiy taraqqiyotning muayyan bosqichiga ko'tarilgan shaxs o'zini progressiv rivojlantirish jarayonini to'xtatib qo'yishi mumkin. Bunda stagnatsiya holati boshlanish xavfi paydo bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchi shaxsi kasbiy takomillashuvdagi stagnatsiya holatining asosiy omili pedagogik tizimning ta'lim jarayoni bilan cheklanib qolganligida namoyon bo'ladi. Bunday stagnatsiya holatini bartaraf etish uchun o'qituvchi faqat o'quvchi shaxsi bilan ishlashda cheklanib qolmasdan o'z shaxsi bilan ham muntazam ishlashni davom ettirib borishi lozim bo'ladi.

**Xulosa.** Shunday qilib o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini kasbiy takomillashtirishning yuqorida ko'rsatilgan bosqichlarini o'tashdan ko'zlangan asosiy maqsad faqat o'zida muayyan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni, kasbiy sifatleri hosil qilishgina bo'lib qolmay, balki, asosan, muntazam o'z-o'zini takomillashtirib borish ko'nikmalarini shakllantirish ham bo'lib hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Боровиков Л.И. Как подготовить самоанализ профессиональной деятельности // Воспитание школьников. - 2004.- №5.
2. Психологический словарь. – М., 1991. - С. 702.
3. Рогов Е.И. Личность учителя: теория и практика. - Ростов-на-Дону: «Феникс», 1996. – С. 174.
4. Степанов П.В., Григорьев Д.В., Кулешова И.В. Диагностика и мониторинг процесса воспитания в школе / Под ред. Н.Л.Селивановой, В.М.Лизинского. М.: 2003, с.74.

**TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA  
TARBIYALASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODIKASI**

**Safoyev Husen Aminovich,**

*Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta'lim fakulteti  
Maxsus tayyorgarlik sikli boshlig'i, dotsent  
xusensafoyev@gmail.com*

*Ushbu maqolada talabalarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jonajon vatanimizni ko'z qaroqchig'idek himoya qilish, uni asrash-avaylash to'g'risidagi zamonaviy tushunchalarni, dunyoqarashni, mazkur masala bo'yicha shaxsiy e'tiqodlarini shakllantirish va mustahkamlab borish masalalari yoritilgan. Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning ma'naviy-ruhiy tayyorligini oshirish borasidagi ta'lim-tarbiya jarayonini yanada kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalarni yechish masalalariga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirishning metodologik asoslari yoritilgan. Talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimining asosiy yo'nalishlari va uni amalga oshirish, shuningdek, harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishlarni yanada kuchaytirish yuzasidan hozirgi dolzarb vazifalar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mazmun-mohiyati belgilab o'tilgan. Shuningdek, maqolada talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasalari, oila, ishjtimoiy muhitning ta'siri hamda foydali jihatlari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Vatanparvarlik tuyg'usi, harbiy ta'lim, ijtimoiy-siyosiy, Vatan ravnaqi, vatan, harbiy vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik, urf-odat, bilim, ko'nikma, malaka, mahorat, iroda, milliy g'urur, axloq va odoblilik, saxovat, jasorat.*

**МЕТОДИКА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ  
ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ У СТУДЕНТОВ**

*В данной статье рассматриваются актуальные задачи, которые должны быть реализованы по дальнейшему укреплению образовательно-воспитательного процесса по подготовке молодёжи к военной службе, повышению её морально-психологической готовности, формированию и укреплению современных представлений о защите, сохранении Родины как зеницы ока, формированию и укреплению мировоззрения, личных убеждений по данному вопросу. В статье особое внимание уделяется методическим основам совершенствования процессов воспитания учащихся в духе военного патриотизма. Основные направления системы военно-патриотического воспитания студентов и текущие актуальные задачи по её реализации, а также дальнейшему усилению работы по организации и проведению мероприятий военно-патриотической направленности определили содержание военно-патриотического воспитания. В статье также анализируется влияние и полезность образовательных учреждений, семьи, социальной среды в воспитании учащихся в духе военного патриотизма.*

**Ключевые слова:** *чувство патриотизма, военное воспитание, общественно-политическое, развитие родины, Отечество, военный патриотизм, верность, самоотверженность, традиции, знания, умения, навыки, мастерство, воля, национальная гордость, нравственность и порядочность, щедрость, мужество.*

**METHODS OF INCREASING THE EFFECTIVENESS  
OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION AMONG STUDENTS**

*This article discusses the urgent tasks that should be implemented to further strengthen the educational process of preparing young people for military service, increase their moral and psychological readiness, form and strengthen modern ideas about the protection, preservation of the Motherland as the apple of the eye, the formation and strengthening of worldview, personal beliefs on this issue. They are focused on the issues being solved, special attention is paid to the methodological foundations of improving the processes of educating students in the spirit of military patriotism. The main directions of the system of military-patriotic education of students and the current urgent tasks for its implementation, as well as the further strengthening of the work on the organization and conduct of military-patriotic activities, the content of military-patriotic education is determined. The article also analyzes the influence and usefulness of*

*educational institutions, families, and the social environment in educating students in the spirit of military patriotism.*

**Keywords:** *sense of patriotism, military education, socio-political, development of the motherland, Fatherland, military patriotism, loyalty, dedication, traditions, knowledge, skills, will, national pride, morality and decency, generosity, courage.*

**Kirish.** O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha tizimini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ommaviy axborot vositalari, internet tizimidagi ma’lumot oqimlari hamda jarayonlarning sabablari noaniqligi yosh avlodning fikran sobit, axloqan yetuk, jismonan baquvvat bo‘lishini talab qilmoqda. Globalizm, “dunyo odami” tushunchalari butun bir avlodlarni o‘z tarixidan, axloqiy va ma’naviy burchlardan mosuvo qilishga, kelajak haqida qayg‘urmaslikka – umuman, insonning shaxs sifatidagi maqomini yo‘q qilishga qaratilgan g‘oyalarni ma’lum ma’noda mujassamlashtiradi.

Harbiy vatanparvarlik insonning fuqaro hamda muayyan jamiyat a’zosi sifatidagi eng buyuk burchi bo‘lib, oilaga sadoqat, kelajakka ishonch, tarixga hurmat, bugungi kuniga e’tibor, atrofdagi insonlar manfaatlarini hisobga olish, haqni nohaqdan ajrata olish kabi xislatlarni jamlaydi. Istalgan qo‘shin, jamiyatda vatanparvarlik tuyg‘usi kamolga yetmas ekan, uning ixtiyoriga eng zamonaviy qurol berilganda ham foydasi bo‘lmaydi. Shuning uchun ham Vatan himoyasida, avvalo, inson omili yetakchi o‘rinda turadi.

Vatan hissi – bu o‘z ona yurti, xalqini sevish, hurmat qilish, qadriga yetish demakdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, deb ta’kidlagan[1].

**Asosiy qism.** Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun quyidagi **asosiy vazifalarni** hal qilish talab etiladi:

- talaba-yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga o‘zining ona yurti himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanligini chuqur singdirish;

- xalqimizning milliy madaniyati, qadriyatlarini, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish;

- yoshlarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy armiyasining qudrati, kuchi va salohiyatiga bo‘lgan ishonch hissini kuchaytirish;

- yoshlarni milliy armiyamiz sha’ni va g‘ururini himoya qilishga o‘rgatish;

- yoshlar ongiga vatanimizni turli yot oqimlar, g‘oyalar, terroristik tashkilotlar xurujidan himoya qilish zarurligini uqtirish, buning uchun juda katta jonbozlik ko‘rsatish, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

- yoshlarda mamlakatimiz sarhadlarini himoya qilish, chegaradosh mamlakatlar va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- yoshlarda murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika va axborot kommunikatsion vositalardan samarali foydalanish malakasini qaror toptirish.

Bugungi kunda respublikaning barcha ta’lim tizimlari orqali davlat ta’lim siyosatiga yo‘naltiruvchi ko‘rsatmalari bilan maqsadga muvofiq ravishda vatanparvarlik hissi shakllantirilmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimining asosiy vazifasi insoniylikni, Vatanga, milliy madaniyatga muhabbat va sadoqatni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. Bunga o‘z navbatida bir qator omillar ta’sir qiladi.

“2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmonida “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tadbirlarini yanada kuchaytirish” masalasiga alohida e’tibor qaratilgan[2].

Shunday ekan, yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirish davr talabi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalay olmasak, ularda harbiy-vatanparvarlik hissini shakllantirib bo‘lmaydi.

Shunday ekan, yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirish davr talabi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalay olmasak, ularda harbiy-vatanparvarlik hissini shakllantirib bo‘lmaydi.

Bugungi yoshlar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonida ulardagi vatanparvarlik sifatlarini voyaga yetkazishning yangicha tizimini ishlab chiqish vazifalarini kun tartibiga qo‘ydilar. Yurtboshimiz bu jarayonda tarixiy an’analar hamda xorijiy mamlakatlar tajribalari umumlashtirib, zamonaviy ilmiy asosda

yurtimizda bolalar va o‘smirlarning vatanparvarlik tashkilotlarini tuzish kabi tavsiyalarni berdi. Yoshlarning harbiy hayot, jismoniy tarbiya bilan bog‘liq tadbirlarda ishtirok etishida qog‘ozbozlik, yuzakilik va sustkashlikka yo‘l qo‘yish katta xato ekanligi ta’kidlandi. Shuning uchun talaba-yoshlarni harbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha yangicha metodologiyasi ishlab chiqish bugungi ilmiy tadqiqotlarning bosh maqsadiga aylanib ulgurdi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi ta’limi sohasida «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida belgilangan vazifalarning to‘laqonli amalga oshirishga erishish ham yoshlarda vatanparvarlik sifatlarini va fidoyilik xususiyatini shakllantirishda muhim omil bo‘ladi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda yoshlarda harbiy-vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish va ijtimoiy maydonga vatanparvarlikni targ‘ib qilishning samarali mexanizmlari ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi, bu borada texnik va texnologik vositalarning imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Misol uchun, yoshlarda fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyatini shakllantirish maqsadida turli harbiy-sport musobaqalari, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilmoqda. «Mustaqillik», «Amir Temur», «Jaloliddin Manguberdi» ordenlari, «Jasorat», «Sodiq xizmatlari uchun», «Mardlik» medallari ta’sis etildi. Ayniqsa, yoshlarda harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Harbiy akademik litseylarga «Temurbeklar maktabi» nomi berilishi fikrimizning yorqin dalilidir.

Shu munosabat bilan ta’lim muassasalari talaba-yoshlarda harbiy- vatanparvarlik yo‘nalishidagi pedagogik ta’limni tizimli tashkil etish, bu ishlarni faollashtirish va yuksak darajaga ko‘tarish talab etiladi. Vatanparvarlik millatchilik sifatida talqin qilinmasligi, vatanni asrab- avaylash har bir fuqaroning majburiyati ekanligini tushuntirish muhim vazifalardan biridir. Zero, «vatanparvarlik millatchilik emas, balki umuminsoniy tuyg‘udir. Fransuz adibi Volter shunday degan edi: “Vatanga bo‘lgan muhabbat meni ajnabiylar yutug‘idan ko‘z yumishga majbur qilmaydi. Aksincha, vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo‘lsa, vatanimni jahondagi boshqa xalqlar yutuqlari bilan shunchalik boyitgim keladi». Demak, o‘zligini anglagan, tarixiy xotirasi butun, mustaqil fikrlaydigan inson o‘z vataniga sotqinlik qilmaydi, balki vatan manfaatini hamma narsadan ulug‘ tutib, uning uchun jon berishga tayyor bo‘ladi. Bu esa Vatan himoyasi chindan ham barchamizning nafaqat vazifamiz, balki sharaflı burchimizga aylanib borayotganidan yaqqol daolat beradi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat[3].

Jamiyat rivojlangani sari muhim ahamiyat kasb etadigan ma’naviy qadriyatlardan biri – vatanparvarlik tuyg‘usidir. Vatanparvarlik ona yurtining, xalqining tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo‘lida fidoyilik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslarga xos fazilat. Vatanga, xalqqa bo‘lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg‘usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o‘rin oladi, faoliyatiga ta’sir qilib, ularni mas’uliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etadi. Shuning uchun ham har bir davlat o‘z fuqarolarida vatanparvarlikni shakllantirishga harakat qiladi va bu orqali ijtimoiy barqarorlikning asoslarini yaratadi.

Hozirgi muammolariga boy davrda yoshlarda yuksak insoniylikka asoslangan chinakam vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishning obyektiv shart-sharoitlari to‘g‘risida yanada chuqurroq o‘ylash taktik va strategik maqsadlarimiz sirasiga kiradi. Negaki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingi davrlarda vatanparvarlik jamiyatni rivojlanishining asosiy negizi sifatida ko‘rsatib o‘tildi. Ular umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik; xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish; insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish; vatanparvarlik hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi yo‘lida zamonaviy, ilg‘or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy yetuk, jismonan sog‘lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga bo‘lgan e’tibor qancha kuchli bo‘lsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo‘ladi. Shu bois O‘zbekiston jamiyatining faol qatlami sifatida e’tirof etiluvchi yoshlar qatlamiga “muammo” deb emas, balki yurt ravnaqini ta’minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaralmoqda. Natijada bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat’iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda.

Talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta’limning ijtimoiy va shaxsiy yo‘naltirilgan qadriyati sifatida qaralishi ta’lim-tarbiya jarayoniga, o‘quv rejalari, dasturlari, darsliklari, metodik adabiyotlarda puxta gavdalanirishi zarur. Bu ishni amalga oshirishda xalq pedagogikasi – xalq og‘zaki

ijodi muhim manba hisoblanadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida bosqichma-bosqich tarbiyalash – bugungi kunda pedagogika fanining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Buning uchun turli variantiv dasturlar, moslashuvchan shakllar, samarali metodlar, qulay vositalar, pedagogik mos sharoitlar va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish talab etiladi. Aynan ijodiy-pedagogik, innovatsion yondashish ta‘limning asosiy qadriyati – harbiy-vatanparvarlikni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi[4].

So‘nggi yillarda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi keskin o‘zgarishlar, yangi ijtimoiy munosabatlarning o‘rnatilishi, jamiyatning yangi qadriyatlarini shakllanishi milliy ta‘lim tizimining maqsad va vazifalarini qaytadan sinchiklab ko‘zdan kechirish hamda unga tanqidiy baho berishni taqozo qilmoqda. Ta‘lim jarayonining shaxsga yo‘nalganligi, o‘quv mashg‘ulotlarining sifatli tashkil etilishi, ta‘lim-tarbiyaning mazmuni, metodikasi, texnologiyasi zamonaviy talab va ehtiyojlarga mosligi ta‘minlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda har tomonlama rivojlangan, ijtimoiy faol shaxs – talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash harbiy ta‘lim tizimining asosiy maqsadiga aylandi. Natijada talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash harbiy ta‘limning asosiy qadriyati sifatida ilgari surildi.

**Muhokamalar va natijalar.** Har tomonlama rivojlangan, ijtimoiy faol talaba-yoshlar o‘z ona yurtining tinchligi, Vatanining ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shib, unga sodiq bo‘ladilar. Aksariyat hollarda bu kabi mas‘uliyatli vazifa oliy ta‘lim muassasalarining Harbiy ta‘lim fakultetlarida amalga oshiriladi.

Mustaqillikning ilk yillarida milliy armiyamizga asos solindi, uning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, davr talabiga mos qurol-yaroqlar yangilandi. Biroq yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik hissini shakllantirish muammosi biroz nazardan chetda qoldi.

Shu nuqtayi nazardan so‘nggi yillarda talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish talab qilinmoqda. Chunki shiddat bilan rivojlanayotgan axborot texnologiyalari asrida vatanparvarlik ruhini yoshlar ongiga singdirish dolzarb muammoga aylangan va asosiy vazifaligicha qolmoqda.

Shuning uchun ham oliy ta‘lim muassasalarida harbiy ta‘limning ustuvor vazifalaridan biri – talaba-yoshlar ongi va qalbida Vatan himoyachilari shuurida milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, unda kelajakda jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini topishi uchun amaliy-hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish orqali ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga faol kirishishlariga imkon yaratishdan iborat.

Shu nuqtayi nazardan, oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonida talabalarga nafaqat harbiy yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha bilim berish, balki egallagan bilim va malakalarini amaliyotga tatbiq etish, ulardan kelajakda milliy armiyamiz safida xizmat qilish davrida foydalana olish kompetensiyalarini qo‘llay olishga o‘rgatish ham oliy ta‘lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalarida harbiy ta‘lim berish tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta‘lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish ustuvor masala bo‘lib, hukumat tomonidan qo‘yilgan bu sohadagi vazifalar ijrosini ta‘minlash muhim amaliy ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilarni samarali amalga oshirish taqozo qilinadi[5]:

- oliy ta‘lim muassasalarida talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan harbiy ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida fanlarni o‘qitish ketma-ketligi va uzluksizligini ta‘minlovchi yagona harbiy ta‘lim konsepsiyasini yaratish;

- o‘qitish va tarbiyalash jarayonlarini uyg‘unlashtirish, bo‘lajak vatan himoyachilarini nafaqat bilimli, balki ma‘naviy, axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish bo‘yicha ta‘sirchan pedagogik choralarni ishlab chiqish, oliy ta‘lim muassasasi faoliyatiga ulardagi talabalarining harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalanganlik darajasidan kelib chiqqan holda baho berish, buning uchun, eng avvalo, talabalarining bilim darajasini belgilovchi davr talablariga mos mezonlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- Vatanimizni turli diniy-ekstremistik tashkilotlar, g‘oyalar, turli axborot xurujlari ta‘siridan himoyalash, buning uchun talaba-yoshlarda harbiy-vatanparvarlik, o‘z oilasi, kasbi va yurtiga sadoqat, uning taqdiriga daxldorlik tuyg‘ularini tarkib toptirish;

- oliy ta‘lim muassasalarida harbiy ta‘limni amalga oshirish jarayonida sog‘lom ijodiy muhitni yaratish, bunda ilg‘or innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish orqali harbiy-vatanparvarlik ta‘lim-tarbiyasining sifatini yangi bosqichga ko‘tarish, talaba-yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda talabalarni harbiy-vatanparvarlik – ona yurt mustaqilligi, ozodligi, obodligi, uning sarhaddari daxlsizligi va himoyasi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib yashash, xalqning ornomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g‘ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdir. Bugungi yoshlar Vatan manfaati, qadr-qimmatini, taqdiri, istiqloli, istiqboli, ona yurtga muhabbat tuyg‘usini qancha chuqur anglasalar, shunchalik ularda harbiy-vatanparvarlik tuyg‘usi yuksak bo‘ladi.

**Xulosa.** Darhaqiqat, talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida o‘zbek xalqining qadimiy tarixi va madaniyati, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib avlod bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi”ning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlikni tarbiyalash faqatgina Vatanni sevish yoki yaxshi ko‘rish bilan cheklanmaydi, balki mavjud ma‘naviy va jismoniy imkoniyatlarini to‘liq safarbar qilgan holda Vatanni himoya qilish, asrash va ravnaq toptirishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O‘zbekiston: NMIU, 2016. 14-bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni // [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz) 2.03.2022 y.

3. Mamurov U.I., Valiyev A.A. “Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi” uslubiy qo‘llanma. - Toshkent: “Ziyo nur” nashriyoti, 2021y.

4. “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida” gi Nizom, 2023 y.

5. Mamurov U.I. “Harbiy qismlarda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar uslubiyoti” Darslik. Buxoro “Kamolot” nashriyoti. 2022-y.

**MANBALARDAGI BIOGRAFIK MA’LUMOTLARNING TALABALARDA MEROSGA QIZIQISH VA MUHABBAT UYG’OTISHDAGI ADABIY QIMMATI (“Haft shuaro” majmuasidagi shoirlar misolida)**

*Xajiyeva Iroda Adambayevna,*  
*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*  
*Urganch filiali “O‘zbek tili va ijtimoiy fanlar” kafedrası mudiri,*  
*filologiya fanlari nomzodi, dotsent*  
*ORCID ID: 0000-0001-7084-5701*

*Ushbu maqolada talabalarda ma’naviy merosga munosabat uyg‘otish, ularda qiziqish paydo qilish uchun ajdodlarimizning biografik ma’lumotlari tahlil qilindi. Xorazm adabiy muhitida Feruzxon davrida tartib berilgan “Haft shuaro” majmuasidan o‘rin olgan yetti shoir haqidagi biografik ma’lumotlarga murojaat etildi. Shoirlar to‘g‘risida o‘z zamondoshlarining asarlarida keltirilgan ma’lumotlar maqolaga asos qilib olindi. Bu ma’lumotlar nafaqat shoirlarning biografiyasi to‘g‘risida, balki ular yashagan muhitning o‘ziga xos jihatlari haqida tasavvur hosil qiladi. Tahlillar asosida hukmdorning avlodlari yashagan muhitda ham o‘ziga xos qiyinchiliklar bo‘lganini kuzatish mumkin. Shoirlarning biografiyasi ularning ijodiga ham o‘ziga xos tarzda ta’sir o‘tkazgan. Ya’ni ijod shoir shaxsiyatidan ajratib bo‘lmaydigan jarayondir. O‘z navbatida bunday tahliliy ma’lumotlar talabalarda merosni o‘rganishga qiziqish uyg‘otadi va motivni shakllantiradi. Shuningdek, talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi. Talabalar ma’naviyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o‘z ichiga tarbiya jarayonini qamrab olishini inobatga olsak, mustaqil fikrlashga undovchi ma’lumotlar g‘oyat muhim ahamiyat kasb etishi tabiiy. Ma’naviy meros yuzasidan mustaqil fikrlash uchun talabalarda dastlab qiziqish va ehtiyoj paydo bo‘lishi lozim. Qolaversa, ajdodlarimiz asarlarining mohiyatini tushunish uchun ular yashagan davr to‘g‘risida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish talab etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** ijtimoiy muhit, tarbiya, mustaqil fikrlash, motiv, qiziqish, ehtiyoj, biografik ma’lumot, adabiy muhit, davr, saroy shoiri.*

**ЛИТЕРАТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ БИОГРАФИЧЕСКИХ СВЕДЕНИЙ В ИСТОЧНИКАХ В ФОРМИРОВАНИИ ИНТЕРЕСА И МОТИВАЦИИ УЧАЩИХСЯ К ДУХОВНОМУ НАСЛЕДИЮ**

**(На примере поэтов из комплекса «Хафт Шуаро»)**

*В данной статье были проанализированы биографические сведения наших предков, чтобы пробудить интерес учащихся к духовному наследию. Мы обратились к биографическим сведениям о семи поэтах комплекса «Хафт Шуаро», организованного в период Феруз-хана в хорезмской литературной среде. Статья основана на сведениях о поэтах, приведённых в произведениях их современников. Эти сведения создают представление не только о биографии поэтов, но и о конкретных аспектах среды, в которой они жили. На основании нашего анализа мы можем заметить, что в среде, в которой проживали потомки правителя, существовали определённые трудности. Биография поэтов также уникальным образом повлияла на их творчество. То есть творчество – это процесс, который невозможно отделить от личности поэта. В свою очередь, такая аналитическая информация вызывает у учащихся интерес к изучению наследия и формирует мотив, побуждая студентов мыслить независимо. Учитывая, что социально-психологические особенности развития духовности студентов включают в себя учебный процесс, естественно, что чрезвычайно важной становится информация, способствующая самостоятельному мышлению. Чтобы самостоятельно думать о духовном наследию, у студентов должны сначала развиться интерес и потребности. Более того, чтобы понять суть произведений наших предков, необходимо иметь комплексное представление о периоде, в котором они жили.*

***Ключевые слова:** социальная среда, образование, самостоятельное мышление, мотив, интерес, потребность, биографические сведения, литературная среда, эпоха, придворный поэт.*



**THE LITERARY SIGNIFICANCE OF BIOGRAPHICAL INFORMATION IN SOURCES IN SHAPING STUDENTS' INTEREST AND MOTIVATION IN SPIRITUAL HERITAGE  
(In the case of poets from the “Haft Shuaro” complex)**

*In this article, the biographical information of our ancestors was analyzed in order to awaken students' interest in the spiritual heritage. We turned to biographical information about seven poets of the “Haft Shuaro” complex, organized during the period of Feruz Khan in the Khorezm literary environment. The article is based on information about the poets given in the works of their contemporaries. This information creates an idea not only of the biography of the poets, but also of specific aspects of the environment in which they lived. Based on our analysis, we can notice that there were certain difficulties in the environment in which the descendants of the ruler lived. The biography of the poets also influenced their work in a unique way. That is, creativity is a process that cannot be separated from the personality of the poet. In turn, such analytical information arouses students' interest in studying heritage and creates a motive, encouraging students to think independently. Considering that the socio-psychological features of the development of students' spirituality include the educational process, it is natural that information that promotes independent thinking becomes extremely important. To think independently about spiritual heritage, students must first develop an interest and need. Moreover, in order to understand the essence of the works of our ancestors, it is necessary to have a comprehensive understanding of the period in which they lived.*

**Keywords:** social environment, education, independent thinking, motive, interest, need, biographical information, literary environment, era, court poet.

**Kirish.** Ma'naviyatga e'tibor bugungi kunda davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu ajdodlarimiz merosini yoshlarga o'rgatish, uni kelajak avlodga bezavol yetkazish uchun harakat qilishni taqozo etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim”.[1]

Ma'naviy qadriyatlarni o'rganish asnosida ularni yaratgan ijodkorlar shaxsiyati to'g'risida ham ma'lumotga ega bo'lishimiz joiz. Shoir yoki ijodkorlar yashagan davr, asarlarining vujudga kelishida turtki bo'lgan ijtimoiy-siyosiy muhit alohida ahamiyatga ega.

Ma'lumki, tazkira va majmualarda ijodkor shaxsi haqidagi biografik ma'lumotlarning muayyan o'rni bo'lib, ular u yoki bu ijodkor xususidagi umumiy tasavvurni kengaytirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan “Haft shuaro”ga kirgan shoirlar haqidagi ma'lumotlar ham ma'lum adabiy qimmatga ega. Tazkiralarda shoirlarning shaxs sifatidagi surat-u siyrati, fe'l-atvori, umuman, xarakteri ochib berilsa, majmualarda ijodkor sifatidagi salohiyati, she'riyatdagi kuchli va zaif jihatlari aks etadi. Shu bois har bir shoir qiyofasida shaxs va ijodkor yaxlitligi mujassamlashgan bo'lib, ijodni baholashda buni nazarda tutish muhimdir.

**Adabiyotlar tahlili.** Manbalarda ijodkorlar to'g'risida biografik ma'lumotlarni tahlil etish jarayonida Tabibiy, Laffasiy, Xodim, V.G.Belinskiy, I.Haqqul ma'lumotlariga, shaxsning qiziqish va motivlari, mustaqil fikrlash jarayoni hamda ijodning shaxs psixologiyasi bilan bog'liqlik jihatlari nuqtayi nazaridan D. Dyui, G.Ollport, V.Kvinn, D.Ash, D.Mayers, V.Karimova, E.Z. Usmanova, Sh.Dustmuhammedovalarning ilmiy-tadqiqotlariga murojaat qildik.

**Metod va metodologiya.** Mavzuni tahlil etish jarayonida adabiyotshunoslikning qiyosiy tahlil, psixologiyaning suhbat metodlaridan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O'qituvchi va murabbiylar” kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda hamda 2023-yil 22-dekabrdagi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqlari mavzuning metodologik asosini tashkil etadi.

**Natija.** Ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga qiziqish uyg'otish, motivatsiya berish o'qituvchining mahoratiga bog'liq jarayondir. Ma'lumki, motiv - inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushuncha. Motivatsiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni, motivlar yig'indisi bo'lib, unga tashabbus, yo'nalganlik, tashkilotchilik, qo'llab-quvvatlash kiradi. Ajdodlarimiz og'ir ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muhitda yashaganliklariga qaramasdan o'lmas asarlar yaratib, mangulikka daxldorlik kasb etganini tushuntirishda tazkira va majmualardagi ma'lumotlarning o'rni beqiyosdir.

Qayd etilgan tazkiralalar va majmuada ikki mushtarak fikr alohida ta'kidlanadi:

1. Shahzoda shoirlar nasl-nasabidan qat’iy nazar saroyda rasmiy mansab egallashmagan, ijodiy faoliyatga rag’bat bildirishgan;

2. Adabiy muhit ijodkorlarining, jumladan, shahzoda shoirlarning taxalluslari shaxsan Feruz tomonidan ma’qullangan yoxud taklif etilganki, bu ham shohning ijod ahliga befarq emasligiga dalildir.

Shu bilan birga, Feruzning ijodkorlar homiysi sifatidagi katta xizmatlarini baholashda xolislik tamoyiliga amal qilib, uning hukmdor va o’z davrining ilg’or farzandi ekanligini unutmashimiz zarur. Zero, Feruzning adabiyot rivoji xususidagi g’amxo’rligida o’z mavqeyini mustahkamlash maqsadi ko’zlanganini ham e’tirof etgan holda ayrim ijodkorlarga nisbatan jazo me’yorini oshirib yuborganligini ham unutmashlik joiz. Chunonchi, Avazning ikki yuz darra bilan kaltaklanib xo’rlanishi, Masharif Tarro, Polli do’zchi kabi san’atkorlarning qattiq jazolanishi, Palmin va Xonim xalfalarning qopga solib, yuz darra urilishi kabi faktlarini ijobiy hodisa deb bo’lmaydi. Nazarimizda bu hodisalarda Feruzning hukmdorlik tabiati va xarakteridagi murakkablik ko’proq namoyon bo’lganki, bularni ochiq aytish Feruz shaxsiga tabiiylik bag’ishlaydi, uning taraqqiyparvar shoh sifatida shakllanish jarayoni real hayotiylikka ega ekanidan darak beradi. Biroq Feruz shaxsidagi bu qusur uning ma’rifatparvarlik faoliyati mohiyatini o’zgartira olmaydi.

Yoshlarda ajdodlarimiz merosiga nisbatan qiziqish uyg’otish o’qituvchining mahoratiga bog’liq.

Qiziqishlar ta’lim maskanlari o’quvchisiga fan asoslarini durustroq o’zlashtirib olishlariga, aqliy qobiliyatlarining o’sishiga, bilim doirasining kengayishiga imkon beradi. O’qituvchilarning vazifasi o’quvchini dastlab qiziqtirib qolgan ishning o’zi bilan shug’ullanishga majbur qilish emas, balki undagi qiziqishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, ta’sirchan qilish, qiziqishlarning markaziga aylanib qolgan faoliyat bilan shug’ullanish istagiga, mayliga aylantirishdir. [12]

**Muhokama.** V.G. Belinskiy ta’kidlaganidek, “shoir ijodiy faoliyatining manbai uning shaxsida ifodalangan ruhidir. Binobarin, shoir ruhini, asarlari xarakterining dastlabki izohini uning shaxsidan qidirmoq kerak”. [2]

“Haft shuaro” mualliflari xususidagi biografik ma’lumotlarning ahamiyati, avvalo, shoirlar “shaxsidagi ruh”ning she’rlardagi ifodasidir.

Darhaqiqat, majmua va tazkiralardagi shahzoda shoirlar hayoti va asarlari xususidagi fakt va ma’lumotlar yaxlitlik kasb etib, ijodkorlar haqida davomli va batafsil fikrlashga imkon beradi. Bu hol hayot va ijod yo’li ko’pchilikka noma’lum bo’lgan hamda ilk marta o’rganilayotgan shoirlar haqidagi monografik tadqiqot uchun, ayniqsa, zarurdir.

Adabiyotshunos I.Haqqulov e’tirof etganidek, “ijodni shoir shaxsiyatidan ajralgan bir holat deb bo’lmaydi, aksincha, uni shoir xarakteri, ruhiy ehtiyojlari va ma’naviy imkoniyatlari bilan uzviy bog’lash” muhimdir. [3]

Zero, yuqorida qayd etilgan tazkiralardagi “shoir shaxsiyatiga” oid ma’lumotlar “Haft shuaro”ni tadqiq etishda qo’shimcha materialdir.

Majmuada yetti nafar shoir asarlaridan namunalar bilan birga, Sultoni ijodi xususidagi ma’lumotlar hamda Farruxni ulug’lovchi boshlama joy olgan. Tazkiralarda esa ularga turlicha yondashilgan. Jumladan, Laffasiy tazkirasida ular to’liq saqlangan holda Tabibiy va Xodim tazkiralarda Murodiy hamda Farruxga oid qismlar yo’q. Shaxsan Feruz tavsiyasi va nazoratida tuzilgan bu tazkiralarda shohning eng yaqin qarindoshlari – inisi hamda o’g’li asarlari va ma’lumotlarining uchramasligi besabab emas. Nazarimizda, Murodiy va Farrux Tabibiy tazkiralardagi Feruz g’azallariga payrav yozishmagan yoxud yozganlari yetarli bo’lmagan ko’rinadi. Tabibiy qolgan besh nafar shoirning har biriga xos asosiy xususiyatlarni ko’rsatib, shunday ta’riflaydi: “maoniy durining g’ilofi” Sultoni, “ulum ichra monandi yo’q” Sodiq, “g’azal ahli shirin bayoni” Sa’diy, “xushfahmu fozil, adibu komil” Bayoniy, “hamma nuktasi asru shirin” Oqil va ularning payrav g’azallari oldidan bitgan ma’lumot - masnaviylarida bu fikrlar yanada kengroq ifodalanadi.

“Haft shuaro”ning badiiy asarlar qismi Murodiyning (1854-1908) yigirma g’azali, besh muxammas, bir musaddas, bir qasida va bir ruboiysi bilan boshlanadi. Turli janrdagi bu asarlar asl ismi To’ramurod bo’lgan Murodiyning ancha yetuk shoir ekanini ko’rsatadi. Shoir haqidagi bu fikrni Laffasiyning tazkirasida keltirgan quyidagi mulohazalar ham isbotlaydi: “Murodiyning she’rlari ma’ni jihatdan bir daryoyi ummon bo’lib, ilm g’avvoslari durri javohir, la’li sadaf ijrosidin hosil bo’lgani kabi, Murodiyning dil she’ridin yuzlarcha ma’ni mafg’ul hosil erdilar”. [4]

Muhammad Yusufbek Bayoniy bu fikrlarni yanada to’ldirib, “To’ramurod to’rakim, xon hazratlarining birodarlari erdilar, ellik to’rt yoshlarida olami foniydin saroyi boqiyga rihlat ko’rguzdilar. Ul hazratdin ikki o’g’il yodgor qoldi. Biri Rahmonquli to’ra va biri Xudoyquli to’radirlar”, – deb yozadi va Murodiyga bag’ishlangan g’azalini keltiradi. [5]

Majmuadagi shoirlardan biri Farrux (1873-1918) bo’lib, u Feruzning o’g’li Asfandiyordir. U haqida majmuada shunday so’zlar bitilgan:

“Bismillahir rahmanir rahim. Sayid Asfandiyor to‘ra Zayd Umar mutaxallusi Farruxi valadi Sulaymon nishon va Sayid Muhammad Rahim Bahodirxoni Soniy davom davlati va shavkati”.[6]

Farrux shaxsiyati va ijodi haqida kitobda boshqa ma‘lumotlar yo‘q. Bu holni tushunish mumkin. Nazarimizda, Bayoniy sanoqligina she‘rlar yozgan valiahd “shoir”ni ortiqcha maqtashdan ko‘ra, uning ijodi xususida sukut saqlashni ma‘qul ko‘rgan. Ba‘zi ma‘lumotlarni shu davrdan 38 yil o‘tgach tuzilgan Laffasiy tazkirasida uchramiz. Unda Asfandiyor yoshligidan ancha bilimlarni egallagani, ma‘rifatga intilgani va “otasi Muhammad Rahimxonga ma‘qul bo‘lmoqlik uchun Farrux taxallusi bilan she‘r mashq qilib, oshiqona abiyotlar yozgani” ta‘kidlanib, shaxsiyati xususida yana quyidagilar bitilgan: “Xiva xonligi hukumatiga ega bo‘lgach, ul (Asfandiyor – I.X) o‘ziga kibr paydo qilib, zolimona ishlar qilib, fuqarolarga jabr-sitamlar etib” – “hamisha fikridir ishq majoziy, parichehra gulandomlar birla soziy”[4,30-31]. Bu o‘rinda Laffasiy Farrux xarakteri, xulq-atvoriga xolis yondashib, uning shoirligi otasiga ma‘qul bo‘lish majburiyatining natijasi ekaniga alohida urg‘u beradiki, bu fikr Farruxning 1906-yildan so‘ng ijod qilmagani va avval muxtasar devon tuzganiga (jami 17 g‘azal, 2 muxammas, 1 ruboiy) guvohlik beradi. Ko‘pchilik she‘rlarida ham tor intim kechinmalarning talqini ustuvorligini “Haft shuaro”dagi she‘rlari ko‘rsatib turibdi. Nazarimizda Asfandiyorxonning shoh va shoir sifatidagi shaxsiyati juda murakkab. Keyingi davrlarda xon sifatida qoralangan Asfandiyor shoir Farrux sifatida e‘tirof etish ko‘zga tashlanmoqda. Ushbu tamoyilni adabiyotshunos H.Abdullayev quyidagicha rad etadi: “tarixda zolimligi bilan nom chiqargan, o‘nlab norasida qizlarning hayotini xazon etgan xonning “she‘riyat”ini nahotki uning siyosati, axloqi va faoliyatidan ajratib bo‘lsa? Zero, xon sifatida insonni tahqirlagan shaxsni ayni paytda shoir sifatida insoniy muhabbatni ulug‘lashiga ishonib bo‘ladimi?”[7]. Biroq 2006-yili chop etilgan “Farrux. Yod etib mandin degil”[8] nomli kitobda Asfandiyorxonning shoh va shoir sifatidagi shaxsiyati yangi nuqtayi nazardan ijobiy hamda xolis yoritilgan. Adabiyotshunos olim N.Jumaxo‘janing “Bunyodkor inson, nozikta‘b shoir” sarlavhali so‘zboshisi hamda J.Jo‘rayevning so‘ngso‘zida Asfandiyorxon – Farruxning shaxsiyati, ijodiyoti atroflicha tahlil etilgan.

Darhaqiqat, ijodkor asari uning shaxsi va dunyoqarashi mujassaming ifodasi ekanligi haqidagi adolatli fikrni quvvatlaymiz.

O‘z asarlari bilan majmuadan eng salmoqli o‘rin egallagan shoir Sultoniydir (1889-1944). Feruzning sevimli nabirasi bo‘lgan Said Nosir to‘raga bu taxallusni bobosi bergan. Bayoniydan ta‘lim olgan Sultoniylar turli janrlarda ijod qilgan. Majmuadagi Bayoniyning so‘zboshisida unga shunday ta‘rif beriladi: “Kim ushbu shahzodayi mushorun ilayh chun podshohi oliyjah atoullohu taolo umruhu va davlatuhu nabiralari jumlaridind erdilar. Soyai inoyatlarida ta‘lim va tarbiyatlar birla sarafroz bo‘lib, ham ul turluk fazlu hunarlar birlakim, oning birlan el oralarida mashhurdirlar, shuhrai ofoq bo‘ldilar. Ash‘orlari el oralarida mutafarriq bo‘lib, har kimga taajjub yuzidan oning tamoshosiga shavq paydo bo‘lur va har ko‘ngulga oning ma‘nolari andishasida va inbisot yuzlanur erdi”[6,36].

“Turli fazlu hunarlar birla mashhur”, “ash‘orlari el oralarida mutafarriq” bo‘lgan Sultoniylar haqida tazkiralarda ham yuqoridagi fikrga monand ancha batafsil ma‘lumotlar bor. Jumladan, Tabibiyda :

Chu Sultoniylar xushfazzal shoir erur,

G‘azal degali asru mohir erur [10,1675].

Laffasiyda: “Sultoniylar Feruzga payrav ancha g‘azallar yozib turg‘onidan boshqa . . . bir devon asar ham yozadi. Sultoniylarning ko‘pchilik g‘azallari oshiqona va falsafalardan iboratdur” [4,32].

Xodimda: “Shoir Sultoniylar – Nosir to‘ra mansabdor bo‘lgan emas. Yusufbek (Bayoniy – I.X) unga yetti yoshidan boshlab she‘r mashqi ta‘limini bergan. To‘ra bitgan she‘rini o‘z qo‘li birla Muhammad Rahimxonga o‘zi kiritib berar edi” [9, 31-32].

Turli davrlar mualliflariga mansub bu fikrlar Sultoniylarning talantli shahzoda shoirlardan biri va saroy adabiy muhitining faol vakili ekaniga dalildir.

She‘rlari bilan majmuadan o‘rin olgan shoirlardan yana biri Sodiqlar (1860-1930). Uning shaxsiyati va ijodi xususida tazkiralardagi ma‘lumotlar diqqatga molikdir. Ulardan ma‘lum bo‘lishicha, shoirlarning ismi Rahmonquli bo‘lib, u shoir Murodiyning o‘g‘li, ya‘ni Feruzning jiyani. Fors, arab tillarini, adabiyotini, Xorazm tarixini puxta bilgan Sodiqlar talantli tarjimon va hattot ham bo‘lgan. Tabibiy uni:

“Dag‘i Sodiqlar ul sohibi ilmu hol,

Mudom etgusi ma‘ni darsin xayol” [10,1176],–

deya ta‘rif etsa, Laffasiylar she‘rlarini daryoi ummondagi durri javohirga qiyos qilar ekan, yana bir iqtidori haqida yozadi: “Sodiqlar fasohat lisonlig‘idin ziyodiy xushxon bo‘lganidek, xatti suls, xatti kufiy, xatti rayhoniylar, xatti shikastalarni ham ona tili kabi o‘qiganidek ham yozar erdi” [4,34]. Shuningdek, shoir Asfandiyor davrida haqorat va xusumatlar tufayli xo‘rlangani ham qayd etiladi. Sodiqlarning tashqi va ma‘naviy qiyofasi esa Xodim tazkirasida yorqin aks etgan: “Rahmonquli madrasada oxun bo‘lib, dars aytuvga ham kuchli edi. U qora soqol, uzun chechak yuzli, xushfe‘l, vijdonli odam edi. O‘zi kambag‘al odam bo‘lib, to‘ralik dag‘dag‘asi yo‘q edi. Yuvosh, lekin g‘oyat ishchan edi” [9,34-35].

Manbalarda Sa’diy (vafoti 1937y) taxallusli shoir shahzoda ijodkorlar orasida o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turishi bayon etiladi. Ta’kidlanishicha, uning asl ismi Sa’dulla bo‘lib, u Feruzning o‘g‘li Said Abdulloning farzandi, shohning nevarasidir. Feruz tarbiyasida kamol topgan, zullisonayn shoir bo‘lgan, devon tuzgan, Bayoniydan ta’lim olgan. Tazkiralarda uning shaxsiyati, ijtimoiy ahvoli va iqtidori xususida faqat ijobiy fikrlarni uchramiz. Jumladan, Tabibiy Sa’diy haqida:

Durri bahri donish kalomi oning,

Ki Sa’dulla shahzoda nomi oning [10,227], –

deb yozadi. Laffasiyda esa boshqa shaxsiy sifatleri ham bayon qilingan. Chunonchi “...ul yoshlig‘idan jununta‘b, ko‘sa, qo‘tir, egni qisiq ho‘kki bo‘lib, anchalik ilm-fan egasi bo‘ladur, Feruzga payrav to‘rtlik abyotlar yozadur. Sa’diyning asarlari tamomi bir sho‘x ma‘shuqona bo‘lsa-da, ma‘ni jihatdan har bir dona bayti bir gavhari yakto erdi” [4,35-36].

Bu fikrlar Xodim talqinida yanada kengayib, shoir xarakterining ayrim qirralari alohida qayd etiladi. Tazkirachi yozadi: “Sa’dulla to‘ra Xivaning tashqari qal‘asida, Nurullabek hovlisida tug‘ilgan. U juda zehni o‘tkir odam edi. Bir ko‘rgan narsasini, xoh arabiy bo‘lsin, xoh forsiy bo‘lsin, darrov yodlab olar edi. Sa’dulla to‘ra mansabdor bo‘lgan emas. Har bir ishga mohir bo‘lgani uchun Yusufbek Bayoniy ustodligi birla o‘zi ham ilmga chanqoq odamligidan shoir bo‘lg‘on, 60 yoshlarida vafot etgan” [9,35-36].

Shuningdek, Sa’diy zamondoshlari uni qiziqish doirasi keng shaxs, faol kitobxon va usta shaxmatchi sifatida ham eslashadi.

Tazkiralarda qayd etilishicha, shahzoda shoirlardan Oqil (1874-1929) o‘zining ko‘p qirrali faoliyati bilan o‘zgachalik kasb etgan ijodkordir. “Oqil” shoirning taxallusi bo‘lib, asl ismi Otabek bo‘lib, Feruzning jiyani, ya‘ni opasining o‘g‘lidir. Manbalarda Oqilni xarakterlovchi umumiy yakdil fikr – uning yetuk shoir, san‘atkor, musiqashunos, rassom, xattot va saxovatpesha ekanligidir. Jumladan, Tabibiy Oqilning ijodiy iqtidorini yuksak baholab:

Kelib Oqil ul hushmandu fahim,

Tabiat ang o borho mustaqim [10, 1010-1053], –

desa, Laffasiy uning boshqa fazilatlarini kengroq aks ettiradi. Jumladan, u yozadi: “Oqil ersa uzun bo‘ylug‘, chechak yuzli, sariq mayiz, cho‘qqi soqollik erdi, oning fazlini ko‘rgan zamono Arastu – Aflotunlari musallam qilur erdilar. Oqil doim jurnal, gazet o‘qib, dunyo siyosatidin boxabar bo‘lib turar erdi, o‘ziga maxsus kitobxona – “Xayriyoti kutub” qilib, hamma vaqtlar yetim o‘g‘lon, tul-bevalarni turlik ovqat va kiyimlar bilan shikasta dillarini marhamat qilib turar erdi” [4,38]. Bu sifatlar Xodim tazkiralarda saqlangani holda uning ijodiy qobiliyati va xulq-atvori ta‘rifiga alohida urg‘u beradi: “u eski maktabni to‘liq bitkazgan, juda ham zehni bo‘lgan. Garchi madrasa ta‘limini olmagan bo‘lsa ham, olimlar bilan ko‘p suhbatlar qilg‘on. U turli ilmlar bilan tanish edi, 25 yoshidan shoirlilik bilan shug‘ullana boshlag‘on, soz ilmidan olti yarim maqomni ham bilar edi, ham tanbur, ham g‘ijjak, ham doira, ham dutor cherta bilar, lekin ayta bilmas edi. Otabek to‘ra juda ham saxiy edi, uzun bo‘yli, qora soqolli, xushbichim odam edi, so‘zlari mazmunli, shirali edi” [9,44].

Manbalardagi eng batafsil adabiy ma‘lumotlar Muhammad Yusufbek Bayoniyga (1840-1923) tegishlidir. Garchi Bayoniy lirikasi adabiyotshunoslikda birmuncha o‘rganilgan, tarixiy asarlari chop etilgan bo‘lsa ham, u haqida tazkiralardagi ma‘lumotlar, xususan, shaxsiyati bilan bog‘liq tafsilotlar tahlil etilmay kelindi. Bu tabiiy. Chunki Bayoniy Feruzning eng yaqin do‘sti, nevaralarining ustoz bo‘lish bilan birga, adabiy muhitning yirik namoyandalaridan biri va shohning yaqin maslakdoshi ham edi. Bu xususiyatlar uning barkamol inson va sermahsul ijodkor sifatidagi shaxsiyatini el orasida mashhur qildi. Bu haqida tazkiralarda ham ancha ma‘lumotlar saqlanib qolgan. Tabibiy tazkirasida Bayoniy to‘g‘risida quyidagi masnaviyini o‘qiymiz:

Bayoniyki ul donish ogoh erur,

G‘azal ahliga murshidi roh erur [10,448].

Bu o‘rinda Bayoniyning shoirlilikda yuksak mahorati ta’kidlansa, boshqa manbalardagi talqinlar bir-birini to‘ldirib, shoirning mukammal qiyofasini gavdalantiradi. Laffasiy tazkirasining “Bayoniykim Muhammad Yusufbek ahvoloti” qismida Bayoniyning forsiy, arab, turk tillarini bilgani, tarixchi, tarjimon, ma‘rifatparvarligi qayd etiladi va “yoshlig‘idan yaxshigina farosatlig‘, ziyrak bo‘lib, akasi Yaxshimuroddan ta‘lim oladi, tanbur, g‘ijjakka ham ma‘rifatli bo‘lib, shaxmatda ham juda tez fahmlik usto bo‘ladur”, – deyiladi [4,41].

Xodim tazkirasida esa Bayoniy shaxsiyatining boshqa ibratli jihatlari e‘tibor berilgan. U yozadi: “Eski maktabni bitirgach, tabiblik ilmidan ancha xabardor bo‘lg‘on, madrasa ta‘limini olib, ilmi oshib ketgan. Yusufbek Bayoniy mansabdor bo‘lg‘on emas, qo‘lining kuchi bilan kun kechirgan, olti yarim maqom sozni to‘liq bilar edi. U ko‘rinishdan uzun bo‘yli, xushbichim, sariq soqol, kambag‘al odam edi.

Shunday bo'lsa ham, har bir kuni mehmonsiz o'tmas edi, kiyimlarini toza tutar, o'zi o'ta ketgan saxiy, suhbat ma'noli, odatlari ham yaxshi, shirinso'z kishi edi” [9,40-41].

**Xulosa.** Jahon fanining gnoseologik ta'limotiga ko'ra, ijod xil bo'lishi mumkin: a) ijod — boshqalar uchun kashfiyot sifatida, b) ijod — o'zi uchun yangilik sifatida. Birinchi holatda natija ijtimoiy ahamiyat kasb etsa, ikkinchi holatda esa - natija bunday xususiyatga ega emas. Ijodiy jarayon - murakkab psixologik tabiatga ega ekanligi tufayli dastlab ijod psixologiyasida san'at va adabiyot sohasida ishlaydigan kishilarning faoliyati o'rganilgan (badiiy ijod), xolos. [11]

Yuqoridagi fikrlar bayon etilgan tazkiralarning “Haft shuaro”ga munosabatida yana bir jihatni alohida ta'kidlash joiz: tazkiralar mualliflari majmuaga kirgan shahzoda shoirlar bilan bir vaqtda va bir adabiy muhitda yashab ijod etishgan ma'rifatliligi, ziyoli shoirlar bo'lib, o'zlari bilgan adabiy-tarixiy ma'lumotlarga asoslanishgan. Shunga qaramay, o'sha davr saroy sharoiti va subyektiv sabablarga ko'ra ularning qarashlarida tarafdorlik yoki faktlarni sharhlashda noaniqliklarga yo'l qo'yish mavjud. Chunonchi, Tabiiy tazkirasi shahzoda shoirlarning hammasi hayotligi davrida Feruz nazoratida tuzilgani bois ular sha'niga maqto'v ohanglarining ustuvor bo'lishi tabiiydir. Laffasiy tazkirasi esa XX asrning 40-yillarida yaratilgani sababli unda tanqidiy munosabat aks etadi. Jumladan, Farruxning zolim va johilligi, Sultoniylar xarakteridagi xasislik, Xodim tazkirasida Sa'diy axloqidagi qusurlar qayd etiladi. Shuningdek, tazkirachining “Bayoniy shoirlar bilan 40 yoshlarida shug'ullangan bo'lsa, ehtimol”, degan fikri shubhalidir. Vaholanki, shoir bu yoshgacha qator she'rlar yozishga ulgurgan edi. Ayrim shoirlarning tavallud va vafoti sanalari talqinida ham tafvutlar bor (Sodiq va Sa'diy). Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, tazkiralardagi ma'lumotlarda tuzuvchilarning ayrim subyektiv qarashlari, shaxsiy mayllari, turlicha yondashuvlari ham bo'lishi tabiiy. Buni Avaz haqidagi ta'riflarda ham ko'rish mumkin. Jumladan, Laffasiy tazkirasida Avazning “xalq shikasta ko'ngliga yaqin fikrda ekanligi” ta'kidlansa, Xodim tazkirasida “og'zi juda beparovuz (shakkok) edi”, – deyiladi. Shunga qaramay, har bir tazkira fakt va ma'lumotlar xarakteriga ko'ra muhim va o'ziga xosdir. Jumladan, Laffasiy tazkirasida shahzoda shoirlarning har biri ahvoluti bayoniga alohida qism ajratilgan va ularning she'rlari asosida “Haft shuaro” tuzilgani takror qayd etilsa, Xodim tazkirasida Feruz vafotidan so'ng shoirlarning jafoli hayoti, Sultoniylar va Sa'diylarning sho'ro qatag'oniga uchrashi va keyingi qismati xususida zarur ma'lumotlar berilgan.

Umuman, tazkiralardagi ma'lumotlar “Haft shuaro”dagi asarlarning mazmun-mohiyatini, ularda shoirlar shaxsiyati va dunyoqarashining aks etishini hamda boshqa badiiy-estetik masalalarni izchil tadqiq etishga xizmat qiladi. O'z navbatida talabalarning merosga nisbatan qiziqishini uyg'otadi.

Ma'lumki, psixologiyada qiziqish - bu shaxsning o'zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qiziqishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qiziqishlar o'quvchilar hayotida katta rol o'ynaydi. Ular o'quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar — motivlaridir.[12]

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O'qituvchi va murabbiylar” kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Elektron resurs: [www.uza.uz](http://www.uza.uz).
2. Белинский В.Г. Собрания сочинений в трёх томах. Ташкент: III.M.1971.C.374.
3. Haqqulov I. She'riyat - ruhiy munosabat. –T.: Adabiyot va san'at, 1990.- B 216.
4. Laffasiy. Tazkirayi shuaro. Urganch: Xorazm, 1992- B 72.
5. Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. Nashrga tayyorlovchilar Jumaxo'ja N., Adizova I. Toshkent.: Adabiyot va san'at, 1994 -B.92-93.
6. Haft shuaro-1906. O'zRFASHI. Inv. 10374.- B.23.
7. Abdullayev H. So'z sehri. To'plam.T.: TDPU, 2005.-B.36.
8. Farrux. Yod etib mandin degil. T.: Zarqalam, 2006. B.23.
9. Bobojon Tarroh Azizov – Xodim. Xorazm navozandalari: XIX asr oxiri XX asr boshlarida Sayid Muhammad Rahimxon soniy davrida yashagan shoirlar haqida esdaliklar. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1994. – 94 b.
10. Ahmad Tabiiy. Majmuasi shuaro payravi Firuzshohiy: qo'lyozma. O'z FASHI. Inv. № 1152. №8734, 27, 28, 29, 11238. Inv.№5018.
11. Do'stmuhamedova Sh.A va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.T., 2013. B.363.
12. Umarov B.M. Psixologiya. Darslik. T. 2012. 28-b.
13. Amonova Z., To'rayeva M. Alisher Navoiy she'riyatida inson tana a'zolarining qo'llanilishi //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 5. – C. 79-83.

14. Amonova Z., Olimova M. Huvaydoning yangi topilgan she’rlari //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2022. – T. 3. – №. 3.

15. Amonova Z. Jamoling Mus’haf (Mus’haf countenance) //Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.

## МОРАЛЬНО-ДУХОВНОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ

*Темирова Дилором Каюмовна,*

*преподаватель Каршинского экономико-педагогического университета*

*temirovadilorom1974@gmail.com*

*Сегодня одной из основных целей нашего государства является воспитание молодёжи, являющейся фундаментом будущего, в духовном, культурном, нравственном, политическом, правовом, экономическом, социальном плане зрелого самостоятельного мыслящего поколения.*

*В статье рассматриваются вопросы духовно-нравственного воспитания молодёжи, их активная роль в обществе, а также методика проведения учебно-воспитательных мероприятий по формированию и развитию морально-нравственных качеств личности.*

**Ключевые слова:** *мораль, нравственность, духовность, образование, учебно-воспитательные мероприятия, самостоятельное мышление, независимость, ответственность, активная деятельность в обществе.*

## HOZIRGI DAVRDA YOSHLARNING AXLOQIY-MA'NAVIY TARBIYASI

*Bugungi kunda kelajak poydevori bo'lgan yoshlarni ma'naviy, madaniy, axloqiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan yetuk, mustaqil fikrlaydigan avlod etib tarbiyalash davlatimizning asosiy maqsadlaridan biridir.*

*Maqolada yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularning jamiyatdagi faol roli, shuningdek, shaxsning axloqiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish metodikasi masalalari muhokama qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *axloq, ma'naviyat, tarbiya, tarbiyaviy faoliyat, mustaqil fikrlash, mustaqillik, mas'uliyat, jamiyat hayotida faol ishtirok etish.*

## MORAL AND SPIRITUAL EDUCATION OF YOUTH AT THE CONTEMPORARY STAGE

*Today, one of the main goals of our state is to educate young people, who are the foundation of the future, as a spiritual, cultural, moral, political, legal, economic, and social mature, independent thinking generation.*

*The article discusses the issues of spiritual and moral education of young people, their active role in society, as well as the methodology for conducting educational activities for the formation and development of moral qualities of the individual.*

**Keywords:** *morality, ethics, spirituality, education, educational activities, independent thinking, independence, responsibility, active work in society.*

**Введение.** Актуальность проблемы морально-духовного воспитания молодёжи очевидна. За молодежью будущее всего человечества, а значит, проблемы молодёжи необходимо рассматривать как общечеловеческие проблемы.

В целях обеспечения реализации Постановления Президента Республики Узбекистан № ПП-4307 от 3 мая 2019 года «О дополнительных мерах по повышению эффективности духовно-просветительской работы», а также воспитания молодёжи как активных граждан с широким кругозором для самостоятельной жизни в нашей стране осуществляется широкий охват. Целью данной концепции является поэтапное обучение с учётом возраста формированию у подрастающего поколения социальных качеств и качеств, необходимых для самостоятельной и счастливой жизни. Образование не может быть отделено от воспитания, воспитание от образования, только когда эти два процесса организованы на гармоничной, непрерывной основе, воспитывают патриотическую молодёжь, обладающую хорошими манерами, нравственными качествами, высокой духовностью, в то же время образованную, интеллигентную, духовно и физически здоровую, с широким кругозором и мышлением, современную профессию.

**Основная часть.** Сегодня одной из основных целей нашего государства является воспитание молодёжи, являющейся фундаментом будущего, в духовном, культурном, нравственном, политическом, правовом, экономическом, социальном плане зрелого самостоятельного мыслящего поколения. Как отметил глава нашего государства Шавкат Мирзиёев, один из важнейших вопросов,

который всегда нас волнует, касается нравственного облика нашей молодёжи, её мировоззрения. Сегодня стремительно меняется время. Кто больше всех чувствует эти изменения и перемены? Конечно, молодёжь. Безусловно, пусть молодёжь шагает в ногу со временем, отвечает его требованиям. Однако в то же время она не должна терять свою национальную идентичность. Мысль о том, кто мы, потомками каких великих предков мы являемся, пусть всегда эхом отдаётся в её сердцах и призывает быть приверженными национальному самосознанию. За счёт чего мы достигнем этого? Только благодаря воспитанию, воспитанию и только воспитанию. Эти задачи возлагают большую ответственность на школу, семью, махаллю, всю общественность. Осуществляемая в нашей стране работа по совершенствованию всех звеньев сферы образования и воспитания - системы дошкольного, школьного, среднего специального и высшего образования, возведению новых и реконструкции имеющихся образовательных учреждений даст свои результаты в деле формирования молодого поколения гармонично развитыми личностями [1].

Первый Президент Республики Узбекистан И. Каримов подчёркивал: «Духовный фундамент нашего дома, опоры будущего нашего государства - очень древние и очень прочные. Этого никто не может отрицать. Наша история уходит корнями в глубь тысячелетий». Обращаясь к истории, необходимо помнить, что это «память народа» и поэтому требует к себе бережного и уважительного отношения. Люди, не обладающие исторической памятью, превращаются в манкуртов, людей без родины, без нравственности, без гражданской позиции. Знание истории способствует не только осознанию своего прошлого, но и позволяет ориентироваться в современных проблемах, выбирать свою дорогу в жизни, определять путь в будущее. Изучение богатого, поистине уникального прошлого нашего народа через призму важнейших исторических фактов, событий, явлений, процессов, вклада наших великих предков в сокровищницу мировой цивилизации, деятельности широких народных масс, их борьбы за прогресс и процветание Отечества, за свою свободу и независимость; анализ социально-политических, экономических и культурных аспектов исторического развития нашего региона с древнейших времён до наших дней, в тесной взаимосвязи со всемирной историей, является основной целью изучения курса. Представление молодому поколению истории Узбекистана со всеми её светлыми и тёмными сторонами, с многообразием общественно-политических, экономических и культурных связей и перспектив общественного развития, с кипением человеческих страстей и столкновением личностей, со всеми сложностями и противоречиями; повышение политической культуры молодёжи, формулирование социальных ориентиров, что является жизненно необходимым в новом для нас, плюралистическом обществе, с разными позициями, с многообразием подходов, многопартийностью является основой воспитания у молодого поколения высокой духовности и нравственности. Интерес к истокам, интерес к тому, как мы пришли к сегодняшним свершениям, не только не ослабевает, но и усиливается год от года [2].

Воспитание молодёжи как формирование развитой личности составляет одну из главных задач современного общества. Преодоление отчуждения человека от его самой сущности, формирование духовно развитой личности в процессе исторического развития общества не совершается автоматически. Оно требует усилий со стороны людей, и эти усилия направляются как на создание материальных возможностей, объективных социальных условий, так и на реализацию открывающихся на каждом историческом этапе новых возможностей для духовно-нравственного совершенствования человека. В этом двуедином процессе реальная возможность развития человека как личности обеспечивается всей совокупностью материальных и духовных ресурсов общества.

Однако наличие объективных условий само по себе ещё не решает задачу формирования развитой личности. Необходима организация систематического, базирующегося на знании и учёте объективных закономерностей развития молодёжи процесса воспитания, который служит необходимой и всеобщей формой этого развития.

Развитие свободной, гуманной, независимой и ответственной личности непосредственно связано с системой морально-духовных ценностей. Ведь духовность, нравственность так или иначе предусматривает выход за границы эгоистических интересов, личной пользы и сосредоточенность на морально-духовной культуре человечества. Поэтому и цели, и намерения духовно и морально зрелой личности, укоренённые в системе сверхиндивидуальных ценностей, выполняют функцию высшего критерия ориентирования в мире и почвы для личностного самоопределения.

*Что следует понимать под духовностью и моралью?*

Мораль — это система взглядов и представлений, норм и оценок, регулирующих поведение людей, а также это непосредственное человеческое поведение (мотивы поступков, результаты деятельности, чувства, мнения в человеческих отношениях). Это сфера субъективных представлений человека о добре и зле.



Нравственность — это практическая сторона морали, которая воплощается в поведении людей. Это способность совершать добрые поступки не по принуждению, а благодаря внутреннему сознанию, по принципу добровольности.

В словаре Ожегова «Духовность – это свойство души, состоящее в преобладании духовных, нравственных и интеллектуальных интересов над материальными» [3].

Духовность рассматривают иногда как всестороннее развитие личности, формирование высоконравственной, эстетично развитой личности, которая умеет творить и строить отношения по законам красоты. Порой её трактуют как внутреннее качество личности, один из факторов сознания человека.

Это устремлённость личности к избранным целям, ценностная характеристика сознания; определение человеческого способа жизни, выраженное в стремлении к познанию мира и, прежде всего, самого себя.

Проблема духовно-нравственного воспитания личности всегда была одной из актуальных, а в современных условиях она приобретает особое значение. “В нашей стране, - сказал глава государства Ш.М.Мирзиёев, – все проводимые реформы и преобразования, широкомасштабные программы являются едиными и они нацелены на великую цель. Эта цель состоит в том, чтобы воспитать наших детей зрелыми и компетентными во всех отношениях” [4; стр. 412.].

Одним из главных аспектов учебно-воспитательной работы в вузе является воспитание студентов на народных традициях, а задача духовно-нравственного воспитания является одной из приоритетных. Педагогический коллектив стремится к формированию у студентов следующих качеств:

- нравственных чувств (долга, веры, совести, ответственности, патриотизма, гражданственности);
- нравственного облика (милосердия, толерантности);
- нравственной позиции (способности к различению добра и зла, проявлению самоотверженной любви);
- нравственного поведения (готовности служению людям, своей Родине).

В учебно-воспитательном процессе могут использоваться методы убеждения, примера, стимулирования, поощрения. Целесообразно организовывать тематические вечера, беседы, специальные мероприятия, например, посещения музеев, знакомство и привлечение студентов к волонтерской деятельности. Могут проводиться ролевые игры, инсценировки, ставиться спектакли, показываться документальные и художественные фильмы с этической проблематикой. Важно приобщать к работе и родителей, семью.

Особое место занимают формы и методы работы, которые приобщают молодёжь к художественно-музыкальному миру, миру искусства, где запечатлены гуманистические ценности, где объединяются традиционные методы с художественной деятельностью самих студентов и т.п.

Конечным результатом применения всех активных и пассивных методов воспитания должно стать развитие нравственных чувств, убеждений и отношений, как отражения духовного уровня личности, усвоения ею нравственно-духовных ценностей и идеалов.

О нравственности человека можно говорить только тогда, когда он нравственно ведёт себя в силу внутреннего побуждения (потребности), когда в качестве контролирующего фактора выступают его собственные взгляды и убеждения. Выработка таких взглядов и убеждений и соответствующих им привычек поведения и составляют сущность нравственного воспитания.

О нравственности человека обычно судят по его поведению, но поведение – понятие весьма обширное и охватывает все стороны жизнедеятельности личности. Поэтому для раскрытия его нравственной сущности необходимо выделить какую-то наименьшую единицу, которая сохраняла бы свойства целого. Такой наименьшей единицей поведения может служить поступок.

Нравственная направленность личности раскрывается не в отдельных поступках, а в её общей деятельности, которая оценивается, прежде всего, через способность личности активно проявлять жизненную позицию. Нравственная ценность личности заключается в её готовности утверждать этические идеалы общества в выбранной области деятельности. Описанные подходы к понятиям духовность и нравственность при всем их разнообразии позволяют выделить некоторое инвариантное ядро, представленное во всех вышерассмотренных определениях этих явлений.

**Заключение.** По нашему мнению, духовно-нравственное воспитание молодёжи - объяснить им содержание морально-нравственных норм в обществе, чтобы представить важность этой нормы в общественной жизни, в которой национальные и культурные процесс поиска контента высоких человеческих качеств на основе их значения, развитие навыков нахождения в состоянии вступить в

позитивные отношения и саморазвитие как личности - это процесс определения содержания компетенций:

- привлечение студентов к изучению содержания духовно просветительских и исторических ценностей национального наследия, образа мышления, традиций, обычаев нашего народа, составляющих основу национальных ценностей;

- совершенствование разумного использования национальных ценностей в “часах духовности”, и “днях духовности”, проводимых в высшем учебном заведении;

- сохранять верность национальным ценностям, сохранять их, приумножать и передавать следующим поколениям, чтобы они были интегрированы в сознание каждого учащегося;

- воспитание у каждого учащегося чувства ответственности, осознания долга перед прошлыми предками, жизни на благо нации, развития Родины, вклада в авторитет нации, самоотверженного, честного труда, борьбы за славу народа, процветание страны;

- в процессе преподавания предметов, преподаваемых в высших учебных заведениях, использовать национальные ценности для подготовки людей профессий, обладающих глубокими знаниями, волей, верой, смелых, инициативных, деловых, терпеливых, отстаивающих свою точку зрения, достоинство;

- показать студентам, что каждой ценностью является формирование человеческой личности, особенно молодежи, ее долга, ответственности, гордости, статуса как гражданина;

- представлять студентам позицию национальных ценностей в социально-экономической, духовно-культурной и политической жизни;

- широкая пропаганда национальных ценностей среди студентов, осуществление широкого использования форм, методов, средств, пришедших на поле в процессе социального обновления творческого мышления в нем.

Всё это должно способствовать общему духовно-нравственному возрождению общества, его успешному развитию. А также положительно влиять на прогресс и формирование благополучия социума, преодоление кризисных, негативных явлений в социально-культурной жизни нашей страны.

Также учебно-воспитательный процесс в вузе предоставляет возможность студентам научиться государственному мышлению и подходам к актуальным вопросам современности, высоким морально-этическим требованиям к политике, реально представлять возможности, достижения и просчеты людей по устройству и созиданию правового социального государства, гражданского общества. Чтобы стать гражданином свободного, справедливого, демократического, независимого общества этому необходимо учиться, овладевать определенными способностями, это прежде всего: коммуникабельностью, аналитическим мышлением, толерантностью по отношению к окружающим, самостоятельностью, предприимчивостью, инициативностью и т.д. Долг педагогов высших учебных заведений — обучить студентов общечеловеческим ценностям, которые придают нашей многогранной жизни определенную осмысленность. Практической значимостью изучения общественно-гуманитарных дисциплин является привитие чувства патриотизма, расширение мировоззрения молодежи об истории края при разработке конкретных вопросов политики государственной независимости, построения демократического общества.

#### Литература:

1. Абдуллаев Д.Н. Изучение истории Узбекистана как основная задача воспитания молодёжи в духе идеологии национальной независимости. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://cyberiemnka.m/.../izucheme-istorii-uzbekistana-kak-osnovnaya-zadacha-voispit>. автор: ДН Абдуллаев, 2015

2. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка. М.: «Оникс», 2010.

3. Мирзиёев Ш.М. Мы твердо продолжим наш путь национального развития и поднимем его на новый уровень (том 1). – Т.: Узбекистан. НМУ, 2017. 592 б.

4. Гущина О. В. Современный поход к духовно-нравственному воспитанию учащихся // Научные труды SWorld. 2012. Т. 23. № 4. С. 61–66.

5. Махмудова Р. Н. Нравственное воспитание как психолого-педагогическая проблема // Педагогические науки. 2010. № 1. С. 77–81.

## CHAQIRIQQACHA YOSHLAR BILAN ISHLASHDA FANLARNI O‘RGANISH, ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH

*Abduraxmanov Sherzod Nazarbayevich,  
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,  
Harbiy ta’lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikl boshlig‘i*

*Chaqiriqqacha yoshlar bilan ishlashda jamiyatimiz takomillashib borayotgan bir sharoitda jamiyat a’zolarining, eng avvalo, yosh avlodning vatanparvarlik tarbiyasini yanada faollashtirish masalasi davr taqozosi sanaladi.*

*Hozirgi kunda vatanparvarlik tushunchasining mazmun va mohiyatini yurtimizdagi barcha ta’lim muassasalaridagi ta’lim sohasi bilan bogliqligi, mamlakat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining jadallashuvi, Vatanparvarlik tuyg‘usining oshib borishi bilan yuzaga kelgan an’analar yordamida yanada boyishi kerak. Shundan kelib chiqib o‘quvchi-yoshlar ta’lim jarayonida harbiy hayot bilan yaqindan tanishtirish, tinchlikni saqlash, yurtimizning mudofaa qudratini va sarhxadlarimizni himoya qilishni yanada kuchaytirish kabi yuksak maqsadlardan foydalangan holda ruhlantirish lozim.*

***Kalit so‘zlar:** Vatan, taraqqiyot, o‘smir, O‘zbekiston Respublikasi, jahon, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya, qonun, pedagogik va psixologik, chaqiriqqacha yoshlar bilan ishlash.*

## ИЗУЧЕНИЕ ДИСЦИПЛИН И ФОРМИРОВАНИЕ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ ПРИ РАБОТЕ С МОЛОДЁЖЬЮ

*В ситуации, когда наше общество совершенствуется в работе с молодёжью, вопрос воспитания патриотизма членов общества, прежде всего, молодого поколения, считается необходимостью времени.*

*Сегодня смысл и сущность понятия патриотизм должны ещё больше обогащаться с помощью традиций, созданных связью со сферой образования во всех учебных заведениях нашей страны, ускорением политического, социально-экономического развития страны, и ростом чувства патриотизма. Исходя из этого, необходимо поощрять студентов и молодёжь в процессе их обучения к таким высоким целям, как приобщение их к военной жизни, сохранение мира, дальнейшее укрепление оборонной мощи нашей страны и защита наших границ.*

***Ключевые слова:** Родина, развитие, подросток, Республика Узбекистан, мир, Япония, Южная Корея, Сингапур, Малайзия, закон, педагогико-психологическое, работа с молодёжью до призыва.*

## LEARNING SCIENCES AND FORMING THE SCIENTIFIC WORLD VIEW WHEN WORKING WITH YOUNG PEOPLE

*In a situation where our society is improving in working with young people, the issue of patriotism education of society members, first of all, the younger generation, is considered a necessity of the time.*

*Today, the meaning and essence of the concept of patriotism should be further enriched with the help of the traditions created by the connection with the field of education in all educational institutions of our country, the acceleration of the country's political, socio-economic development, and the growth of the sense of patriotism. Based on this, it is necessary to encourage students and young people in the course of their education with such lofty goals as familiarizing them with military life, maintaining peace, and further strengthening the defense power of our country and the protection of our borders.*

***Keywords:** Homeland, development, teenager, Republic of Uzbekistan, world, Japan, South Korea, Singapore, Malaysia, law, pedagogical and psychological, work with youth up to the draft.*

**Kirish.** Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev [1;89] o‘z nutqlaridan birida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya o‘ta muhim, nozik va hal qiluvchi masala ekanligini ta’kidlab, bugungi yoshlar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonida ulardagi vatanparvarlik sifatlarini voyaga yetkazishning yangicha tizimini ishlab chiqish vazifalarini kun tartibiga qo‘ydilar. Yurtboshimiz bu jarayonda tarixiy an’analar hamda xorijiy mamlakatlar tajribalari umumlashtirib, zamonaviy ilmiy asosda yurtimizda bolalar va o‘smirlarning vatanparvarlik tashkilotlarini tuzish kabi tavsiyalarni berdi. Yoshlarning harbiy hayot, jismoniy tarbiya bilan bog‘liq tadbirlarda ishtirok etishida qog‘ozbozlik, yuzakilik va sustkashlikka yo‘l qo‘yish katta xato ekanligi ta’kidlandi. Shu sababli o‘quvchi yoshlardagi vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning yangicha

uslublarini ishlab chiqish va bu boradagi ishlarni jadalashtirish dolzarb masala sifatida kurilmoqda[8;98].

Vatanimiz hayotiga doir rivojlanish, taraqqiyot ko'rsatkichlari vatanparvarlik tarbiyasi jarayoni samaradorligini oshirish uchun eng real ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Masalan, O'zbekistonda o'smir yoshdagilarning bo'y ko'rsatkichlari Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti standartlariga mos keladigan 14 yoshli o'g'il bolalarning ulushi bugungi kunda mamlakatimiz bo'yicha 94,2 foizga teng, ya'ni 14 yoshdagi o'g'il-qizlarimizning bo'yi keyingi o'n yilda o'rtacha 2,8 santimetrغا o'sgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlashga ko'maklashadigan muqaddas kitob Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Shayx Najmiddin Kubro, Az-Zamaxshariy, Bahouddin Naqshband singari ulamoyu fuzalolarning mo'tabar asarlari hisoblanadi, ushbu kitoblarni o'qitish va o'rganish komil inson tarbiyasida hal qiluvchi rolni o'ynaydi.

Yosh avlodning to'g'ri kasbni tanlab va egallab, baxt-saodatga erishishning ahamiyati va uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi tutgan o'rni haqida ko'p fikr-mulohazalar tarixdan bizga ma'lum. Qomusiy olim Beruniy inson kamolotida mehnat tarbiyasi haqida bir qancha muhim fikrlarni bayon etadi va o'z asarlarida har bir hunar egasini mehnat turiga qarab guruhlarga bo'ladi. Ayniqsa, ilm ahli-olimlar mehnatiga alohida e'tibor berish, ularga xayrixoh bo'lishga chaqiradi. U ma'rifat tarqatuvchilarni jamiyat ravnaqiga hissa qo'shuvchi asosiy shaxslar deb ta'riflaydi. Shu bilan birga og'ir mehnat qiluvchi jamiyat a'zolari (quruvchilar, dehqonlar) haqida o'z fikrlarini bayon etib, ularning mehnatini doimiy ravishda rag'batlantirib turish kerakligini ta'kidlaydi[10;24].

Atoqli olim va faylasuf Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Uning fikricha, o'spirin yigit ma'lum bir hunarni o'rganib, uni hayotga tatbiq eta olsagina otasi uni mustaqil hayot kechirishga loyiq deb hisoblaydi. Hunarni o'rganish orqali shaxsda sabr-toqatlilik, chidamlilik, mehnatsevarlik, zukkolik, ishbilarmonlik kabi sifatlar shakllanadi. Ibn Sino bolalarga Qur'onni va grammatik qoidalarni o'rgatib, dinning maqsadlarini tushuntirib bo'lganidan so'ng, ularni ma'lum hunarga jalb etishni, hunar asoslarini egallashlariga diqqat qaratishni, ular hunarni egallab, o'z hayotlarini ta'minlay olishlariga e'tibor berishni tavsiya etadi. O'qituvchi bolani hunarga o'rgatishda uning qobiliyati, iste'dodi, imkoniyatlarini e'tiborga olishi kerak. Tahsil oluvchining yoshligidan ilm-fan yoki hunar egallashga intilishida tahsil beruvchining unga bilim, hunar o'rgatishi shartligini uqtiradi. Kasb egallashga intilish insonning eng oliy ma'naviy harakatlaridandir. Shuningdek, ilm - jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib, odamni ma'naviy yuksaklikka ko'taradi.

Yusuf xos Hojib turli kasb egalarining jamiyatdagi ahamiyati haqidagi fikrlarida dehqonlar, savdogarlar, tabiblar, chorvadorlar, olimlarning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda tutgan o'rnini yuqori baholaydi va ularning mehnatini e'zozlash, qadriga yetish zarurligini ta'kidlaydi hamda uning muqaddas ekanligini ta'riflaydi. Bu qarashlarida olim jamiyatning gullab-yashnashiga sababchi bo'lgan barcha kasb-hunar egasini ulug'laydi.

Abu Nasr Forobiy o'rta asrlardagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarning qariyb barcha sohalariga doir asarlar yaratadi. O'rta asr Sharq falsafa maktabining shakllanishiga ulkan hissa qo'shadi. Forobiyning ta'lim-tarbiya, uning inson kamolotida tutgan o'rni haqida bir qancha mulohazalari mavjud[7;89].

**Natijalar.** O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga zamon talablariga mos ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, salohiyatli yoshlarga tafovutlab yondashish orqali ularning barkamolligini ta'minlash asosiy dolzarb muammo sanaladi. Shu sababli iqtidorli yoshlarni aniqlash muammosi o'z yechimini kutayotgan masala hisoblanadi. Jahonning rivojlangan mamlakatlaridan bo'lgan Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziyaning yer maydonlari katta bo'lmagani, tabiiy zahiralari chegaralanganiga qaramay, iqtisodiy jihatdan yuqori o'rinlarni egallashlarining asosiy sabablaridan biri intellektual resurslardan oqilona va o'z o'rnida foydalanishlari bo'lgan [2;51].

Yuqorida qayd etilgan mamlakatlarda ta'lim tarbiya jarayonini fan va texnikaning so'nggi yutuqlari asosida tashkil qilish, tahsil oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkam o'zlashtirishiga zamin yaratish barobarida iqtidorli yoshlarni aniqlashga e'tibor qaratilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilgan tamoyillardan biri iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning qiziqishi va ehtiyojini e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan. O'sib borayotgan yoshlardan iqtidorlilarni tanlash va ularga alohida e'tibor bilan qarash masalalari doimo mamlakatimizning kun tartibida bo'lgan [9].

Chaqiriqqacha yoshlar bilan ishlash bo'yicha amaldagi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar quyidagilar:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Mudofaa to'g'risida", 2001-yil 11-may.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida", 2002-yil 12-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 8-noyabrdagi 591-son qarori bilan

tasdiqlangan “Ta’lim muassasalarida Chaqiruvga qadar boshlang’ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to’g’risida”gi Nizom.

4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida”, 2015-yil 4-sentabr.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-dekabrda 775-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalarida o‘qishga nomzodlarni saralab olish va qabul qilish, kursantlarni o‘qishdan chetlashtirish va qayta tiklash tartibi to’g’risida”gi nizom.

1. O‘zbekiston Mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Ustavi. 2016-yil 4-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatga olingan.

Chaqiriqqacha yoshlar bilan ishlashni tashkil qilish hamda yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash ishlari sohasidagi o‘zgarishlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni, shuningdek, tashkiliy-uslubiy jihatlarini hozirgi talablar darajasida takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Buning uchun chaqiriqqacha yoshlar bilan ishlash bo‘yicha samarali ta’lim-tarbiya shakl va usullarini tanlash va amalga joriy qilish, hozirgi sharoitda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi vazifalarini to‘la amalga oshira oladigan yangi shakl va uslublarni izlash va ularni hayotga tatbiq etish, tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini tahlil qilib borish lozim[4,17].

Bunda asosiy e’tiborni harbiy vatanparvarlik tarbiyasi shakl va uslublarining tashkiliy hamda pedagogik va psixologik jihatlardan ta’sirchanligiga va ularning Vatan himoyachisi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilganligiga qaratish zarur [3;67].

**Muhokama.** Hozirgi zamonda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish uchun bir qator zamonaviy fanlarning asoslarini o‘rgatish orqali bo‘lajak Vatan himoyachilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish zarur shartlardan hisoblanadi.

Har bir fan vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish va mustahkamlash uchun o‘ziga xos ahamiyatga ega ekanligini hisobga olish zarur. Bunda ijtimoiy fanlar, aniq fanlar, tabiiy fanlar, tillar, amaliy fanlarning har biri tegishli harbiy mutaxassislikni egallashda muhim.

Shu bilan birga, ushbu fanlarning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanish bosqichlarida Vatanimiz tuprog‘ida yashab o‘tgan ko‘plab buyuk ajdodlarimiz, dunyoga mashhur olimlar, mutafakkirlarning qo‘shgan hissalarini, yaratgan kashfiyotlari va ularning hozirda umuminsoniy qadriyatlar hisoblanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan tanishish bo‘lajak harbiy xizmatchilarning bilimlari doirasini kengaytirish, dunyoqarashlarini va madaniy darajasini oshirish uchun zarur [6].

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, hozirda yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda mazkur yo‘nalishdagi ishlarni zamonaviy darajada takomillashtirib borish zarur. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish talab qilinadi:

harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi masalalariga doir me‘yoriy-huquqiy asoslarni zamonaviy darajada takomillashtirib borish;

harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha manfaatdor tashkilotlar bilan ijtimoiy sheriklik faoliyatiga asoslangan vatanparvarlik tarbiyasi tizimini tashkil qilish;

bu tizim ishtirokchilarining vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha aniq maqsad, vazifalarini belgilash va amalga oshirib borish;

harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimining ilmiy asoslangan mazmuni va usullarini takomillashtirib borish;

harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-moddiy negizni hamda ilmiy-metodik ta’minotni zamonaviy darajada takomillashtirib borish va boshqalar.

Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini ushbu yo‘nalishdagi mavjud tajribalar, erishilgan ijobiy natijalarni hisobga olgan holda muntazam rivojlantirib, faollashtirib borish masalasi davr talabidir[5].

**Xulosa.** Vatan hissi insonga yurtidan olisda bo‘lganida yaqqol seziladi. Turli vajlar bilan o‘zga yurtlarda yashagan ko‘plab vatandoshlarimizning hayoti ayanchli va qayg‘uli kechgani bizga tarixdan ma’lum.

Buning ifodasini buyuk saltanat egasi Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ham ko‘rishimiz mumkin. Bobur barcha imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, tug‘ilib o‘sgan Vatandan olisda bo‘lgani uchun o‘zini baxtiyor inson deb hisoblamaydi. O‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha metodini yaratilishi vatanparvarlik tarbiyasining mazmun, mohiyati va tashkiliy-uslubiy tomonlaridan aniqroq foydalanish lozimligini talab etadi. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarning tahlili vatanparvarlik tarbiyasining amaliyoti bilan berilgan va tekshirilgan an’anaviy ko‘rinishlarini tanlash va mustahkamlash, o‘quvchi-yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifalarini zamonaviy sharoitlarda yanada to‘la tatbiq etishning zamonaviy shakllarini izlab topish zarur.

O‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ularning intellektual fikrlash xususiyatlarining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Ammo bu nazariy xulosa bo‘lib, o‘qitiladigan fanlarning asoslarini, o‘qituvchilar o‘z bilimlarini amaliyotga to‘la tatbiq qilmaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy Nizomlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 8-noyabrdagi 591-son qarori bilan tasdiqlangan “Ta‘lim muassasalarida Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-dekabrda 775-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta‘lim muassasalarida o‘qishga nomzodlarni saralab olish va qabul qilish, kursantlarni o‘qishdan chetlashtirish va qayta tiklash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.
5. O‘zbekiston Mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Ustavi. 2016-yil 4-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatga olingan.
6. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
7. Akbarov A., Sotvoldiyev Yu. ChYoT va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi: Uslubiy tavsiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
8. Butayev A. Harbiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Dizayn-Press, 2012.
9. Voxidov I., Qodirov A. Sharqning mashhur sulolalari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

**SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIYNING SHOGIRDLIK ODOBIGA DOIR AXLOQIY QARASHLARINI O‘RGANISH USULLARI**

*Raximova Gularo Ibragimovna,  
Urganch davlat pedagogika instituti  
Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrası o‘qituvchisi  
raximovagulora1976@gmail.com*

*Maqolada Shihobuddin Suhravardiyning shogirdlik odobiga doir axloqiy qarashlarining pedagogik asoslari, “Avorif ul-maorif” asarida keltirilgan shogirdning ustozlari oldidagi axloqiy fazilatlarini, uning o‘zini qanday tutishi kerakligi haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** Avorif ul-maorif, ilohiy-falsafa, intellektual qobiliyat, mukammal ishonch, ilmiy-ma‘naviy meros, axloq, odob, tafakkur, Muso va Hizr voqeasi, murid-shayx, konstruktiv xulq-atvor.

**МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ ПРАВСТВЕННЫХ ВЗГЛЯДОВ ШИХАБАДДИНА СУХРАВАРДИ НА ЭТИКУ УЧЕНИЧЕСТВА**

*В статье рассматриваются педагогические основы этических взглядов Шихабуддина Сухраварди на этику ученичества, моральные качества ученика перед своим учителем, изложенные в его работе “Авориф уль-маориф”, как он должен вести себя.*

**Ключевые слова:** Авориф уль-маориф, теология-философия, интеллектуальные способности, совершенная вера, наука-духовное наследие, мораль, манеры, мышление, история Моисея и Хизр, мюрид-шейх, конструктивное поведение.

**METHODS OF STUDYING SHIHABADDIN SUHRAWARDI'S ETHICAL VIEWS ON THE ETHICS OF DISCIPLESHIP**

*The article examines the pedagogical foundations of Shihabuddin Suhrawardi's ethical views on the ethics of discipleship, the moral qualities of a student in front of his teacher, set out in his work “Aworif ul-maorif”, how he should behave.*

**Keywords:** Yavoriv ul-maorif, theology-philosophy, intellectual abilities, perfect faith, science-spiritual heritage, morality, manners, thinking, the story of Moses and Khizr, Murid Sheikh, constructive behavior.

**Kirish.** Bugun ta‘lim-tarbiya sohasida, hurmatli o‘qituvchi va murabbiylarimiz, farzandlarimiz hayotida yangi davr boshlanmoqda. Bu davrni yanada chuqur ma‘no-mazmun bilan to‘ldirib, milliy yuksalishga erishish faqat va faqat o‘zimizga, shu yo‘lda hamjihatlik bilan qattiq mehnat qilishimizga bog‘liq. Hurmatli yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev bu jumalalarda keltirgan fikrlari har bir ustoz zimmasiga ulkan mas‘uliyat yuklaydi. Ustoz-shogird munosabatlari barcha davrda o‘z dolzarbligini saqlab qolgan. Ustoz-shogird munosabatlarining axloqiy xususiyati o‘zaro hurmatni saqlash, qadr-qimmatni tan olishni, kamsitadigan xatti-harakatlardan qochishni o‘z ichiga oladi. Shihobiddin Suhravardiyning shogirdlik odobiga doir axloqiy qarashlari uning “Avorif ul-maorif” asaridan o‘rin olgan bo‘lib, mutafakkir shogirdning ustozlari oldidagi axloqiy fazilatlarini, uning o‘zini qanday tutishi kerakligi haqidagi g‘oyalarini yoritib beradi.

**Asosiy qism.** Suhravardiyning fikricha, shogird uchun birinchi o‘rinda yaxshi xulq-atvor egasi bo‘lish eng muhimidir. Qachonki u go‘zal axloqiy fazilatlarini egallasagina, ustozining qalbidan joy oladi. Odob-axloqdan tashqari, shogird ustozining ko‘rsatmalariga amal qilishi kerak. Shogird amal qilishi kerak bo‘lgan 15 ta qoida mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

“Ustozining ko‘rsatmalariga, yo‘naltirishiga va uning qalbini poklashiga bo‘lgan mukammal ishonchga ega bo‘lish”[1]. Agar shogird boshqa ustozni o‘z ustozidan mukammalroq deb bilsa, unda ular o‘rtasidagi mehr-muhabbat iplari ojizlanadi va ustozining so‘zlari unga kuchli ta‘sir qilmay qo‘yadi. Ustozining so‘zlari va xatti-harakatlari samarali bo‘lishi uchun shogird va ustoz o‘rtasida mehr-muhabbat bo‘lishi shart.

“Ustozning huzuriga borish borasidagi qaror qat‘iy bo‘lishi kerak. Ya‘ni shogird o‘ziga shunday shartni qat‘iy qo‘yib olishi kerak: “Agar ustoz menga eshigini ochmasa, men yo hayotimdan voz kechaman yoki o‘z maqsadimga erishaman”[2]. Ya‘ni ustozni uni rad qilsa ham, haydasa ham, o‘z maqsadidan voz kechmasligi kerak. Suhravardiy o‘z fikrini dalillash uchun quyidagi voqeani keltiradi: Bir kuni Abu Usmon

Hairi Nishopurga shayx Abu Hafaz Hadadga shogird tushish istagida tashrif buyuradi. Ustozining oldiga borib, uning yonida shogird bo‘lib qolishga ruxsat so‘raganida esa, Abu Hafaz uni qabul qilmaydi va haydab yuboradi. Abu Usmon esa, ustozni ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha orqaga chekinib turadi, keyin ustozining eshigi oldidan chuqur qazib, hech qayerga ketmasdan, uning ichida kuta boshlaydi. Bundan xabar topgan Abu Hafaz uning xohishining kuchliligi, samimiyligiga ishonch hosil qilib, uni qabul qiladi, e‘zozlab, eng yaqin insonlari qatoridan joy beradi. Keyinchalik o‘z qizini unga nikohlab beradi. Oradan o‘ttiz yil o‘tib, shayx vafot etgach, Abu Usmon uning o‘rniga shayxlik qiladi.

“Shogird o‘z ustozining amrlariga so‘zsiz bo‘ysunishi lozim”[3]. Ushbu g‘oya, ayniqsa, an’anaviy ta’lim tizimlarida chuqur ildizlarga ega bo‘lsa-da, zamonaviy pedagogikada o‘z shakli va mohiyatini qisman o‘zgartirgan. Hozirda, zamonaviy ta’limda o‘quvchilarga yo‘naltirilgan ta’lim modellariga o‘tish kuzatilib, talabalarining savollar berishlari, materialga tanqidiy munosabatda bo‘lishlari va o‘quv jarayoniga faol hissa qo‘shishlari, ijodkorlik va mustaqil izlanishlari targ‘ib qiladi. Mustaqil fikrlashni targ‘ib qilishda o‘qituvchilarga hurmat saqlashga urg‘u berish juda muhim. Talabalar va ustozlarning hurmatga asoslangan, konstruktiv xulq-atvoriga ega bo‘lgan sog‘lom ta’lim muhiti ular o‘rtasida o‘zaro fikr almashishni, hamkorlik va dinamik ta’lim tajribasini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, talaba va o‘qituvchi munosabatlariga yondashuvlar turli madaniyatlarda o‘ziga xos farqlanishga egadir. Ba’zi madaniyatlarda shogirdlarning itoatkorligiga katta e‘tibor berilsa, boshqalari esa ko‘proq tenglik va interaktiv dinamikaga ustunlik berishi mumkin.

“Muxolifatdan voz kechish lozim. Ba’zan botiniy, ba’zan zoxiriy shaklda shogird ustoziga nisbatan qarama-qarshi fikrlar paydo bo‘lishi mumkin. Qachonki, ustozining so‘zlari u uchun qiyinlik qilsa, yoki buni anglay olmasdan, unda qarshi fikrlar paydo bo‘lsa, Muso va Hizr voqeasini eslash kerak. O‘zining kuchli bilimi va mehr-muhabbatiga qaramay, Muso Xizrning buyruqlariga bo‘ysunishdan bosh tortadi, lekin hamma narsaning sir-asrori va hikmati oshkor bo‘lganidan keyingina, Muso yana ustozining amriga itoatkorlik ko‘rsatadi” [4]. O‘z ustoziga nisbatan qarama-qarshi fikrlardan voz kechishning ahamiyatini aks ettiruvchi mazkur fikrning zamonaviy pedagogik mohiyati o‘quv jarayonida ochiq fikrlilikni rivojlantirishni anglatadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasida qarama-qarshi fikrlar paydo bo‘lishi mumkin, ammo konstruktiv muloqot, savol-javob va munozaralar hurmatga asoslangan muhitni shakllantirish orqali ijobiy ta’lim madaniyatini yaratish mumkin.

Suhravardiy: “Shogird ustozining xohishiga qarshi boradigan har qanday narsadan voz kechishi lozim. Murid o‘z shayxining ruxsatisiz yeyishi, ichishi, uxlashi, olishi, berishi, qarashi, ro‘za tutishi, ro‘zani buzishi mumkin emas”[5] deydi. Ushbu fikr zamonaviy nuqtayi nazardan qaraganda, Suhravardiyning mazkur g‘oyasida so‘fiy pedagogikasi va islom tasavvufining ayrim jihatlarini aks ettiruvchi shogird-ustoz (murid-shayx) munosabatlariga an’anaviy va ierarxik yondashuv alohida ta’kidlangan, va u ta’lim tizimidagi qoidalarga mos kelmaydigandek tuyuladi, ammo uning botiniy mohiyati yoritilsa, zamirida ustozga bo‘ysunish va itoatkorlik (hurmat va kamtarlik), ruhiy-ma’naviy intizomga urg‘u beriladi. So‘fiylik an’analarida shayx nafaqat o‘qituvchi, balki ma’naviy yo‘l ko‘rsatuvchi hamdir. Turli jarayonlarni amalga oshirish uchun ruxsat so‘rashga urg‘u berilishi shayxning talabaning nafaqat ilmiy, balki shaxsiy xulq-atvori va ma’naviy kamoloti masalalarida ham yetakchi rol o‘ynashidan dalolat beradi. Umuman olganda bu ta’limga yaxlit (*holistic*) yondashuvni o‘zida namoyon qiladi, mazkur g‘oya nafaqat intellektual ta’limni, balki ma’naviy va axloqiy tamoyillarni kundalik hayotga integratsiyalashuvini ham o‘z ichiga oladi.

“Ustozining fikrlarini diqqat bilan kuzatish”[6]. Haqiqatan ham, o‘qituvchining fikrlariga jiddiy e‘tibor berish samarali va mazmunli ta’lim jarayonini tashkil qilishning asosiy jihati bo‘lib, u bir nechta pedagogik tamoyillarga mos keladi. Avvalo, o‘qituvchining fikriga e‘tiborli bo‘lish o‘qituvchining tajribasi va obro‘sigacha bo‘lgan hurmatni aks ettiradi. Bu o‘qituvchini bilimdon rahbar va murabbiy sifatida tan oladigan an’anaviy pedagogik qadriyatlarga mos keladi. Shuningdek, diqqat qaratish sinfda samarali muloqot qurishga yordam beradi. Bu o‘quvchilarning taqdim etilayotgan ma’lumotlarni mukammalroq tushunishlarini ta’minlaydi, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida aniq va konstruktiv fikr almashishga hissa qo‘shadi.

“O‘z qarashlarini ifodalashda ustozining bilimiga asoslanish. Hattoki tush ko‘rsa ham, uning mazmunini ustoziga anglatishi lozim, faqat ustozining ta’biriga asosan xulosa chiqarishi kerak”[7]. Mazkur g‘oyaning asosida o‘z fikr-mulohazalarini bildirishda o‘qituvchining bilimiga tayanish muhimligi ta’kidlangan. Bu shuni anglatadiki, o‘qituvchi nafaqat ilmiy rahbar, balki o‘quvchi hayotining turli jabhalari bo‘yicha maslahat va fikr bildira oladigan ustoz hamdir. Talabalar nafaqat o‘z fikrlarini baham ko‘rishlari, balki o‘qituvchining fikr-mulohazalari, tuzatishlari va yo‘l-yo‘riqlarini ham qabul qilishlari kerak. Bu doimiy takomillashtirishni qadrlaydigan ta’lim muhitiga mos keladi.

“Ustozning nutqiga pok hurmat bildirish lozim. Ustozining so‘zini muqaddas bilmog‘i darkor. Ustozning qalbi shovqinli dengizga o‘xshaydi, u ilm durlari, ma’rifat javohirlari bilan to‘laki, ba’zida kuchli bo‘ron bu xazinalarning ba’zilarini shiddat bilan qirg‘oqqa chiqarib tashlaydi. Shogird ustozining nutqidan



kelayotgan afzalliklardan chetda qolmasligi kerak. Ustozi nutq soʻzlayotgan paytda u jimlik saqlashi va qunt bilan quloq solishi lozim”[8]. Ustozning qalbini ilm va javohirlar bilan toʻldirilgan shovqinli dengizga qiyoslovchi metafora oʻqituvchining juda koʻp qimmatli bilimlarga ega ekanligini ifodalasa, kuchli boʻron xazinalarni qirgʻoqqa chiqarib tashlashiga ishora oʻqituvchining bilim berish intensivligini anglatadi. Ustozi soʻzlayotganida shogirdning jim turishi va diqqat bilan tinglashi nafaqat eshitishni, balki uzatilayotgan maʼlumotni tushunish, talqin qilish va ichki qabul qilishni ham oʻz ichiga oladi. Shuningdek, ustozni nutq soʻzlayotganda jim turish odobi har bir kishiga chalgʻitmasdan oʻrganish imkoniyati berilgan dars madaniyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

“Past ovozda gapirish odobdandir. Ustozining oldida, shogird hech qachon ovozi koʻtarmasligi lozim, baland ovozda gapirish yaxshi xulq-atvorning yoʻqligini bildiradi. Qurʼonda ovozi koʻtarish va uni haddan tashqari pasaytirish ham maʼqul emas deyiladi”[9]. Mazkur gʻoyaning pedagogik mazmuni oʻquvchi va oʻqituvchi oʻrtasidagi munosabatlarda xushmuomalalik, hurmat va toʻgʻri odob-axloq qoidalariga rioya qilishning ahamiyatini aks ettiradi. Talabalarni past ovozda gapirishga undash samarali muloqot koʻnikmalarini rivojlantirish bilan bogʻliq boʻlib, unda shaxsning oʻz ovozi umumiy muloqot jarayoniga taʼsirini hisobga olishi buning taʼlim olish va diqqatni jamlash uchun qulayroq muhitni yaratishga imkon berishi namoyon boʻladi. Zero, koʻplab madaniyatlarda baland ovozda gapirish yaxshi xulq-atvorning yetishmasligi belgisi sifatida qaraladi. Talabalarni oʻz ovozi balandligini nazorat qilishga undash ularda oʻz-oʻzini tarbiyalash tuygʻusini, shu bilan birga, shaxsiy masʼuliyat va oʻzini oʻzi boshqarishni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tamoyillarga mos keladi.

“Nafsi tiyish. Ham soʻzda, ham amalda shogird oʻz nafsini tiya bilmogʻi darkor”[10]. Suhravardiyning mazkur gʻoyasining pedagogik mazmuni oʻz-oʻzini tarbiyalash, emotsional bilim va axloqiy xulq-atvorni rivojlantirishga qaratilgan boʻlib, ularning oʻzini oʻzi boshqarishiga urgʻu beradi. Talabalar oʻzlarining istaklari, xohishlari va his-tuygʻularini boshqarishlari, oʻzlarini ham soʻzda, ham amalda nazorat qilishlari uchun shaxsiy masʼuliyatga ega boʻlishlari, umuman olganda, reflektiv amaliyotni[11] ragʻbatlantirishlari lozim. Reflektiv amaliyot - bu oʻz-oʻzini anglash va doimiy takomillashtirishga yordam beradigan, oʻz tajribasidan oʻrganish tafakkurini tarbiyalovchi pedagogik yondashuvdir.

“Ustozi bilan muloqot qilishning toʻgʻri vaqtini bilish. Agar shogird ustozni bilan muhim masalada gaplashmoqchi boʻlsa, avvalo, ustozining vaqti bor yoʻqligiga ishonch hosil qilishi kerak. Ustozi bilan muloqotda shoshish yoki keskin gaplashish mumkin emas. Koʻp savol berish ham ustozni charchatib qoʻyadi, bu ustozni ranjitadi”[12]. Suhravardiyning mazkur pedagogik gʻoyasining mohiyatini oʻqituvchiga murojaat qilish uchun toʻgʻri vaqtni hisobga olish, oʻqituvchining vaqtini hurmat qilish va samarali muloqot qilish uchun qulay muhit yaratish qiymati tashkil qiladi. Yaʼni talabalarda taym-menejment (vaqtni samarali tashkil etish), empatiya va eʼtiborlilikni (oʻqituvchini charchatishi mumkin boʻlgan juda koʻp savollarni bermaslik) rivojlantirish, oʻqituvchining ish yuklamasi va hissiy holatini hisobga olishlari tavsiya etiladi. Zero, muloqot uchun toʻgʻri vaqtni tanlash va aniqlashni oʻrganish nafaqat taʼlim jarayonida, balki hayotning turli jabhalarida muhim ijtimoiy koʻnikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu orqali talabalar oʻzlarining shaxslararo munosabatlarini oshiradilar va ijtimoiy oʻzaro munosabatlarda qanday qilib samarali harakat qilishni oʻrganadilar.

“Oʻz hurmati chegaralarini saqlash. Ustozga savol berganda, oʻz hurmatini saqlashi kerak”[13]. Mazkur gʻoyaning pedagogik mohiyati shundaki, savol berishda oʻquvchilar “oʻz shaʼnini himoya qilishlari”, dadil boʻlishlari, oʻzlarining va oʻzgalarning qadr-qimmatiga putur yetkazmasdan tushuntirish qobiliyatini rivojlantirishlari lozim. Oʻz hurmatini saqlash zaruriyatini anglash talabalarning xilma-xilligini va ularning oʻziga xos shaxsiyatlarga ega ekanligini tushunishni bildiradi. Bu esa, boʻlajak oʻqituvchilarni individual farqlarni hisobga olishga va har bir oʻquvchining qadr-qimmatini saqlaydigan inklyuziv muhitni yaratishga undaydi. Mazkur pedagogik tamoyil oʻqituvchi va talaba oʻrtasidagi ishonchli munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Chunki, qachonki talabalar oʻzlariga nisbatan hurmatni his qilsalar, bu taʼlim muhitiga ishonchni oshiradi va ochiq muloqotni osonlashtiradi.

“Ustozning sirlarini saqlash. Ustoz yashirishni xohlagan har bir holat, u moʻjizalar boʻladimi, tushlar boʻladimi shogird ularni ruxsatsiz oshkor qilmasligi shart”[14]. Koʻrinib turibdiki, Suhravardiyning mazkur fikrlarining asosini maxfiylikni saqlash tashkil qiladi, talabalarni maxfiy maʼlumotlarni saqlashga oʻrgatish professionallik tamoyillariga mos keladi. Yaʼni talabalarni turli xil kelajakdagi ish joylarida yoki hamkorlikdagi loyihalarda ishlashlarda foydali boʻlgan odatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Mazkur pedagogik yondashuv talabalarni nozik maʼlumotlar bilan ishlashda masʼuliyat hissini uygʻotishga undaydi. Sirlarni saqlash uchun hissiy intellekt darajasi talab qilinadi, yaʼni talabalar ochiq baham koʻrish mumkin boʻlgan maʼlumotlar va sir saqlanishi kerak boʻlgan maʼlumotlar oʻrtasida farqlashni oʻrganadilar, bu ularning ijtimoiy oʻzaro munosabatlarida hissiy intellektni rivojlantiradi.

“O‘z sirlarini ustozidan yashirmaslik”[15]. Pedagogik kontekstda mazkur g‘oya ochiq muloqot, ishonch, emotsional yordam so‘rash etiketi, shaxsiy ehtiyojlarni tushunish, ta‘lim ehtiyojlarini aniqlashda qo‘l keladi. Ochiq muloqot o‘qituvchilarga o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish, o‘z ta‘lim metodlarini moslashtirish, qo‘shimcha yordam ko‘rsatish yoki o‘quvchilar duch kelishi mumkin bo‘lgan muayyan muammolarni hal qilish imkonini beradi. O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi oshkoralikni targ‘ib qilish orqali o‘qituvchilar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning avj olishining oldini olishlari mumkin, chunki talabalar o‘z muammo yoki tashvishlarni muhokama qilishda erkin bo‘lishsa, o‘qituvchilar muammolarni ertaroq va samaraliroq hal qilishlari mumkin bo‘ladi. Zero, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi ochiq muloqot akademik muvaffaqiyat uchun juda muhimdir. Talabalar o‘z tushunchalari, qiyinchiliklari, muammolari yoki qiziqish sohalarini ochiq baham ko‘rsalar, o‘qituvchilar ta‘lim natijalarini optimallashtirish uchun o‘zlarining ta‘lim strategiyalarini shunga ko‘ra shakllantirishlari mumkin.

“Ustozi haqida gapirganda uni tinglayotgan odamning darajasiga e‘tibor berish kerak. Agar tinglayotgan odamning tushunish darajasi yetarli bo‘lmasa, ustoz haqida gapirmasligi kerak. Chunki bunday nutqdan foyda kelmaydi”[16]. Mazkur fikrning pedagogik mohiyati kontekstual sezgirlik, tinglovchi darajasi, maqsadli diskurs, individual yondashuv kabi tamoyillarga asoslanadi. Ya‘ni, o‘qituvchi haqida gapirishda kontekstga e‘tibor berish muhimligi ta‘kidlanib, tinglovchining ilmi, saviyasi darajasini, uning intellektual, hissiy yoki ma‘naviy tayyorligini anglashni hisobga olishning ahamiyatini bildiradi. Ta‘lim sharoitida ushbu kontsepsiya ma‘lumotni tinglovchilarning tushunish darajasiga mos keladigan tarzda almashish kerak degan g‘oyaga mos keladi. Tinglovchining saviyasi va darajasi yetarli bo‘lmasa, unga so‘zlangan nutq “foydasiz” ekanligini ta‘kidlash asosida mazmunan ta‘sir ko‘rsatmaydigan yoki noto‘g‘ri tushunilishi mumkin bo‘lgan muloqotdan qochish muhimligi ayon bo‘ladi. Shuningdek, mazur kontsepsiya maqsadli nutqni targ‘ib qilib, odamlarni tinglovchilarning ma‘lumotni tushunish va qadrlash qobiliyatiga asoslanib, muayyan mavzularni muhokama qilishning maqsadga muvofiqligini anglashga undaydi.

**Xulosa.** Tahlillarni umumlashtirgan holda aytishimiz mumkinki, Shihobiddin Suhravardiyning shogird odobiga doir qarashlari uning ikkita kitobida, jumladan, “Avorif ul-maorif” hamda “Kitob-ul futuvvat”da o‘z aksini topgan bo‘lib, ularda shogirdning ustozidagi majburiyatlari va burchlari, ustoz oldida o‘zini qanday tutish kerakligi masalalariga e‘tibor qaratilgan.

#### Adabiyotlar:

1. Murtozayev Sh.B., Shihobiddin Suhravardiyning “Avorif ul-maorif” (“Ma‘rifatni anglaganlar”) asari va uning gnoseologik ta‘limoti. Buxoro, 2023. 130 bet.
2. Беляева В. А. Теория и практика духовно-нравственного становления и развития личности учителя в светской и православной педагогической культуре. – 1999.
3. Zoirov E. Maxdumi A‘zamning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari:–Toshkent, 2007.
4. Islom ensiklopediyasi. Zuhridin Husniddinov tahriri ostida, “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 272-273 betlar.
5. Мансурова З.А. Проблемы текстологии и поэтики стиля «Мисбах аль Хидая ва Мифтах аль-Кифая» Иззуддина Махмуда Кашани». Душанбе, 2021, стр 5.

## PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI

### SHARQ ALLOMALARI MEROSINI O'RGANISH – YOSHLARDA MA'NAVIY SALOHIYATNI TARBİYALASH OMILI SIFATIDA

*Ismatov Shuhrat Ubaydovich,  
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

*Maqolada Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ma'naviy meros bugungi kunda yoshlarda ma'naviy-axloqiy salohiyatini tarbiyalashda muhim o'rin tutishi asoslangan.*

**Kalit so'zlar:** sharq mutafakkirlari, ma'naviyat, ma'rifat, ta'lim, tarbiya, ma'naviy meros.

### ИЗУЧЕНИЕ НАСЛЕДИЯ ВОСТОЧНЫХ УЧЁНЫХ КАК ФАКТОР ВОСПИТАНИЯ ДУХОВНОГО ПОТЕНЦИАЛА У МОЛОДЁЖИ

*Статья основана на том, что духовное наследие, созданное восточными мыслителями, играет важную роль в воспитании духовно-нравственного потенциала современной молодёжи.*

**Ключевые слова:** восточные мыслители, духовность, просвещение, образование, воспитание, духовное наследие.

### STUDY OF THE HERITAGE OF ORIENTAL SCHOLARS AS A FACTOR IN FOSTERING SPIRITUAL COMPETENCE IN YOUNG PEOPLE

*The article is based on the fact that the spiritual heritage created by Eastern thinkers plays an important role in the education of spiritual and moral potential of modern youth.*

**Keywords:** Eastern thinkers, spirituality, enlightenment, education, upbringing, spiritual heritage.

**Kirish.** Davlatimiz rahbari Yangi O'zbekiston strategiyasini belgilab berar ekan, hozirgi davr yoshlarimiz bilan birga Uchinchi Rennessans – Yangi uyg'onish davrini boshlanganligini va ushbu maqsad uchun mutafakkirlarimiz, Sharq allomalarining ilmiy va boy ma'naviy merosi poydevor bo'lib xizmat qilishi lozimligini uqtirib o'tgan edilar.

Darhaqiqat, oqqan daryo oqaveradi. Buyuk ajdodlarimiz boshlab bergan ilm-fan mash'alasi, ya'ni ma'rifat ziyosi, kashfiyotlar va ixtirolar ularning munosib vorislari – ya'ni hozirgi zamon yoshlari tomonidan davom ettirilishi, boshqacha aytganda ilm-fan, ma'naviyat-u madaniyat hamda iqtisod-u siyosat ham zamon talablariga doir rivojlanib borishi kerak. Chunki o'tmishni bilmay, o'zlashtirmay turib kelajakni qurishga intilish birmuncha qiyin kechishi turgan gap. Shonli ajdodlarimiz qo'lida bo'lgan mayoq bugungi davr yoshlarining porloq yo'lini yorituvchi mash'ala bo'lib xizmat qilishi lozim.

Bugungi kun, ya'ni turli –tuman axborotlar oqimi ko'paygan davrda yoshlarimizni turli zararli axborotlardan himoya qilish, har qanday murakkab vaziyatda ham o'zligini yo'qotmaslik, ya'ni o'z bilimi, dunyoqarashi va hayotiy tajribasidan kelib chiqib fikr yuritish va to'g'ri harakat qilish ko'nikmasini, ya'ni yurt taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytirish orqali ularda ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirib borish masalasi nihoyatda dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Bunday hollarda, albatta, ulug' ajdodlarimiz merosiga tayanish, ya'ni ularning umrboqiy asarlarini o'qib-o'rganish va tajribalari-yu o'gitlarini aql tarozusidan o'tkazib, kundalik hayotda qo'llab borish yoshlarimiz tarbiyasiga ijobiy ta'sir o'tkazadi va o'zligini anglashda g'oyat katta samara beradi.

Tobora kuchayib borayotgan, makon va sarhad tanlamaydigan axborotlar oqimi, yanada ochiqroq bayon etadigan bo'lsak, turli xavf-xatar va mafkuraviy tahdidlardan yoshlarimizni ogoh etish avvalo, ona-Vatan tarixiga, buyuk ajdodlarimiz merosiga hurmat, milliy o'zligimiz timsoli bo'lgan milliy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashni hozirgi davr oldimizga asosiy vazifa qilib qo'ymoqda.

Buyuk O'zbekistonimizning porloq kelajagi bugungi kun yoshlarimiz qo'lida ekanligini angelaydigan bo'lsak, hozirdanoq ularga to'g'ri ta'lim va tarbiya berish yo'nalishlarini belgilab olishimiz kerak. Ya'ni yoshlar tarbiyasi buyuk ma'rifatparvar bobomiz ta'kidlab o'tganidek allaqachon “hayot va mamot” masalasiga aylanganligini va uning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini har qadamda his qilishimiz kerak. Zero, buyuk kelajak bunyodkorlarini tarbiyalashda muhtaram Prezidentimiz tomonidan alohida ta'kidlangan to'rt toifa ziyolilar, ya'ni – bolalar bog'chasi tarbiyachisi, maktab o'qituvchilari, oliy ta'lim

murabbiylari va ziyolilar, ya’ni ota-onalarga bog’liq ekanligini har doimo yodda tutishimiz lozim. Bu avvalo, mazkur toifa vakillariga katta mas’uliyat yuklatilganligini va ularning ona-xalqimiz hamda Prezidentimiz oldidagi fuqarolik burchi va majburiyati ekanligini unutmashliklari darkor.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev raisligida yangi 2024-yil arafasida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining kengaytirilgan yig’ilishi o’tkazilgan edi. Mazkur yig’ilishda qilingan “Ma’naviyat – hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak” nomli ma’ruzada “..bugungi kunda jahon miqyosida taraqqiyot sur’atlari misli ko’rilmagan darajada shiddatli tus olayotganligi, ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar o’zgarayotganligi, ilgari o’z maqsad va manfaatlarini asosan diplomatiya va siyosat bilan bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o’tkazish, qarama-qarshilik va to’qnashuvlar yo’liga o’tganiga hammamiz guvoh bo’lib turibmiz” deya alohida ta’kidlandi.

Bunday keng ko’lamli va o’ta ziddiyatli jarayonlarning ta’siri Markaziy Osiyo mintaqasi va uning tarkibiy qismi bo’lgan mamlakatimizni ham chetlab o’tmayotganligi, ya’ni jahon miqyosida barcha sohalaridagi taraqqiyot sur’atlari shiddatli tus olganligi, o’ta ziddiyatli jumladan, inson ongi va qalbini egallashga qaratilgan ziddiyatli jarayonlarning ta’siri O’zbekistonda ham yaqqol sezilayotganligini payqash qiyin emas.

Ma’ruzada “Tarixdan ma’lum, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg’oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o’z taraqqiyotining yangi yuksak bosqichiga chiqayotgan bir paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G’arb ilm-fani yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur. Lekin ularni kim tarbiyalaydi? Albatta o’zimiz, tarix saboqlari va zamon talablari asosida tarbiyalashimiz zarur” deya ta’kidlagan edi Yurtboshimiz.

Davlat tomonidan jadid bobolarimiz xotirasini tiklash, ularning ma’rifatparvarlik g’oyalarini o’rganish va yanada rivojlantirish, Buxorodagi tarixiy maskanda jadidlar merosi davlat muzeyi ochilishi, jadidlar faoliyatini o’rganish va yoshlar o’rtasida targ’ib qilish bilan bog’liq barcha masalalarni o’z ichiga qamrab oladigan muhim hujjat –Prezident qarori qabul qilinishi belgilandi.

Aynan ushbu yig’ilishda davlat rahbari tomonidan barcha darajada yoshlar tarbiyasiga mas’ul bo’lgan mutassaddilarga va xalqimiz vakillari-ziyolilar va ota-onalar oldiga vazifa qo’yildi: “ .. O’zimizga bir savol berib ko’raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g’oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? Mana, bugun ma’naviy-ma’rifiy sohada masala qanday o’tkir va ko’ndalang bo’lib turibti. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o’ylantiradigan va tashvishga soladigan savollar.

Agar biz bu yorug’ dunyoda “o’zbek”, “O’zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istasak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo’yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo’ladi” [6].

Davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan bu chorlov barcha-barchani, birinchi navbatda ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan va yoshlar tarbiyasiga mas’ul bo’lgan o’qituvchi va tarbiyachi – murabbiyga ogohlik qo’ng’irog’i sifatida jaranglashi shart.

Darhaqiqat, yoshlar tarbiyasi masalasida tanaffus yoki ikkinchi darajali vazifa degan gap yo’q va bo’lishi ham mumkin emas. Chunki tarbiya – insonni, hattoki dunyoni o’zgartirishga qodir bo’lgan katta kuch. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida ta’kidlaganidek: “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo’lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko’ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo’lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi”.

**Asosiy qism.** Tarixdan ma’lumki, butun dunyoda mamlakatlar, davlatlar yoki millat va elatlar ko’p. Lekin ularning hammasi yana-da aniqroq aytadigan bo’lsak, u yoki bu millat vakili tomonidan bizning diyorumizdan chiqqani kabi bashariyat rivoji uchun xizmat qilayotgan asarlar yaratilmagan, kashfiyot va ixtirolar qilinmagan, desak mubolag’a bo’lmaydi. Ayniqsa, komil inson – farzand tarbiyasi, xususan ta’lim-tarbiya sohasida bizning ulug’ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan badiiy, tarixiy, falsafiy va ilmiy asarlar, boy ma’naviy meros bilan boshqa xalqlar kamdan-kam holda tenglasha oladi. Ya’ni barkamol avlodni tarbiyalash borasida Sharq xalqlarida o’ziga xos tajriba shakllangan.

Hozirgi zamonda ko’pgina G’arb mamlakatlari tomonidan Sharq ma’naviy va madaniy merosiga, tarixiga qiziqish nihoyatda kuchayib borayotgani ham hech kimga sir emas. Bu yaxshi albatta. Ammo, bu boy ma’naviy merosimiz yoshlarimiz tomonidan juda chuqur o’rganilishi va o’zlashtirilishi lozim.

Ma’lumki, “Sharq ilk Uyg’onish davri” deb nomlanayotgan IX-XII asrlardagi Birinchi Renessans davrida Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Movarounnahrda ta’lim-tarbiya, maktab-madrasa faoliyatiga e’tibor

kuchayib islomiy bilimlar bilan birga boshqa fanlar yuksalishiga ham poydevor qo'yildi. Matematika, astronomiya, tibbiyot, geologiya, farmakologiya, geodeziya, geografiya, algebra, musiqa, falsafa kabi dunyoviy fanlarning asosi shu davrdan boshlab qo'yildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ya'ni Yevropa Uyg'onish davrining natijalari sifatida adabiyot, san'at asarlari, ayniqsa, Yunonistonda arxitektura durdonalari, tibbiyot kabi sohalarda kashfiyotlar amalga oshirilib taraqqiyot yuzaga kelgan bulsa, Movarounnaxrda ushbu davr mahsuli sifatida yuqorida sanab o'tilgan fanlar rivojlangan.

Mazkur davr allomalari haqida so'z borganda, birinchilardan bo'lib zamonaviy matematika, trigonometriya va geografiya fanlari rivojiga hissa qo'shgan (hozirgi zamon axborot texnologiyalari sohasi asoschisi ham hisoblanadi) buyuk ajdodimiz Muhammad Muso al-Xorazmiy nomini tilga olamiz. Bugungi kunda dunyoda hisoblash usuli sifatida ishlatilayotgan o'nlik pozitsion hisoblash tizimini, nol belgisi va qutblar koordinatalarini bexato asoslab berdi va amaliyotga tatbiq qildi. Bu xizmatlari bilan ulug' ajdodimiz matematika va astronomiya fanlari rivojiga katta hissa qo'shib o'z nomi va asarlarini “Algoritm” hamda “Algebra” kabi zamonaviy-ilmiy atamalarda abadiylashtirdi.

Qohira (Misr davlati poytaxti) shahri yaqinida ulug' ajdodimiz Ahmad Farg'oniy tomonidan qurilgan Nil daryosi suvi sathini o'lchashga moslashtirilgan Nilometr asbobi muallifi va ixtirochisi sifatida katta-obru-e'tiborga sazovor bo'lgan. E'tiborlisi shundaki, mazkur asbob hozirgacha xizmat qilib kelmoqda. A.Farg'oniyning IX asrda yaratgan “Astronomiya asoslari” fundamental asarida olamning tuzilishi, Yerning ulchovi haqidagi ma'lumotlar yoki sayyoramizning sharsimon ko'rinishga egaligi haqidagi dalillar mavjud bo'lib, bu kitob XVII asrga kadar Yevropa universitetlarida darslik sifatida o'qitilib kelingan. Hatto, buyuk geografik kashfiyotlar davrida Xristofor Kolumb va Magellan kabi dunyoviy olimlar kashfiyotlari uchun asos bo'lib xizmat qilgani tarixdan ma'lum.

“Ikkinchi Ptolomey” deb nom olgan va matematika hamda astronomiya sohasida shuhrat qozongan yana bir alloma Abu Nasr ibn Iroq ham ajdodimiz hisoblanadi. O'z davrida barcha olimlar tomonidan bu kashfiyotchi fazoviy trigonometriya asoschisi deb tan olingan.

Bir qator Yevropa olimlari ta'kidlaganlaridek, “Beruniyning qiziqqan va o'rgangan sohasidan ko'ra o'rganmagan sohalarni keltirmoq oson”. Bu degani buyuk ajdodimiz, qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniyning ilmiy dahosi bilan yaratilgan asarlarning sanog'iga yetish qiyin, u qiziqmagan va shug'ullanmagan soha yoki fanning o'zi yo'q hisob. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Beruniy hayoti davomida yaratgan 150 dan ortiq asarlarning faqatgina 31 tasi bizgacha yetib kelgan. Shu qo'lyozmalarning o'ziyoq allomaning usha zamonga oid barcha fanlardan yaxshi xabardor bo'lganligiga asos bo'la oladi.

Buyuk alloma dunyo ilm-fanida birinchilardan bo'lib dengizlar nazariyasi va Yerning sharsimon globusini yaratish yuzasidan o'ziga xos yangi g'oyalarni taklif etgan. Yer radiusini hisoblab chiqib vakuum, ya'ni bo'shliq holatini izohlab, Xristofor Kolumb sayohatidan 500 yil oldin Tinch va Atlantika okeanlari ortida alohida bir qit'a (hozirgi Amerika qit'asi) borligini ilgari surgan. Shuningdek, alloma minerallar tasnifi haqida ilmiy nazariyalar ishlab chiqdi va geodeziya faniga asos soldi. Shuning uchun ham XI asr “Beruniy asri” deb nom olgan.

Butun dunyoda “Shayx-ur-ra'is” – ya'ni, olimlar va shoirlar sardori deb nom olgan buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino haqida fikr yuritish biz avlodlarga alohida g'urur va ehtirom tuyg'ularini uyg'otadi. Ibn Sino bobomiz o'z davrining qomusiy olimi sifatida halovatsizlikda hayot olib borganligiga qaramay barakali ijod qilib biz minnatdor avlodlar uchun 450 dan ortiq yozgan. Shulardan 242 tasi bizgacha yetib kelgan. Masalan, tibbiyotga oid 23 ta, falsafaga oid (tasavvuf hamda ilohiyotni qo'shgan holda) 80 ta, tabobat (xalq tabobati) ga oid 43 ta, mantiq (logika) faniga oid 19 ta, ruhshunoslikka oid 26 ta, astronomiyaga oid 7 ta, riyoziyot faniga oid 1 ta, musiqaga doir 1 ta, kimyo faniga oid 2 ta, odob-axloq (etika fani) ga doir 9 ta, adabiyotga oid 4 ta va olimlar bilan musohaba yoki bahslarga atab 8 ta asar yozgan ekan.

O'z davrida Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Frensis Bekon va boshqa ko'plab olimlar avlodi uning asarlarini o'qib hayratga tushganliklarini ham o'z xotiralarida yozib qoldirganlar. Buyuk allomaning birgina “Tib qonunlari” fundamental asari keyingi bir necha yuz yillar uchun tibbiyot fani taraqqiyotini belgilab berdi. Bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan hamda amaliy tibbiyot va farmakologiya sohalarining eng muhim usullarini qamrab olgan bu asar Yevropada 15-asrda chop etilgan va dunyoning yetakchi universitetlarida 500 yil davomida tibbiyot ilmi aynan shu asar asosida o'qitilib kelinganligi ham ayni haqiqatdir.

Bu boy ma'naviy merosni yanada asrab-avaylash va o'rganish, o'zlashtirish va undan oqilona foydalanishimiz lozim. Chunki bunchalik keng miqyosda barcha fanlar rivojiga hissa ko'shgan buyuk vatandoshimiz bilan faxr-iftixor qilsak shuncha kam. Shuning bilan birga ulug' ajdodimiz oldida ma'naviy qarzdor va minnatdor avlod sifatida bizga katta mas'uliyat ham yuklaydi. Ya'ni burch va mas'uliyat xissi bizni ilm olish va o'rganishga hamda o'rganganlarimizni o'z o'rnida ya'ni shaxs sifatidagi ma'naviy yuksalishimiz, shuningdek, jamiyat rivoji va mamlakat taraqqiyoti yo'lida foydalanishimizga undaydi.

X asrning yana bir qomusiy allomasi, ya’ni zamondoshlari tomonidan universal bilimlar sohibi bo’lganligi uchun “Sharq Aristoteli” deb nom olgan Abu Nasr Forobiydir. Hayoti davomida 160 dan ortiq asarlar yaratgan ulug’ ajdodimizning mashhur asarlari –“Mohiyat xususida so’z”, “Fanlarning paydo bo’lishi haqida kitob”, “Tafakkur mohiyati”, “Fozil odamlar shahri” va boshqalardir.

Ma’lumki, dunyo tarixida birinchi turkiy tillar haqidagi lug’at hisoblangan “Devoni lug’atit turk” kitobi mashhur tilshunos olim Mahmud Qoshg’ariy qalamiga mansubdir. Bu ulug’ ajdodimiz turkiy xalqlarning tili, madaniyati, etnografiyasi va folklorining ilk tadqiqotchisi sifatida dunyoga mashhur hisoblanadi.

Yana bir allomamiz ya’ni, dunyo tan olgan arab tili grammatikasining asoschisi, adabiyotshunos va faylasuf – Mahmud Zamaxshariy hisoblanadi. Bu mutafakkir hayotlik chog’idayoq nafaqat Movarounnahrda, balki butun arab dunyosida mashhur bo’lgan. Alloma tarixdagi birinchi ko’p tilli lug’at-Arabcha-forscha-turkiy lug’at tuzgan.

Buyuk faqih Burhonuddin Marg’inoniy bobomizning fiqh, ya’ni islom qonunshunosligi rivojida xizmatlari beqiyos. Marg’inoniyning butun islom olamida mashhur bo’lgan va 1178-yili Samarqandda yozilgan “Hidoya” asarining o’ziyoq o’z davridagi qomus darajasidagi bebaho manba hisoblangan. Musulmon olamida musulmon huquqi –fiqh bo’yicha aniq va mukammal asar sifatida shuhrat qozongan. Asarning asosiy mazmuni-mohiyati fiqh ilmi asoschilari hisoblangan Hanafiya mazhabi asoschisi Imomi A’zam Abu Hanifa Nu’mon ibn Sobit, Abu Abdulloh, Ahmad ibn Hanbalning katta asarlari va shuningdek, ushbu allomalarning shogirdlari, safdoshlari hisoblangan Imom Abu Yusuf, Imom Abu Abdulloh ibn Husayn Shayboniy (Imom Muhammad), Imom Abu-l-Hazl Zufar ibn Hazlning asarlari, shuningdek, xalifalar va sahobalar rivoyatlari va ular tomonidan naql qilingan hadislardan tashkil topgan.

Birinchi “Sharq Uyg’onish davri”ning yana ko’plab namoyandalari sifatida Abu Abdulloh Ja’far Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Shayx Sa’diy, Xofiz Sheroziy kabi ko’plab allomalarni keltirish mumkin. Shuningdek, o’rta asrlarda yashab ijod qilgan, ya’ni o’sha davr voqealarini o’z asarlarida bayon qilgan buyuk tarixchi allomalar-Ahmad ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abro’, Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqa ko’plab ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi yoshlarimiz tarbiyasiga boy o’lka xazina sifatida xizmat qilishiga hech shak-shubha yo’q.

Shuningdek, yoshlarimizni ulug’ ajdodlarimiz ishlarining munosib davomchilari etib tarbiyalash hamda ularda ushbu boy ma’naviy meros egalari sifatida munosib vorislik tuyg’ularini shakllantirishda o’rta asrlar Sharq allomalari, ya’ni Ikkinchi Renessans-Sharq Uyg’onish davri (XIV-XVI asrlar)da yashab ijod qilgan mutafakkirlarimizning ijodi ham katta rol o’ynaydi.

Tarixda Amir Temur va Temuriylar davri deb nom olgan davr ham alohida e’tiborga ega. Chunki aynan Sohibqiron bobomiz yurtimizni mo’g’ullar zulmidan ozod etib, o’zbek davlatchilik asoslarini yangi bosqichga olib chiqqan ma’naviyat, ilm-fan homiysi sifatida ham tarixdan joy oldi. Jahongir bobomiz davlatni boshqarishda adolatga asoslangan. Milliy qonunchilik qoidalari hisoblangan – islom dini qoidalariga, ya’ni shariat ahkomlariga tayangan. O’sha davrda davlat boshqaruvini hozirgi zamon tili bilan aytganda - demokratik asosda, ya’ni “Maslahat – kengash” usulida boshqargan. O’sha davr manbalarida keltirilishicha, davlat ishlarining to’qqiz ulushi mashvarat va kengash, ya’ni atrofdagilar bilan maslatlashgan holda va tadbirkorlik bilan, qolgan bir ulushi esa vaziyat taqozosidan kelib chiqib harbiy kuch bilan olib borilgan ekan.

O’rta asr davlatchiligiga xos konstitutsiya, ya’ni qonunlar majmui hisoblangan –“Temur tuzuklari” asosida adolatlilik siyosat olib borilgan. Bu esa o’z navbatida chegaralari bepoyon o’lka mamlakatda tinchlik-xotirjamlik yuzaga kelishida va natijada ilm-fan, adabiyot va san’at, madaniyat kabi sohalar rivojiga asos bo’lib xizmat qilgan. Buning misoli sifatida venger sharqshunosi German Vamberining quyidagi so’zlarini keltirish mumkin: “Amir Temurning O’rta Osiyo tarixidagi alohida o’rnini shundan ham bilsa bo’ladiki, u o’z hokimligi bilan yangi dinastiya (Temuriylar dinastiyasi) ni va balki, ko’proq turk madaniyati deb atalishi mumkin bo’lgan O’rta Osiyo madaniyatining yangi davrini boshlab berdi” [2].

O’rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, Markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi Amir Temur bobomizning Mashhur “Temur tuzuklari” asari o’z davrida buyuk jahongir boshqargan ulug’ saltanatda konstitutsiya vazifasini bajarganligi tarixdan ma’lum.

Amir Temurning xalqimizni mo’g’ullar istibdodidan ozod qilib poytaxti Samarqand shahri bo’lgan buyuk imperiya, markazlashgan davlat barpo qilganligi, katta-kichik ellarni birlashtirib g’animlarga qarshi kurashish, ya’ni yurt ozodligi, tinchligi va farovonligi yo’lida safarbar qilganligi, ya’ni o’rta asrlardayoq tarqoq xonliklardan buyuk davlat barpo etib siyosat yuritgani, tinchlikni, adolatni ta’minlab davlatni taraqqiyot yo’liga olib chiqqanligi butun jahon hamjamiyati tomonidan tan olinib e’tirof etilmoqda.

Albatta, bunda kuchli tartib-intizom, adolatpeshalik, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro tenghuquqlik manfaatlari asosida siyosat yuritilganligi hamda yuqorida ta’kidlaganimiz – konstitutsion normalarni o‘z ichiga olgan “Temur tuzuklari”ga rioya qilinganidadir.

“Temur tuzuklari”da: “...Azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir” degan xulosa yozilgan. Bu hikmat Sohibqiron Amir Temurning bundan qariyb 700 yil oldin minglab odamlarni sinab ko‘rib, keyin aytgan dono siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ma’naviy va pedagogik xulosasi edi. Chunki, bilimi, ko‘nikma-yu malakasi, ma’naviyati past odam o‘ziga ham, xalqiga ham, vataniga ham zarar yetkazadi va aksincha” [13].

Buyuk Sohibqiron kelajak avlodlarga qaratib xitob qilgan edi:

“Millatning dardlariga darmon bo‘lmoq vazifangizdir. Zaiflarni ko‘ring, yo‘qsullarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dastingiz, rahbaringiz bo‘lsin!”.

Sohibqiron bobomiz yaratib bergan tinchlik va barqarorlik hukm surgan davlatda albatta adabiyot, ilm-fan, tadbirkorlik, ya’ni tijorat va savdo-sotiq ishlari bilan bir qatorda ma’naviy hayot, madaniyat ham rivojlangan. Amir Temur nafaqat xalq, ya’ni ra’iyat uchun, balki o‘z saroyida ham farzandlari va nabiralariiga zamona ilmlarini berishga muvaffaq bo‘lgan. Chunki, davlatda tinchlik va barqarorlik bo‘lmasa ilm-fan rivojlanmaydi, taraqqiyot haqida fikr bildirish ortiqcha. Tinchlik-osoyishtalik bo‘lgan joydagina ilm-fan va ta’lim-tarbiya ravnaq topadi.

Aynan shunday bir muhitda voyaga yetgan Mirzo Ulug‘bek, ya’ni Amir Temurning suyuqli nabirasi sifatida buyuk bobosi kabi adolatparvar hukmdor, ma’naviyat homiysi sifatida Samarqandda 40 yil hukmdorlik qilish bilan birga astronomiya sohasida katta kashfiyotlar qilib o‘z nomini Nikolay Kopernik, Jordano Bruno, Galileo Galiley kabi dunyo tan olgan ulug‘ olimlar qatorida tarixga muhrladi.

Mirzo Ulug‘bek XV asrda tuzgan astronomiya jadvalida 1048 ta yulduzning joylari aniq ko‘rsatilgan bo‘lib, hozirgi zamonaviy asboblar ham buni naqadar to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatgan. Buyuk alloma tomonidan barpo etilgan rasadxona, ya’ni observatoriya bugungi kunda ham yurtimizdagi ilm-fan rivojining mustahkam poydevori dalili sifatida xizmat qilmoqda. Mirzo Ulug‘bek shuningdek o‘z davrida madrasa ta’limi tizimini isloh qilib ko‘pgina yangiliklar joriy qilganligi va mudarrislarga davlat hisobidan moyana, tolibi ilmlarga hozirgi zamon tili bilan izohlaganda – stipendiya joriy qilib yoshlarni bilim olishga rag‘bat bergani ham adabiyotlardan ma’lum. Fan va madaniyat homiysi sifatida Buxoro (1417) Samarqand (1417-1420) va G‘ijduvon shaharlarida madrasalar qurdirgani, shuningdek, Samarqand shahrida XV ming jilddan iborat katta kutubxona tashkil etganligining o‘ziyoq allomaning yurtimiz ma’naviy yuksalishidagi beqiyos qo‘shgan hissasidan dalolat beradi.

Shu bilan birga aynan uning homiyligi va bevosita hamkorligida shogird va safdoshlari bo‘lgan Qozizoda Rumi, G‘iyosiddin Jamshid va Ali Qushchi kabi buyuk olimlarning ijod qilishi hamda o‘lmas asarlar yaratishlariga bevosita sababchi bo‘lganligi ham haqiqat. Bugungi kunda ham bu buyuk allomalarning boy merosi ilm-fan rivoji va yoshlar tarbiyasida munosib xizmat qilib kelmoqda.

Albatta, ajdodlar merosi haqida so‘z yuritganda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur va buyuk mutafakkir, o‘zbek adabiy tili asoschisi ilm-ma’rifat homiysi, davlat arbobi Mir Alisher Navoiy ijodisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ularning boy ilmiy merosi haqida to‘xtalganda alohida keng hajmli risola yoki asar yuzaga keladi. Bu alohida mavzu.

Biz hozir ushbu mu’juz chiqishimizda yurtimizda bo‘y ko‘rsatgan ilk Uyg‘onish davri va ikkinchi Renessansga aloqador buyuk allomalarimiz qoldirgan ayrim ma’naviy meros haqida fikr yuritdik xolos. Maqsadimiz – buyuk allomalarimiz hayotidan misol ko‘rsatish yoki yozgan asarlaridan namunalar keltirish emas, balki ulardan qolgan boy ma’naviy merosni munosib voris, ya’ni ulug‘ ajdodlarimizning munosib davomchilari sifatida o‘qib-o‘rganish va ulardan yoshlarimiz ertangi kun uchun foydalanishlari orqali oilasiga, jamiyat va davlatga foyda keltirishi, shuningdek, Yangi O‘zbekistonimiz taraqqiyotiga munosib xizmat qilishiga hissa qo‘shishdir.

Shu urinda tabiiy savol tug‘iladi, - nega bizning ko‘pgina yoshlarimiz tomonidan bu ulug‘ ajdodlarimiz asarlarini o‘qib-o‘rganishga intilish sust? Bizning fikrimizcha bu savolga aniq javob shuki, bu asarlarni o‘qib-o‘rganish uchun yoki mazmun-mohiyatiga yetish uchun bilim, bilim bo‘lganda ham har tomonlama chuqur bilimlar bo‘lishi kerak. Ya’ni o‘sha asarlarni hazm qila oladigan darajadagi ilm-tafakkur, fikr va tasavvur bo‘lmog‘i lozim. Bular esa kitob o‘qish, kitobga mehr qo‘yish orqali shakllanishi hech kimga sir emas. Zero, milliy o‘zlikni anglash tarixni bilishdan, kimlarning avlodi ekanligimizni, buyuk ajdodlarimiz tarixini puxta o‘zlashtirishimizga bog‘liq. Chunki tarix- buyuk murabbiy, undan ibrat va saboq olmoq lozim. Aytishlaricha tarix ham siyosat, faqat u o‘tmishga qaratilgan bo‘ladi. Undan xulosa chiqarmoq va o‘rni kelganda ibrat ham olmoq lozim.

Buyuk ispan adibi Servantes: “Tarix – faoliyatimiz xazinasi, o‘tmish guvohi, bugungi kun uchun ibrat va o‘git, kelajak uchun esa ogohlantirishdir” degan edi. Bu hikmatli so‘zning oxirida – kelajak uchun

ogohlantirishdir. degan fikr ham kelmoqda. Darhaqiqat shunday. Chunki o‘z xalqi, millati tarixini bilmagan yoshlar kelajak hayotda ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘yadi, mo‘ljal yoki istiqbol maqsadni oldiga qo‘yishga qiynaladi. Ko‘pchilik yoshlarimiz buni doimo yodda tutishlari kerak. Vaqt borida hozirgi imkoniyatlardan foydalanib xalqimizning boy tarixini, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan tuganmas ma‘naviy merosni o‘qib o‘zlashtirishlari kerak.

**Xulosa** o‘rnida, barchamizga vazifa darajasidagi ahamiyatga teng bo‘lgan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarini doimo yodda tutgan holda faoliyatimizni olib borsak, yuqorida bildirilgan mulohazalarimizning ijobiy natijalarini yaqin kelajakda ko‘rishga hech shak-shubha yo‘q: “Biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta‘lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya‘ni, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik.

Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma‘naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta‘lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak.

“Oqqan daryo – oqaveradi”, deydi dono xalqimiz. Bugun buyuk ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib, yangi Renessans poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud, deyishga to‘la asoslarimiz bor. Hamma gap ana shu imkoniyatdan qay darajada oqilona foydalana olishimizga bog‘liq” [1].

Yuqorida bildirilgan barcha fikrlar yoshlarimizni hozirgi davr yaratib bergan imkoniyatlardan to‘liq foydalanishlarini, tarixni o‘rganish orqali o‘zini, milliy o‘zligini anglashni uqtirish va turli axborotlar oqimi ko‘paygan hozirgi tahlikali zamonda o‘zbek millati vakili, buyuk ajdodlarning munosib avlodi sifatida baxtli yashashini ta‘minlamoqqa qaratilgan. Zero, Mavlono Jaloliddin Rumiy ta‘kidlaganidek, “Muvafaqqiyat - bir sayohat xolos, maqsad emas. Baxt ketayotgan yo‘lning ustidadir, oxiri emas. Agar u yo‘l so‘nggida bo‘lganida edi, unga yetib borganingda yo‘l tugab bitgan va vaqt ham o‘tgan bo‘lardir. Baxtli bo‘lishning ayni vaqti esa bugundir, ertaga emas”.

#### Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 225-bet.
2. “Jamiyat” gazetasi. 2018-yil 6-aprel.14-son, 5-bet.
3. “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati gazetasi” 2014-yil 16-may 20-son.
3. Sulstonov K. “Amir Temurning siyosiy, huquqiy va ma‘naviy-ma‘rifiy karashlarining milliy uzlikni anglashdagi ahamiyati”.
4. Ismatov Sh. Oliy ta‘lim muassasalari talabalarini tarbiyalashda gurux murabbiysi (tyutori) ning roli. “Pedagogik mahorat” jurnali. 2022-yil. 3-son. 155-bet.
5. Ismatov Sh. Sharq ma‘naviy-ma‘rifiy ta‘limotlari mazmunidagi ma‘naviy-axloqiy tarbiya talqini //Ekonomika i sotsium. – 2022. – №. 4-1 (95). – S. 291-294.
6. “Buxoronoma” gazetasi 2023-yil 25-dekabr. 103-son.
7. Ismatov Sh. U. Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari //Экономика и социум. – 2023. – №. 5-1 (108). – S. 574-578.
8. Ismatov Sh. Oliy ta‘lim muassasalari talabalarini tarbiyalashda guruh murabbiylari (tyutor) ning roli //Pedagogik mahorat. – S. 155.
9. Juraev B. Sharqda pedagogik faoliyatning maydonga kelishi va rivojlanishi //Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari/Aktualnye problemy sotsialno-gumanitarnyx nauk/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. S/2. – S. 343-350.
10. Khodjaev B., Juraev B., Amonov M. Forming the spirituality of students and youth through pilgrimage tourism //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 420. – S. 10017.
11. Olimov Sh. Sh. Ma‘naviy-axloqiy tarbiya asoslari.(Monografiya) //T.:“Fan va texnologiya”, - 2015. – 2015. – T. 228.
12. Гревцева Г.Я., Олимов Ш.Ш. Воспитательные модели, концепции и теории // Учёный XXI века. – 2022. – №. 6 (87). – С. 40-44.
13. Мухаммаджон Куронов. “Болам бахтли бўлсин десангиз”. – Тошкент: Маънавият, 2013.



## XVI-XVII ASRLARDA BUХORO ХОНЛИГИДА ТАЪЛИМ –ТАРБИЯ ВА МАДАНИЯТ РИВОЖИНИНГ ПЕДАГОГИК ОМИЛЛАРИ

*Нусратов Анвар Нематжонович,*

*Бухоро давлат педагогика институти доценти, п.ф.ф.д. (PhD)*

*Ушбу мақолада XVI-XVII асрларда Бухоро хонлигидаги шайбонийлар ҳуқумронлиги даврида илм-фан, санъат, маданият, таълим ва бошқа соҳалардаги ўзига хос, давр руҳини, ўзида мужассам этадиган, қиёсий таҳлиллар келтириб ўтилган. Шунингдек, Бухорони шайбонийлар давлатчилигида пойтахт сифатида қарор топшиши, шаҳарнинг архитектурасида ўзига хос ўзгаришлар, у ерда бир қатор меъморчилик ансамллари туғрисида Жумладан: Модорихон, ва Абдуллахон мадрасалари, Говкушон Мадраса майдонида Хожя Масжид қурилиши меъморчилик санъатининг ижро уйғунлиги туғрисидаги қимматли маълумотларда ўз аксини топган.*

**Калит сўзлар:** *Мовароуннахр, миллий мерос, мадраса, мударрис, тафаккур, маданият, салоҳият, дунёқараши.*

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ, ВОСПИТАНИЯ И КУЛЬТУРЫ В БУХАРСКОМ ХАНСТВЕ В XVI-XVII ВЕКАХ

*В данной статье в период правления Шейбанидов в Бухарском ханстве в XVI-XVII веках представлен уникальный сравнительный анализ науки, искусства, культуры, образования и других областей, воплощающий дух эпохи. Также отражены становление Бухары столицей в период шейбанистской государственности, специфические изменения в архитектуре города, о ряде архитектурных ансамблей в нем, в том числе: медресе Модорихана и Абдуллахана, строительство мечети Ходжа на площади медресе Говкушон, дана ценная информация о гармонии архитектурного искусства.*

**Ключевые слова:** *Мавераннахр, национальное наследие, медресе, преподаватель медресе, мышление, культура, потенциал, мировоззрение.*

### PEDAGOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION, UPBRINGING AND CULTURE IN THE BUKHARA KHANATE IN THE XVI-XVII CENTURIES

*In this article, in the XVI-XVII centuries, during the rule of the Shaybanids in the Bukhara Khanate, the comparative analyzes in science, art, culture, education and other fields, embodying the spirit of the time, are presented. Also, the establishment of Bukhara as the capital during the Shaybanist regime, specific changes in the city's architecture, a number of architectural ensembles there, including: Modorikhan and Abdullakhan madrasas, the construction of the Khoja Mosque on the Govkushon Madrasa square, are reflected in valuable information about the harmony of architectural art.*

**Key words:** *Maverannahr, national heritage, madrasah, madrasah teacher, thinking, culture, potential, worldview.*

**Кириш.** *Ҳар бир миллатнинг миллий мероси ўша миллат томонидан яратилган моддий маънавий ва бошқа барча турдаги меросни қамраб олади. Уларнинг айримлари умумжаҳон характерига эга бўлса, баъзилари шу миллат эътиборидаги мерос саналади. Миллий мерос миллатнинг тафаккури, даҳоси, дунёқараши ва яратувчилик салоҳиятининг маҳсулидир. Миллий мерос миллат тараққиётининг турли тарихий босқичларида вужудга келиб миллатнинг ўзи билан боғлиқ бўлган бойлик ҳисобланади. Шунинг учун ҳам у миллатнинг ўз келажагини яратишда таянч ва тажриба манбаи бўлиб хизмат қилади.*

*Ҳақиқатдан ҳам буюк тарихий-маънавий илдизларга эга бўлган давлатчилигимиз анъаналарини давом эттириш, демократик тамойилларга асосланган давлатни барпо этиш жараёни, жумладан жамият аъзолари ҳисобланмиш ёшларни ҳар томонлама етук, баркамол инсон бўлиб етиштирилишида аждодлар анъанаси ва ўтмиш кадриятлари муҳим восита бўлиб хизмат қилади.*

*Ҳозирги кунда мамлакатимизнинг ижтимоий-иқтисодий-маънавий юксалиши йўлида хизмат қиладиган, обод ва фаровон ҳаёт, жамиятнинг пойдеворини яратадиган, ҳар томонлама етук, соғлом, баркамол авлодни тарбиялаш ҳамда вояга етказиш таълим соҳасидаги ислохотларнинг асосини ташкил этади.*

Президентимиз таъкидлаганлигидек "Кейинги вақтда мен жойларда бўлиб, худудларимиз ҳаёти билан янада яқиндан танишар эканман, шундай бир фикрга ишонч ҳосил қиялманки, биз ҳали юртимизни, унинг ўзига хос тарихи, маданияти, улуғ олиму уламоларини, бебаҳо маънавий меросимизни тўлиқ ўрганганимиз йўқ" [1;].

Инсониятнинг ўз тарихи, ўтмиши, маданияти, маънавияти асослари, илдиларини ўрганиш ва улардан кейинги давр ривожланиш йўналишида фойдаланишга бўлган қизиқиши асосида ўз тараққиётини белгиловчи омиллар юзага келади. XVI асрга келиб хусусан Бухоро хонлигида Маънавиятда хурфикрлик, илм-фанга ҳурмат-эътибор ва унинг кадр-қимматини юксак баҳолаш устунлик қилди. бадий маданият соҳалари темурийлар давридаги бой маданий меросга таянган ҳолда, ярим кўчманчи шайбонийлар турмуш тарзи анъаналари мужассамлигида акс этди.

**Асосий қисм.** Шайбонийлар томонидан илм-фан маърифат, маданият маънавий-сиёсий фаолиятга доир ишлар даврнинг кейинги йиллари Кўчкинчихон, Убайдуллоҳон, Абдуллоҳон II лар томонидан сезиларли даражада ривожлантирилган бўлса, XVI-XVII аср Бухоро хонлигидаги маданий ҳаёт ҳамда илм-фаннинг кейинги ривожини Аштархонийлар сулола вакиллари билан бўлган Имомқулихон, (1611-1642) Абдулазизхон, (1645-1680) Субҳонқулихонлар (1680-1702) томонидан давом эттирилди. Шайбоний ҳукмдорлар томонидан таълимга доир бир неча маротаба ислохотлар ўтказилди. Бунга сабаб ушбу ҳукмдорлар ўша даврдаги кўплаб соҳаларда хусусан, ҳарбий соҳа кишлор хўжалиги, давлат бошқаруви, тиббиёт, солиқ тизими, савдо, архетиктура ҳамда элчилик (ташқи алоқалар) каби қатор соҳаларда давлат хизматчиларининг етишмаслиги, шунингдек, ушбу муаммоларни ҳал этиш ҳамда мамлакатни тараққий эттиришда айнан таълим соҳасини ислох қилиш билан эришилиши мумкинлигини, англашган. Бунинг учун бутун мамлакат бўйлаб кенг қўламдаги бунёдкорлик ишлари амалга оширилиб, мамлакат ва фуқоролар турмушини яхшилаш учун бир қанча иқтисодий ислохотлар ҳам ўтказилган. XVI аср Бухоро хонлигида ижтимоий-сиёсий ҳаёт ва педагогик тафаккур тараққиётини белгиловчи омиллардан бири, бу ўз даврида фаолият юритган тарихий шахслар, олимлар, дин ва тасаввуф вакиллари, шоир ҳамда ёзувчилар ўтган муҳаддис ва мударрислар уларнинг келажак авлодларга қолдирган қўл ёзма асарлари билан белгиланади. Шунингдек миллий педагогикамиз тарихий тараққиёти мазмунини бойитишда хизмат қиладиган, ҳамда бугунги кун ёшлари онгида тарихий тафаккурни шакллантириш воситалари бўлган маданий-маънавий мерос билан ҳам ўлчанади.

Тарихий манбаларнинг қиссий таҳлиллари шуни кўрсатадики, Бухоро хонлигининг деярли барча тарихий давларида бу диёрда илм-фанга, диний ва дунёвий билимлар ривожига, бўлган эътибор муҳим аҳамият касб этганлигини кўришимиз мумкин.

Мовароуннахрнинг маданий маркази бу асрда аста-секин Самарқанд шаҳридан шайбонийларнинг янги маркази Бухорога кўчди. Бу ерга даврнинг алломалари, етук олимлари, шоирлари, мусикачилари, наққош-хаттотлари, меъморлари, рассомлари ва бошқа соҳа билимдонлари тўпланиб, замонасининг илғор ижодий ва илмий салоҳиятини кўрсатиб турди ва бадий маданият ривожига муҳим ҳисса қўшди. Мисол учун аштархонийлар даври муаррихи [2;2-3-б].

Маҳмуд ибн Вали XVII асрда Бухоронинг илм тарқатувчи марказ сифатидаги хизматини шундай баҳолайди: «Олимларнинг кўплигидан, уни олимлар ва илм-фан булоғи деб атайдилар». Бухорога XIX асрда сафар қилган Е.К. Мейендорф эса Бухоронинг ислом оламида тутган ўрнини қуйидагича таърифлаган экан: «Ўзининг кўплаб мактаблари, олимлари ҳамда муқаддас қадамжолари сабабли мусулмонларнинг зиёратгоҳига айланган. Эҳтимол шунинг учун у «шариф» номига сазовор бўлгандир». Рус сайёҳи Н. Ханьков ўз эсдаликларида Бухорони йирик илм-фан ва маърифат, диний билимлар маркази сифатида таърифлаб: «Бухоро илм тарқатувчи марказ ҳисобланган ва ҳисобланади», дейди. Ж.Куните ҳам Бухорони «араб-эрон маданиятининг қалъаси», Марказий Осиёнинг юз йиллик тарихидаги «Ислоннинг юраги», 250 масжид ва мадрасалар маркази дея атаганлиги диққатга сазовордир. Мовароуннахр худудида қадимдан ривож топиб келаётган қурилиш-меъморчилик ишлари янги ҳукмрон сулола кучи ва мавқеини абадийлаштиришга қаратилган маданий ва маиший иншоотларнинг кўплаб барпо этилишида ўз аксини топди. [2;2-3-б]. Жумладан, XVI-XVII асрларда Бухоро хонлиги таълим –тарбияга оид масалаларни ҳамда педагогик таълимотни ўрганиб бир тизимга келтириш илмий-назарий жиҳатдан ўз ечимини қутаётган педагогик муаммо ҳисобланади.

Эътироф этиш жоизки, XVI-XVII асрларда Бухоро хонлигидаги таълим-тарбия масалалари ва педагогик ғоялар муайян даражада ҳозирги давр талаблари билан ҳамоханг бўлиб мазкур меросдан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Бу даврда ишлаб чиқариш соҳаларида бир қатор ривожланиш юз берди. Мисол учун тикувчилик, (пахта, ипак матолар), кулолчилик, темирчилик, қуролсозлик, заргарлик, дурадгорлик, қоғоз таёрлаш, қурилиш ашёлари ишлаб чиқариш каби қатор

соҳалар фаолият кўрсатиб ички ва ташқи бозорга сотиладиган турли маҳсулотлар тайёрланган. Бу маҳсулотлар ипак жун, ип газламалар, пилла, гилам, курук мевалар, ширинликлар, қоракўл ва бошқалар билан савдогарлар Эрон, Ҳиндистон, араб ўлкалари, Хитой, Россия каби ўлкаларга катнаганлар [7;243-б].

Зайниддин Восифий ўзининг “Бадоеул вақоеъ” (“Нодир воқеалар”) номли асарида XVI аср Бухоро хонлигининг Самарқанд ва Бухоро каби шаҳарларида мавжуд хунар турлари ҳамда замонасининг маълум ва машҳур хунармандлари хусусида ҳам тўхталиб ўтади. Унга кўра, Мавлоно Муҳаммад Куфуний обгинагар обгинагарлик (шишасозлик), Устод Хусайн Мисгар мисгарлик, Устод Комол отлиғ чархгарлик, Хожа Мирак Михчагар михчагарлик хунармандлари сифатида номдор эканлигини келтириб ўтади [8;31-б].

XVI-XVII асрлар Шайбонийлар даврида адабиёт, тарих фани, меъморчилик ва тасвирий санъат жуда раванқ топди. Шайбонийлар хукмронлиги даврида илгари қурилган бинолар қайта таъмирланди. Янги мадрасалар, макбаралар, масжидлар, карвонсаройлар янги савдо расталари ва кутубхоналар қурилди. Мисол учун XVI-XVII асрларда Бухоронинг ижтимоий –маънавий ҳаётида бунёд этилган кутубхона ҳамда китоб бозорларнинг ўрни алоҳида бўлган. Чунончи, Хожа Муҳаммад Порсо кутубхонаси темурийлар даврида барпо қилинган бўлса-да, у бир неча аср фаолият юритган. Биз олим Абдусаттор Жуманазар фикрларига кўшиламиз, ҳақиқатдан ҳам у Бухоронинг энг машҳур кутубхонаси бўлишига қарамай, мутахассислар томонидан чуқур ва ҳар томонлама ўрганилмаган [6;119-б].

Шунингдек, ушбу асрларда келиб илм-фанни ривожлантириш мақсадида, кўплаб илм даргоҳлари масжид, мадраса, қорихона ва халилхоналар барпо этилиб, мазкур ўқув масканларининг қурилиши ҳамда уларда тизимли ўқитиш ишларининг олиб борилиши натижаси ўларок, Бухорода маданий ва маънавий ҳаёт яхшиланиб мамлакатда таълим-тарбиянинг ривожланишига асос бўла олди.

Бу илм масканларида китоб миниатюра мактабининг атоқли вакиллари Маҳмуд Музаҳҳиб, Жамолиддин Юсуф, Келди Муҳаммад, Муҳаммад Муассин, Муҳаммад Самарқандий наққош Оға Ризо каби миниатюра мактабининг намояндalари ҳамда Ҳофиз Таниш Бухорий, Ҳасанхожа Нисорий, Мутрибий, Зайниддин Восифий, Абдулваҳҳобхўжа ўғли Пошшоҳўжа каби бир қатор олимлар илм-маърифатнинг етакчи вакиллари сифатида етишиб чиқишди. Шунингдек, XVI-XVII асрларга келиб Бухорода таълим муассасалари бўлмиш масчит,мактаб, мадрасаларда диний билимлар билан бирга дунёвий илмлар ҳам ўргатилди.

Ушбу масканларда илм олувчи қалбида илм-фанга,маърифат ва маданиятга хохиш ва интилиш кучли бўлишини тарбиялашга этибор қаратилди. Бу таълим масканларида Темурийлар даврида йўлга қўйилган таълим–тарбия ишларидаги умумий қолиб деярли сақланганлигини кўришимиз мумкин. Ёш истеъдодли олим Комилжон Раҳимовнинг ёзишича Бухорода Хожагон Нақшбандия тариқатига асосланган таълим-тарбиянинг умумий ва муҳим усуллари ҳам қўлланилган. Ўша даврнинг вақф хужжатларига асосан мадрасада уч гуруҳ: куйи, ўрта ва юқори гуруҳ толиби илмлар бўлиб, нафақа ва озиқ-овқат шу гуруҳларга қараб белгиланарди. Ҳар бир гуруҳда ўқиш муддати 8 йилдан, жами таълим 24 йиллик ҳисобланарди. Мадраса толиблари Мадраса хужраларида истикомат қилган, дарсларга қатнашиш мажбурий бўлиб, тартибни бўзган толиби илмлар ўз вақтида огоҳлантирилиб, жазоланган. Умуман олиб қараганда XVI-XVII асрларда Бухоро хонлигида шайбонийлар хукмронлиги даврида илм-фан, санъат, маданият, таълим ва бошқа соҳаларда ўзига хос, давр руҳини ўзида мужжасам этадиган, халқимизнинг ижтимоий-маънавий ҳаёти ривожиди катта ўрин тутган ўзгаришлар содир бўлди. Бу эса ўз-ўзидан илмий педагогик фикрларни тараққиётга таъсирини кўрсатди.

**Хулоса.** Бир қатор адабиётлар таҳлиллари асосида шундай хулоса қилиш мумкинки, Бухоро хонлигидаги мактабларда таълим жараёни ҳамда ўқитиш тизими ва унинг хусусиятлари Темурийлардан мерос бўлиб ўтган баъзи анъаналарнинг такрорланиб ва уларнинг янги педагогик тажрибалар билан уйғунлаштирилганлиги кўзга ташланади. Демак, юртимизда қадимдан ўқувчи – ёшларга таълим-тарбия бериш йўналишларига доир бой, педагогик тажрибалар мавжуд бўлган. Дунё ҳамжамияти томонидан замонавий таълим концепцияси сифатида қўлланилаётган таълим парадигмаларини бундан бир неча аср аввал бизнинг юртимизда мавжуд бўлганлиги ҳамда бошланганлигини, ота-боболаримизнинг ушбу соҳаларда қўллаган бир қатор юқоридаги таълим моделлари бунга мисол бўла олади.

**Адабиётлар:**

1. Ш.Мирзиёев 2018 й 15 июнь куни бўлиб ўтган "Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби" мавзусидаги видеоселектор йиғилишидаги нутқи.
2. Асророва Л.Қ. Бухоро мадрасалари тарихидан Nilol-nashriyoti. Тошкент 2016.-2-3 б.
3. Хасанхожа Нисорий. Музакир ал-ахбоб (Дўстлар ёдномаси) / Форс тилидан Исмоил Бекжон тарж. – Т.: А.Кодирий номидаги халқ мероси нашриети, 1993.
4. Қазоқов Б. Бухоро эски мадрасаларида таълим ва тарбия // Бухорои шариф, 2006. 28 июнь.
5. Рахимов Комилжон. Хожагон-нақшбандия тариқати ва етти пир./ К.Рахимов.- Т.:”Ozbekiston” НМИУ.2020. 4-жадвал. 148-бет.
6. Абдуллонома. Том-1. С. Мирзаев.тарж. – Т.: Шарқ, 1999.
7. Абдусаттор Жуманазар Бухоро таълим тизими тарихи. – Т.: Akademnashr, 2017,592 Б.119-бет.
8. Тарихи асори атика-Б. 243.
9. Зайниддин Махмуд Восифий Бадоеъул вақоеъ форсийдан Наим Норкулов тарж. – Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат,1979. – 206 б.

**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI  
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

**“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!**


1. “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
  - ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
  - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
  - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarining to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

**Manzil:** O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

**Web site:** www.buxdu.uz

**E-mail:** nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**Telegram raqami:** +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzirimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017094100350005

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

<p><b>PEDAGOGIK MAHORAT</b></p> <p><b>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</b></p> <p><b>2024-yil 5-son (104)</b></p> <p><b>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</b></p> <p><b>OBUNA INDEKSI: 3070</b></p>	<p><b>Buxoro davlat universiteti nashri</b></p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p><b>Nashr uchun mas’ul:</b> <b>Nigora SAYFULLAYEVA</b> <b>Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA</b> <b>Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA</b></p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 30.05.2024 Bosmaxonaga topshirish vaqti 31.05.2024 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 21 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Q. Murtazoyev ko‘chasi 344-uy.</p>
--	--	--